

A.N.XOLIQULOV, D.Q.USMANOVA,  
X.A.RAXIMOV



# KORXONALARНИ RAQOBATBARDOSHЛИGINI BAHOLASH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOTI VA SERVIS INSTITUTI**

**A.N.XOLIQULOV, D.Q.USMANOVA, X.A.RAXIMOV**

**KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI  
BAHOLASH**

***O'QUV QO'LLANMA***

Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti Kengashi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

**"TURON NASHR"  
SAMARQAND - 2021**

**UO'K:339.137.2(075)**

**KBK: 65.291ya7**

**X-72**

Korxonalar raqobatbardoshligini baholash: O'quv qo'llanma A.N.Xoliqulov, D.Q.Usmanova, X.A.Raximov. – Samarqand: “TURON NASHR” 2021. – 208 bet.

**Taqrizchilar:** N.U. Arabov – SamDU professori, i.f.d.

**S.N.Tashnazarov** – SamISI professori v.b., i.f.d

O'quv-uslubiy qo'llanmada raqobat, raqobatbardoshlikning konseptual asoslari va raqobatbardoshlikni oshirish shartlari, omillari, O'zbekistonda raqobatbardoshlikning institutsional asoslari, uni rivojlantirishning asosiy bosqichlari, korxonalar raqobatbardoshlikni oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, Korxona raqobatbardoshligi modellari kabi masalalar o'r ganilgan. O'quv qo'llanma materiallaridan "Monopoliyaga qarshi boshqarish", "Xorijiy mamlakatlarning monopoliyaga qarshi siyosati", "Strategik rejalahtirish" va boshqa fanlarni o'r ganishda foydalanish mumkin.

*70310107 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida shuningdek, iqtisodiyot, menejment va marketing sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarga qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.*

**ISBN 978-9943-7610-1-8**

**UO'K:339.137.2(075)**

**KBK: 65.291ya7**

© A.Xoliqulov, D.Usmanova, X.Raximov  
© «TURON NASHR» nashriyoti, 2021

## KIRISH

Iqtisodiyot raqobatbardoshligi barcha bo'g'irlari (makrodarajada) bir-biri bilan bog'liq. Ulardan birining rivojlanmaganligi boshqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, innovatsion salohiyatni yuqori texnologiyalarni foydalanishga moslashtiruvchi yaxshi rivojlanmagan oliy ta'lif tizimisiz hamda ishlanma va tadqiqotlarni moliyalashtiruvchi samarali amal qiluvchi moliya tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Adolatli raqobat shart-sharoitlarining mavjud emasligi va rivojlanmagan tovarlar bozori innovatsion mahsulotga bo'lgan barqaror talabni va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga rag'batlarni ta'minlamaydi hamda milliy innovatsion tizimlar va infratuzilmalar, ilmiy-texnik ishlanmalarning tijoratlashmaganligi ularni pirovard iste'molchiga etib borishiga imkon bermaydi. O'zbekiston sanoatining rivojlanish xususiyati sanoat tarmoqlarining qayta ishslash sohalarida fond qaytimi va mehnat unumdorligining jadal o'sish tendensiyasiga erishganligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonning «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» deb nomlangan ilovasida 3.2-bandi «Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish» deb nomlanib, unda «iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko'rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o'zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash» vazifalari belgilab berilgan. Iqtisodiyotni rivojlanirish va liberalallashtirishning asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuquqlashtirish yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan

texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'li to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liqdir. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, ularning natijalari atroflicha muhokama qilinmoqda. Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish masalasini hal etish bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi 4400 dan ortiq korxonaning rentabellik darajasini oshirish va moliviyyi sog'lomlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish asosida ishchilar sonini ko'paytirishga erishish rejallashtirilgan. Bu tadbirlar natijasida korxonalarning rentabellik darajasi oshadi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish va ishchilar sonini ko'paytirishga erishiladi. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash orqali hududni, mamlakatni rivojlantirish strategiyasi, innovatsion va investitsion salohiyatini aniqlash, istiqbolli rejalarни tuzish imkonini beradi. Shu bois ushbu holatlar alohida fan sifatida 5A230108- Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish magistratura yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan va shu fan bo'yicha mazkur o'quv qo'llanma tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada korxona raqobatbardoshligi, uni aniqlash uslublari, unga ta'sir etadigan omillar va tahlil qilish haqidagi nazariy ma'lumot mavjud.

O'quv qo'llanma asosan 5A230108 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish, magistratura yo'nalishi tahsil olayotgan magistrantlar va bakalavlar uchun mo'ljallangan va shu bilan har bir kishi uchun foydali bo'lishi mumkin.

## **1 BOB. “KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH” FANINING NAZARIY ASOSLARI**

- 1.1. “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo’nalishlari
- 1.2. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va shakllanishining asosiy tamoyillari
- 1.3. Raqobat nazariyalari
- 1.4. Raqobatning asosiy vazifalari, turlari va usullari
- 1.5. Raqobat strategiyasi va raqobat bosqichlari

### **1.1. “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo’nalishlari**

O’zbekiston o’z mustaqilligining dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’ziga xos yo’lini tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida, Mustaqil Davlatlar Hamdo’sligidagi boshqa ko’plab mamlakatlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlarini haddan ziyod oshib ketishiga yo’l qo’ymaslikka erishdi. 1991-1995 yillarda O’zbekistonda yalpi ichki mahsulotning pasayishi, MDH davlatlari o’rtasida eng kam ko’rsatkichni – 18,8 foizni tashkil etdi. Holbuki, bu raqam Rossiyada – 53 foiz, Ukrainada – 52 foiz, Belarusda – 54,6 foiz, Qozog’istonda esa 75,4 foizga teng bo’ldi.

O’zbekiston iqtisodiyoti 2000-2003 yillar davomida yiliga 3,8–4,2 foiz o’sish darajasida o’rtacha sur’atlar bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004 yildan e’tiboran yiliga 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o’sish sur’atlarini namoyish qila boshladi.

2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishlari bo’yicha Harakatlar Strategiyasi qabul qilingan o’rta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsiyonal o’zgartirishlarni chuqurlashtirish

hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan murakkab vaziyat va dunyo bozorlarida yuzaga kelgan noqulay kon'yunkturaga qaramasdan, mamlakatimiz iqtisodiyoti so'nggi yillarda ham yuqori sur'atlarda o'sishda davom etdi.

Xususan, 2015 yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real o'sishi 2014 yilga nisbatan 8 foizni, 2016 yil yakuni 2015 yilga nisbatan 7,8 foizni, 2017 yil 5,3 va 2018 yilda esa 2017 yilga nisbatan 5,1 foizni tashkil etdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 407514,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1 foizga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2017 yildagi narxlarga nisbatan 128,1 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mineral xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o'z vaqtida amalga oshirish belgilanmoqda<sup>2</sup>.

Xususan, 2017 yilda umumiy qiymati 1,0 mlrd dollarga teng 145 ta ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish, jumladan mevasabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishslash sohasida qiymati 147,0 mln.dollarga teng 63 ta loyiha; rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishslash bo'yicha qiymati 217 mln.dollarga teng 6 ta loyiha, kimiyoziy ashyolarini chuqur qayta ishslash bo'yicha 25,0 mln. dollarlik 2 ta loyiha, uglevodorod xom ashyolarini qayta ishslashni chuqurlashtirish bo'yicha 342 mln.dollarlik 6 ta loyiha, tayyor charm poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 mln.dollarlik 9 ta loyiha, farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 mln. dollar qiymatga teng 7 ta loyiha, qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'yicha 151 mln.dollarlik 29 ta loyiha, tayyor to'qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 mln.dollarlik 15 loyihani amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

<sup>1</sup> Statistika qo'mitasining 2000-2018 yillardagi yillik statistic to'plamlari

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida hududlarni kompleks va muvozanatlì ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish yo'nalishi muhim o'rın tutadi. Bunda:

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan Nurota, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Qiziriq, Muzrabot, Boyovut, Sardoba tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Toshkent shahrining Yashnobod va Olmazor tumanlarida kichik biznesning innovatsion texnoparklarini tashkil etish;

Kichik sanoat zonalarini tashkil etish;

Ihsizlik darajasi yuqori hududlarda yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish:

Mazkur loyihalarning to'lig'icha va izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi ko'tariladi, hududning salohiyati ortadi.

Mazkur loyihalarning to'lig'icha va izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi ko'tariladi, hududning salohiyati ortadi.


## **1.2. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va shakllanishining asosiy tamoyillari**

Raqobat – iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lislmini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi.

Raqobat tushunchasi shu qadar serqirraki, uni qandaydir yagona umumiyligi ta'rif bilan qamrab olish mumkin emas. «Raqobat» tushunchasini aniqlashtirishning ba'zi bir nuqtai nazarlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqobat tushunchasi turli izohli lug'at va ma'lumotnomalarda turlicha ta'riflanadi. Jumladan, «Yazýk biznesa» nomli lug'atda: «Raqobat (lotincha concurrere – to'qnashuv; inglizcha competition, rivalry) – bozorda ishtiroy etayotgan korxonalar o'rtasidagi o'z mahsulotlarini sotishning eng qulay imkoniyatlarini

ta'minlash, xaridolarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa va kurash iqtisodiy jarayonidir.

### Raqobatning mohiyatini belgilab beruvchi asosiy jihatlar



**Rasm 1.1. Raqobatning mohiyatini belgilab beruvchi asosiy jihatlar**

Raqobat va monopoliya dialektik birlikni tashkil etib, doimo bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar», deb ifodalangan. Bundan ko'rindiki, raqobatni nafaqat kurash, balki o'zaro ta'sir va aloqa jarayoni sifatida ham talqin etilgan. Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'lgan.

Har bir bozor o'zining xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramay, raqobatning mohiyati uning tabiatini va intensivligini ochib berish va baholash imkonini beruvchi yagona konsepsiya orqali ifodalanishi mumkin.

### **1.3. Raqobat nazariyaları**

Raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruvin mehnatlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'lgan. Bunda klassik siyosiy iqtisod vakillari sanalgan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir. Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler va boshqalarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi. Raqobat mohiyatiga to'xtalar ekanmiz, uni asosan uch xil yondashuvga bo'lish mumkin. Jumladan, xulq-atvor yondashuvi, strukturali yondashuv va funksional yondashuv.

Raqobatning xulq-atvor yondashuviga A.Smitning qarashlarini kiritish mumkin. U raqobatni bozor sub'ektlari o'rtasida tovarlar xarid qilish va sotish borasida qulayroq sharoitlar uchun olib boriladigan, to'g'ri, halol, til biriktrishlarsiz kurash, musobaqa bilan bog'lagan. U raqobat kurashining asosiy usuli deb narx o'zgarishlarini bilgan. Bunda u jamoa irodasi (ixtiyori) bilan boshqarilmaydigan, umumiyoq mo'ljalarga ega bo'lmagan bozorda qat'iy xulq-atvor qoidalariga amal qilishini qayd etgan. Demak, raqobat – bozor qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi aynan o'sha «ko'rinas qo'l»dir.

F.Perru raqobatni doimiy tahdidli harakat sifatida tushuntiradi. Inson o'z manfaatini ko'zlab qimmatroq sotib, arzon xarid qilishga intiladi. Shuning uchun raqobat bilan doimiy to'qnashishga to'g'ri keladi.

Strukturali yondashuvda asosiy e'tibor raqobatchilarining o'zaro kurashidan bozor strukturasi, unda hukmronlik qiluvchi shart-sharoitlar tahliliga ko'chib o'tadi. Masalan, K.R. Makkonnell va S.L. Bryuning asarlarida aytib o'tilishicha, raqobat bozorda ko'p sonli mustaqil xaridor va sotuvchilar mayjudligi, xaridor va sotuvchilar uchun bozorga erkin kirish va undan chiqish imkoniyatidir.

Raqobat mohiyatini aniqlashga uchinchi yondashuvni funksional yondashuv sifatida tavsiflash mumkin. U raqobatning iqtisodiyotda o'ynaydigan rolini ko'rib chiqadi. Xususan, Y.Shumpeter iqtisodiy rivojlaniш nazariyasi doirasida raqobatni eskilikning yangilik bilan raqiblik kurashi sifatida ta'riflagan. Yangiliklar kiritish bozor tomonidan shubha bilan qabul qilinadi, biroq agar novator ularni amalga oshirishning

uddasidan chiqsa, raqobat mexanizmi eskirgan texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalarini bozordan siqib chiqaradi.

Bugungi kunda raqobat tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G'afurovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida raqobatga berilgan ta'rifda asosan ikki jihat: 1) uning iqtisodiy manfaatlari to'qnashuvidan iborat ekanligi; 2) yuqori foya va naflikka ega bo'lish uchun kurash ilgari suriladi, ya'ni: **raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'tasidagi yuqori foya va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi**. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'tasida sarflangan xaratjatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foya olish uchun kurash boradi. Mana shu foya orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi<sup>3</sup>

#### **1.4. Raqobatning asosiy vazifalari, turlari va usullari**

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

##### ***Raqobatning vazifalari:***

1. Tartibga solish vazifasi
2. Resurslarni joylashtirish vazifasi
3. Innovatsion vazifa
4. Moslashtirish vazifasi
5. Taqsimlash vazifasi
6. Nazorat qilish vazifasi

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarni ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foya olish uchun bir tarmoq korxonalarini o'tasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarning texnika bilan ta'minlanish va mehnat unumdarligi darajalari turlicha bo'lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

<sup>3</sup> Xodiiev B.Y., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Barkamol Fayz media», 2017, 159-b.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqtி-vaqtி bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yo'llashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi. Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniadi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'mniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqeい o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

## **1.5. Raqobat strategiyasi va raqobat bosqichlari**

Bozor iqtisodiyotining ilk belgilari paydo bo'lishi bilan unga xos raqobat ham yuzaga keladi. Iqtisodiyot rivojiga mos holda raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib boradi. Bozor raqobati tarixan 4 bosqichdan o'tadi.

Birinchi bosqich – bu natural xo'jalikdan bozor iqtisodiyotining dastlabki shakllariga o'tish bo'lib, bu davrda raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtaida boradi. Bu bosqichda raqobat mahalliy bozorlar doirasida, u bir turdag'i tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtaida bo'ladi. Raqobatda g'olib chiqish vositasi tajriba to'plab, mehnat mahoratini oshirish hisoblanadi.

Ikkinci bosqich – bu kapitalistik erkin raqobat bosqichidir. Bu bosqich tovar xo'jaligining ommaviy tus olishi bilan, mayda tovar ishlab chiqarish o'rniiga yirik mashinalar tizimiga va yo'llangan mehnatga tayangan tovar ishlab chiqarishning kelishi bilan harakterlanadi. Raqobatni cheklashlar bo'lmaydi, u erkin kurashga aylanadi, bu kurash mahalliy bozorlar doirasidan chiqib, milliy bozor miqyosida yuz beradi. Raqobat shiddatli boradi, uning ishtirokchilari ko'pchilikdan iborat bo'ladi. Raqobatda g'olib chiqishning sharti yangi texnikani joriy etib, mehnat unumdorligini o'stirish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish bo'ladi.

Uchinchi bosqich – bu monopol raqobat bosqichi bo'lib, u yakka hokimlikka intiluvchi yirik korxonalarining kurashidir. Raqobat iqtisodni monopollashgan va monopollashmagan sohalarida alohida boradi, ammo bu sohalar o'rtaida ham kurash ketadi. Raqobatda yengib chiqish shartlari ikkinchi bosqichdagidek bo'ladi, ammo o'zaro kurashda bozorni egallab olish, siyosiy hokimiyatdan foydalanish kabilar keng qo'llanadi. Bu bosqichda monopol raqobat yetakchi bo'lsa-da, erkin raqobat yo'qolib ketmaydi, u ikkinchi qatorga suriladi. Iqtisodiyotda monopol raqobat sohasi va erkin raqobat sohalariga ajralish bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – yangicha erkin raqobat bosqichi bo'lib, u aralash iqtisodiyotga xosdir. Bu bosqichda raqobatchilar g'oyat ko'pchilik bo'lib, ular yirik korporatsiyalar, o'rtacha, mayda va o'ta mayda korxonalardan iborat bo'ladi. Raqobat doirasasi kengayib, u ishlab chiqarishdan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida ham faollashadi, u moliya bozoriga shiddat bilan kirib boradi, hatto sayohat biznesi, shou (tomosha) biznes, sport biznesi, harbiy biznes kabilarni ham o'z domiga tortadi. Raqobatlashuv baynalmilallahib, xalqaro bozor doirasida ham yuz beradi. Eng yangi texnika-texnologiyani qo'llash, boshqarishni

kompyuterlashtirish, tovar tarkibini zudlik bilan yangilash, eng malakali ish kuchiga ega bo'lish, informatsiyadan foydalanish va nihoyat zamonaviy marketing xizmatini uyuştirish raqobatda yengib chiqish shartiga aylanadi.

### ***Kalit so'z va iboralar***

Fanning maqsadi va vazifasi. Raqobat. Raqobat nazariyalari. Monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari. Demping narxlari. Narxsiz raqobat. Servis xizmati. Raqobat strategiyasi. Raqobat bosqichlari. Erkin raqobat. Monopol raqobat. Boshqarishni kompyuterlashtirish. Zamonaviy marketing xizmati.

## **Topshiriqlar**

### ***1. Vaziyatli masala***

Dasturiy boshqaruvga asoslangan stanoklar ishlab chiqarish uchun firma prezidenti marketing tadqiqotlari guruhiga ilgari ishlab chiqarilgan mahsulotni takomillashtirish va bunda uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutishga buyurtma berdi. Topshiriq olgach, tadqiqotlar bo'limi rahbari xodimlar oldiga quyidagi vazifalarни qo'yди:

1. Guruhini boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish va turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotchilar guruhlari tuzish.
2. Ushbu sohadagi eng malakali mutaxassislardan tashabbuskor guruh tuzish hamda bo'lim faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilab olish.
3. Tadqiqotlarning eng ilg'or usullari va ishni bajarish bosqichlarini aniqlash:
  - yuzaga kelgan vaziyatni o'rganish, mamlakat ichida va xorijda kerakli klassdagi stanoklar tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar to'plash. Patent loyihamarini ishlab chiqish;
  - tadqiqotlarning ketma-ketlikdagi rejasini tasdiqlash;
  - yangi stanok modelini ishlab chiqish, uni tanqidiy muhokama qilish hamda bu modelning ilg'orligi va raqobatbardoshligi haqida yakuniy qaror chiqarish.

### ***2. Vaziyatli masala***

Samarali va normal ish faoliyatini tashkil qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun xodimlar bo'limi rahbari firma prezidentidan korxonani malakali marketing tadqiqotchi xodimlar bilan ta'minlash vazifasini oldi.

Yangi xodimlar bo'limi funksiyalari boshqa an'anaviy faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar bo'limi funksiyalaridan farq qilishini hisobga olib, prezident belgilangan vazifalarни aniq qilib qo'ydi:

1. Xodimlar bo'limi boshqaruv tuzilmasini tasdiqlash va marketing tadqiqotlari funksiyalarini ishlab chiqish.
2. Xodimlarni tanlash va joylashtirish tamoyillarini, xodimlar malakasini oshirish tizimini, korxonani marketing tadqiqotlari uchun zarur kadrlar bilan ta'minlash tizimini ishlab chiqish.
3. Buning uchun quyidagilarni aniqlash:
  - kadrlarga bo'lgan talab;
  - kasb tayyorgarligi darajasi;
  - mehnatga haq to'lash darajasi.
4. Korxona jamoasida ma'nnaviy-psixologik muhitni shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish.
5. Korxona marketing tadqiqotlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaratish.
6. Amal qilayotgan ish bilan ta'minlash tizimiga baho berish hamda korxonani marketing tadqiqotlari xizmatchilari bilan ta'minlashning ichki va tashqi manbalarini aniqlash.

Prezidentdan topshiriqni olgach, xodimlar bo'limi rahbari bir qator vazifalarini bevosita funksional bo'linmalarga topshirdi. Bunda u kiritiluvchi takliflar muhokama uchun xodimlar bo'limi Kengashiga kiritilish lozimligini aytib o'tdi.

#### *Test savollar*

1. Monopoliya atamasi qaysi tildan olingan?
  - A) nemis tilidan
  - B) grek tilidan\*
  - C) fransuz tilidan
  - D) rus tilidan
2. Monopoliya atamasining ma'nosи nimani anglatadi?
  - A) monos-bir nechta, poleo-olaman
  - B) monos-qancha, poleo-qabul qilaman
  - C) monos-yagona poleo-sotaman\*
  - D) monos-yagona poleo-xarid qilaman
3. Monopoliya ishlab chiqarish hajmi va narx ustidan nazorat o'rnatish imkoniga egami?
  - A) ha ega\*
  - B) qisman ega

S) to'g'ri javob yo'q

D) ega emas

4. Oligopoliya qaysi tildan olingan?

A) nemis

B) fors

S) grek\*

D) lotin

5. Oligopoliyani tarjimasi qanday ma'noni anglatadi?

A) oligos-ozchilik, poleo-sotaman\*

B) oligos-ozchilik, poleo-xarid qilaman

S) oligos-ko'pchilik, poleo-sotaman

D) oligos-ozchilik, poleo-chayqayman

6. Ozchilik yirik ishlab chiqaruvchilarning hukmronligi-bu.....

A) Duopoloiya

B) Monopoliya

S) Oligopoliya\*

D) Unday hukmron mavjud emas

7. Muayyan tovarning yagona xaridori monopoliyasi mavjud bo'lgan bozor tuzilmasi turi bu...

A) Monopsoniya\*

B) Oligopsoniya

S) Duopoliya

D) Oligapoliya

8. Muayyan tovarning bir guruh xaridorlari mavjud bo'lgan bozor tuzilmasi turi bu...

A) Oligopoliya

B) Oligopsoniya\*

S) Duopoliya

D) Monopsoniya

## **II BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHЛИGINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARI**

2.1. Korxona ochiq ishlab chiqarish tizimi sifatida va raqobatning sabablari

2.2. Korxonalarining raqobatdoshligini talqin qilishning mavjud yondashuvlar tahlili

2.3. Korxona raqobatdoshligining iqtisodiy mohiyati

2.1. Korxona ochiq ishlab chiqarish tizimi sifatida va raqobatning sabablari

Korxonaning raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyatini o'rganish uning paydo bo'lish sabablarini aniqlashni talab qiladi. Bu o'z navbatida quyidagi savollarga javob olishni taqozo etayotganini aniqladik:

- raqobatbardoshlikni namoyon etuvchi korxona nima va nima uchun uni tashqi muhitdan mantiqiy ajratish mumkin?
- Korxonaning qaysi sifat xususiyatlari uning tashqi muhitining mavjudligini va uning ishlashini belgilaydi?
- korxonalar o'rtasida raqobat paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?

Tadqiqot korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatini tushuntirishda ikkita asosiy yondashuv mavjudligini aniqlashga imkon berdi:

- tizim yaxlitligini korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatining asosiy sababi deb hisoblaydigan tizim nazariyasi;
- uning "cheagaralari" mavjudligini korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatining asosiy sababi deb hisoblaydigan tashkilot nazariyasi.

Tizimlari o'rtasidagi aloqalarning zichligi va intensivligi orqali ifodalangan korxona yaxlitligi uni tashqi muhitdan ajratishga imkon beradi. Ammo korxonaning yaxlitligini belgilovchi omillar – bu texnologiyaning moddiy, energetik va axborot o'zgarishlarini amalga oshirish usuli va shunga mos ravishda ushbu transformatsiyalarning ma'lum bosqichlarini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan korxona quyi tizimlarini birlashtirish usuli sifatida birligi hisoblanadi.

Maqsadlariga erishish uchun har qanday korxonaning alohida qismlari ishlaydi, ixtisoslashgan bo'linmalar vazifasini bajaradi va shuning uchun ular bir-biriga bog'liqdir. Umumi texnologiya yordamida korxona quyi tizimlarini bir-butunga birlashtirish ularning eng muhim

xususiyatiga asoslanadi, chunki ushbu quyi tizimlarning ishlashi bitta yakuniy mahsulotni birgalikda ishlab chiqarishdir. Yagona yakuniy mahsulotni yaratishda korxona qismlarining majburiy ishtirok etishi korxona va ularning turli xil uyushmalari (sanoat, klaster va boshqalar) tushunchalarini ajratishga imkon beradi va natijada ularning raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyati:

1. Tizim, agar u iste'mol qilinib, ma'lum bir ijtimoiy ehtiyojini qondirishga imkon beradigan mahsulotni mustaqil ravishda ishlab chiqarishga qodir bo'lsa, uni korxona deb hisoblash kerak.

2. Yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasining birligi, uning quyi tizimlarini birlashtirish usuli sifatida tizimning eng muhim omili hisoblanadi.

3. Ularning hech bo'lmaganda bittasi ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishga qodir bo'lgan tizimlarning to'plami, ularning xususiyatlari 1-bandda ko'rsatilgan bo'lib, faqat quyidagi hollarda korxonaga tegishli bo'lishi mumkin:

— agar ushbu tizimlarning birgalikda ishlashi belgilangan tizim tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlardan farqli bo’lgan yana bir yakuniy mahsulot yaratma olsa;

– ularning tashqi muhit bilan alohida munosabatlariga qaraganda ko'rildigan to'plamdag'i tizimlar o'zari aloqasi intensivroq.

4. Tizimni korxona deb tasniflashning zaruriy sharti sifatida o'z resurslariga ega bo'lish zarur.

b) Tashkilot nazariyasiga muvofiq korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatlari:

— Tashkilot nazariyasiga muvofiq korxona nisbatan aniq chegaralari bo’lgan jamoa sifatida qaraladi;

– nizomda normativ bilan belgilangan tartib;


– hokimiyat ierarxiyasi; aloqa tizimlari va uning a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirish;

– erishish natijalari tashkilot a'zolari uchun, tashkilotning o'zi va jamiyat uchun muhimdir.

Korxonaning bunday tushunchasi byurokratiya va hokimiyatni o'rganish bilan mashhur bo'lgan M.Veberning ishlari bilan bog'lash mumkin. M.Veber tashkilotlarning umumlashtirilgan ta'rifini berdi, unda u birinchi bo'lib "ijtimoiy guruhlarning" boshqa shakllaridan "korporativ guruh" (ya'ni korxona)ni ajratib ko'rsatdi.

Shunday qilib, tashkilot namoyisiga hujum qilingan korxonaning yuqoridagi ta’rifsi quyidagi shartlarning barchasi qiziqarli bo’ldi:

## **Bvurokratik menejment asoslari**



**Rasm 1.2. Maks Veber nazariyasi**

– korxona iqtisodiyotning mehnat resurslarining bir qismini o’z ichiga oladi va boshqasini istisno qiladi, ya’ni uning chegaralari mavjud. Chegaralar g’oyasi korxonadan tashqarida yana bir narsa – uni o’rab turgan tashqi muhit mavjudligini taxmin qiladi. Tashkilotning zamonaviy nazariyalari atrof-muhitga alohida e’tibor beradi. Tashqi muhit tadqiqotlarning asosiy yo’nalishi hisoblanadi, chunki u raqobatchilarni, tartibga soluvchilarni va korxonalar uchun bosim va imkoniyatlarning boshqa manbalarini, shuningdek resurslar manbai va ularning faoliyatini natijalarini qabul qiluvchini o’z ichiga oladi;

– yuqoridagi chegaralarning mavjudligi jamoadagi ijtimoiy aloqalar bilan belgilanadi, ya’ni shaxslar korxona ichida o’zgacha munosabatda bo’lishadi. Ushbu aloqalar yopiq yoki cheklangan xarakterga ega, chunki shaxslarning o’zaro ta’sirini qurish ushbu funktsiyani bajarish uchun maxsus tayinlangan aniq shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan nizom shaklida korxonaning o’zi tomonidan belgilanadi;

– korxonalar doimiy ravishda aniq maqsadli faoliyatni amalga oshiradilar, o’zlarining a’zolari hayotidan yuqori bo’lib, “maqsadli

faoliyat” vazifasini qo’yadilar. Ushbu holat korxonaning maqsadga muvofiq xatti-harakatini belgilaydi.

Turli xil shaxslarni bitta tashkilotga birlashtirish imkoniyati quyidagi sabablarga ko’ra belgilanadi:

1. Tashkilot ijtimoiy tizim bo’lib, uning tarkibiy qismlari maqsadga muvofiq ijtimoiy elementlardir.

2. Ijtimoiy maqsadga muvofiq elementlar ob’ektiv ravishda ma’lum bir sharoitlarda yuqori darajadagi ierarxiya tizimining maqsadlariga erishishda sherik bo’lish istagiga xosdir.

3. Umumiy maqsadlarga erishish jarayonida ijtimoiy maqsadga muvofiq elementlar o’zaro munosabatlarning muayyan shakllariga kirishadilar.

4. Tashkilot a’zosining funktional darajasi uni ishlata digan tizim sifatida har doim tashkilotning tegishli darajasidan past bo’lib, uni ta’minlaydi, tashkilot a’zolarining xatti-harakatlarining xilma-xilligini cheklash bo’yicha qasddan qilingan harakatlar bilan.

5. Tashkilotning faoliyati unga nisbatan uning a’zolari maqsad (lar)ga erishish uchun vosita sifatida harakatiga asoslanadi, shuning uchun tashkilot o’zlarining funktional xilma-xilligini ular o’rtasida tegishli funktional rollarni taqsimlash bilan cheklanadi.

Korxona tashqi muhit bilan ta’sir o’tkazish orqali o’z maqsadlariga erishadigan ochiq tizim. Ammo nima uchun bu o’zaro ta’sir raqobat shaklida sodir bo’ladi?

Raqobat paydo bo’lishining tashqi sabablari quyidagilardan iborat:

- shaxslar va ularning ijtimoiy guruuhlarining ko’pligidan kelib chiqadigan ko’plab korxonalarining mayjudligi;
- ko’plab korxonalarining o’xhash missiyalarni tanlash imkoniyatlari (o’z maqsadlariga erishishning umumiyl usuli), ya’ni tashqi muhitdagi o’xhash global mavqeい;
- tashqi muhitda mavjud bo’lgan resurslarning cheklanganligi sababli korxonalar faoliyatining maqsadlariga erishish uchun cheklangan imkoniyatlar;
- buning uchun cheklangan imkoniyatlar sharoitida jamiyatning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun ob’ektiv intilishi.

## **2.2 Korxonalarning raqobatdoshligini talqin qilishning mavjud yondashuvlar tahlili**

Korxonaning raqobatbardoshligini talqin qilishda mavjud yondashuvlarni tahlil qilishdan maqsad uning quyidagi asosiy jihatlarining mohiyatini ochib berishdan iborat:

- korxonada "raqobatdoshlik" toifasi bilan ifodalangan qobiliyatning, sifatning paydo bo'lishining sabablari qanday;
- korxonaning raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi omillar qanday;
- korxona raqobatbardoshligining maqsadli yo'nalishi nima yoki nima uchun u raqobatbardosh bo'lishi kerak;

*Korxonaning raqobatbardoshligini keltirib chiqaradigan sabablarni va uning darajasi omillarini talqin qilishda mavjud yondashuvlarni tahlili.*

Korxonaning raqobatbardoshligini keltirib chiqaradigan sabablarni talqin qilish bo'yicha mavjud yondashuvlarni o'rganishimiz ularning ikkita asosiy guruhini ajratib olishga imkon beradi:

- birinchi guruh yondashuvlari quyidagilarga asoslanadi: korxona raqobatdoshligining paydo bo'lishi ichki xususiyatga ega va dastlab korxonaning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siridan mustaqil ravishda unga xosdir. Binobarin, raqobatbardoshlik - bu korxonaning sifat xarakteristikasi (qobiliyati), ya'ni unga xosdir.
- yondashuvlarning ikkinchi guruhi quyidagilarga asoslanadi: raqobatbardoshlikning paydo bo'lishining sabablari korxonaga nisbatan tashqi (tizim sifatida ochiqligi va tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligi sababli) va ichki, unga bog'liq emas ochiqlik. Binobarin, raqobatbardoshlik korxonaning xususiyti hisoblanadi va faqat uning raqobatdoshlik (raqobat) shaklida bozorda kontragentlar bilan o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

1. Korxonalarning raqobatdoshligining iqtisodiy mohiyatini talqin qilishning mavjud yondashuvlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Mualliflarning asosiy farqlari raqobatbardoshlikning paydo bo'lish sabablарини, uning maqsadga yo'naltirilganligini, sifat xususiyatларини, shuningdek, mahsulot va tarmoqlarning (milliy iqtisodiyot) o'xshash xususiyati bilan o'zaro bog'liqligini talqin qilishda.

2. Korxonaning raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyatini uning adabiyotda mavjud bo'lgan talqinlarini mexanik kompilyatsiya qilish asosida izchil talqin qilishni ishlab chiqish mumkin emas.

3. Korxonaning raqobatbardoshligi uning xususiyati ekanligi aniqlandi, bu korxona salohiyatidan, mahsulotlarning raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligidan farq qiladi. Shu sababli, mavjud bo'lgan yondashuvlardan farqli o'laroq, raqobatbardoshlikning paydo bo'lishining sabablari sifatida, nafaqat korxona bilan bog'liq ichki omillarni, balki tashqi mahsulotlarni ham hisobga olish kerak, bu tayyor mahsulotlar va ishlab chiqarish resurslari bozorlarida raqobat shaklini oladi. Korxona, uning mahsulotlari va sanoatining (milliy iqtisodiyot) raqobatdoshligi bir xil tushunchalar emas.

4. Raqobatbardoshlikning mavjudligi korxona uchun raqobat muhitida ko'zlangan barcha maqsadlarga erishish uchun, ya'ni nafaqat bozor faoliyati maqsadlariga erishish, balki ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalarni ham bajarish uchun zarur ekanligi aniqlandi.

5. Korxonaning raqobatbardoshligi, mavjud yondashuvlardan farqli o'laroq, uning ajralmas, nisbiy va dinamik xususiyati sifatida qaralishi kerak.

Shunday qilib, birinchi navbatda, tayyor mahsulot va ishlab chiqarish resurslari bozorlaridagi raqobatbardosh vaziyat dinamikasidan qat'i nazar, uning darajasini saqlab qolish va oshirishga qaratilgan raqobatbardoshlikni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, raqobatdoshlik darajasi va raqobatbardosh ustunliklarni baholash nisbiy ko'rsatkichlar yordamida amalga oshirilishi kerak va baholash uchun asos sifatida raqobatchilar – korxonada faoliyat ko'rsatadigan raqobatdosh kuchlarning manbalarini tanlash kerak; uchinchidan, baholashda raqobatbardoshlik, baholash bazasini tanlash va boshqaruv ta'sirini hisobga olgan holda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish choralarini ta'sirini, shuningdek, korxona va uning raqobatchisi – ish sharoitidagi farqlarni hisobga olish kerak. raqobatbardoshlikni baholash bazasi.

1.3. Jadval

**Korxona raqobatdoshligining iqtisodiy mohiyati**

Xarakteristikalarini talqin qilish	Xarakteristikaning mavjudligi oqibatlari
<b>1. Nisbiylik</b>	
1.1. Ob'ektiv nisbiylik: korxonaning raqobatbardoshligi (va uning darajasi) ma'lum bir vaqtning o'zida ma'lum bir bozorda yuzaga keladigan raqobat holatiga nisbatan. 1.2. Sub'ektiv nisbiylik: korxonaning raqobatbardoshligi (va uning darajasi) uni baholashning turli sub'ektlari uchun nisbiydir.	1. Raqobatbardoshlik darajasini baholash bazaga nisbatan amalga oshirilishi kerak, chunki raqobatchining yoki ularning guruhining raqobatbardoshligi qiymatini tavsiflovchi ko'satkichlarni tanlash kerak. 2. Raqobatbardoshlik darajasining qiymati uni baholashning har bir sub'ekti uchun har xil.
<b>2. Dinamizm (o'zgaruvchanlik)</b>	
Korxonaning raqobatbardoshligi bu dinamik xususiyatdir, uning darajasi korxona rahbariyatining harakatlaridan qat'iy nazar bir xil baholash bazasi uchun ham o'zgarib turadi.	1. Raqobatdoshlik darajasi, uning ichki omillarining o'ziga xos konfiguratsiyasi bilan belgilanadi, vaqt o'tishi bilan ob'ektiv ravishda pasayadi 2. Bozorda o'zgaruvchan raqobat sharoitida uning darajasini saqlab qolish va oshirish uchun raqobatbardoshlikni boshqarish zarur.
<b>3. Ob'ektivlik</b>	
3.1. Korxonaning haqiqiy raqobatbardoshligi davlat hokimiyyati organlari tomonidan shakllanadigan raqobat sharoitidagi farqlarni hisobga oladigan baza bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. 3.2. Korxonaning raqobatbardoshligining nominal darajasi davlat organlarining bozordagi raqobat sharoitlariga	1. Korxonalarining raqobatbardoshligi darajalarini taqqoslash bir xil raqobat sharoitida amalga oshirilishi kerak. 2. Korxona darajasida raqobatbardoshlikni boshqarish bozorda raqobatni tartibga solish, ishlab chiqarish resurslari va talabni tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining ta'sirini hisobga olishi kerak.

ta'sirini hisobga olmagan holda belgilanadi.	
<b>4. Yaxlitlik</b>	
Raqobatbardoshlik - bu korxonaning bozordagi sheriklari bilan raqobatdosh o'zaro ta'sirining natijalarini umumlashtirilgan baholash.	Korxonaning raqobatbardoshlik darajasi bozorda kontragentlar bilan raqobatdosh o'zaro ta'sir natijalarining ajralmas ko'rsatkichidir.

Quydagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, mahsulot raqobatbardoshligi uning raqobat muhitida paydo bo'ladigan mulkini tavsiflovchi iqtisodiy tushunchadir, uning darajasi iste'molchilar uchun mahsulotning jozibadorligi darajasi va uning ustunligini ko'rsatishi aniqlandi.

Jadval 1.4.

**Turli xil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar / ob'ektlarning raqobatbardoshligi**

Iqtisodiy ob'yekt	Ob'yekt raqobatbardoshligi ning iqtisodiy mohiyati	Ob'yekt raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyati tavsifi
1.Korxona	Korxona raqobat predmeti hisoblanadi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Korxonada raqobatbardoshlikning omilli shakli (raqobatdosh ustunliklari) mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish uning samarali darajasiga ta'sir qiladi (ya'ni korxona o'z raqobatbardoshligi darajasiga mustaqil va maqsadli ta'sir ko'rsatishi mumkin)</li> <li>2. Korxonaning raqobatbardoshligi haqiqiy ifodaga ega. Uning darajasini bevosita amalda o'lhash mumkin</li> <li>3. Raqobatbardosh ustunliklarni amalga oshirish jarayoni uchun tashqi sharoitlarning mavjudligi</li> </ol>

		<p>muhimdir.</p> <p>Korxonaning raqobatbardoshlik darajasi nafaqat korxonaning o'zi, balki uning faoliyat ko'rsatadigan tashqi muhit bilan ham belgilanadi.</p>
2.Tarmoq, milliy iqtisodiyot	Ho'jalik tizim raqobatchilikning sub'yekri hisoblanmaydi.	<p>1. Iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligining samarali darajasini to'g'ridan-to'g'ri, o'lchash mumkin emas. Faqat bilvosita – ushbu tizimga kiritilgan korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi orqali aniqlash mumkin.</p> <p>2. Iqtisodiy tizimning raqobatdoshligini ifoda etuvchi omil shakli bu uning korxonalarining raqobatbardosh ustunliklari amalga oshiriladigan tashqi shart-sharoitlar to'plamidir.</p>
3. Tovar	Mahsulot raqobat sub'yekti hisoblanmaydi. Uning raqobatbardoshligi mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonaning raqobatbardoshlik omillarini amalga oshirish natijasidir.	<p>1. Mahsulotning raqobatbardoshligi darajasining o'zgarishi ichki zaxiralar hisobiga emas mahsulotga tashqi ta'sir bilan sodir bo'lishi mumkin,</p> <p>2. Mahsulotning raqobatbardoshligi korxonaning raqobatdoshligining omilli shakli hisoblanadi</p>

Korxonaning raqobatdoshlik darajasi tashqi va ichki omillar tizimining harakati bilan belgilanadi. Raqobatdoshlikning mavjudligi korxona raqobat sharoitida iqtisodiy faoliyatning maqsad va vazifalariga erishishi uchun zarurdir. Korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish uni ifodalashning barcha shakllarini hisobga olishni talab qiladi.

Raqobatdoshlikni ifodalashning ikki shaklini ko'rib chiqish taklif etiladi:

- a) omilli shakli – raqobatdoshlikning tashqi va ichki omillari;
- b) natijaviy shakli – bozorda raqobatdosh ta'sir o'tkazish jarayonida korxonaning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish natijalari (foyda, yaratilgan ish o'rirlari va boshqalar).

### **2.3.Korxona raqobatdoshligining iqtisodiy mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 14 noyabrda "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunni maqsadi tovar va moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jimoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida sodir etiladigan, O'zbekiston Respublikasidagi tovar va moliyaya bozorlarida raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlariga nisbatan tadbiq etiladi.

Ushbu Qonunda raqobatga quyidagicha ta'rif beriladi:

- raqobat – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqlil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasini umumiy sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.

- insofsiz raqobat – xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari tamoyillariga amal qilgan holda rivojlanyotgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oluvchi jarayon hisoblanadi.

Sog'lom raqobatni rivojlantirishda aksariyat hollarda o'tish davri iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan quyidagi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- tarmoqlar tuzilishidagi nomuvofiqliklar va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarning yetishmasligi;

- soha va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining buzilishi;
- mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati borasida suiste'mollik holatlariga yo'l qo'yilishi;
- narx belgilashda monopol mavqening saqlanib qolishi, xususan iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin farqlanishi;
- mamlakatga tovarlarning kontrabanda yo'li bilan kirib kelishi;
- faoliyat turini va daromadlarni yashirish holatlarining mavjudligi;
- sog'lom pul muomalasi uchun hozirgi sharoitdan kelib chiqadigan bozor infratuzilmasining yetarli emasligi;
- milliy valyutani xorij valyutalariga erkin almashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- sub'ektlarning bozor iqtisodiyoti qoidalarini chuqur tushunib yetmasliklari;
- iqtisodiy jinoyatchilik holatlarining mavjudligi.

Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqobat bozor xo'jaligining ajralmas qismi sifatida tabiiy ravishda paydo bo'lgan bo'lsa, o'nlab yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik tartibi hukmron bo'lgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda bu jarayon elementlarini "joriy qilish" va hatto majburan qabul qilishga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotning o'tish davri holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, raqobatsiz iqtisodiyotning samarali harakat qila olmasligiga ishonch shakllandi. Bu ishonch ta'sirida yaqin vaqtlargacha hukmron mavqega ega bo'lgan rejali-buyruqbozlik tizimining g'oyaviy qarashlari yemirilmoqda. Ikkinchidan, respublikada raqobatni davlat tomonidan rag'batlantirish va tartibga solishning keng rejali harakatlari shakllanmoqda. Uchinchidan, raqobat hali keng joriy qilinmasada, bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim qadamlar qo'yilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobatni shakllantirishning asosiy tamoyillari qatorida, eng birinchi navbatda, bozor munosabatlarining qaror toptirilishini ta'kidlash mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Raqobatning to'laqonli amal qilishi iqtisodiy jarayonlarning erkinligini taqozo etadi. Iqtisodiyotdagi faoliyat va jarayonlarning

erkinligining har qanday ko'rinishdagi cheklanishi o'z navbatida raqobatning ham cheklanishi holatlariga olib keladi. Bugungi kunda ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ko'plab mamlakatlar uchun erkinlashtirish jarayonlarini amalgga oshirish tamoyili xos bo'lib, bu quyidagi hodisalarни sodir bo'lshi bilan bolg'liq:

- ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- xususiy sektorni rivojlantirish;
- raqobat muhitini yaratish, yakkahukmronlik holatini bartaraf etish va monopoliyaga qarshi tartiblashni takomillashtirish;
- bozor infratuzilmasini rivojlantirish, moliya va bank tizimini takomillashtirish, bank islohotlarini jadallashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat hamda valyutani tartibga solishni erkinlashtirish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash, ularning iqtisodiy va molivaviy mas'uliyatlarini oshirish, bankrotlik instituti rolini kuchaytirish, xo'jalik sudlarini faollashtirish. Shuningdek, ta'kidlash o'rinniki, faoliyat erkinligi, har bir kishining tanlash imkoniyatiga ega bo'lishigina raqobat uchun keng yo'l ochadi va bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda raqobat muhitining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Binobarin har qanday biznes davlat ko'magisiz o'zining istiqbolli kelajagini va o'z qonuniy manfaatlari himoyasini ko'ra olmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda raqobatni rivojlantirish tamoyillaridan yana biri – sog'lom raqobatni ta'minlashga yo'naltirilgan meyoriy-huquqiy asosning yaratilishi isoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish masalasidir. Xorijiy investiyalarni jalb etmay, ayniqsa yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalgga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Lekin shunday bo'lsada, xususiyashtirishning kengayishi hamda xususiy sektoring rivojlanib borishi bilan davlat budjeti mablag'lari evaziga investitsiyalash kamayib

boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga endigina o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham davlat budgeti tomonidan tibbiyat, sog'lioni saqlash, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar loyihalari moliyalashtiriladi va bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, keyingi paytlarda mamlakatda keng miqyosda qurilib foydalanishga topshirilayotgan sog'lioni saqlash muassasalari, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bunday maqsadlar uchun davlat budgeti, mahalliy budgetlar hamda boshqa manbalardan mablag'lar ajratiladi.

Iqtisodiyotda monopolashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopolashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQShda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1880 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan Sherman qonuni, 1914 yildagi Kleyton qonuni va Federal savdo komissiyasining qonunlarida o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakkarda amal qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatni rivojlantirish tamoyillaridan biri – iqtisodiyotda korxonalarning sun'iy ravishda ustunlik mavqeiga ega bo'lishi uchun imkon yaratmaslikdir. Bu boradagi eng samarali chora-tadbirlar sifatida monopolistik korxonalarning tovar bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borish maydonga tushadi.

Ustunlik mavqeiga ega bo'lgan korxona tovar bozorlarida yuzaga kelgan munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ba'zida iste'molchilar monopolistik korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan ma'lum bir tovarlarga ehtiyojining yuqori bo'lganligi sababli, ularning turli xil noqonuniy shartlariga ko'nikishga majbur bo'ladilar.

Monopolistik korxonalarning bozordagi ustunlik mavqeini suiste'mol qilish o'z-o'zidan tovarlar va xizmatlar narxining asossiz ravishda o'sishi va sifatinining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari,


ustunlik mavqeini suiste'mol qilishning salbiy oqibatlardan biri – tovar bozorlarida iste'molchilar o'rtasida notenglik holatlarini yuzaga keltirish, ya'ni ayrim iste'molchilarlarga mahsulot yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatishdan asossiz ravishda bosh tortish, monopol qimmat narxlarda sotish va boshqalarga olib keladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobat uchun shart-sharoitlarni shakllantirishning boshqa muhim tamoyili – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi kelishib qilingan noqonuniy harakatlari (bitimlari) ustidan nazoratni olib borish hisoblanadi. Chet el amaliyotida ushbu tarzdagagi kelishib olib boriladigan harakatlarni kartel deb atash qabul silingan. Kartellarning faoliyati nafaqat bir davlatning tovar bozorida balki jahon bozorida ham nohush holatlarni keltirib chiqarish mumkin. Kartel sifatidagi kelishuvlar narxlarni sun'iy ravishda oshishiga, shuningdek ularning ishtirokchilik o'rtasida raqobatni umuman bo'lmasligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishni takomillashtirish jarayonini susaytiradi.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiy lashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rinn tutadi. Xususiy lashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarni shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarining paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirdorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'ektlarining mavjudligi va ularni bozor orqali iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatchilik muhitini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon bo'lib, u juda ko'plab omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotdagi mulkchilik munosabatlarning yanada takomillashuviga, samaradorligining oshishiga olib keluvchi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish raqobat muhitining rivojlanishida yetakchi o'rinn tutadi.

Xususiylashtirish doirasida davlat korxonalari xususiy shaklga o'tkaziladi. Bu odatda rasmiy xususiylashtirish deb atalib, u keyingi xususiylashtirish jarayonlari uchun huquqiy asos sifatida maydonga tushadi. So'ngra mulkchilik huquqi korxonalarga o'tkazilib, xususiy shaxslar uchun manfaatlarini ro'yogha chiqarish imkoniyati yaratiladi. Uchinchi vazifa yangi mulkdorning samarali xo'jalik yuritishini rag'batlantirish (masalan, dotatsiyalarni qisqartirish hamda raqobat muhitini yaratish va h.k.) orqali, tadbirkorlik javobgarligi va xavf-xatarni o'z zimmasiga olishiga majbur etishdan iborat. Xususiylashtirish keng qamrovli islohotlarning bir qismi ekanligini quyidagi 3-rasm orqali tasavvur etish mumkin:



### **3-rasm. Xususiylashtirish jarayonida raqobatbardoshlik muhitni yaratish**

Rasmdan ko'rinib turibdiki xususiylashtirish va raqobatni rag'batlantirish iqtisodiy jarayonga harakatchanlikni baxsh etuvchi islohotlarning muhim elementlarini namoyon ztadi. Foyda olishga bo'lgan rag'bat ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan to'qnashuviga va navbatdagi raqobat kurashiga olib kelib, pirovardida iqtisodiyot barcha sub'ektlari farovonligining oshishiga zamin yaratadi.

Xususiylashtirish jarayonining tezlashishi va uning asosida turli mulk shakllarining barpo qilinishi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga va uning rivojlanishiga turki hisoblanadi. Chunki aniq bir mulk egasigina bu mulknii asrashga, uni yanada ko'paytirishga harakat qiladi. Mulknii ko'paytirish yo'lida qilingan sa'y-harakat ishlab chiqarish sur'atlarini va hajmini oshirishga, mahsulot

turlarini kupaytirishga, bozor va iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda tovarlar ishlab chiqarish uchun undaydi. Bozor munosabatlarda ishtirok qiluvchi har bir sub'ektning bunday xohishi ular o'rtasida raqobat muhitining yuzaga kelishiga va yanada rivojlanishiga asos soladi. Shu bois mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim jihatni raqobat muhitini yaratish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va tovarlar raqobatbardoshligiga keng yo'l ochib berish asosiy masala hisoblanadi.

Raqobatbardoshlik – bu ochiq iqtisodiy tizimning har qanday iqtisodiy sub'ektga qo'yadigan asosiy talabidir. Raqobatbardosh bo'lish bu tovar va xizmatlarning tashqi yoki ichki bozorga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar iste'mol, sifat va baho ko'rsatkichlarini dunyo standartlari darajasiga ko'tarishdan iborat bo'lib, korxonalarning raqobatchilar bilan iqtisodiy kurashda ustunlikka ega bo'lishi ko'p jihatdan mamlakatdagi iqtisodiy sharoitga, raqobatchilik afzalliklarining to'rt asosiy belgisi: omil sharoitlari (tabiiy, mehnat, texnologik va investitsion resurslar, infratuzilma va h.k)ning jahon bozoridagi raqobatbardosh, yordamchi sohalarning mavjudligi, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab korxonaning strategiyasi va uni ichki bozordagi raqobati tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi.

Korxona raqobatbardoshligini baholashning aniq bir tuzilmaviy shaklini ishlab chiqish borasida bir qator ilmiy taddiqotlar mavjud bo'lib, biroq bu borada hali bir to'xtamga kelinmagan. Ilmiy adabiyotlarda korxonalarning ishlab chiqarayotgan mahsuloti, faoliyat turi, iqtisodiy faoliyati samaradorligiga yoki marketing faoliyatini qay darajada yo'lga qo'yganligiga ko'ra raqobatbardoshligini baholash uslublari keng tarqalgan.

Raqobatbardoshlikni baholashning umume'tirof etilgan usullarida "mahsulot sifatini oshirish" asosiy omil sifatida ko'rildi (John Maurice Clark.1918, Lawrence Abbott, Columbia University Press: 1955, Michael Spence, 1976. Maurice Stucke, 2013), biroq uni tahlil qilishda shakllangan ilmiy maktablar tajribalari turlicha hisoblanadi. Yaponlar modelida asosiy e'tibor "sifat tizimini yangilash" asosiy omil sifatida baholansa, fransuzlar "marketing faoliyatini" qay darajada tashkil etg'anligini, amerikacha uslublarda esa ko'proq "bozorda yetakchilik"ni tu'minlash yoki "bozor ulushini baholash" usullaridan foydalanadi (Smoleychuk I. M.Vladivastok. 2003).

Yapon modelining asosiy xususiyatlari iste'mol talabiga mahsulotni qay darajada muvofiqligini o'rganishga asoslansa, fransuzlar modelida "marketing bo'yicha raqobat" ya'ni korxonaning marketing faoliyatiga ishlab chiqarish qay darajada muvofiqligi tekshiriladi. Raqobatbardoshlikni baholashning amerikacha modelining asosiy xususiyati esa korxonaning bozorda egallab turgan mavqeい va uning bozor imkoniyatlari baholanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa raqobatbardoshlikning eng ishonchli ko'rsatkichi sifatida korxonalarining uzoq vaqt davomidagi mahsulorligi va samaradorligining saqlanib turish qobiliyatiga ko'ra baholash ko'proq uchraydi (Birhan Getaneh. 2011 . p 11).

Raqobatbardoshlikni baholash nazariyalaridan chetlashmagan holda mahsulot raqobatbardoshligi bozor sub'ektingin raqobatbardoshligining asosini tashkil etadi degan fikr mukammal raqobat sharoitida u qadar to'g'ri emasligi ilmiy adabiyotlarda keng talqin qilinmoqda (Nordas, H. K. World and I, 7(1) 2004). Shuningdek, raqobat nazariyalarida tovar raqobatbardoshligi, korxona raqobatbardoshligi, tarmoq va mintaqa raqobatbardoshligi o'zaro bog'liq va bir birini to'ldiruvchi bo'lganligi sababli, ularni baholashni o'zaro bog'liq uslublarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda (Lee, Juyoung 2013. Graduate Thses and Dissertations. Paper 13517). Korxona raqobatbardoshligi kengroq tushuncha sanaladi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan tashqari faoliyatning ko'plab jihatlari: marketing, menejment, moliya siyosati, brending imkoniyatlari, kommunikatsiya, transport, logistika siyosati va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Korxonalar raqobatbardoshligini tahlil qilish davomida xalqaro raqobatbardoshlik umumiy tamoyil va konsepsiyalarini qo'llash yetarlicha asoslangan fikrimizcha, bir mamlakat doirasida faoliyat yurituvchi monopol korxonalar uchun muvofiqligini nazarda tutish lozim deb hisoblaymiz.

Korxona raqobatdoshligiga to'laqonli baho berishga asoslangan samarali raqobat nazariyasi usulida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy boshqaruva tizimini yaxshi tashkil qilingan korxonaning raqobatdoshlik darajasi yuqori hisoblanadi (M.Boltaboevning. Toshkent 2016.). Metodikada ekspertlarning bosqichma-bosqich taqqoslash usuli yordamida aniqlangan raqobatdoshlikning to'rt guruh ko'rsatkichlari yoki mezonlariiga: korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi samaradorlik, korxonaning moliyaviy ahvolini belgilovchi samaradorlik,

tovarni sotish va bozorda ilgari surishni tashkil qilish samaradorligi va tovarning raqobatdoshligiga asoslanadi.

Korxonaning ikkita va faqat ikkita asosiy funksiyasi mavjud: marketing va innovatsiya (Drucker, P.F. 2007) ekanligini inobatga olinganda innovatsion faoliyat asosiy raqobatbardoshlik omili sifatida ko'riliishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Korxona raqobatbardoshligini uning operatsion samaradorligi va strategik joylashtirish kabi muhim tarkibiy qismlardan iboratligi (I.Ansoff, 1989. Krivorotov V.V. Yekaterinburg, 2006) va uni baholashning asosiy omili sifatida tashqi muhim omillariga korxonaning moslashish indekslarini va ikkinchi bosqichda strategik joylashtirish omillarini indekslarini hisoblash orqali raqobatbardoshlikni baholash usullari kiritilgan. Fikrimizcha, yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholashni 3 darajada: operatsion faoliyati, innovatsion faoliyati va ularni korxonaning bozorga moslashishidagi ta'sirini belgilash orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq.

Raqobatbardoshlikni baholash bo'yicha keltirilgan usullarning aksariyatida korxona operatsion faoliyatlari samaradorligiga asosiy urg'u berilib (Voronov, D.S., 2012., Roman, M.I. 2001., Shmeleva A.N. 2011, Bushina N.S 2015,) uning moliyaviy natijalariga (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va nomoddiy aktivlar) asoslanilgan. Biroq, korxonalar faoliyatining mazmunan bozorda faoliyat yuritilishini nazarda tutilganda uning marketing va innovatsion faoliyatlari korxonaga foyda keltiruvchi o'ta muhim omillar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan taklif etilayotgan uslubiyot korxona raqobatbardoshligi baholashning samarali ekanligini ko'rsatib beradi.

Korxonaning bosh maqsadi ishlab chiqarish emas, balki bozorda yuqori foyda va nufuzga intilish hisoblanadi. Bu maqsadlar esa korxonaning marketing faoliyatini ifodalaydi va shunga muvofiq holda ishlab chiqarishni tashkil etadi va uni bozorga moslab olib boradi. Korxonaning barcha maqsadlari faqat tovarlar taklifiiga yo'naltirilganligini hisobga olinganda marketing faoliyati ana shu jarayonlarni muvofiqlashturuvchisi ham deyish mumkin (Xakimov Z.A, 2016). Sababi, ishlab chiqarish, savdo, ta'minot, moliya – bularning barchasini ish faoliyati maqsadli bozorga yo'naltiriladi va marketing orqaligina o'z natijasini oladi. Demak, korxona raqobatbardoshligining yakuniy maqsadi sifatida uning bozorga moslashish holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichni qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### *Kalit so'z va iboralar*

Korxona raqobatbarjoshligi. Raqobat sabablar. Byurokratik menejment nazariyasi, Nisbiylik, dinamizm, ob'ektivlik, yahlitiylik, Monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari. Demping narxlari. Narxsiz raqobat. Servis xizmati. Raqobat strategiyasi. Raqobat bosqichlari. Erkin raqobat. Monopol raqobat. Boshqarishni kompyuterlashtirish. Zamonaviy marketing xizmati.

#### 1. Raqobat ob'ektlari:

- a) tovarlar va xizmatlar;
- b) ishlab chiqaruvchi firmalar va xizmat ko'rsatuvchilar;
- c) bozor segmentini tashkil etuvchi iste'molchilar guruhining ehtiyojlari\*;
- d) bir xil bozor segmentiga mansub iste'molchilar guruhi.

#### 2. Raqobatdoshlikni boshqarish asosiy ob'ektlari:

- a) mahsulotni sotish narxi va undan foydalanishning foydali samarasi;
- b) ishlab chiqarish va tarqatish xarajatlari;
- c) foya va iste'mol xarajatlari\*;
- d) mahsulotning iste'molchi yangiligi.

3. Firmanın raqobatbardosh strategiyasını narxlar etakchilik strategiyasi, differentsiatsiya strategiyasi va kontsentratsiya strategiyasiga kim ajratdi?

- a) M. Porter\*;
- b) A. Kichkina;
- c) F. Kotler;
- d) I. Ansoff.

4. Yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob shakli, tovarlarni tashish, etkazib berishning ishonchliligi:

- a) raqobatbardoshlikning ishlab chiqarish omillari;
- b) raqobatdoshlikning bozor omillari;
- c) raqobatbardoshlikning marketing omillari\*;
- d) raqobatbardoshlikning xizmat ko'rsatuvchi omillari.

5. Kadrlarning irsiy raqobatbardosh ustunliklariga quyidagilar kiradi.

- a) temperament\*;
- b) shaxsiy va jamoaviy maqsadlarni shakllantirish qobiliyati;
- s) his-tuyg'ularingizni boshqarish qobiliyati;
- d) muloqot qobiliyatları.

#### 6. Firma:

- a) iqtisodiy va ijtimoiy ustunliklar yoki imtiyozlarning qonuniy yutilishini ta'minlaydigan barcha omillarni boshqarish;
- b) foyda olish maqsadida tovarlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun resurslarni jamlaydigan va ishlata digan tashkilot;
- s) ma'lum bir vaqt ichida asosiy vositalarni tubdan o'zgartirmasdan doimiy miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradigan, kerakli natijani olishga qodir bo'lgan korxona;
- d) bozorda raqobat munosabatlarining asosiy ishtirokchisi\*.

12. Raqobatdosh firmalar:

- a) to'liq yoki qisman o'xshash jihatlariga ega firmalar\*;
- b) bir xil bozor segmentidagi firmalar o'rtasidagi kurash;
- s) eng yuqori foyda olish uchun bozorda firmalarning o'zaro ta'siri.
- d) bir xil hayot sikli bosqichidagi va bir xil sohadagi firmalar.

13. Raqobatning qaysi usuli raqobatdosh firmalar mahsulotning iste'mol qiymatini oshirish orqali iste'molchini jalb qilishga intilishidir:

- a) narxlar raqobati;
- b) narxsiz raqobat\*;
- c)adolatsiz raqobat;
- d) to'g'ridan-to'g'ri raqobat.

14. Oligopoliya – bu quyidagilar hukmronlik qiladigan bozor holati.

- a) oz sonli yirik firmalar\*;
- b) bitta yirik firma;
- c) oz miqdordagi o'rta firmalar;
- d) ko'plab yirik firmalar

15. Mahsulotning differentsiatsiyasi:

- a) narxlar raqobatining universal usuli;
- b) sifat va xizmat ko'rsatish xususiyatlari, reklama va marketingni qo'llab-quvvatlash jihatidan farq qiluvchi va iste'molchilarning turli qatlamlariga yo'naltirilgan mahsulot turlarini yaratish jarayoni\*;
- c) firmanın ishlab chiqarishning tegishli tarmoqlariga (kichik tarmoqlariga) kirib borish jarayoni;
- d) ikki yoki undan ortiq firma hech qachon to'liq bir-birini qoplaydigan bozor o'rnini egallamaydi.

16. Bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritadigan firmalar:

- a) moliyaviy va sanoat guruhlari;
- b) kartellar;
- c) transmilliy korporatsiyalar\*;
- d) kompaniya.

17. Mahsulotning belgilangan yoki kutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini belgilaydigan xususiyatlari quyidagilar:

- a) mahsulot sifati\*;
- b) mahsulot sifati darajasi;
- c) funksional yaroqlilik ko'rsatkichi;
- d) muvofiqlik ko'rsatkichi.

18. Mahsulotning raqobatbardoshligini baholash uchun quyidagi bosqichlar qo'llanilmaydi:

- a) bozorni tahlil qilish va taqqoslash uchun eng raqobatdosh mahsulot namunasini tanlash (ma'lumotnomasi);
- b) baholanadigan mahsulotning raqobatbardoshligining ajralmas ko'rsatkichini hisoblash;
- c) narx-sifat nisbati\*.

19. Raqobatdoshlikni baholash uchun ishlataladigan texnik parametrlar guruhiга odatda kiradi:

- a) narx-sifat nisbati
- b) Maqsad, ishonchlilik, ergonomik va estetik ko'rsatkichlar\*
- c) og'irlilik, hajm, o'lcham ko'rsatkichlari

20. Belgilangan vaqt ichida ma'lum bir bozorda mahsulotni muvaffaqiyatli sotish qobiliyati

- a) raqobatbardoshlik\*
- b) samaradorlik
- c) reyting

### **III BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGI MODELLARI**

- 3.1. M.Porterning raqobatning besh kuchi nazariyasи
- 3.2. Raqobat 5 kuchi nazariyasining oltin qoidasi
- 3.3. Korxona (firmada) SWOT analizini qo'llash sxemasi
- 3.4. SWOT analizi bosqichlari
- 3.5. "McKinsey 7S" tahlil modeli
- 3.6. Firmaning strategik holatini baholash ko'rsatkichlari

### **3.1. M.Portering raqobatning besh kuchi nazariyasি**

Ta'sirchan va rag'batlantiruvchi, erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatilib, bu bozor munosabatlarining mohiyatini belgilovchi sharoit hisoblanadi<sup>4</sup>. Raqobatning faqat erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laqonli amal qilishi hamda o'z mohiyatini to'liq namoyon eta olishini quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (3.1.-jadval).

#### **"Raqobat"ning turli iqtisodiy sharoitlardagi qiyosiy tavsifnomasi**

Taniqli amerikalik olim M.Ye.Portering tadqiqotlariga ko'ra, alohida bozordagi raqobatning holatini beshta raqobat kuchi orqali tavsiflash mumkin:

1. Raqobatlashuvchi sotuvchilar o'rtasidagi bellashuv (har bir firma raqobat afzalliklaridan foyda olish va qulay mavqega ega bo'lism uchun o'zining shaxsiy raqobat strategiyasiga amal kiladi).

2. Bir-birini o'rnini bosuvchi va narx nuqtai nazaridan

<b>Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida</b>	<b>Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida</b>
--	--

raqobatbardosh bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat (o'rnini bosuvchi tovarlar tomonidan yuzaga kelgan xavf tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

3. Yangi raqobatchilarning paydo bo'lism xavfi (yangi raqobatchilar paydo bo'lishi xavfi tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

4. Mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları (mol yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va savdo qibiliyatları tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

<sup>4</sup> Abdullayev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. - T.: «Mehnat», 1997, 57-58 b.

<p>Raqobat «sotsialistik musobaqa» bilan Raqobat rag'batlantiruvchi iqtisodiyotni almashtirilib kelindi. «Raqobat» so'zini harakatga soluvchi kuchdir. Shu sababli u ishlatalish taqiqlanar edi.</p> <p>Musobaqa kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan qalbaki bellashuv edi. Chunki erishilmagan yutuq va bajarilmagan ko'rsatkichlarga erishilishi «raqamlar»da ta'minlanardi.</p> <p>Sotsialistik musobaqadagi majburiy safarbarlik usuli:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tashabbuskorlik ruhini so'ndirardi;</li> <li>- sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish imkonini bermasi;</li> </ul> <p>«yalpi mahsulot» mafkurasi hukumronligida musobaqa ko'rsatkichlari ko'pincha miqdoriy ko'rsatkichlarga qarab bajarilar edi.</p>	<p>Raqobat rag'batlantiruvchi iqtisodiyotni harakatga soluvchi kuchdir. Shu sababli u bozor iqtisodiyoti mexanizmida asosiy o'rinni oladi.</p> <p>Raqobat rejalaشتirilmaydi va qattiq nazorat ostiga olinmaydi. Raqobatchilikni bozordagi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talab va taklif;</li> <li>- narx-navo;</li> <li>- oligopoliya va monopoliya darajasi;</li> <li>- davlatning antimonopol siyosati belgilay oladi;</li> <li>- Raqobatda majburiy safarbarlik bo'lmaydi. Bu yerda halol va erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatiladi.</li> </ul>
---	---

5. Xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları (xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).<sup>5</sup>

### 3.2. Raqobat 5 kuchi nazariyasining oltin qoidasi

Porter nazariyasiga ko'ra tarmoq raqobatini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tarmoqda raqobat kuchlarining aniqligi va samaradorligini aniqlashga;
  2. Kompaniyaning raqobat kuchlari ta'siridan maksimal himoyalanish pozitsiyasiga ega bo'lishga;
  3. Raqobat kuchlariga qarshi ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.
- Raqobat 5 kuchi nazariyasining oltin qoidasi quyidagilardan iborat:
- Raqobat kuchlarining ta'siri naqadar zaif bo'lsa, tarmoqda kompaniya ko'proq foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi va aksincha;
  - Raqobat kuchlarining ta'siri naqadar kuchli bo'lsa, tarmoqda kompaniya kamroq foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

<sup>5</sup> Портр М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с анг. – Международные отношения, 1993, с.224.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida, xususan, Jahon iqtisodiy forumida muntazam markaziy o'rın egallaydigan Raqobat ustunligi nazariysi bugungi kunda O'zbekiston misolida qayta-qayta o'z tasdig'ini topmoqda. Raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra (M.Porter, Dj.Saks, P.Krugman) xalqaro bozorda kompaniyaning raqobatbardoshligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan ustunroq ta'minlanganligi emas, balki ushbu kompaniya uchun davlat qanday iqtisodiy institutlar va mexanizmlar orqali imkoniyat yaratayotganligi bilan baholanadi.

5 kuch modeli ko'proq strategik boshqarishda va marketingda quyidagi yo'nalishlarida qo'llaniladi:

- Kompaniyada SWOT analiz o'tkazishda;
- Kengaytirilgan raqobat tahlili va bozor tahlilini tuzishda ishlataladi.

### **3.3. Korxona (firmada) SWOT analizini qo'llash sxemasi**

<i><b>Strength (Ko'chlari)</b></i>	<i><b>Weakness (zaiflik)</b></i>
Zaiflikni kuchga va tahdidni imkoniyatga aylantirish	uchun barcha kuchni sarflash
<i><b>Opportunities (Imkoniyatlari)</b></i>	<i><b>Threat (Tahdidlar)</b></i>
Firmanong kuchli tomonlarini uning cheklangan imkoniyatlari	asosida rivojlantirish

### **3.4. SWOT analizi bosqichlari**

SWOT analiz 1-bosqichi vazifalari kuyidagilardan iborat:

- Tovarlar patentbardoshligi;
- Tovarlar narxi;
- Texnologiyaning progressivligi;
- Kadrlar malakasi;
- Resurslar narxi;
- Asosiy fondlar yoshi (yangi, eskiligi);
- Firmanın geografik joylashuvi;
- Infrastruktura;
- Marketing va menejment tizimi;
- Tizimga kirish va chikishda raqobat kuchi darajasi kabilar o'rganiladi.

SWOT analiz 2-bosqichi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Firmanın kuchsiz tomonlari o'rganiladi. Ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi barcha bozorlar bo'yicha o'rganiladi.

Konkret tovarlar raqobatbardoshligining kompleks ko'rsatkichlari, foydali effekt (integral sifat ko'rsatkichi), jami xarajatlar, tovardan foydalanish shartlari, firmaning raqobat ustunligi bo'yicha 1 bosqichdag'i ko'rsatkichlar zaifligi aniqlanadi.

- 3-bosqich. Firmaga strategik va taktik tahdidilarni prognozlash va o'z vaqtida xarajatlarni kamaytirish maqsadida firmaning makro muhit omillari o'rganiladi. (siyosiy, iqtisodiy, texnologik, bozor va boshqalar).
- 4-bosqich. Firmaning tahdidni bartaraf etish, kuchlarni o'sishi va zaiflikni pasaytirish uchun zarur bo'lgan strategik va taktik imkoniyatlari (kapital aktiv va boshqalar) o'rganiladi.
- 5-bosqich. Firma strategiyasining alohida bo'limlari proektni shakllantirish maqsadida kuchlar va imkoniyatlarni muvofiqlashtiriladi.

Ta'minotchilar tovarning bozordagi raqobatbardoshligiga xom ashyo yetkazib beruvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi. Xom ashyo narxlarining ko'tarilishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishiga va shu asosda tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Agar tovarlarning chakana narxlarini ko'tarish imkon bo'lmasa, xom ashyo narxlarining ko'tarilishi hisobidan tarmoqda tovar va xizmatlarni sotishdan keladigan foya hajmi kamayib ketadi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili shuni ko'rsatadi, bugungi kunda jahon bozori kon43yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etadi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda iqtisodiyotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo'naliishlari" bandining ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda bir qancha innovatsion texnika va texnologiyalar joriy qilinmoqda.

SHuni inobatga olgan holda mamlakatimiz sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan, turli yuridik maqomga ega bo'lgan ko'plab korxonalarda boshqaruvning yangi, innovatsion shakllarini qo'llash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jumladan, o'tgan asrning 80-yillarida AQSHning "McKinsey" konsalting kompaniyasi

maslahatchilari guruhi tomonidan ishlab chiqilgan “McKinsey 7S” modelini qo‘llash iqtisodiyotimizning rivojlanishiga yaqindan yordam beradi<sup>6</sup>.

Modelning asosiy mualliflari Tom Peters va Robert Vatermanlar hisoblanib, ular tomonidan modelning asosiy tamoyillari ko‘rsatib o‘tilgan va mazkur tamoyil asosida korxona boshqaruv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, model butun dunyoda amaliyotda qabul qilingan hamda korxona tasarrufida omilkor biznes jarayonlarini yaratishga va optimallashtirish uchun foydalananadigan strategik menejment va marketing bo‘yicha ko‘plab korxona rahbarlari va mutaxassislarning ishonchini qozongan. “McKinsey 7S” modeli kompaniyaning ichki tashkiliy tuzilmasini va faoliyat ko‘rsatish tamoyillarini tahlil qilishning qulay vositasi hisoblanadi. Ushbu model asosida tashkilot mikro iqtisodiyotining ettita asosiy elementti tahlil qilinadi va quyidagi xulosani berishga imkon beradi, ya’ni, korxona tasarrufidagi biznes jarayonlar qanday darajada yaxshi tashkil etilgan va mavjud resurslar qanchalik samarali tarzda yo‘naltirilgan<sup>7</sup>.

“McKinsey 7S” modeli har qanday korxonaning ichki biznes jarayonlarini takomillashtirishga, korxona samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda tashkiliy tuzilmada rejalashtirilgan o‘zgarishlarning mumkin bo‘lgan natijalarini tahlil qilish, bo‘linmalarni birlashtirish va birlashuvni amalga oshirish, korxonaning rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning eng yaxshi usulini aniqlash uchun hizmat qiladi[2]. Bu korxonani rivojlantirishda inson omili yoki mavjud tehnika bilan emas, balki faqat korxonaning tuzilmasini tadqiq etadi, bu esa korhonaning istiqbolini baholashda va tahlil qilishda asosiy vazifani bajaradi.

“McKinsey 7S” modeli quyidagi ettita tamoyilni o‘zida jamlaydi<sup>8</sup>:


- korhona strategiyasi;
- korhona tarkibiy qismi;
- boshqaruv tizimi;
- korhona tasarrufidagi munosabatlar uslubi;
- xodimlar faoliyati tarkibi;
- ko‘nikma va qadriyatlar miqdori;
- hodimlarning malakasi.

Model tashkilot muhitining ettita asosiy tamoyilini tahlil qilish asosida qurilgan. Modeldagи barcha tamoyillar o‘zaro bir-biriga bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, yuqorida ko‘rsatilgan sohalarning hech bo‘lmaganda bittasi o‘zgarsa, darhol boshqa o‘zgarishlarni talab qilinadi. Quyidagi 4-rasmda “McKinsey 7S” modelining namuna sifatida bir ko‘rinishi keltirilgan.

<sup>6</sup> Дафт Р. Менеджмент. 6-е издание/ Пер. с англ. – Спб.: Питер, 2007. – 864 с.

<sup>7</sup> Лобзов А.В. Без чего не работает корпоративная система управления проектами // Российское предпринимательство. – 2015. – Том 16. – № 13. – С. 2045-2052.

<sup>8</sup> Питерсм П., кан Ассен М., ван дер Берг Г. Ключевые модели менеджмента. 60 моделей, которые должен знать каждый менеджер: Пер. с англ. В.Н. Егорова – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2011. – 319 с.



**4-Chizma.“McKinsey 7S” tahlil modeli**

CHizmada barcha tamoyillar bir-biriga bog‘langan hamda “yumshoq” va “qattiq” ikki yirik bo‘linmalarga bo‘lingan. Korxonaning tuzilishi, strategiyasi va boshqaruv tizimi-bu bo‘linmalar korxonaning “qattiq tamoyillar”ning uch qismini o‘z ichiga oladi va bu tamoyillar mos ravishda korhonani boshqarishni osonlashtirish va istiqbolini baholashda qulayliklar tug‘diradi. Modelning barcha boshqa qismlarini o‘z ichiga olgan “yumshoq tamoyillar” esa boshqarish va baholashni murakkablashtiradi, biroq ko‘p hollarda korhonaning asosiy tarkibiy qismlarini shakllantiradi va ular uzoq muddatli raqobatbardoshlik tamoyillarini yaratishi mumkin (4-rasm).

Korxona ko‘nikmalar va qadriyatlar tizimi bejizga “McKinsey 7S” modelining markazida joylashgan emas. Model mualliflari korhona faoliyatining asosiy tamoyillari va vakolatlarini ichki muhitning qolgan barcha tamoyillariga ta’siriga va ahamiyatiga alohida urg‘u berishni ta’kidlab o’tganlar.

*Korxona strategiyasi.* Korhona strategiyasi uzoq muddatli rivojlanish rejasini belgilaydi, bu biznesning raqobatbardoshligini oshirishga va barqaror raqobatbardosh ustunliklarni yaratishga yordam beradi. To‘g‘ri tanlangan strategiyaning mezonlari quyidagilardir, ya’ni: maqsadlarning aniq shakllantirilishi, uzoq muddatli maqsadlarga ega bo‘lishi, raqobatbardosh ustunlikka erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, korhonaning umumiyo faoliyatining bilan o‘zaro bog‘liqligi. *Korxonaning tuzilishi.* Modeldagи tuzilmaga ko‘ra, har bir bo‘limning bog‘liqlik tamoyillari, ustuvorligi va javobgarlik sohasi ko‘rsatilgan korxona tarkibidagi turli bo‘limlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish usullari tushuniladi. Modelning bu tamoyili mos ravishda va oson o‘zgarishi mumkin.

*Boshqaruv tizimi.* Boshqaruv tizimi korhonaning muntazam operatsion (amaliy) tartiblarini ta’riflaydi. “McKinsey 7S” modelining ushbu tamoyili boshqaruv qarorlari qanday qabul qilinganligi, korhonada kundalik ishlар qanday amalga oshirilayotgani, biznesning qanday usullari rivojlanayotganligi uchun javob beradi.

*Qadriyatlar tizimi.* Qadriyatlar tizimi korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning kasbiy qobiliyati va vakolatlar doirasi miqyosini ifodalaydi.

*Xodimlar tarkibi.* Xodimlarni ishga qabul qilish, ularni mutahasisliklarga ajratish, ularga ko‘rsatma va tavsiyalar berish va rag‘batlantirish. Bu tamoyil korxonada qo‘llanilayotgan modelning “yumshoq” elementlarni tashkil etib, xodimlarning amalda qay darajada faoliyat yuritayotganini taxlil etadi.

*Korxona tasarrufidagi munosabatlar uslubi. Bu tamoyil korhona tomonidan qabul qilingan boshqaruv uslubini ifodalaydi. Korhonada rahbarlar faoliyati natijasi va biznesni rivojlantirish uchun muhim qarorlar qabul qilishda ularning rolini ifodalaydi.*

*Xodimlarning malakasi. Bu tamoyil korhona hodimlarni qayta tayorlash va malakasini oshirish, ularning etuk darajada faoliyat yuritishi uchun etarli darjada malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.*

### **3.5. Firmaning strategik holatini baholash ko'rsatkichlari**

Korxona (firmaning) ma'lum bir davr mobaynida strategik holatini baholash quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanadi:

1. Korxona (firmaning) nisbiy o'lchami;
2. Korxona (firmaning) o'sishi;
3. Bozordagi tovar va xizmatlarni sotishdagi ulushi;
4. Bozordagi pozitsiyai;
5. Korxona (firmaning) solishtirma rentabelligi;
6. Sof daromadi;
7. Korxona (firmaning) texnologik holat;
8. Tashqi ko'rinishi;
9. Rahbariyat va peronal (kadrlar).

Differensiatsiya kuchayib borgan sari har bir sotuvchi absolyut (mutlag) monopoliyaga ega bo'ladi, ammo shu bilan birga, o'mini bosa oladigan boshqa mahsulot ishlab chiqaruvchining nomukammal raqobatiga uchraydi. Shundan kelib chiqib, barcha sotuvchilar «raqobatchi monopolistlar» bo'lib, «monopolistik raqobat» kuchlari ta'siri sharoitida ish yuritadilar.

Sotuvchi – monopolist qo'shimcha harajarlar qilish yo'li bilan sotilayotgan mahsulot hajmini oshirishi (bunda tovar bahosi pasayishi) mumkin. Boshqa xuddi shunday tovar sotuvchilar esa bu shuni darhol amalga oshira olmaydi deb raqobatdosh tovar markasi bahosini pasaytirish yoki yangisini i.ch. davomida, xuddi shunday choralar boshqa raqobatchi tomonidan qo'llanilishi mumkinligidan bexavotir bo'ladi.

Raqobatning baholanmaydigan omillari qatoriga tovarlar sifati va reklama kiradi va ular individual yoki alohida xususiyatlarga egadir. Differensiatsiya mahsulotning o'z ma'lum xususiyatlari asosida shunkllanishi, masalan, *alohida xususiyatlar* – firma markasi, firma nomi, qandolqlash yoki tara (agar ular bo'lsa) bo'yicha yoki sifat, shakl, rang, stil avosida *individual xususiyatlari* bilan belgilanadi.

Differensiatsiyalashgan mahsulot baho muammosi raqobatli talab va harajat egri chiziqlari doirasiga kiritilishi mumkin emas, bu avvaldan xulosalardagi xatolarga olib keladi; baho haddan tashqari past, ishlab chiqarish masshtabi juda katta, korxonalar soni juda kichik bo'lib chiqadi. Bundan tashqari raqobatning yana ikkita jihat: differensiatsiya va sotish harajatlari butunlay tushib qoladi. Shu sababli baholarni to'la bilmaslik mahsulotga talab elastikligi (qayshiyoqlik)ni pasaytiradi, bu esa reklama talabning elastikligini oshirishi, baholar raqobatini esa ancha keng qilishiga o'xshaydi va baholar yordamida talab etiladigan qo'shimcha harajatlarni qoplaydi.

Raqobat kurashi evolyusiyasi tovar sifatini oshiradi (buni patent, mualliflik huquqlari, firma himoya belgilari, firma alohida qadoqlash usuli, mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida, firmaning qulay joylashuvi). Reklama esa, erkin raqobat sharoitidan farqli ravishda, bozorlar qo'shilib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Baholanmagan raqobat omillari firmani haridorlar talabini qondirish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga undaydi, ularga «havasning pullik qoidalari»ni singdirib boradi.

Ishlab chiqarish va sotish harajatlari konsepsiyasida harajatlар fabrika doirasida tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan sarflardangina (birinchi) emas deb qaraladi. Transport (tashish), sartirovka (ajratish), saqlash, uylarga yetkazish harajatlari (ikkinci) mavjud bo'lib, ular talablarни qondirish uchun yanada yaxshi qulayliklar yaratadi. Ikki xil ko'rinishdagi harajat o'rtasida chegara o'tkazish (ishlab chiqarish harajatlari, sotish harajatlari) taklif va talab o'rtasidagi farq kabi qiymat nazariyasida fundamental ahamiyat kasb etadi. Sotish harajatlari mazkur mahsulotga talabni oshiradi, ishlab chiqarish harajatlari uning taklifini oshiradi.

### **Kalit so'z va iboralar**

M. Porter nazariyasi. Raqobat 5 kuchi nazariyasi. Raqobatning oltin qoidasi. 5 kuch modeli. SWOT analizi. "McKinsey 7S" tahlil modeli. Firmanın strategik holati. Raqobat ustunligi nazariyasi. Firma himoya belgilari. Differensiatsiya. Raqobatlashuvchi sotuvchilar. Xarajat o'rtasida chegara. Alovida bozordagi raqobatning holati.

## **Topshiriqlar** **Vaziyatli masala – 1**

Raqobatning besh kuch nazariyasining asoschisi kim, raqobat besh kuchi modelining ta’rifini bering va misollar keltiring.

### **2-masala. Test.**

1. Rasmiy jihatdan mustaqil bo’lgan, ko’p tarmoqli korxonalarining majmuuni o’z ichiga oluvchi birlashma bu ...

- A) Trest
- B) Sindikat
- C) Kartel
- D) Konsern\*

2. Tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birqalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi bu ...

- A) Konsorsium\*
- B) Sindikat
- C) Kartel
- D) Trest

3. Monopoliyalarning ijobiy tomoni?

- A) uni hech qanday ijobiy tomoni yo’q
- B) davlat bunga qarshi chiqadi
- C) u ma’lum tarmoqlarda xarajatlarning tejalishiga olib keladi\*
- D) ma’lum tarmoqlarda ishchi kuchini tejalishiga olib keladi

4. Monopoliyalarning salbiy tomonlari?

- A) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi.
- B) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi
- C) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi
- D) barcha javoblar to’g’ri\*

5. XX asr boshlarida qaysi davlatlarda erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot tobora monopollashib bordi?

- A) sharq va g’arb
- B) Yevropa va AQSh\*
- C) O’rta Osiyo
- D) Rossiya

6. Monopollashuvning yorqin oqibati sifatida qaysi yillardagi inqirozni keltirish mumkin?

- A) 1929-1937 yillar
- B) 1920-1933 yillar
- C) 1929-1933 yillar\*
- D) 2008- yillar

7. Deyarli yuz yil davomida J.B.Seyning hamma yerda tan olingan qonuni?

- A) Raqobatchilar qonuni
- B) Istemolchilar qonuni
- C) Bozorlar qonuni\*
- D) U qonun yaratmagan

8. Quyidagilar ichida Edvard Xeyting Chemberlinning asarini toping.

- A) Monopolistik raqobat nazariyasi\*
- B) Mukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi
- C) Sof raqobatning iqtisodiy nazariyasi
- D) Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi

#### **IV BOB. RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASHNING NISBIY YONDASHUVLAR**

4.1. Raqobatbardoshlik darajalari

4.2. Tovar raqobatbardoshligini baholash bosqichlari

4.3. Raqobatbardoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning M.Porter modeli (milliy romb)

4.4. Makroiqtisodiy, mezoiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi raqobatbardoshlikni baholash

##### **4.1. Raqobatbardoshlik darajalari**

Har qanday mamlakatda ichki bozorda raqobatning mavjudligi bozor xo'jaligi muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi, jahoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, o'tish iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarda raqobat to'g'risida qonunlarning qabul qilinganligi va mazkur masalalar bilan shug'ullanuvchi milliy tashkilotlarning tashkil etilganligi ushbu holatni tasdiqlab turibdi. Xususan O'zbekistonda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Monopoliyaga qarshi qo'mita) tashkil etilgan bo'lib, uning faoliyati respublika iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratish, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar, shu jumladan, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar

xo'jalik faoliyatini yuritish uchun teng raqobat imkoniyatlarini barpo etishga yo'naltirilgan.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – bu iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o'zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo'lishning ko'p darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi).

Bunda raqobatbardoshlikning barcha darajalari o'rtasida jips ichki va tashqi o'zaro bog'liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoqning raqobatbardoshligi pirovardida muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq. Milliy iqtisodiyotning "Barqaror strategiya, tuzilma va raqobatchilik" sifatida belgilangan raqobat jihatdan ustunligini shakllantirishning eng muhim omilini ko'rib chiqamiz. Demak, mamlakatda kompaniyani tashkil etish va boshqarish tendensiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lum sharoitlarning mavjudligi ham ichki raqobatning xususiyatini belgilab beradi.

Ta'kidlash joizki, raqobat jihatdan ustunliklarni shakllantirish uchun mehnatga va xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga shaxsiy qiziqtirish ham muhim rol o'yndaydi. So'nggi o'n yilliklar iqtisodiy amaliyoti shuni isbotlamoqdaki, buyuk iqtidor va qobiliyat sohiblari millat uchun eng katta va ahamiyatli resurs hisoblanadi, chunki mamlakat erishayotgan yutuqlar ko'p jihatdan ushbu iqtidor sohiblari tanlaydigan ta'limming darajasi va xiliga, qayerda ishlashni afzal ko'rishiiga, ularning ishlashiga va harakat qilishiga bog'liq. Shuning uchun mamlakatlar insonlar nuqtai nazaridan nufuzli yoki undan milliy qahramonlar yetishib chiqadigan iqtisodiy faoliyatni raqobatbardosh qilishga intiladi.

## **4.2. Tovar raqobatbardoshligini baholash bosqichlari**

Tovar raqobatbardoshligini baholash asosan uch bosqichdan iborat. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – bozorni tahlil etish va qiyos tarzida foydalanish uchun eng raqobatbardosh namuna-tovarni tanlash. Namunani tanlash raqobatbardoshlikni tahlil qilishning eng mas’uliyatlari vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda xatolarga yo’l qo’yish jami ish natijalarini yo’qqa chiqarishi mumkin. Namuna tahlil qilinadigan tovar mansub bo’lgan tovarlar guruhidan, shu bozorga xos, keng doirada xaridorlar hurmatini qozongan bo’lishi lozim.

Ikkinci bosqich – ikkala tovarda qiyoslanadigan tomonlar majmuini belgilash. Shuni ta’kidlash lozimki, bozorga chiqarish mo’ljallanayotgan (loyihalanayotgan) tovar bilan bozorda bo’lgan tovarning parametrlari shunchaki oddiy qiyoslanadigan bo’lsa, raqobatchi tovarlar xaridorlar ehtiyojlarini qay darajada qondira olishi hamda xaridorlarning kelajakdagi talablariga qay darajada javob bera olishi masalasi e’tibordan chetda qoladi. Shu sababli qar qanday loyiha eng mukammal ma’noda iste’molchilarning ehtiyojlarini aniq-ravshan ifodalashdan boshlanmog’i lozim.

Uchinchi bosqich – tashkiliy parametrlar yetkazib berish shartlari, yetkazib berishning butligi, kafolat muddatlari, shartlari va boshqalar.


Tovarning iste’mol parametrlari majmuini aniqlash – uning raqobatbardoshligini tahlil qilishdagi eng muhim ish hisoblanadi. Shundan keyin bu parametrlarning ierarxiyasi belgilanadi, bunda istemolchi uchun eng muhim bo’lgan tomonlar birinchi o’ringa ko’yiladi.

## **4.3. Raqobatbardoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning**

### **M. Porter modeli (milliy romb)**

M. Porter konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy model mamlakatning umumiy xususiyatga ega bo’lgan va unda ishlab chiqaruvchilar raqobatlashadigan raqobat muhitini shakllantiruvchi 4 ta xususiyatdan iborat. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko’maklashishi ham yoki unga to’sqinlik qilishi ham mumkin.

## M.Porterning milliy rombi



*Mamlakatning raqobat ustunliklari determinantlari*

*"Omillar uchun shart-sharoitlar" determinanti*

Ishlab chiqarish omillari nazariyasi bo'yicha tovar aylanishining oqimi ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab beradi. Mamlakatda ishlab chiqarish omillarining mavjudligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Ishlab chiqarish omillarini shakkantirish va yangilashning tezligi va samaradorligi hamda iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarida qo'llash muhimdir. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtaсидagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat.

Umuman olganda, hududiy omilning roli nafaqat muhim, balki universal hamdir. Shu munosabat bilan M.Porterning nuqtai nazari g'oyat muhim bo'lib, uning qat'iy ta'kidlashiga ko'ra, mintaqaning geografik o'rni raqobatchilik uchun fundamental ahamiyat kasb etadi, "...jahon iqtisodiyoti sharoitida raqobatdagi barqaror ustunliklar ko'proq hollarda va ko'proq darajada mahalliy ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajada ixtisoslashgan kasbiy malakalar va bilimlar, institutlar, raqiblar, o'zaro bog'langan iqtisodiy faoliyat turlari, shuningdek muayyan mamlakat yoki mintaqadagi ko'pni ko'rgan va tajribali iste'molchilarning bir yerda to'planishidan yuzaga keladi. Geografik, madaniy va tashkiliy jihatdan yaqinlik axborotdan maxsus foydalanish imkoniyati, alohida munosabatlar, axborotga to'liq ega bo'lish, qudratli rag'batlantiruvchi

omillarning yuzaga kelishi, shuningdek masofadan turib ega bo'lish qiyinchilik tug'diradigan ishlab chiqarishdagi boshqa afzalliklarni ta'minlab beradi.... Geografik holat, avvalgi o'n yilliklardagidan boshqacharoq ma'noda bo'lsa-da, XXI asr chegarasida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda”.

Bunda muayyan hududga aniq “bog'langan” “hayot sifati” deb ataluvchi sintetik tushuncha raqobatbardoshlikning eng muhim jihatni bo'lib qoladiki, bu tushuncha har xil ko'lmandagi turli-tuman hodisalarini o'z ichiga oladi: bandlik masshtablari va xarakteri hamda mehnat sharoiti, ta'lim va savodxonlik darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik va uning qulayligi, ijtimoiy ta'minot tizimi, ekologik yashash sharoitlari va h.k.

Bularning hammasi esa hududiy jihatdan lokal (turg'un) joylashgan bozor potensialini, innovatsion va investitsion iqlimni, o'z ixtiyoridagi barqaror iqtisodiy takror ishlab chiqarishning ham, iste'molchilik standartlari, texnologiyalar, tovarlar, xizmatlar va kapitallarni boshqa minrtaqalarga “olg'a siljitis”ning ham imkoniyatlarni avvaldan belgilab beradi.

Turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar determinanti quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- Mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi;
- Insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta quyilmalar;
- Aholi hayot kechirishining uzoqligi;
- Ishchi kuchi resurslarining raqobatbardoshligi;
- Mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi.

#### **4.4. Makroiqtisodiy, mezoiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi raqobatbardoshlikni baholash**

Mezoiqtisodiyotning muayyan hududga “bog'langan”ligi mamlakatlar masshtabida ham, geoiqtisodiy masshtabda ham uning yetakchi (dominanta) funksiyalari o'rtaсидagi o'zaro munosabatlarni saqlab qoladi.

Mintaqaning funksional yo'nalganligi, bir tomonidan, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy potensialini belgilab bersa, ikkinchi tomonidan, u yoki bu funksiya doirasida raqobatchilikdagi ustunliklarni realizatsiya qilish uchun shart-sharoitlarni shakllantiradi. Funksional tipologiyaning klassik modelida (har qanday ancha soddalashtirilgan nazariy modelda bo'lganidek) u yoki bu mintaqaga har xil turlarga mansub bo'ladi, masalan,

agrар, agrар-industrial, industrial, rekreatsion va b. Bunday soddalashtirilgan tasnif mintaqaviy iqtisodiyotning ayrim yetakchi funksiyalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tasnif asosini avvalam bor funksional-sohaviy yondashuv tashkil qilishi mumkinki, bunda iqtisodiy faoliyatning nafaqat ustunlik qiluvchi yo'nalishlari, balki mintaqa uchun ixtisoslashgan (uning ixtisosligini belgilaydigan) yo'nalishlari ham mintaqa tasnifining asosi bo'ladi.

Mintaqalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro munosabatda, yagona iqtisodiy fazoda rivojlanar ekan, ularni tasniflashda (ayniqsa raqobatbardoshlikni parametrizatsiyalash ma'nosida) ayrim g'arb olimlarining (A. Fishera, D. Bella va b.) tadqiqotlarida o'z rivojini topayotgan iqtisodiyotni bir qator sektorlarga ajratishga qaratilgan yo'nalish alohida ahamiyat kasb etmoqda desa ham bo'ladi. Bular: birlamchi sektor (qishloq xo'jaligi, tog'-kon ishi, baliqchilik), ikkilamchi sektor (ishlab chiqaradigan sanoat), uchlamchi sektor (transport, kommunal xo'jalik), to'rlamchi sektor (savdo, moliya xizmatlari, sug'urta, ko'chmas mulk ustida o'tkaziladigan operatsiyalar), beshlamchi sektor (sog'liqni saqlash, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, davlat boshqaruvi sohasi, dam olish va ko'ngil ochish industriyasi).

Bu holda hudud (mintaqa, shahar va h.k.)ning raqobatbardoshligi mintaqaviy shart-sharoitlar va ijtimoiy ishlab chiqarish omillarining (shu jumladan, hududiy-lokalizatsion omilning, ya'ni global iqtisodiyotga mintaqqa egallagan joy) yig'indisini ham, boshqa mezoiqtisodiyotlar bilan solishtirganda, ulardan samarali foydalanishni ham o'z ichiga sig'diradigan sintetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ushbu omillardan foydalanish deganda, faqat xususiy va korporativ maqsadllarda emas, balki ko'proq butun hududiy umumlashmaning manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish ko'zda tutiladi.

Bu bilan bog'liq holda mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini tadqiq etishda tegishli ko'rsatkichlar (indikatorlar)ning bir butun yig'indisi bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Raqobatbardoshlik muammosining ushbu jihatiga diqqatni qaratar ekanmiz, unga baho berishda hozirgi zamon iqtisodiyotida anchayin diversifikatsion yondoshuv yuzaga kelganini ta'kidlab o'tmay bo'lmaydi.

M.Poter ham mintaqqa raqobatdardoshliligin baholashda (bu masala unda mamlakat raqobatbardoshligi konsepsiyasining o'ziga xos proeksiyasini tashkil etadi) umuman olganda xuddi shunga o'xshash yondoshuvdan kelib chiqadi. Ushbu muallifga ko'ra, mintaqqa raqobatdardoshliligi – bu mintaqaviy resurslardan, birinchi navbatda,

ishchi kuchi va kapitaldan foydalanishning boshqa mintaqalarga nisbatan unumdarligi (mahsuldarligi). Unumdarlik esa yalpi mintaqaviy mahsulot (YaRM)ning aholi jon boshiga miqdori bilan, shuningdek uning dinamikasida belgilanadi.

Raqobatbardoshlikning rivojlanishi quyidagi to'rtta bosqichda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish omillari asosidagi raqobatchilik;
- investitsiyalar asosidagi raqobatchilik;
- nou-xaular asosidagi raqobatchilik va;
- boylik asosidagi raqobatchilik.

Dastlabki uchta bosqich iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, oxirgisi esa turg'unlik va inqirozni keltirib chiqaradi.

### **Kalit so'z va iboralar**

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi. Tovar raqobatbardoshligi. Investitsiyalar asosidagi raqobatbardoshlik. M. Porter konsepsiysi. Zamonaviy modelning to'rt xususiyati. M. Porter modeli (milliy romb). "Omillar uchun shart-sharoitlar" determinanti. Turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar determinanti. Ishchi kuchi resurslari.

### **Topshiriqlar**

#### **1-masala. Vaziyatli masala**

Samarali va normal ish faoliyatini tashkil qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun xodimlar bo'limi rahbari firma prezidentidan korxonani malakali marketing tadqiqotchi xodimlar bilan ta'minlash vazifasini oldi.

Yangi xodimlar bo'limi funksiyalari boshqa an'anaviy faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar bo'limi funksiyalaridan farq qilishini hisobga olib, prezident belgilangan vazifalarni aniq qilib qo'ysi:

1. Xodimlar bo'limi boshqaruv tuzilmasini tasdiqlash va marketing tadqiqotlari funksiyalarni ishlab chiqish.
2. Xodimlarni tanlash va joylashtirish tamoyillarini, xodimlar malakasini oshirish tizimini, korxonani marketing tadqiqotlari uchun zarur kadrlar bilan ta'minlash tizimini ishlab chiqish.
3. Buning uchun quyidagilarni aniqlash:

- kadrlarga bo'lgan talab;
- kasb tayyorgarligi darajasi;
- mehnatga haq to'lash darajasi.

4. Korxona jamoasida ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish.

5. Korxona marketing tadqiqotlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaratish.

6. Amal qilayotgan ish bilan ta'minlash tizimiga baho berish hamda korxonani marketing tadqiqotlari xizmatchilari bilan ta'minlashning ichki va tashqi manbalarini aniqlash.

Prezidentdan topshirini olgach, xodimlar bo'limi rahbari bir qator vazifalarni bevosita funksional bo'linmalarga topshirdi. Bunda u kiritiluvchi takliflar muhokama uchun xodimlar bo'limi Kengashiga kiritilish lozimligini aytib o'tdi.

## 2-masala. Test

1. Quyidagilar ichida Joan Vayolet Robinsonning asarini topping.  
A) Nomonopolistik raqobat nazariyasi  
B) Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi\*  
S) Oligopolistik raqobat nazariyasi  
D) Monopolistik raqobat nazariyasi
2. Ushbu fikr kimga tegishli? «Monopolianing mohiyati – bu taklif va narx ustidan nazorat bo'ladi».  
A) E. Chemberlin\*  
B) J.B. Seyning  
S) J.V. Robinson  
D) A. Smit
3. “Quvvatlar ortiqchaligi fenomeni” kimga tegishli?  
A) J.B. Seyning  
B) A. Smit  
S) E. Chemberlin\*  
D) J. V. Robinson
4. 1937 yil “Nomukammal raqobat” va “Monopolistik raqobat” bir xil hodisaning ikki nomi deb tushuntirgan olim kim?  
A) J.B. Seyning  
B) A. Smit  
S) E. Chemberlin\*  
D) J.V. Robinson

5. "Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi" asarining muallifi kim?

- A) J.B. Seyning
- B) A. Smit
- C) E. Chemberlin
- D) J. V. Robinson\*

6. O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1992 yil, avgust\*
- B) 1995 yil, may
- C) 1991 yil, mart

7. «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonunga ko'ra quyidagilar man etiladi.

- A) Bozorda ataylab taqchillik hosil qilish
- B) Narxlarni monopollashtirish
- C) Raqobatning g'irrom usullarini qo'llash
- D) Barcha javoblar to'g'ri\*

8. Quyidagilardan qaysi bir hatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi?

- A) xo'jalik sub'ektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari;
- B) xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bozordagi ustunlik holatining suiste'mol qilinishi;
- C) davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyati organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan hatti-harakatlari;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.\*

#### **V BOB. MOLIYAVIY TAHLIL VA KORXONANI BOSHQARISHDA UNING USULLARI**

5.1. Moliyaviy holatini tahlil mohiyati va boshqaruvdagi ahamiyati

5.2. Moliyaviy tahlil xususiyatlari

5.3. Moliyaviy ahvol maqsad va vazifalari

5.1. Moliyaviy holatini tahlil qilish maqsad va vazifalari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari Mustaqillik, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli mulk

shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdosotiqa nisbatan erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun sherik tanlay bilish, o'zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to'liq egalik qilish huquqini berdi va bu moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi. Yangicha ish yuritish, jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yodam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tkazish bilan korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortdi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb muammoga aylanadi. Bozor munosabatlaring shakllanishi, rivojlanishi ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari – foya va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir sharoitda, iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Mustaqil mamlakatimiz dastlabki yillardanoq sobiq ittifoq respublikalari singari rejali va markazlashtirilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun qadam qo'ya boshladi. Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'ziga xos va mos bo'lgan bosqichma-bosqich hamda kuchli ijtimoiy muhofaza qilish yo'lini tanladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida iqtisodiyotni isloh qilishning g'oyat muhim yo'naliшlarini belgilab beruvchi asosiy ustuvor yo'naliшlar belgilab olindi. Shu jihatdan, O'zbekistonda isloh qilish – mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish bilan belgilanadi. Mazkur masalalarni to'g'ri mushohada qilgan holda birinchi Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: – «Oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy

o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg'or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo'lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish muammosidir<sup>9</sup>, deb ta'kidlagan. Bu, Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalari foyda ko'rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko'rsatishini talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, korxonalarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil mukammal ishlashi kerak. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarni chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o'zgarishlariga mos tarzda qayta qurish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini o'rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ham, keyingi yillarda respublikamizda boshqaruv va moliyaviy tahlilga e'tibor kuchaygan. Bu esa bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni hamda zamonaviy iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda. Ushbu holatni hisobga oladigan bo'lsak, korxonalarning moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to'g'ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog'lomlashtirish imkoniyatlarga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi. Agar ilgari korxonalarning xo'jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug'ullangan bo'lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko'rsatilagan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamao tashkilotlari, aksionerlar, ta'minlovchilar, iste'molchilar va boshqa organlar, tashkilotlar ham shug'ullanishmoqda. Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo'yamoqda. Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, jumladan, korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishning uslubiy masalalari markazda – butun ittifoq organlari tomonidan ishlab chiqilgan va muammolar yechilgan ittifoqdosh respublikalarga foydalanish uchun jo'natilgan. Sobiq ittifoqning parchalanishi tufayli ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandi, ulardan har bittasi bozor

<sup>9</sup> I.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.: «O'zbekiston». 1995 y.

munosabatlariiga o'tish uchun o'z yo'lini tanlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirib, bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda. Ular orasida O'zbekiston ham o'zining bozor iqtisodiyotiga o'tish modelini ishlab chiqib, xalq xo'jaligini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirgan holda ijobjiy natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri – bu boshqaruvin tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobjiy hal etishda korxonalarning xo'jalik faoliyatini va moliyaviy holatini tahlil qilish muhim rol o'yndaydi, chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruvin tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bozor munosabatlari davrida bu shartning asosiy qismi korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Respublikada yangi moliyaviy hisobot shakkllari qabul qilindi, ularni o'rganish va ulardan keng foydalanish uslublarini barpo etish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani yechish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin bu borada hali yechilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlil o'tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtayi nazardan asoslangan uslub bilan ta'minlanmagan. Bu holat, albatta bozor munosabatlari shakllantirish davrida korxona va tashkilotlarga samarali boshqaruvcilik qilishda salbiy rol o'yynamoqda. Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq pul hisob – kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdag'i mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, budjet, bank, xom-ashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonani moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi, budjet, bank, mol yetkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob – kitob ishlari o'z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga rioya qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarini ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytirilgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Korxonalarning moliyaviy holati bu – kompleks ravishdagi tushuncha bo’lib, u o’z ichiga keng ko’rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalandaydi; · korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo’jalik omillarining harakati, ularning o’zaro aloqadorlik natijasidir; · korxonalarning mo’tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo’lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasi; korxonalarning boshqa xo’jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o’zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir. Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta’siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan aloqada bo’lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarning moliyaviy holatiga ta’sir ko’rsatadi. Korxonalarning ishlab chiqarish, xo’jalik faoliyatini, jumladan, ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi, demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo’lishlari lozim.

## **5.2. Moliyaviy tahlil xususiyatlari**

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish, ya’ni moliyaviy tahlil – bu keng ko’rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir. Moliyaviy tahlil ko’p qirrali murakkab jarayon bo’lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- absolut va nisbiy ko’rsatkichlar o’rtasidagi aloqalarni borligini bilish;
- moliyaviy tahlil mobaynida absolut va nisbiy ko’rsatkichlardan birgalikda foydalanish;
- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga – alohida hodisalardan umumiyl hodisalarga o’tish, moliyaviy holatning bir shakl ko’rinishidan umumiyl ko’rinishga o’tish va deduktiv usulga – umumiyl hodisalardan alohida hodisalarga o’tishga asoslanib tahlil qilish;
- hamma foydalanilayotgan ko’rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;

- moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxona ko'rsatkichlarini boshqa korxonalar, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari va ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo'lisligi va korxonalarining umumiyligi moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;
- moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish;
- moliyaviy tahlil obyektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;
- moliyaviy tahlil o'z vaqtida o'tkazilib, tahlil yakunlariga 300 asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o'z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;
- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o'tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo'nalishlari ifodalanishi lozim;
- moliyaviy tahlil o'z vaqtida va haqqoniy o'tkazilishi moliyaviy holatni ko'tarishga bag'ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi kerak;
- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtida o'tkazilishi kerakki, tahlil yakunlari quyidagi maqsadni amalga oshirib, korxona boshqaruva faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini tug'dirishi lozim;
- moliyaviy tahlil barcha yig'ilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kerakli ko'rsatkichlardan foydalanib, bu ko'rsatkichlarning asosligi to'g'ri usullarda aniqlanishi lozim.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning natijalaridan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning subyektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxona, tashkilotlar tarkibi keng;
- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma'lumotlarga asoslanadi;
- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruva muammolarini yechish uchun o'tkaziladi;
- moliyaviy tahlilning yo'nalishi moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan cheklangan bo'lib, unda chegaralangan aniq bir vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamilik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir. Ko'rinish turibdiki, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o'tkaziladi.

### **5.3. Moliyaviy ahvol maqsad va vazifalari**

Korxonalarini ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an'anaviy, qadimdan qo'llanilib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o'tkazish, absolut, nisbiy, o'rtacha, dinamik ko'rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelatsiya aloqalarini aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim. Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab va muhim bo'lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo'lishi lozim.

Yuqorida ko'rilgan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilishi lozim:

1. Korxonalarining moliyaviy darajasini baholash;
2. Moliyaviy holatning o'zgarishini aniqlash;
3. Korxonaning to'lov qobiliyatiga baho berish;
4. Moliyaviy holatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish;
5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligiga baho berish;
6. Korxona balansi likvidligiga baho berish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
7. Aylanma mablag'lar aylanishiga baho berish;
8. Korxonalarda qo'lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanimagan imkoniyatlarni, mayjud zaxiralarni ko'rsatib berish;
9. Korxonalarda hali foydalanimagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko'rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko'rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning obyektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy obyekti, xo'jalik subyektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi, lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin. Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtayi nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lган ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o'рганилади. Масалан, korxona mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarning hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'згарishi ifodalanadi;

- nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'рганилади. Масалан korxona mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalanadi;

- taqqoslash tahlilida korxona bo'yicha moliyaviy holat uning alohida kichik bo'limlari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy holati bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi. Korxanalar faoliyatini o'рганишда buxgalteriya hisoboti asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma'lumotlarning umumlashtirilishi natijasida tuziladi hamkorlikda ishlovchilar o'rtasida bir-birini o'рганиш vositasi bo'ladi. Hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyatini o'рганишга qiziquvchilarни shartli ravishda bevosita va bilvosita talabgorlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mulk egalari, qarz beruvchi, mol yetkazib beruvchi, xaridolar, soliqchilar, moliyachilar, korxona ishchi va rahbar xodimlari kiradi. Har bir qiziquvchi o'zining manfaati va talabiga qarab moliyaviy hisobotlarni tahlil etadi. Mulk egasi sarmoyadan qanchalik samarali foydalanilayotganligi, qo'shma olinadigan daromad summasi bilan qiziqsa, qarz beruvchi berilgan mablag'ni qaytarib olish imkoniyatini oldindan bilishga harakat qiladi. Bilvosita qiziquvchi iste'molchilarga auditorlik firmalari, birjalar, assotsiatsiya vakillari, matbuot xodimlari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi. Ular moliyaviy holatga aloqador bo'lmasada, birinchi guruh talabgorlarning manfaatini himoyalash maqsadida hisobot ma'lumotlarini o'рганадilar. Moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berish muhim vazifadir. Usbu kitobda buxgalteriya hisoboti asosida korxonalar faoliyatining moliyaviy tahlilini o'tkazish uslubi bayon etilgan. U moliyaviy hisobotni o'рганишга qiziquvchi tadbirkorlar, soliq, moliya, bank tizimi xodimlari va keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljalangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamoa, qo'shma, kichik, hissadorlik, xususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lган korxonalar

moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatga bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan – baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois, bozor, sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;
- mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatalgilanligini aniqlash;
- hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditorlik qarzlarini tarkibini o'rganish;
- korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtaqidagi nisbat va aylanma mablag'larni manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- korxona mulkining kadrligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- aylanma mablag'lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish va hokazo. Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagি yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarining bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo'ladigan manbalarga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va boshqa hisobot ma'lumotlari kiradi. Shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schetlari ma'lumotlaridan ham keng foydalanish lozim, chunki keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag'lar, zaxira jamg'armasi, foyda va zararlar, turli xil hisobkitoblar,

qimmatli qog'oz va veksellar bo'yicha ma'lumotlardan ko'proq foydalанилди. Bular xo'jalik faoliyatining to'g'ri boshqарilishi, uning moliyaviy barqарор bo'lishi va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### **Kalit so'zlar va iboralar**

Moliyaviy tahlii, moliyaviy boshqарув, noliyaviy mustahкам, barqарорлик, likvidlik, rentabellik, ho'jalik faoliyati tahlili.

### **Topshiriqlar**

#### **1-masala. Vaziyatli masala**

Samarali va normal ish faoliyatini tashkil qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun xodimlar bo'limi rahbari firma prezidentidan korxonani malakali marketing tadqiqotchi xodimlar bilan ta'minlash vazifasini oldi.

Yangi xodimlar bo'limi funksiyalari boshqa an'anaviy faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar bo'limi funksiyalaridan farq qilishini hisobga olib, prezident belgilangan vazifalarni aniq qilib qo'ydi:

1. Xodimlar bo'limi boshqарув tuzilmasini tasdiqlash va marketing tadqiqotlari funksiyalarini ishlab chiqish.

2. Xodimlarni tanlash va joylashtirish tamoyillarini, xodimlar malakasini oshirish tizimini, korxonani marketing tadqiqotlari uchun zarur kadrlar bilan ta'minlash tizimini ishlab chiqish.

3. Buning uchun quyidagilarni aniqlash:

- kadrlarga bo'lgan talab;
- kasb tayyorgарligi darajasi;
- mehnatga haq to'lash darajasi.

4. Korxona jamoasida ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish.

5. Korxona marketing tadqiqotlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaratish.

6. Amal qilayotgan ish bilan ta'minlash tizimiga baho berish hamda korxonani marketing tadqiqotlari xizmatchilari bilan ta'minlashning ichki va tashqi manbalarini aniqlash.

Prezidentdan topshiriqni olgach, xodimlar bo'limi rahbari bir qator vazifalarni bevosita funksional bo'linmalarga topshirdi. Bunda u kiritiluvchi takliflar muhokama uchun xodimlar bo'limi Kengashiga kiritilish lozimligini aytib o'tdi.

## 2-masala Test

1. Quyidagilar ichida Joan Vayolet Robinsonning asarini toping.

- A) Nomonopolistik raqobat nazariyasi
- B) Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi\*
- S) Oligopolistik raqobat nazariyasi
- D) Monopolistik raqobat nazariyasi

2. Ushbu fikr kimga tegishli? «Monopolianing mohiyati – bu taklif va narx ustidan nazorat bo’ladi».

- A) E. Chemberlin\*
- B) J.B. Seyning
- S) J. V. Robinson
- D) A. Smit

3. “Quvvatlar ortiqchaligi fenomeni” kimga tegishli?

- A) J.B. Seyning
- B) A. Smit
- S) E. Chemberlin\*
- D) J.V. Robinson

4. 1937 yil “Nomukammal raqobat” va “Monopolistik raqobat” bir xil hodisaning ikki nomi deb tushuntirgan olim kim?

- A) J.B. Seyning
- B) A. Smit
- S) E. Chemberlin\*
- D) J.V. Robinson

5. “Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi” asarining muallifi kim?

- A) J.B. Seyning
- B) A. Smit
- S) E. Chemberlin
- D) J.V. Robinson\*

6. O’zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to’g’risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1992 yil, avgust\*
- B) 1995 yil, may
- S) 1991 yil, mart
- D) 1997 yil, iyun

7. «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonunga ko'ra quyidagilar man etiladi.

- A) Bozorda ataylab taqchillik hosil qilish
- B) Narxlarni monopollashtirish
- S) Raqobatning g'irrom usullarini qo'llash
- D) Barcha javoblar to'g'ri\*

8. Quyidagilardan qaysi bir hatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi?

- A) xo'jalik sub'ektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari
- B) xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bozordagi ustunlik holatining suiste'mol qilinishi
- S) davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyati organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan hatti-harakatlari
- D) Barcha javoblar to'g'ri.\*

## **VI BOB. KORXONALARINI RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISH**

6.1. Korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda aktivlarning ahamiyati

6.2. Aktivlar tahlilining maqsad va vazifalari

6.3. Mulkiy holat tahlili

6.1. Korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda aktivlarning ahamiyati

### **6.1. Korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda aktivlarning ahamiyati**

Balans ma'lumotlarida ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jaib qilingan manbalar o'z aksini topadi. Bu ko'sratkichlar mol-mulk hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadaligini ifodalandaydi.

Shuningdek, mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya'ni o'ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jaib qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band bo'lim korxonalarining moliyaviy holatiga bog'liq, shuning uchun ham uni chuqr o'rganish lozim.

**Aktiv qism** – asosiy va aylanma mablag’larning holatini ko’rsatib, moliyaviy xo’jalik jarayonini yuritish vazifasini bajarishda bu mulklardan foydalanadi. Mulk to’plangan moliyaviy hamda davlat tashkilotlari mablag’i, xususiy shaxslar jamg’armasi, hissador va ta’sischilarning ulushi, bank krediti, chet ellik sarmoyadorlar va hokazo mablag’lar evaziga sotib olinadi. Ayrim hollarda ta’sischilar asosiy vosita va moddiy boyliklarning o’zini berishi ham mumkin. Asosiy va aylanma mablag’lar ishlab chiqarish faoliyatini uzuksiz yuritishga xizmat qiladi. O’z-o’zidan bu faoliyat davomida o’zgaradi, harakatda bo’ladi va tarkibi yanada yangilanadi.

Balansning birinchi bo’limi «**Uzoq muddatli aktivlar**» deb nomlanib, nomoddiy aktiv va asosiy vositalar boshlang’ich, eskirish va qoldiq qiymatda, o’rnatiladigan asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital va uzoq muddatli qo’yilma ta’sischilar bilan hisob-kitoblar va boshqa oborotdan tashqari bo’lgan aktivlardan iboratdir. Nomoddiy aktivlar korxonaga daromad keltirish yoki uning ishlab chiqarishini yuritishga shart-sharoit yaratuvchi, natural buyum shakliga ega bo’lgan mulkiy huquqiy qiymatlar, patentlar, mualliflik huquqi, savdo markalari, «Nouxau», yerdan, suvdan va boshqa tabiiy boyliklardan, bino, inshoot va qurilmalardan foydalanish huquqlaridan iborat bo’ladi, shuningdek, bu bandda hissadorlik jamiyati boshqaruvi kelishuviga muvofiq “Nizom” jamg’armasini tashkil etish uchun ajratgan nomoddiy aktivlari ham aks etadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida korxona manfaati uchun kelgusida ishlatilishi mo’ljallangan ilg’or texnologiyalardan foydalanish huquqi, ularni olib kelish va ishlatishga tayyorlash xarajatlari qo’shilgan holda aks etadi. Bu holat qo’shma korxonalardagi O’zbekiston Respublikasining rezidenti bo’lgan yuridik shaxs bilan xorijiy sarmoyadorlar hamkorligi tufayli ko’proq vujudga keladi. Ishlab chiqarish va xizmat binolari, inshootlar va uskunalardan foydalanish xarajatlari ijara haqi summasiga teng bo’ladi. Umuman nomoddiy aktivlar boshlang’ich bahoda ko’rsatiladi, xizmat muddatiga qarab uning eskirishi hisoblanadi va balans jamlanganda qoldiq bahodagi summa qo’shiladi. «Asosiy vositalar» bandida balans tuzilgan vaqtgacha bo’lgan 0100 schotlari qoldig’i ko’rsatiladi. Bu schotning debetida yil davomida kirim qilingan, kreditida esa yil davomida chiqib ketganlari aks ettiriladi. Asosiy vositalar bo’yicha eskirish hisoblanadi. To’liq tiklash uchun hisoblangan amortizatsiya summasiga eskirish teng deb shartli qabul qilinadi. Amortizatsiyani hisoblash maxsus me’yorlar asosida (boshlang’ich yoki tiklash bahosiga nisbatan foiz hisobida) aniqlanadi. Me’yorlar har bir

asosiy vosita turlari bo'yicha differensiyalashgan, lekin amortizatsiyani hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddati tugaguncha, boshlang'ich yoki qoldiq qiymatini eskirish sifatida yangi yaratilayotgan qiymatga o'tkazishi lozim. Hisoblashning tezlashgan me'yorini qo'llash mumkin, faqat bu tartib faol qatnashuvchi (mashina, uskuna va transport) vositalarga taalluqli. Asosiy vositalarning eskirishi 0200 schotlarida hisoblangach, shunga qarab amortizatsiyalashgan yoki qoldiq bahodagi asosiy vositalar hajmi aniqlanadi, ya'ni boshlang'ich bahodan (0100 schot) eskirish summa (0200 schot) ayirib topiladi. Shu bandda uzoq muddatga ijara olingan, ishlatalishi yoki kontservatsiyada turganligidan qat'iy nazar balansidagi asosiy vositalar qiymati aks etadi. Balansning qolgan qismida kapital qo'yilmalar, shu'ba korxonalardagi aksiyalar, shu'ba korxonalarga berilgan qarzlar, uyushma korxonalardagi aksiyalar, uyushma korxonalariga berilgan qarzlar, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar ko'rsatiladi. Bu xo'jalik yoki pudrat usulida bajarilayotgan tugallanmagan kapital qurilish asosiy foda tuzish xarajatlar, moddiy boyliklar qidirish ishlari uchun sarflar va shu maqsadlarga ajratiladigan mablag'larni ko'rsatadi. Kapital xarajatlarni korxona o'z mablag'i yoki uzoq muddatli kredit evaziga bajarishi mumkin. «Uzoq muddatli investitsiyalar» bandida hamkorlikda ishslashga kelishganlarning korxona ustav fondiga qo'shgan hissasi yoki bergen qarzi, bir yildan ortiq muddatga qimmatli qog'oz uchun qo'ygan mablag'i ko'rsatiladi. Qimmatli qog'ozlar mulk egasining huquqini aks ettirib, ma'lum darajadagi qo'shimcha foydaning foizi daromad keltiradi. Bunday qog'ozlar boshqa korxonalarning aksiya va obligatsiyalari, davlat tomonidan chiqarilgan ichki zaym hamda bankdan sotib olingan uzoq muddatli jamg'armali sertifikatlardir. Bu band uchun summani 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalar» schotlari qoldig'idan olinadi.

Balans aktivining II bo'limi «**Joriy aktivlar**» deb nomlanib, asosiy o'rinni «Tovar-moddiy zaxiralar» bandi egallaydi. Bu bandda korxona ishlab chiqarishini yuritishga zarur bo'lgan buyumlar jamlanadi. Unda xomashyo va materiallar, sotib olingan yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va detallar, urug', yem-xashak, yoqilg'i, idishlar va idishbop materiallar, ehtirot qismlar, qayta ishslash uchun chetga berilgan materialarning haqiqiy tannarxi (sotib olish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar) ko'rsatiladi. Ushbu bo'limning yangi xususiyati shundaki, arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar boshlang'ich, eskirish va qoldiq baholarda keltiriladi hamda balans jamlanganda faqat qoldiq bahodagi, ya'ni yaroqli qiymati qo'shiladi. Pul

mablag'lari, valuta mablag'lar, g'aznadagi pullar, qisqa muddatli qo'yilmalar bandlarida material shaklida bo'lmanan boyliklar aks ettiriladi. Bu mablag'larning hajmi korxonaning ixtisoslashganligi, bozor munosabatlarida ta'minotning tashkillashtirilishi va boshqa ko'pgina sabablarga bog'liq. Masalan, sanoatda pul salmog'i yuqori bo'lsa, savdo tashkilotlarida esa debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'p bo'lishi mumkin, chunki bu tovarlarni sotishga borib qadaladi. Eng avvalo, debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'rsatiladi, chunki hozirgi sharoitda bu masalani tahlil qilib turish zarur. Debitorlar boshqa yuridik (korxona, tashkilot va muassasa) va jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan qarzdorlardir. Qarzdorlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin: odatdag'i va asoslanmagan. Odatdag'i qarzlarga ishlab chiqarish, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatishga avvaldan qarz berish, da'vo qilish va shu kabi munosabatlar tufayli yuzaga kelgan, ammo to'lash muddati hal etmaganlari kiradi. Asoslanmagan qarzlar faoliyat davomidagi kamchiliklar, tovar va moddiy boyliklarning kamomadi, o'g'rilik va har xil yo'qolishlar hisobiga paydo bo'ladı. Bu holat doimo nazoratda bo'lib, muntazam tahlil etib borishni talab qiladi. Umuman, debitor qarzlarning mayjudligi moliyaviy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingen veksellar bo'yicha, sho'ba korxonalari, budjet, xodimlar va boshqa debitorlar bilan bo'lgan munosabatlar xususida balans tuzilgan davrdagi holat ko'rsatiladi. II bo'lim aktivida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar ham keltiriladi. Mablag'larni o'rganishda pul mablag'lari tahlili alohida o'rinni egallaydi. Bunday mablag'lar hisob-kitobiga, valuta schoti va g'aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag'lar to'lov majburiyatlarini bajarilishida birlamchi vosita bo'lib xizmat kiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valuta schotidagi mablag'lar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, budjet, bank, sug'urta va boshqalar bilan bo'ladigan aloqa manbayidir. Shu tufayli bu masala alohida o'rganilishi lozim. Shu yerda o'tgan va joriy yildagi ko'rilgan zararlar ham aks ettirilishi kerak. Korxona mulki va mablag'larning kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlarini kiradi. Passiv ham xuddi aktiv qism kabi ikkita bo'limdan iborat.

Balans passivining birinchi bo'limi «**O'z mablag'lari manbalari**» deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital,

taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks ettiriladi. Passivning «Ustav kapitali» bandida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lar ko'rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashching qo'shgan hissasi ustav fondida ko'rsatiladi. Dividend sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo'shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o'ziga tegishli mablag'i va aksionerlarning qo'shgan hissasidan iborat bo'ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. Hamkorlikdagi, hissadorlik, qo'shma va kichik korxonalarining nizom jamg'armasi hajmi qatnashchilar qo'shgan badallar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qo'shilgan kapital, rezerv kapital bandlarida korxonaning boyliklarini qayta baholanishidan, olgan foydasidan tashkil etilgan rezervlardan, qo'shimcha aksiyalar chiqarish natijalaridan ko'paygan xususiy manbalar ko'rsatiladi. Passiv I bo'limiga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonani olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog'liqdir. Korxona o'z oldidagi foydadan to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajarib bo'lgandan so'ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalаниши ko'zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o'tgan yillardagi foydadan qolgan summa larni ham ifodalandaydi. Balansda korxonaning o'z mablag'lari manbayi qancha ko'p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo'ladi.

Balans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, unda korxonaning uzoq muddatli joriy majburiyatları aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlar hamda shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi. Bank kreditlari ishlab chiqarishni texnik jihozlash, asosiy vositalar sotib olish va ko'rish, asosiy poda tashkil qilish va boshqa ko'pgina istiqbolli loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida olinishi mumkin. Qarzlar bandida esa boshqa korxonalardan (bankdan tashqari) olingan qarz summalarini ko'rsatiladi. Bu bandlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «Uzoq muddatli qarzlar» schotlar qoldig'idan olinadi. II bo'lim passivini o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Balans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, bu bo'limda qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarini, korxona ishchixizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlari,

xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mehnatga haq to'lash bo'yicha, ijtimoiy himoyalash, sug'urta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy sug'urta, budjet bilan, undan tashqari to'lovlar, sho'ba korxonalari bilan bo'ladigan hisobkitoblar ko'rsatiladi. Bularidan tashqari xaridorlar va buyurtmachilardan olingen avanslar, ko'zda tutilgan daromadlar, xarajatlar va to'lovlar zaxirasi, dargumon qarzlar bo'yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo'limda aks ettiriladi. Ushbu bo'lim passivida juda ko'p buxgalteriya hisobi schotlarining kredit qoldig'i keltiriladi. Korxona balansini o'rganishda asosiy e'tibor yil boshida o'tgan davrda mulk va mablag'larning qanchalik o'zgaganligi hamda aktivdag'i har bir band passivdagi manbalar bilan qanchalik ta'minlaganligiga qaratiladi. Shunday qilib, korxona balansining tuzilish shakli doimo takomillashtirilgan. Bu takomillashtirish quyidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi:

**Birinchidan**, balansning ham aktiv, ham passivi bo'yicha bo'limlari soni o'zgarib, korxona mablag'lari va ularning manbalari konsentratsiyalanib bordi.

**Ikkinchidan**, balans bo'limlarining nomlari o'zgarib, yangi nomlarda mablag'lar va ularning manbalari mazmuni to'liqroq aks ettirila boshlandi.

**Uchinchidan**, korxona balanslarining o'zgarishida alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining mablag'lari va ularni qoplovchi manbalarining xususiyatlari e'tiborga olingen.

**To'rtinchidan**, xalq xo'jaligini bozor munosabatlariiga o'tkazilishi munosabati bilan korxona balansi bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan yo'nalishda takomillashtirilmoqda.

**Beshinchidan**, moliyaviy tahlil o'tkazishni yengillashtirish maqsadida balans-bruttodan balans-nettoga o'tildi.

**Oltinchidan**, respublikamiz jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashib borar ekan, mamlakatda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qilish xalqaro standartlarga o'tkazilamoqda. Yuqorida aytiganidek, korxona balansi ikki shaklda bo'lishi mumkin: balans-brutto, balans-netto. «Brutto» atamasi italyancha «brutto» so'zidan olingen bo'lib, u dag'al, toza emas degani, «netto» atamasining ma'nosi toza demakdir. Sobiq ittifoq davrida ham balans-brutto, balans-netto keng foydalanilgan.

Balans-brutto 1938-yilgacha bo'lgan, 1938-1952-yillarda balansnettoga o'tilgan, 1952-1992-yillarda balans-bruttoga qaytilgan, 1993-yildan boshlab, yana balans-nettoga o'tildi. Balans-brutto, balans-

nettoda korxona mablag'larini har xil ifodalanadi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar bo'lib, korxona mablag'larini, ularning manbalari haqiqiy hajmlarini aniqlashda to'sqinlik qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun balansnetto ma'lumotlaridan foydalanish lozim. Buxgalteriya balansini tahlil qilishga tayyorlash uni tuzishning to'g'rilingini va ayrim moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko'rsatkichlari bilan hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashni, uning ayrim ko'rsatkichlarini tartibga soluvchi summalaridan «tozalash»ni va yirikroq pul o'lchamidagi summalarini yaxlitlashni nazarda tutadi.

## **6.2. Aktivlar tahlilining maqsad va vazifalari**

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkinning tarkibini o'rganish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash xo'jalik faoliyatining tahlilida muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, balansga qarab korxona mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi. Korxona mablag'lariga, asosan, vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablag'larini kiradi. Ularni miqdori hissadorlik, hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarining kattakichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog'liqdir.

Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxona mulki, zaxiralar va xarajatlarni har tomonlama o'rganishdir. Bunday mablag'lar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, ya'ni xomashyo va materiallar, sotib olingan yarimfabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruksiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlari, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug' va yemxashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar kiradi. Ular korxonaning bir me'yorda ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish rejasini ta'minlashga yetarli bo'lishi lozim. Shuningdek, zaxira va xarajatlar tarkibiga o'simlik va chorvachilik bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o'rganish va tahlil etish lozim bo'ladi. Quyidagi jadvalda korxona mulkinning hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma'lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati

o'rganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning jami summasiga teng bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishi lozim. Bozor sharoitida aylanma mablag'lar, zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi eng kam, sof faoliyat ko'rsatadigan sharoitiga yetarli bo'lishi lozim. Tahlilda esa balans ma'lumotlari va materiallarni hisoblovchi schotlardan foydalaniladi.

### **6.3. Mulkiy holat tahlili**

Balansning passiv qismida korxona mablag'larini qoplash manbalari ko'rsatiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. O'zlik mablag'larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli bo'lgan ustav kapitali, qo'shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foya (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxona ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, homiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foya alohida o'rinni egallaydi. Foya hajmining ko'payishi eng avvalo Ustav jamg'armasini to'ldirishga va boshqa rezerv jamg'armalari yaratilishiga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda. Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljallab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi, shuningdek, kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu yerda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlaridan tashqari budgetga, sug'urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodi qonuniyatları va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. Xususiy kapital (o'z mablag'lar manbayi) hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;

- taqsimlanmagan foyda;
- xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbayining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischilar tomonidan qo'yilgan pay to'lovlari, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischilaryig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi. Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budgeti tomonidan ajratilgan mulknki ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi. Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

***Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:***

1. Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda – bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi, lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710 – «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – «Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi. Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsiyentlar usuli eng ilg'or metodlardan hisoblanib, bizning o'rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

***Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar o'rganiladi va ular shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:***

1. Rentabellik koeffitsiyentlari.
2. Likvidlik koeffitsiyentlari.
3. To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffitsiyentlarni oladi: *demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:*

1. Xususiy kapital rentabelligi.
2. Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi.

3. Leveridj.
4. Sotish rentabelligi.

#### **Likvidlilik koeffitsiyentlariga:**

- a) tez likvidlilik koeffitsiyenti;
- b) debtorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti;
- d) ishlab chiqarish zaxiralarini aylanishi koeffitsiyenti;
- e) qiyin likvidlilik koeffitsiyenti.

To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsiyentlarga quyidagilar kiradi:

1. Qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsiyenti.
2. Xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsiyenti.
3. Qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summalar o'rganiladi. Bu koeffitsiyentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsiyentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

**Xususiy kapital rentabelligi.** Bu rentabellik turida har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun, *Sof foyda Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati* ko'rinishida hisob-kitob ishlarini bajarishimiz kerak. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

**Jami investitsiyalar rentabelligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun, *Sof foyda + (Kreditlar uchun foiz\*foyda solig'inining korrektirovka qilingan stavkasi)+Rezervlar uchun ajratma.*

**Jami aktivlarning o'rtacha qiymatikabi** hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatini yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'inining korrektirovksi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

**Leveridj.** Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa korxonaning xususiy kapitalini shunchalik o'sganligini beradi.

**Bir aksiya uchun daromadni** hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

### **Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.**

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbayiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi. Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsiyent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa A1>A2 u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi, aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

### **Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.**

Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsiyentning kamida 50 % ga ega bo'lishlari lozim.

Korxonaning mavjud pul mablag'lari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'lganligi uchun hamda qimmatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatalishi mumkinligini hisobga olib, to'lov qobiliyatini belgilovchi koeffitsiyent hisoblaniladi, shuningdek, turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xilligi e'tiborga olinganda, tayyor mahsulot zaxiralari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarimfabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish zurur. Bundan tashqari to'lov qobiliyatining o'zgarishida debitorlik qarzlarining pulga aylanish tezligi, bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog'liqdir. Agarda, debitor, mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga yo'naltirilsa, oraliq to'lov qarzlarini qoplashlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi hisoblanadi, demak, korxona qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini qoplashga o'zining barcha aylanma mablag'larini, ya'ni zaxiralar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jaib etishi lozim bo'ladi. Kelgusi yilda korxonaning to'lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahvil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to'lovlari bajariladi va ehtiyyot rivojlantirish jamg'armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi. Korxonaning to'lov qobiliyatini tahvil qilishda sof tushum koeffitsiyentini hisoblash muhimdir, bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan korxonalarda o'ziga qarashli mol-mulkni ko'paytirish ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, hissadorlik va boshqa jamg'armalarni to'ldirib borish sururdir. Bu hissadorlar, ustav fondi qatnashchilari va a'zolarning

badallari hisobiga to'ldiriladi. Shuning uchun ham a'zolarining kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u to'ldirib borilishi zarur. Korxona balansini o'rganishda, albatta, nizom jamg'armasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sababları tahlil qilinadi. Ustav fondining ko'payishi ham moliyaviy barqarorlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi.

### ***Kalit so'zlar va iboralar***

Korxona aktivlari, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, korxona passivlari, o'z mablag'lar manbalari, majburiyatlar, boshqaruv qarorlar, mulkiy holat, likvidlik, to'lovga layoqatlik, moliyaviy barqarorlik.

### **Topshiriqlar**

#### **1-masala**

Bir monopol firma uchun bozor tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, uning bir birlik mahsuloti 100 ming so'mdan oshiq narxda sotilishi mumkin emas, 75 ming so'mdan sotilganda esa sotish hajmi 10 donani tashkil qiladi. Topshiriq:

- eng yuqori aylanish uchun sotuvdagagi narx funksiyasini tuzing.
- Maksimal aylanish uchun erishilgan talabning elastikligini aniqlang.

#### **2-masala**

Sizga firmanın ishlаб chiqaradigan tovarları marketingini tahlil qilish topshirilgan.

Anketaga shunday savollar tuzingki, firma boshqaruvchilari tomonidan berilgan javoblar sizga tashhis qilish imkoniyatini bersin.

#### **3-masala.**

##### **Test**

1. Korxona ishlаб chiqargan oziq – ovqat mahsulotlarining bozordagi ulushi necha foiz bo'lsa, u monopolist sifatida davlat reestriga kiritiladi?

- A) 17%
- B) 15%
- C) 20%\*
- D) 19%

2. Korxona ishlаб chiqargan nooziq – ovqat mahsulotlarining bozordagi ulushi necha foiz bo'lsa, u monopolist sifatida davlat reestriga kiritiladi?

- A) 18%
- B) 22%
- C) 25%
- D) 35%\*

3. Davlat o'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarga qanday chora ko'radi?

- A) hech qanday chora ko'rmaydi
- B) bo'lib tashlaydi yoki maydalashtiradi \*
- C) soliqlardan ozod etadi
- D) preferensiyalar beradi

## VII BOB. KORXONA KAPITALINI BOSHQARISH

- 7.1. Korxona kapitalning mohiyati
- 7.2. Xususiy kapital tahlilining vazifalari
- 7.3. Korxona kapitalini boshqarish

### 7.1. Korxona kapilining mohiyati

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi. Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbayining asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Buxgalteriya hisobi fanidan ma'lumki korxona, tashkilot va firmalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbayi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'z mablag'lari manbayi;
- qarz mablag'lari.

Sobiq ittifoq davrida esa bu mablag'lar manbayiga budjetdan ajratmalar ham kirgan. Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tganimizdan keyin bu mablag'lari manbayi bekor qilingan. Chunki bu manbaning yo'q qilinishi Respublikamizdag'i boqimandalik tizimini tugatishni ta'minladi.

Endilikda esa yuqorida sanab o'tganlarimiz korxonalarni mablag'lar bilan ta'minlash manbayi bo'lib kelmoqda. Korxona, tashkilot yoki firma

ochilish davrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni qaysi manba hisobiga qoplash kerakligi ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lsa, o'z mablag'lar manbayi hisobiga, aks holda esa qarz mablag'lari hisobiga, qoplaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir korxona o'z moliyaviy ehtiyojlarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbayi bo'lib, uning foydasi, qimmatli qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay va boshqa to'lovlari, yuridik va jismoni shaxslarning pay va boshqa to'lovlari hamda qonundan tashqari bo'lmasan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxona, tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Hozirgi vaqtida mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda ustav fondi miqdori mazkur korxona tashkil bo'lganda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdor bilan muvofiq kelishi lozim. Uning miqdori yil davomida o'zining mulkchilik shaklini o'zgartirmaydigan korxonalarda o'zgarmaydi. Davlat korxonasi xususiylashtirilganda mazkur korxona mulkining sotib olinish qiymatini aniqlash talab qilinadi, chunki ta'sischilar hujjatida ustav fondi miqdorini ko'rsatish lozim. Umuman olganda, barcha iqtisodchi olimlar tomonidan xususiy kapitallarga ta'rif berilganda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniłgan bo'lib, ular tarmoq xususiyatiga ko'ra o'z ko'rinishlarini o'zgartirgan holda ta'riflangan.

MDH iqtisodchi olimlaridan P.Kamishanov «Ustav kapitali – bu davlat tashkilotlarida hukumat tomonidan ajratilgan asosiy va aylanma mablag'ları hisobiga shakllanadi. Nodavlat sektoridagi korxonalarda esa ta'sischilarning kiritgan mablag'lari hisobiga tashkil topib, u xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan mulknii puldag'i ifodasini ko'rsatadi» deb ta'kidlagan.

Shu jumladan A.O'Imasov va N.To'xliyevlar ham: «Ustav kapitali – korxonani barpo etish to'g'risidagi shartnoma yoki nizomda belgilangan mablag'lar (kapital) miqdori. Chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymati, davlat qo'ygan mablag'lar, xususiy ulush (pay) badallari miqdoridan tashkil topadi» deb ta'rif berishgan. Ushbu iqtisodchilar tomonidan ustav kapitaliga berilgan ta'rif mazmun jihatdan mohiyatga ega bo'lsa hamki, unga bir muncha qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Negaki, berilgan mazmun, korxona mablag'lar manbayining manfaatdorlik hissini, tashkil bo'lish davrini va keyinchalik mazkur ko'rsatkichning shakllanish holatini o'zida aks ettirmagan. Shu jihatdan

olganda: «ustav kapitali – bu xo'jalik subyektlarining daromad (foyda) olish maqsadini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki (korxonani barpo etish to'g'risida shartnoma yoki nizomda belgilangan) mablag'lar (kapital) miqdori. Shuningdek, ustav kapitalini oshirish maqsadida kiritilgan mablag'lar, hamda o'z kreditor va ta'sischilarining qiziquvchanligini kafolatlovchi mablag'lar manbayidir» deb ta'rif berishimiz maqsadga muvofiqdir. Xususiy kapital tarkibiy qismlaridan yana biri bu – rezerv kapitali hisoblanadi. Rezerv kapitali ko'pgina me'yoriy va qonuniy hujjatlarda hamda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan bo'lib, uning o'ziga xos jihatlarini belgilab bergen. Masalan, Respublikamiz boshqaruv tashkilotlari tomonidan belgilangan me'yorlarga asosan: «Rezerv kapitali – bu korxona ustaviga asosan ajratma qilish mol-mulk qayta baholanishi, qaytarib bermaslik sharti bilan olingen mablag'lar (pul mablag'laridan tashqari), o'rtoqlik va aksionerlik jamiyatlar mulkini oshiruvchi boshqa kirimlar hisobini olib borish uchun mo'ljallangan» deb izohlangan. Keltirilgan izohga mazmunan yondashadigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi bir qator ko'rsatkichlar o'z ornida berilmagan. Masalan, mol-mulkning qayta baholanishi. Chunki ushbu ko'rsatkichning ma'lum qismi, qo'shilgan kapital zimmasiga birkitilgan bo'lib, uning ikki schotda ko'rsatilishi hisob tizimidagi kamchiligidimiz hisoblanadi.

M.Lapustin, P.Nikolskiylarning fikricha: «Rezerv kapitali – bu xo'jalik tavakkalchiligi va ko'zda tutilmagan holatlarni moliyalashtirish maqsadida jamg'arilgan pul ko'rinishidagi mablag'lar hisoblanib, u xususiy kapitalning bir bo'lagi sifatida qaraladi. Amaliyatda bu jamg'arma sug'urta mablag'i sifatida yoki tavakkalchilik rezervi, deb ham ataladi». Yuqorida keltirilgan ta'rifga nazar solsak, uning bir qadar mazmunga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Chunki rezerv kapitali hisobot yilida erishilgan sof foyda hisobidan ma'lum bir maqsadlarni sug'ortalash uchun tashkil etilishi belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtayi nazardan, bizningcha: «Rezerv kapitali – bu ta'sis hujjatlariga binoan hisobot davrida erishilgan sof foyda hisobidan, amaldagi qonunchilik asosida, tavakkalchilik va ko'zda tutilmagan natijalar oldini olish, hamda xo'jalikning oxirgi moliyalashtirish manbayi sifatida gavdalanadigan mablag'lar jamg'armasining puldagi ifodasi» deb ta'riflash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuoridagi fikr-mulohazalar shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida kapitallar (fondlar) va rezervlarning muhim o'rni mavjud ekan. Chunki

bu manbalar asosan, xo'jalik subyektlarining o'z manbalarini aks ettiruvchi jihatlari bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari manbalari qanchalik yuqori salmoqqa ega bo'lsa, mazkur korxonalarning faoliyati shunchalik ijobjiy baholanadi. Xususiy kapital hisobi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudrati darajasining qay darajada ekanligini bildiradi. Bunday taraflarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 6-sessiyasida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta e'tibor berilgan. Uning 16-moddasiga ko'ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo'shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

#### *Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:*

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokazolar.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbayi bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1-bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda biz tahlil ishlarini olib boramiz. Mazkur mavzuning hisobi 12 «Jurnal orderi» da yuritilib, ushbu hujjat formasi ham manbalar sifatida ko'riliishi mumkin.

#### **7.2. Xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasi tahlili**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liq. Odatda, analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funksional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi. Bizning fikrimizcha, xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini o'rganishda iqtisodiy tahlilni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadiga muvofiq hisoblanadi:

#### *Xususiy kapital tahlilini o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.*

Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi

ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- xususiy kapital tahlilining maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektini aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- xususiy kapital tahlili manbalari va ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

*Xususiy kapital tahlili uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.* Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- xususiy kapital tahlili uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- xususiy kapitalga oid manbalarni to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish.

*Xususiy kapitalga oid to'plangan ma'lumotlarning to'g'rilingini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.*

To'plangan manbalarni to'g'rilingini tekshirish hamda ishonchtlilagini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

*Bevosita xo'jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.* Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

**Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.** Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

**Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi.**

Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatilib, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajariishi nazorat qilib boriladi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z moliyaviy resurslarini mustaqil shakllantirishlari mumkin. Korxona moliyaviy resurslarining asosiy manbalari bo'lib foyda, amortizatsiya ajratmalari, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar, aksionerlar, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari, shuningdek, kreditlar va qonunchilikka zid bo'limgan boshqa tushumlar hisoblanadi. Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbayi bo'lib uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Chunonchi, davlat korxonalarining ustav fondi korxona foydalanishga topshirilgan vaqtida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan (budget hisobidan) ajratilgan mablag'lar (qurilish, montaj, sozlash ishlari xarajatlari, asbob-uskunalar, aylanma mablag'lar va pul mablag'ları qiymati) ni aks ettiradi. Nodavlat tijorat strukturalarining ustav kapitali aksionerlar (ta'sischilar) tomonidan qo'yilgan (pul, moddiy va boshqa) mablag'lar hisobidan shakllantiriladi va shuning uchun ham bir necha yuridik va jismoniy shaxslar – aksionerlar jamiyatini, shirkat va boshqa tashkiliyhuquqiy shakldagi jamoat mulkinii tashkil etadi.

Kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan capital;

- Rezerv kapitali;
- Taqsimlanmagan foyda;
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lari manbayining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischilar tomonidan qo'yilgan pay to'lovlarni, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischilarning yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budjeti tomonidan ajratilgan mulknini ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

***Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:***

1. Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda – bu korxonaning hisobida turgan so'f foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710 – «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – «Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralar orqali aniqlanib olinadi. Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsiyentlar usuli eng ilg'or metodlardan hisoblanib, bizning o'rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

***Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar o'rganiladi va ularni shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:***

1. Rentabellik koeffitsiyentlari.
2. Likvidlik koeffitsiyentlari.
3. To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffitsiyentlarni oladi:

***Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:***

- Xususiy kapital rentabelligi;
- Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi;
- Leveridj;
- Sotish rentabelligi.

**Likvidilik koeffitsiyentlariga:**

- a) tez likvidlanadigan koeffitsiyentlar;
- b) debetorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti;
- d) ishlab chiqarish zaxiralarini aylanishi koeffitsiyenti;
- e) qiyin likvidlanish koeffitsiyenti.

**To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsiyentlarga quyidagilar kiradi:**

- qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsiyenti;
- xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsiyenti;
- qarz mablag'larning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summalar o'r ganiladi. Bu koeffitsiyentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsiyentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

**Xususiy kapital rentabelligi.** Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'r ganiladi. Buning uchun, Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

**Jami investitsiyalar rentabelligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymati yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'inining korrektirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

**Leveridj.** Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning xususiy kapitali shunchalik o'sganligini beradi.

**Bir aksiya uchun daromadni** hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

**Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.**

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'larini

manbayiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsiyent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa A1>A2 u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsiyentning kamida 50 % ga ega bo'lislari lozim. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakliga asoslanib yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan kapitalimizning o'zgarishini tahlil qilamiz.

1999-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarни tugatish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilingan edi. Bu farmonga ko'ra moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyati tuzilgan maxsus hududiy komissiyalar ko'rsatmasiga ko'ra to'xtatiladi.

Shunday ekan, yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinish turibdiki, xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib, korxonaning hisobot yilda olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Chunki, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liq. Mazkur vazifalarni hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chuqr bilishlari, unda foydani shakllantirish muammolarini chuqr o'rganishlari lozim.

### **7.3. Xususiy kapital va uning samaradorligini baholash**

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlilning vertikal, gorizontal, moliyaviy koeffitsiyentlarini aniqlash, trend to'g'risida fikrlar yuritilgan bo'lib, ammo xususiy kapital tahlili bo'yicha ma'lumotlar

bugungi kunda yetarli darajada emas. Xususiy kapital tahlilini olib borishda asosiy axborot manbayi bo'lib, moliyaviy hisobot shakllari, ya'ni «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» (5-shakl) olinadi. Yuqorida hisobot shakllarida jumladan, «Xususiy kapital to'g'risida hisobot»da bir qancha noaniqliklar mavjud bo'lib, bularga 080-satrdan keyingi ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur satrlarda aksiyalar to'g'risida ma'lumotlar jamlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularda deyarli barcha (oxirgi ustundan tashqari) ustun va qatorlar to'ldirilmaslikni taqozo etadi. Ushbu holatni atroflicha o'rgangan holda, bu kamchiliklarni hal etish yo'llarini topish lozim. Chunki moliyaviy hisobotning bu ko'rinishda bo'lishi xalqaro hisob tizimi standartlari talablariga mos kelmaydi. Shu nuqtayi nazardan, bir qancha rivojlangan va MDH mamlakatlarining «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» shakllariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda aksiyalarning chiqarilishidan kelgan kapital, rezerv kapital, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kabi ko'rsatkichlar o'z aksini topgan (masalan, Rossiya Federal siyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari va h.k). Ushbu ma'lumotlar buxgalteriya balanslarida (1-shakl) hajn o'zgarishsiz aks ettirilgan. Lekin, bizning moliyaviy hisobot shaklida (1-shakl) o'z mablag'lar manbayi sifatida xususiy kapital ko'rsatkichlaridan tashqari, maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlar uchun rezervlar kabi ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularning harakatini aks ettiruvchi axborot manbayi belgilanmagan. Bu holni xususiy kapital ko'rsatkichlarining nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirilmaganligi, tarmoq xususiyatlarga asosan xususiy kapital hisobi va tahlili to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi kabi izohlashimiz mumkin. Korxonaning xususiy kapital holatini tahlil qilishda koeffitsiyentlar usuli eng ko'p qo'llanilib, ushbu usul asosida tahlilning olib borilishi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng tarqalgan. Jumladan, Belorus iqtisodchilaridan biri G.Savitskayaning fikricha: «Kapitaldan samarali foydalanishni uchta asosiy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin, ular:

- jami mablag'lar manbayining rentabelligi;
- kreditorlar kapitalining daromadliligi;
- xususiy kapital rentabelligi».

Savitskaya G.V. tomonidan berilgan fikrlar xususiy kapital tahlilini qisman ochib beradi. Xususiy kapital tahlilini unga ta'sir etuvchi omillarning uzviy bog'liqligi asosida o'rganish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu sababdan xususiy kapital rentabelligi (foydaliligi) ni, uning natijaviyiligi va daromadliligi asosida o'rganib, xususiy kapitalning

shakllanishida muhim o'rin tutgan omillarning ijobiliy hamda salbiy oqibatlari yuzasidan asosli qarorlar qabul qilishni yo'lga qo'yish maqsadga mufofiqdır.

Bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilik turlarining shakllanishi, xususiy kapital bahosini o'rganishni talab etadi. Lekin shunga qaramasdan respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda xususiy kapitalning bahosi yetarlicha o'rganilmagan.

Bundan tashqari bir qancha adabiyotlarda korxona aksiyalari qiymati va daromadlilagini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar tahlili yordamida korxona nufuzi va xususiy kapitaliga atroficha baho berish mumkin. Bu ko'rsatkich bir aksiyaning balans qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra bir oddiy aksiyaga to'g'ri keladigan korxonaning sof aktivlari qiymatini ko'rsatadi.

3. Dividend daromad yoki dividend normasi (Dd):

- Bir aksiyaning dividendi
- Bir aksiyaning bozor qiymati

4. *To'lanadigan dividendlar ulushi (Utd):*

Utd = Bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividend

Bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda. Bu ko'rsatkich tahlil qilinganda shuni e'tiborga olish lozimki, bunda ushbu ko'rsatkich 1 dan ortiq bo'lmasa birmuncha ijobiliy holat deb baholash mumkin, ya'ni korxona dividend to'lash uchun yetarli darajada foyda olganligidan dalolatdir. Aksincha, bu ko'rsatkich 1 dan oshib ketsa, korxona dividend to'lash maqsadida rezerv kapitalidan foydalanganligini anglatadi. Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarning o'zgarishi orqali amalga oshadi. Xususiy (hissador) kapitalining qiymati qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar «Xususiy kapital to'grisida hisobot» ning 020; 030 va 060-satrlarida o'z aksini topadi.

**Qo'shilgan kapital quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:**

- Xususiy (hissador) kapitali qiymatining o'zgarishida;
- Muomalaga qo'shimcha aksiyalarning chiqarilishida;
- Asosiy vositalarning qayta baholanishida;
- Foya va zararlar hisobiga.

Rezerv kapitali ham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foyda

hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar, ya’ni 5-hisobot shaklining 050-satri ham kiradi.

**Taqsimlanmagan foyda.** Bu ko’rsatkich korxonaning hisobot yilda olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko’payish yoki kamayishi, qimmatli qog’ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o’zgarishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-4053-sonli farmoniga asosan, yangi tashkil etiladigan ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 2009-yil 1-yanvardan boshlab jamiyat davlat ro’yxatiga olingan sanada O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo’yicha ekvivalenti 400 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etishi belgilandi. Faoliyat yuritayotgan ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari bo’lsa, 2010-yilning 1-yanvariga qadar ustav kapitallari miqdorini ular qayta ro’yxatga olingan sanada Uzbekistan Respublikasi Markaziy bankining kursi bo’yicha ekvivalenti kamida 400 ming AQSh dollariga teng summaga yetkazishlari yoki belgilangan tartibda boshqa mulkchilik shakliga o’tishlari kerakligi belgilandi. Shunday ekan, yuqorida ma’lumotlarga asoslangan holda bu muommoni hal etish yo’llarini izlash kerak. Ko’rinib turibdiki xususiy kapital qiymatini ko’paytirishning eng asosiy omili bo’lib korxonaning hisobot yilda olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko’rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o’z jamg’armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Sababi bu omilning o’zgarishi faqatgina korxonaning o’ziga bog’liq bo’lib, uning har tomonlama to’liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyat yuritishni talab etadi. Bundan tashqari boshqa ko’rsatkichlarning o’zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bogliqidir. Korxona mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali o’rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada osonlashtiradi, albatta. Moliyaviy koeffitsiyentlar moliyaviy hisobot ko’rsatkichlarini va birlik elementlarini o’zaro nisbatlash asosida aniqlanadi. Bunda koeffitsiyent, indeks va foizlar ishlataladi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va uning o’zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida korxonaning moliyaviy holatini aniqroq o’rganish va bilish imkoniyati paydo bo’ladi. Masalan: bitta korxonaning «molivaviy mustaqillik koeffitsiyenti»ni aniqlanishiga e’tibor qaratsak. Ushbu ko’rsatkich «O’zlik mablag’lari manbalari»ni «Buxgalteriya balansi jami»ga bo’lish asosida aniqlanadi. Bu ko’rsatkich korxonaning harakatda band qilingan mablag’ining qancha qismi o’ziga tegishli

ekanligini bildiradi. Ya’ni harakatdagi har bir so’mning qancha qismi o’ziga tegishli ekanligini bildiradi. «Koeffitsiyentlar – mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi» deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M.Makminni «Анализ финансовых отчетов (SAAR асосида)» kitobida. Korxona kapitali bilan bogliq bo’lgan moliyaviy koeffitsiyentlar, ya’ni o’z mablaglari manbayiga baho berishning nisbiy ifodalari sifatida quyidagi koeffitsiyentlarni o’rganish maqsadga muqofiq bo’lar edi:

- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti;
- qarz va o’z mablag’lari nisbati koeffitsiyenti;
- zaxira va xarajatlarni o’z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti;
- mablag’larning chaqqon harakatchanlik yoki manyovrashganlik koeffitsiyenti.

**Bunda ushbu koeffitsiyentlar quyidagicha topiladi:**

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (Kmm).Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa, korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda bu koeffitsiyent kamida 0,5 ni yoki 50 %ni tashkil etishi lozim.
2. Moliyaviy karamlik koeffitsiyenti ( $K_{mq}$ ). Bu ko’satkich moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentiga teskari proporsional koeffitsiyent hisoblanadi.

3. Qarz va o’z mablag’lari nisbati koeffitsiyenti ( $K_{qo’n}$ ):

4. Zahira va xarajatlarni o’z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti ( $K_{xo’q}$ ):
  5. Mablag’larning harakatchanlik (manyovrashganlik) koeffitsiyenti ( $K_m$ ):

O’zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o’sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariiga ta’sir etayotganidan ko’z yumib bo’lmaydi». Darhaqiqat, jahon bozorida talabning pasayib ketishi natijasida mamlakatimiz tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlar narxining tushishi kuzatilmoxda. Ushbu jarayonlar korxonalarning eksportdan oladigan tushumlari va foydasining kamayishiga hamda ishlab chiqarish rentabelligiga va pirovardida mamlakatimiz makroiqtisodiy

ko'rsatkichlarining dinamikasiga salbiy ta'sir etishi tabiiydir albatta. Shu nuqtayi nazardan respublikamiz korxonalariga jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish lozim. Bunda korxonalarning ichki imkoniyatlarini chuqur o'rganish, iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni korxonalarda tahlil jarayonlarini mukammal tarzda tashkil etish va jahon tajribasida o'zini oqlab kelayotgan tahlil usullarini joriy etish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb o'yaymiz. Xususan, xozirgi vaqtida dolzarb hisoblangan xususiy kapital tahlilini rivojlantirish va takomillashtirish bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalarimiz qatoriga kiradi. Bunda xususiy kapital tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

- eng avvalo xususiy kapital tahlili bo'yicha zarur ma'lumotlarni iqtisodiy adabiyotlardan olish imkoniyatining cheklanganligini inobatga olgan holda, ushbu mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni to'liq va kengaytirilgan shaklda sistemallashtirish (jamlash) lozim;

- xususiy kapital ko'rsatkichlari tahlili bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlarni xalqaro hisob hamda tahlil yutuqlarini chuqur o'rgangan holda mamlakatimiz hisob va tahlil tizimiga joriy etish lozim;

- korxona xususiy kapitali tahlilini takomillashtirishda mulkchilik shakli va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzularni farqlash, ya'ni sohalarga yo'naltirilgan holda mukammallashtirish lozim.

Yuqoridagi fikrlarimizning xotimasi sifatida shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatimizda iqtisodiy bilimlar sohasida ilmiy izlanishlarni yanada jonlantirish va ilmiy izlanuvchilarining ushbu yo'ldagi sayiharakatlarini rag'batlantirishning ta'sirchan tizimining joriy etilishi, respublikamiz korxonalarining taraqqiy etishiga, milliy iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga, xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga, pirovardida mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada yuksalishi va taraqqiy etishiga muhim omil bo'lishi tabiiydir, albatta.

#### **4.4. Xususiy kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash**

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarning o'zgarishi orqali amalga oshadi.

**1. Ustav kapitali.** Bu schot xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin.

**2. Qo'shilgan kapital.** Bu schot quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- xususiy (hissador) kapitali qiymatining o'zgarishi;
- muomalaga qo'shimcha aksiyalarning chiqarilishida;
- asosiy vositalarning qayta baholanishida;
- foyda va zararlar hisobiga.

**3. Rezerv kapitali** ham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar.

**4. Taqsimlanmagan foyda.** Bu ko'rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko'payish yoki kamayishi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

**5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.**

- hisobot davrida olingan zarar;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi;
- hissador kapitalining ko'p yoki kam bo'lishi kabi ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Bu o'zgarishlar 5-shaklda ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

**Kalit so'zlar iboralar:**

Xususiy kapital to'g'risida tushuncha va uni tahlil etish maqsadi, xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi va yil boshiga nisbatan o'zgarish sabablari, ustav fondi, rezerv kapitali, qo'shilgan capital, taqsimlanmagan foyda (zarar), balans passivi moddalarining qarzni uzish muddatlari bo'yicha guruhg'a bo'linishi.

**Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Xususiy kapital deganda nimani tushunasiz?
2. Xususiy kapital nima uchun tahlil etiladi?
3. Xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini tahlil qilishdan maqsad va tahlil vazifalari nimalardan iborat?
4. Xususiy kapital tarkibiga nimalar kiradi?
5. Xususiy kapital qanday tahlil etiladi?
6. Xususiy kapitalni ko'paytirish yo'llarini ko'rsatib bering.

**Test savollari:**

**1. Ustav kapitali balansning qaysi bo'limida ko'rsatiladi?**

- a) passiv tomon – 1-bo'limda\*;
- b) aktiv tomon – 1-bo'limda;
- d) passiv tomon – 2-bo'limda;
- e) aktiv tomon – 2-bo'limda;
- f) manba sifatida passiv – 1-bo'limda, mablag' sifatida aktiv – 1 va 2-bo'limlarda.

**2. Xususiy kapital qatoriga kiruvchi mablag'lar:**

- a) ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda;
- b) zaxira kapitali, qo'shilgan kapital;
- d) taqsimlanmagan foyda;
- e) ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar;
- f) ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr bo'yicha to'lovlar zaxiralari\*.

**3. O'z mablag'lari deganda nimani tushunasiz?**

- a) korxonaning o'ziga tegishli mablag'lari\*,
- b) qarzga olingan (uzoq muddatga) mablag'lar;
- d) mahsulot sotishdan olingan daromadlar;
- e) majburiyatlar qoplanishidagi ortiqcha mablag'lar;
- f) hukumat tomonidan subsidiya sifatida berilgan mablag'lar.

**4. Xususiy kapitalni tahlil qilishda qaysi hisobot shakllari ma'lumotlariga tayaniladi?**

- a) 1-shakl – «Balans»;
- b) 2-shakl – «Moliyaviy natijalar» to'g'risidagi hisobot;
- d) 3-shakl – «Asosiy vositalar harakati» to'g'risidagi hisobot;
- e) 4-shakl – «Pul oqimi» to'g'risidagi hisobot;
- f) 5-shakl – «Xususiy kapital» to'g'risidagi hisobot\*;

**5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?**

- a) balans passivi 1-bo'lim buyicha tarkiblashni berish;
- b) balansning 1-bo'limi passivini tartiblashtirish;
- d) ma'lumotlardan foydalanuvchilar, qiziquvchilarga xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi axborotlar berish\*;
- e) moliyaviy boshqaruvni axborot so'rovi bilan ta'minlash;
- f) o'z mablag'lari holati to'g'risida axborot

## VIII BOB. KORXONA INVESTITSIYALARINI BOSHQARISH

- 8.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo'nalishlari
- 8.2. Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish
- 8.3. Investitsiyani baholash usullari
- 8.4. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili
- 8.5. Moliyaviy investitsiyalar tahlili

### **8.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo'nalishlari**

«...O'z-o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so'z yuritish mumkin emas. Bu vazifaning o'rtaqa qo'yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo'yicha raqobatning yildan yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog'liq, albatta.

*Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, y uqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va tehnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.*

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016-yillarda hisobkitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab

chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish mo'ljallangan. Jumladan, Surshl koni bazasida Ustyurt gazkimyo kompleksi, Dehqonobod kalyili o'g'itlar va Qo'ng'irot sodazavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi. Shuningdek, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz qurilmasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari va transportyor tasmasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, to'qimachilik korxonalarini quvvatlarini yanada kengaytirish va butun texnologik jarayonni takomillashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tkazish va tarmoqlar iqtisodini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqidir. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida davlatning olib borgan investitsiya siyosatini hayotga tatbiq etish natijasida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yuksalishlar yuz bergen. Xalq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan bilan to'ldirishga va xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga har tomonlama o'z hissasini qo'shgan.

Investitsiya lotincha «INVEST» so'zidan olingan bo'lib «**sarmoya**» degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda qo'llanilganda foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida va chet ellarda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga qo'yilgan uzoq muddatli mablag' sarmoyani bildiradi. Bugungi kunda investitsiya va investitsion jarayon tushunchasiga amaliyotchilar har xil nuqtayi nazardan qaraydilar. Ayrim olimlar investitsiyani hali ham «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalari tenglashtirib keladilar. Aslini olganda, investitsiya hajmi jihatdan ham, rang-barangligi jihatdan ham hozir aytilgan kategoriyalardan ustun turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalari investitsiyalarning tarkibiy qismidir. Investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bu o'rinda «investitsiya» tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual qadriyatlarni takror ishlab chiqarish in'ikosi bo'lishini dastlabki va asosiy tushuncha bo'lib maydonga chiqishini unutmaslik kerak. Bizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt ichida ular ancha takomillashdi. Investitsiya to'g'risida qabul qilingan qonunda

ko'rsatilishicha investitsiya – bu iqtisodiy samara olish yoki ijobiy ko'rinishdagi ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar kabilar, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

**Xorijiy mamlakatlar tajribasi va investitsiya to'g'risida respublikamizda qabul qilingan qonunning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda 3 ta turini ajratish mumkin:**

1. Moliyaviy investitsiyalar.
2. Moddiy investitsiyalar.
3. Intellektual (aqliy) investitsiyalar.

Iqtisodiyotni modernitsiya qilish sharotida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbobuskunalar, inshootlar va boshqa turdag'i asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi. Intellektual (aqliy) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiiga kirgan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanishiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi.

Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau» kashfiyotlar, tovar belgilariiga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari ko'rinishidagi investitsiyalari yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi. Hamma turdag'i investitsiyalar, ularning hajmidan qat'iy nazar, biror-bir investitsion jarayonning natijasidir.

*Investitsiyada qatnashish tasnifiga ko'ra:*

- a) to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – asosan obyekt aniq ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo'lgan taqdirda yo'naltirilgan mablag'dir.
- b) boshqa investitsiyalar – bular vositachilar orqali obyektlarga sarflanadi va olingan daromad mijozlar o'rtasida taqsimlanadi.

Investitsiyalash davriga qarab qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi: qisqa muddatli investitsiyalar bir yilgacha

bo'lgan omonat sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardir; uzoq muddatli investitsiyalar bu bir yildan ortiq muddatlarga qo'yilgan kapital bo'lib, 2 yilga, 2-3 yil va 5 yildan ortiq muddatlarga ham qo'yilishi mumkin.

*Hududiy belgilari bo'yicha investitsiyalar quyidagicha bo'linadi:*

- a) mamlakat ichkarisi va hududlarga qo'yiladigan investitsiyalar;
- b) xorijga investitsiyalar qo'yish, xorij investitsiyalarining kirib kelishi yoki aksiya, obligatsiyalar shaklida ham bo'lishi mumkin;
- d) xorij investitsiyalari deganda chet el fuqarolari, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan qo'yilgan investitsiyalar tushuniladi;
- c) hamkorlikdagi investitsiyalarga mazkur mamlakat va xorij mamlakatlarning birgalikda qo'yadigan investitsiyalari kiradi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, investitsion kompleks bir necha elementlardan iborat, ularning asosiyлари quyidagilardir: investitsiya siyosati, investitsiya iqlim va muhiti, investitsion faoliyati, kapital qo'yilmalari, investitsiya bosqichlari va boshqalar. Ushbu elementlarning har biri bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'ziga xos yo'nalishga ega.

Investitsiya siyosati investorlarning haq-huquqlari, imtiyozlarini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlariga tegishli asosiy fondlarni kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishga yo'naltirish, muqim soliqqa tortish mexanizmi va moliya-kredit siyosatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar yig'indisidan iborat.

Iqtisodiy tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Ayniqsa, sohaga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorij investitsiyalar miqdori yil sayin ortib bormoqda, jumladan, qulay investitsiya muhiti yaratilgani sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, shu orqali aholi ehtiyoji uchun mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularni qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtaсидаги nisbatning iste'mol tomonga ko'plab

sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbayi sifatida kamayib borayotganligi;

O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi va kichik zamonaviy ixcham korxonalarini barpo etish; respublika eksportida xom-ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishligi bilan izohlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining investitsiyaviy faolligini oshirish, xorijiy investorlarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish natijasida ana shunday o'sishga erishildi. Pirovardida tadbirkorlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish, qo'shma korxonalar tashkil etish istagidagi xorijiy ishlab chiqaruvchilar soni tobora ortmoqda. Investitsiya muhiti yoki iqlimi juda keng ma'noli bo'lib iqtisodiyot holatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini, tadbirkorlik faoliyatini qay darajada rivojlanganligining, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun chiqarilgan qonun va qarorlarni, madaniyatini, ma'naviyatini investorlar o'z mablag'larini yo'naltirish uchun e'tiborga oladigan hamda ulardan xulosa chiqaradigan boshqa omillarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy siyosatni olib borish davlat boshqarish organlarini investitsion jarayonlarni tartibga solish, iqtisodiyotda davlat aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etish va chet el investitsiyalarini jalb qilish investitsion muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Qonuniy, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik, soliq tizimlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, bozor infrastrukturasini rivojlanmaganligi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan subyektlar orasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan qonuniy mexanizmlarning yo'qligi, informatsiya darajasiga to'g'ri kelmaydigan milliy valuta kursi, chet el investitsiyalarini sug'urta qilish bilan himoya qilish mexanizmlarning yaxshi ishlab chiqilmaganligi, korxonalar va investitsion loyihalar haqida aniq va to'liq ma'lumotlarning yo'qligi va qimmatli qog'ozlar bozorining investitsion muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsion muhit holatini aniqlaydigan yana bir omil investitsion tushkunlik hisoblanadi. Bundan tashqari jamg'arma taqchilligi foizstavkalarining yuqoriligi bilan ham bog'liq. Bu esa kichik va o'rta tadbirkorlikni bank kreditlaridan foydalanishlarini qiyinlashtiradi.

Inflyatsiya sababi, beriladigan kreditlarning katta qismi qisqa muddatli bo'lib bu ulardan ishlab chiqarishda foydalanishni cheklab

qo'yadi. Korxonalar bir-birlariga bo'lgan qarzlarini to'lay olmaslik holatining kuchayishi ham investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ham investitsion muhitga ta'sir etadigan faktlar bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi mulk shakllarining ko'payishiga va bozor munosabatlарining mustahkamlanishiga olib keladi. Investitsion faoliyat investitsiyalashning asosiya bo'g'ini hisoblanadi, chunki aynan shu jarayonda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar, qo'yilmalar, kapital, iqtisodiy samara shaklini oladi. Investitsiyalar oqimi tadbirkorlikning nechog'lik faolligini, demakki, bozor konyunkturasini ham ta'riflab beradi.

Investitsiyalar oqimining bu harakati, ya'ni tadbirkorlikka investitsiyalar ajratish va sarflab iqtisodiy natija olish investitsiya faoliyatining o'zidir.

**Investitsion bosqich** – investitsiyalar ajratish, kapital qo'yilmalar (xarajatlar) berish investitsiyalar harakatining bir bosqichidir, xolos. O'zgarishlar zanjiridagi keyingi element investitsiyalar ajratishning kapital boyliklar bilan ifodalangan natijasi, samarasidir.

Shunday qilib, kapital boyliklarning shakllanishi investitsion kapital harakatining pirovardi, ya'ni uning yangi iste'mol qiymatlarini yaratish uchun tayyor bo'lgan ishlab chiqarish omillariga aylanishidir. Investitsiyalar ajratish bosqichlari harakatining yig'indisi barcha investorlarning investitsion faoliyatini tashkil etadi.

Investitsion faoliyatning tashabbuskorlari bo'lib investorlar maydonga chiqadi. Investorlar o'zлari qiladigan va qarzga olingan mulkiy va aqliy qadriyatlarni tadbirkorlik ishlariga ishlatalish to'g'risida qarorga kelgan investitsion faoliyat subyektlaridir. Investorlar ulush qo'shuvchilar, kreditorlar, xaridorlar rolida maydonga chiqadilar. Shuningdek, investitsion faoliyatning boshqa qatnashchilari vazifasini bajarishlari mumkin.

*Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsion faoliyat quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:*

- jismoniy shaxslar, davlatga qarashli bo'lмаган korxonalar, xo'jalik uyushmalari, jamiyat shirkatlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari va yuridik shaxslar tomonidan mablag'lar ajratish yo'li bilan;
- davlat tomonidan mablag'lar ajratish yo'li bilan, ayni vaqtda bu ishni hukumat va boshqaruv organlari investitsion va ssuda resurslarini budjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning investitsion

faoliyatdagagi roli asosan, fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish, malakali ishchi kuchini yetishtirib berish, ishlab chiqarish infrastrukturasiga ajratish singari qimmat turadigan jarayonlarga davlat sektori budgetidan yetarli mablag'berish bilan cheklanishi kerak. Bundan tashqari iqtisodiy mustahkamlikni ta'minlash va fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish jamoat ishlab chiqarish sohalarini sog'lomlashtirish, qolqoq tumanlar ijtimoiy infrastrukturasini industrlashtirish hamda yaxshilash maqsadlarida iqtisodiyotni ustuvor sohalari davlat tomonidan ssudalar va subsidiyalar ko'rinishida yordam berishi mumkin;

- chet el fuqarolari, yuridik shaxslar va davlat tomonidan chet el investitsiyalari berish yo'li bilan ;
- mulkka egalik qilish huquqiga, bekamu-ko'st xo'jalik yuritish yoki operativ ravishda boshqarish huquqiga, shuningdek, daromadlar manbayiga, jamg'armalarga ega bo'lgan va qarzga beriladigan hamda jalb etiladigan mablag'larni olish huquqidan foydalana oladigan chet el fuqarolari, yuridik shaxslar tomonidan investitsiyalar ajratish yo'li bilan.

Investorlar investitsiya obyektlari va natijalariga, jumladan, reinvestitsiyalar va savdo ishlariga egalik qilish va ularni o'z ixtiyoridan kiritish huquqiga egadirlar. Investitsion faoliyat obyektlarining o'zar munosabatlari, shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Investitsion faoliyatni mablag' bilan ta'minlash har xil mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi: o'ziga qarashli va jalb etilgan mablag'lar, belgilangan tartibda chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, zayomlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda O'zbekiston xorijiy investitsiyani qaysi turini ko'proq jalb qilishi kerak, degan savol tug'iladi. Avvalo, biz bugungi kunda xorijiy moddiy investitsiyalarni o'zlashtirishimiz zarur. Bu yangi texnologiyalar, «nou-xau» va boshqa asosiy ishlab chiqarish fondlarini jalb qilish demakdir.

*Bu turdag'i xorijiy investitsiyani jalb qilish hisobiga quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:*

- asosiy ishlab chiqarish hisobiga fond qaytimi ko'rsatkichi oshadi;
- asosiy ishlab chiqarish o'sishi budget tushumini oshiradi;
- asosiy ishlab chiqarish o'sishi ishsizlikni kamaytiradi;
- va nihoyat, respublikada aholini import tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi qondirilishiga qisman erishiladi. Davlat eng kerakli tovarlar importini valuta bilan ta'minlamoqda. Biroq bu o'z o'rnida bizni valuta

zaxiramizni kamaytiradi va qarzni oshiradi. O'z o'mida agar investitsion muhit yomon bo'lsa, investitsiya qo'shni davlatlarga oqadi.

Demak, biz investitsion muhitga katta e'tibor berishimiz kerak. Chet el investitsiyalari nuqtayi nazaridan investitsion muhitga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil bo'lib respublikamizdagi iqtisodiy siyosiy barqarorlik hisoblanadi. Respublikamizda kechayotgan mana shu siyosiy va iqtisodiy barqarorlik tufayli qisqa vaqt ichida ko'pgina, aniqrog'i 3200 dan oshiq qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bugun O'zbekistonda qo'shma korxonalar uchun soliq imtiyozlari ham berilgan. Bularning barchasi investitsion muhitni yaxshilamoqda. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini aniqlash, nafaqat, xo'jalik subyektlarining o'ziga, shuningdek, kreditorlar va investorlar uchun ham o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular faoliyati samaradorligini tahlil etish korxona faoliyati ko'rsatkichlarini barcha qiziquvchilar uchun ochib beruvchi vazifani bajaradi. Bunday tahlil etishda korxona faoliyatini moliyaviy tahlil etishning alohida o'rın tutishini ta'kidlab o'tmoq zarur. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy ahvolinigina oydinlashtirib bermasdan, balki uning har jihatli faoliyati va istiqbollarini ham ko'rsatib bera oladi. Korxona to'g'risida barcha muhim iqtisodiy-tahliliy ma'lumotlarga ular faoliyatini moliyaviy tahlil qilish orqali ega bo'lish mumkin. Korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanuvchilar korxona menejeri, aksiyadorlar, kreditorlar, investorlar, hamkorlar yoki sheriklar hisoblanadi. Ushbu foydalanuvchilar korxona moliyaviy holatini baholashda o'z maqsadlaridan kelib chiqadilar va o'z mezonlariga asoslanadilar. Qarz oluvchi faoliyatini moliyaviy tahlil etishda kreditorlarni investitsiya mablag'larining qaytarilishi to'g'risidagi bashoratlarni baholash qiziqtiradi. Umuman, qarz oluvchi faoliyatining moliyaviy tahlili quyidagi savollarga javob berish uchun bir qator hisoblashlarni taklif etadi:

***Korxona uning barcha qarzdorlik majburiyatları xizmati uchun (bank oldida, budjet, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar oldida) yetarlicha daromad bera oladimi?***

1. Korxona uning barcha qarzdorlik majburiyatları xizmati uchun (bank oldida, budjet, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar oldida) yetarlicha daromad bera oladimi?

2. Xususiy (o'z) kapital, shuningdek, qarz kapitali samarali ishlatayaptimi?

3. Kelgusida ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun zaxiralar borni?

4. Korxona kelgusida o'z faoliyatini rivojlantirish uchun qanday strategiyaga ega va uning amalga oshirilish holati (tanlangan strategiyasidan og'ishish) qanday?

Shu bilan birga korxonalarning rentabelligi, samaradorligi, likvidligi, kreditga layoqatliligini baho'lash uchun bir qator moliyaviy koeffitsiyentlar ham qo'llaniladi.

## **8.2. Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish**

Bugungi kunda vatanimiz korporatsiyalari, shu jumladan, xolding kompaniyalari oldida turgan asosiy muammolardan biri ishlab chiqarishni yangilash va yangi texnologiyalarni joriy etish, tarkibiy qayta tuzish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda boshqa mablag'talab loyihamar uchun zarur bo'lган investitsiyalarni qidirib topish hisoblanadi.

Investitsiya siyosatini shakllantirish siyosati kompaniya investitsiya strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, uni ishlab chiqish kompaniya oliy rahbariyati va kuzatuv kengashining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va aynan texnologik maqsadlarga integratsiyalashmagan kichikroq korxonalarga qaraganda yirik integratsiyalashgan korporatsiyalarda investitsiya strategiyasining roli beqiyos katta.

Investitsiya strategiyasini amalga oshirishning samarali yo'lini ishlab chiqish o'zida quyidagilarni, ya'ni:

- investitsiya faoliyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishni mujassam etadi.

Investitsiya faoliyati yo'nalishlarini ishlab chiqish bosqichida moliyalashtirish manbalari va jalb etiladigan asosiy investorlarni qidirish ishi bilan boshlanishi lozim. Kompaniya investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining maqbul tizimini qidirish korporativ boshqaruvning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, kompaniyaning sof foydasi va amortizatsiya investitsiya qilishdagi xususiy mablag' man bayidir.

Taqsimlanmagan foyda hisobiga moliyalashtirish, odatda, kompaniyaning barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan sof foydasi miqdori hamda uni taqsimlash bo'yicha hissadorlar qanday siyosat yuritishiga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda kompaniya zarur hisoblangan

moliyalashtirish manbayiga ega bo'lishi uchun o'zining bir qism aktivlarini sotishi mumkin.

Tashqi moliyalashtirish manbayi odatda bank kreditlari hisoblanadi. Ko'plab korporatsiyalar qarz hisobiga moliyalashtirishni qo'llashadi. Biroq hozirgi sharoitda bankning kreditlash imkoniyatlari ancha chegaralangan. Albatta, ba'zi xolding kompaniyalari xolding hamda hukumatning kafolati evaziga nisbatan qulay sharoitda kredit, jumladan, xorij kreditini olishlari mumkin. Biroq bu yo'l bilan kompaniyaning yirik loyihalarini moliyalashtirish ancha muammoli masala. Bundan tashqari, kompaniya rahbariyati, qarz kapitali bilan xususiy mablag'lari o'rtasidagi oqilona nisbatni saqlay biliши lozim. Yuqori foizdagi qarz mablag'lari bir qator ustunliklar berishi bilan birgalikda o'ta xavfli tadbir ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Mabodo kompaniyaning daromadi qarz kapitalining bank foizlariga to'lov bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplashga yetarli darajada bo'lmasa, kompaniya sinish yoqasiga kelib qolishi mumkin. Shu boisdan qarz kapitalidan olinadigan foyda kompaniyaning bank foizlarini to'lash xarajatlaridan kamida ikki barobar ko'p bo'lishi tavsiya etiladi. Tajribali G'arb moliya menejerlari faqat yetarli hajmdagi (50 foizdan yuqori) xususiy mablag'gina kompaniyaning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashi mumkin deb hisoblashadi. Zero, faqat xususiy mablag'largina qarzni qaytarishga to'la imkoniyat yaratishga qodirligini ko'rsatadi. Biroq kompaniya hayotining alohida bosqichlarida sezilarli darajadagi tashqi qarzga ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Hozirgi sharoitda Vatanimizdagи juda ko'plab korporatsiyalarda ana shunday vaziyat yuzaga kelgan.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi rivojlangan mamlakatlarda investitsiya resurslarini olishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi aksariyat qisqa muddatga beriladigan bank qarzlaridan farqli ravishda pul mablag'larini uzoq muddatli (obligatsiya) hamda muddatsiz foydalanishga (aksiyaga) jalb etish imkonini beradi.

Korporativ obligatsiyalarni chiqarish yo'li bilan fond bozoridan moliyaviy qarz olish butun dunyoda korxonaga investitsiyani jalb etish usuli sifatida keng tarqalgan. Konservativ investorlar odatda, obligatsiyani sotib olishni ma'qul ko'rishadi, chunki uning tavakkal xavfi kamroq hisoblanadi. Obligatsiya egasi korporatsiya daromadidan o'z ulushini «birinchi navbatda olish huquqiga» ega. Zero, aksiya egalariiga dividend to'lovlарini obligatsiya egalariiga barcha foiz to'lovlari amalga oshirib bo'linguncha amalga oshirish mumkin emas. Shunday qilib,

korporatsiya simmay turgan sharoitda obligatsiya egalariga yillik foiz to'lovlari hamda kelishilgan muddat oxirida qarz summasi qaytarilishi kafolatlanadi. Korporativ obligatsiyalar O'zbekiston xolding kompaniyalarini rivojlantirish va tarkibiy qayta qurish uchun investitsiya jalg qilishga qodir eng istiqbolli qarz olish shakllaridan biri bo'lib qolishi mumkin.

O'zbek emitentlarining korporativ obligatsiyalar chiqarish sohasidagi tajribalari hozirdayoq mavjud. Shuni qayd etish kerakki, obligatsiyalar chiqarilishi ham investitsiya loyihalari bozorining oyoqqa turishiga ko'maklashadi. Bu pirovard natijada strategik investorlar uchun mablag' qo'yiladigan ma'qul obyektlar doirasini kengaytirishga olib keladi.

### **8.3. Investitsiyani baholash usullari**

Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga va uning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsiyalarning faol va samarali jalg etilishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda, uning barqaror o'sishini ta'minlashdagi o'rni benihoyat katta. Bu o'z navbatida, investitsiyalarning mohiyatini to'g'ri va to'laroq talqin etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar tushunchasi turlicha talqin qilinmoqda. Odatda, investitsiya deganda, kelgusida daromad olishni mo'ljalab, hozirda muayyan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushunilar edi. Ushbu masala yuzasidan xorij olimlari, xususan, U.Sharp, G.Aleksander, D.Beyli, Lorens J.Gitman, Maykl D.Joik, V.G. Zolotogorov, V.V. Komarov va S.I. Abramovlarning ilmiy ishlardida investitsiyalar mohiyatini yoritishga bag'ishlangan fikr-mulohazalar bildirilgan. Investitsiyalarga berilgan ta'riflar tahlilida investitsiyalarni ichki va tashqi investitsiyalarga ajratishning zarurligi asoslanadi. Fikrimizcha, bu investitsiyalar mohiyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish jarayonlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, tashqi investitsiyalarni amalga oshirishda valutalarni konvertatsiyalash, investitsiyadan olingan daromadni repatriatsiya qilish muammolarini vujudga kelib, mazkur muammolar investitsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

- venchur
- bevosita
- portfel

- annuitet
- sof (asosiy kapitalni ko'paytiradigan)
- eskirishni qoplaydigan
- yalpi
- mol-mulkka investitsiya
- moliyaviy
- nomoddiy
- kapital
- innovatsion
- ijtimoiy
- davlat investitsiyalari
- korporativ investitsiyalar
- xususiy investitsiyalar
- xorijiy investitsiyalar
- yangi loyihalarga
- kengaytirishga, yangilashga
- reinvestitsiyalar

Demak, investitsiyalarning asosiy maqsadi pul oqimlarining joriy qiymatini saqlab qolish hamda ular natijalaridan kutiladigan bo'lajak qiymatlarni kapitallashtirishdir. Ular muayyan maqsadlarning kuchli va jamg'arish funksiyalarini ta'minlaydi. Investitsiyalarga xos bo'lgan muhim belgi – bu ularning muayyan vaqt davomida joriy qiymatini saqlash maqsadlarida tanlangan aktivlarda band qilinishi, ularning kapitallashuvi va jamg'arilishini ko'paytirish hisoblanadi. Harakatsiz kapitaldan investitsiyalar aniq va noaniq bo'lgan risklar, hisob-kitob, qabul qilingan investitsiyaviy qarorlar asosida muayyan aktivlarga bog'lanishiga tayyorligi bilan farqlanadi. Bu belgilar investitsiyalarni kapitaldan ajratib turadi. Shuningdek, investitsiyalar kreditlardan ham farq qiladi. Kreditlashda kelishuv tashabbuskori odatda qarzdar hisoblanadi, investitsiyalashda esa tashabbuskor investor hisoblanadi. Kreditga foiz ko'rinishidagi to'lov xos bo'lsa, investitsiyalarni dividend, foyda, foiz, daromad, moddiy ne'mat, ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar ko'rinishidagi natijalar kutadi. Mazkur belgilar bo'yicha investitsiya va kredit birbiridan farqlanadi. Investitsiyalar mazmuni ularning namoyon bo'lish shakllari orqali, maqsadi esa ularning asosiy funksiyasi – jamg'arish bilan aniqlanadi. Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu

belgilarga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bularning barchasi asosida kapitalning harakatlanishi jarayoni yotadi. Kapitalning esa harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalar mohiyatini aks ettiradi. Demak, investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimol risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi.

1. Ushbu fikrni eng muhim shaklda qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin – agar olinadigan daromadlarning umumiy summasi qilinadigan xarajatlarning umumiy summasidan ortiq bo'lsa investitsion qarorlarning bir necha muqobil variantlaridan eng yuqori rentabelligini (samaradorligini) tanlash zarur. Albatta, shu qoidaga amal qilib investitsion qarorlar qabul qilinayotgan paytda yana quyidagi jihatlarga ham e'tibor berish kerak. Qoplash muddatini, risk darajasini, kutilayotgan inflyatsiya sur'atlarini va soliqqa tortish istiqbollarini hisobga olgan holda investitsiyalarning samaradorligini aniqlash, ya'ni mablag'lar sarfini bundan yaxshiroq yoki foydaliroq yo'lini topish.

*Investitsion faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qilishda amaliyotda sinovdan o'tgan quyidagi muhim qoidalarga rioya qilinadi:*

1. Pulni bankda saqlagandan ko'ra ko'proq foyda (soliplar chegirilgan holda) olish imkonи bo'lsa, mablag'larni ishlab chiqarishga, qimmatli qog'ozlarga va boshqalarga investitsiyalashtirish o'z ma'nosiga ega bo'ladi.

2. Investitsiyalarning rentabellik darajasi inflyatsiya sur'atlaridan yuqori bo'lgan taqdirdagina mablag'larni investitsiyalashtirish o'z mazmuniga ega bo'ladi.

3. Diskontlashtirish ham hisobga olingan holda eng yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan loyihalarga mablag'larni investitsiyalash o'z mazmuniga ega. Birinchi qoidaning mazmuni shundan iboratki, muayyan mablag'ga egalik qiluvchilar o'z pullarini bankda saqlagani uchun 10 % li Stavka bo'yicha foyda oladi, agar uni ishlab chiqarishga yoki shu kabi yo'nalishlarni biron-bir turiga sarflasa 20% li qaytim bilan foyda oladi. Demak, mablag' sarfining ikkinchi yo'nalishi samarali hisoblanadi. Investitsion qarorlar baholanayotgan paytda inflyatsiya ham hisobga olinishi kerak. Misol uchun, mablag' egasi xo'jalik qurilishiga 50000 so'm sarf qilmoqchi. Agar mo'ljallanayotgan inflyatsiyaning yillik sur'ati 8 % ni tashkil etsa, u holda, yillik foyda 40000 so'mdan yuqoriroq summani tashkil etgan taqdirdagina sarflangan investitsiya maqsadga muvofiq bo'ladi (8 %\*)

500:100=40). Investitsion jarayon yuqorida ta'kidlanganidek, har doim risk bilan chambarchas bog'langan. Chunki, vaqt noaniqlikni kuchaytiradi va xarajatlarni qoplashning muddatlari qanchalik uzoq bo'lса, investitsion loyiha shunchalik riskliroq bo'ladi. Shuning uchun ham investitsion qarorlar qabul qilinayotgan paytda moliyaviy menejer xarajatlar, tushum, foyda va u yoki bu investitsion loyihaning realizatsiya qilinishidan erishilishi lozim bo'lgan iqtisodiy rentabellik baholanayotgan paytda, albatta vaqtiy o'zgarishlarni inobatga olmog'i lozim. Ana shu narsa diskontlashtirish deyiladi va, odatda, bir necha muqobil variantlarda amalga oshiriladi. Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo'lgan summaning hozirgi pulli ekvivalentini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun kelajakda olinishi mumkin bo'lgan(kutilayotgan) summadan murakkabfoiz bo'yicha ma'lum muddatda jamlangan daromadni ayirish kerak. Fikrimizni quyidagi misol bilan ifodalaymiz:

Agar tadbirkor yillik 10% daromad olishni mo'ljallab, bugun 200 ming so'mni investitsiyalagan bo'lса, 1 yildan so'ng  $200000 * (100\% + 10\%) : 100 = 220000$

$200000 * (1.0 + 0.1) = 220000$  so'mga ega bo'ladi.

Ikki yildan keyin esa, mablag'imiz  $220000 * (1.0 + 0.1) = 242000$  so'mga teng, va hokazo.

Navbatdagи davrlarda yanada ko'proq daromad olish uchun sarmoya bilan bирgalikda uning daromadini ham reinvestitsiyalashtirish jarayoni foizlarini jamlash (qo'yish) deyiladi va uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$KK = BK(1+F)S$ , bunda:

KK – kelajakda tushadigan pul summasi;

BK – boshlang'ich(joriy) qiymati;

F – foiz stavkasi yoki daromadlilik me'yori;

S – daromadlarning jamlanishi amalga oshiriladigan yillardoni.

Kelgusi pul summasi va foiz stavkasi (bizning misolimizda 10%) belgilangan holda yuqoridagi formuladan foydalanib, o'sha pul summasining hozirgi qiymatini aniqlash mumkin:

$$KK = KK / (1+F)S = 242000 / (1+0.1)2 = 200000$$

Diskontlashtirish investitsiyalarning kelgusi qiymatini baholashda, qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlashda, bank, sug'urta, valuta amaliyotida va boshqa hollarda keng qo'llanishi lozim. Misol uchun, tadbirkorga 3 yildan so'ng 100000 so'm zarur bo'lsin. Shu maqsadda tadbirkor 3 yildan keyin uziladigan (qaytariladigan) va umumiyligi qiymati 100000 so'mdan iborat bo'lgan obligatsiyalarni sotib olish istagini

bildirdi. Shu obligatsiyalar bo'yicha yillik daromad darajasi 9 % ni tashkil etsin. Ana shularga asoslangan holda «biz o'sha obligatsiyalar uchun hozir (bugun) qancha to'lashimiz kerak?» – degan savolga javob berishimiz mumkin.

$$BK=100000:(1+0.09)3=100000:1.295=77220 \text{ so'm}$$

Mazkur aytib o'tilgan 3 asosiy qoidani bilgan holda endi investitsion loyihani tanlash bo'yicha aniq bir misol bilan tanishib chiqaylik. Bu misolning qiziqarli va diqqatga sazovor ekanligi shundaki, taklif etilayotgan har ikkala muqobil variant birinchi ikki qoida nuqtayi nazaridan foydasizdir. Lekin shunday bo'lismiga qaramasdan moliyaviy menejer tomonidan rad etilmaydi. Shunday qilib, tadbirkor «Z» yo'nalishidagi mahsulot turini ishlab chiqarish uchun korxona mablag'-larini investitsiya qilmoqchi. Lekin uning oldida 2 loyiha mavjud. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga o'z munosabatimizni quyidagi ketma-ketliklar tartibida bildirishga harakat qilamiz:

1. Investitsiyalarning o'rtacha yillik rentabellik darajasini bank kreditining o'rtacha foiz stavkasi bilan taqqoslaymiz. Har ikkala loyihalarga nisbatan mablag'larni bankda saqlash foydaliroq. Lekin «B» loyiha bo'yicha qo'ldan chiqarilgan afzalliklar nisbatan kamroq. Shu nuqtayi nazaridan olib qaralganda «B» loyiha (foydalilik nuqtayi nazaridan) hozircha yutuqli holatdir.

2. Loyihalarni inflatsion zararlardan (yo'qotmalardan) sug'urtalanganlik (himoyalanganlik) nuqtayi nazaridan taqqoslaymiz.

#### **8.4. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili**

Mablag'lardan foydalanishda ishlab chiqarish yo'nalishi ham korxona, ham jamiyat uchun ma'qulroq bo'lar edi. Chunki ishlab chiqarishda aniq turdag'i mahsulot (ish, xizmat) yaratilib iqtisodiy qiymat bilan birlgilikda iste'mol qiymati hosil qilinadi. Bahosi hamda iste'mol qiymati va uning sifati xaridor talabini qondirsma, mazkur turdag'i mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish davomiyligi oshadi. Demak, mablag' aylanishi ta'minlanadi. Eng asosiysi investorlar sarflagan mablag'idan ko'zda tutilgan samara oladilar. Dastlabki sahifalarda investorlar o'z mablag'larini asoslangan loyihalarga ko'ra aniq yo'nalishiga sarflash variantlarini muqobillik tarzida tanlab olishni ko'rib chiqdik. Endigi masala agar investor ishlab chiqarish yo'nalishiga sarflangan mablag'larini joriy davrdagi va joriy davr yakunlangan holati hamda ularning yillar bo'yicha dinamikasini belgilangan rejaga muvosiq, bozordagi o'zgarishlarni hisobga olgan holdagi ahvolini tahlil qilib, ularni

umumlashtirib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini o'rganamiz. Bu bilan faoliyat yo'nalishidagi kamchiliklarni bartaraf etib, yanada samarali bo'lgan imkoniyatlarni topib, ularni joriy qilishga erishiladi. Investitsion faoliyatini tahlil qilish, avvalo, ta'minot rejasini bajarishni o'rganishdan boshlanadi. Bu jarayonda rejada belgilangan asosiy va aylanma aktivlar (ularning turi bo'yicha)ni kelib tushishi yoki ishlab chiqarishga berilishi holati, reja va haqiqiy ma'lumotlarni taqqoslash yo'li bilan ko'rildi. Aniqlangan og'ishishlar yoki kechikishlar sabablari aniqlanadi. Ular tufayli erishiladigan moliyaviy natijaga ko'rsatilgan salbiy ta'sir miqdori o'rganiladi, mas'uliyatli shaxslarga nisbatan tegishli ko'rsatmalar beriladi. Mazkur usuldagи tahlil tezkor yoki muayyan davrni qamrab olgan holda (masalan: choraklik, yillik) o'tkazilishi mumkin. Albatta, tahlil natijasida olingen xulosalardan samarali foydalanish imkoniyati qo'ldan boy berilmagan davrda mazkur tadbir o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Mablag' aylanishining bevosita ishlab chiqarish bosqichida asosiy va aylanma aktivlarini haqiqiy miqdor va qiymat sarfi belgilangan reja bo'yicha amalga oshirilishi tahlil etiladi. O'zgarishlar sabablari o'rganiladi. Ishlab chiqarishga sarflangan investitsiyalarni tahlil qilishda ularning moliyalashtirish manbalarini ham alohida o'rganib chiqish talab etiladi. Chunki, majburiyat asosida moliyalashtirish, o'z qiymati bilan birgalikda ma'lum bir foiz to'lovini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, erishilgan foydani pirovard natijada kamayishiga ta'sir etadi. Muayyan faoliyatni investitsiyalash jarayonida uzoq muddatli aktivlarni jalb etishda o'z mablag'lariga sotib olish, kredit, lizing yo'li yoki ijara munosabatlari bilan olish variantlari ham o'zaro taqqoslanib eng yaxshi deb topilgan tadbir tanlab olinadi. Bunda qiymat jihatdan eng arzon, qaytimi o'z o'simiga ega, moliyalashtirishning qulayligi kabi jihatlariga e'tibor beriladi. Aylanma mablag'lardan unumli foydalanishda ham yuqorida aytib o'tilgan tomonlar chuqr tahlil talab qilinadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya yo'nalishini ishlab chiqarishga burish eng avvalo alohida jamoa hamda davlat man'atlariga mos tushadi. Chunki moddiy ne'matlar ko'payadi hamda iste'mol qililadi.

Investorlarga esa ishlab chiqarishni rivojlantirganligi uchun soliq qonunchiligi bo'yicha ko'plab imtiyozlar beriladi.

### **8.5. Moliyaviy investitsiyalar tahlili**

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda muayyan korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va ayniqsa kengaytirish qo'shimcha

mablag' topish maqsadida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarsiz amalga oshishi qiyin.

*Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlarni sotib olish quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:*

- kapitalni aniqlash;
- qo'shimcha fond olish;
- qimmatli qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish.

Tom ma'noda bozor iqtisodiyoti to'la shakllanib bo'lмаган мамлакатларда qimmatli qog'ozlar ularga xos bo'lмаган boshqa maqsadlarda ham sotib olinishi mumkin.

*Bunday maqsadlar jumlasiga quyidagilarни kiritish mumkin:*

- qimmatli qog'ozlar sotib olish yo'li bilan mulkiy huquqlarga ega bo'lish, defitsit mahsulotlar va xizmatlarga ega bo'lish;
- muomala shartlariga ko'ra naqd pul o'rnnini bosa oladigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- bozorni o'rganish uchun;
- mulk ta'sir darajasini kengaytirish va uni qayta taqsimlash;
- nobarqaror bozor sharoitida qimmatli qog'ozlar kurslari o'zgarishlari asosida chayqovchilik qilish va h.k.

Qimmatli qog'ozlarning likvidlik masalasi bozor iqtisodiyoti shakllanib kelayotgan davlatlarda fond bozorini rivojlantirish bilan bog'liq o'ta muhim masalalar jumlasiga kiradi. Likvidlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, bunday qimmatli qog'ozlarning kursi shuncha mustahkam va yuqori bo'ladi. Demak, korxonalar qimmatli qog'ozni sotib olishda birinchi navbatda ularning shu jihatlariga e'tiborni qaratishlari kerak.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlarning o'ndan ortiq turi bo'lib, ularning ayrim turlari, o'z navbatida, turli shartlar asosida muomalaga chiqarilgan har xil shakllarga bo'linishi mumkin. Quyidagilar qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari bo'lib hisoblanadi: aksiya, veksel, fyuchers, xususiy lashtirish cheki, obligatsiya, davlat xazina majburiyatları, option, warrant, banklarning jamg'arish va depozit sertifikatlari, konosament, mulkiy varqa (masalan; uy-joy olish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz).

Qimmatli qog'ozlar va ularning ishonchliligi haqida gap ketganda xalqaro amaliyotda maxsus reyting agentliklari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlarni chuqur tahlil asosida guruhlarga bo'lishadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar, «oliy sifatli», «yuqori sifatli», «o'rtadan yuqori

sifatli», «o'rta sifatli» va h.k. guruhlarga bo'lish mumkin. Qimmatli qog'ozning investitsion sifati uning likvidlilik darajasi hamda o'rtacha bozor fondidan kam bo'lmasligan darajada foiz keltirish qobiliyati va kurs qiymati barqaror bo'lgan sharoitda risk holati kabi omillarni baholash belgilanadi.

Ma'lumki, qimmatli qog'oz riski qancha past bo'lsa, uning likvidlilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin risk darajasi past bo'lgan qimmatli qog'ozning daromad keltirish qobiliyati ham aksariyat hollarda yuqori bo'lmasligi mumkin.

Bu o'rinda qimmatli qog'ozlar keng tarqalgan g'arb davlatlari bilan o'tish davrida yashayotgan davlatlar amaliyoti o'rtasida o'zaro mos kelmaslik holatlari ham mavjud. Masalan: G'arbda aholi turli qimmatli qog'ozlar investitsion sifatlarini yaxshi biladi. Investorlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, qimmatli qog'ozning qaysi turini sotib olishni hal etish uchun ularning investitsion sifatlarini chuqur o'rganishga yetarli axborot topa olishadi. Axborot o'zining haqqoniyligi, ishonchliligi va to'laligi bilan ajralib turadi. Qimmatli qog'ozning investitsion sifatlarini haqida noto'g'ri moliyaviy axborot bergen yuridik yoki jismoniy shaxs fond bozorida tezda o'z obro'sini to'kib qo'yishi va natijada sinishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan davlatlarda qimmatli qog'ozlarning investitsion sifatlarini aniqlash hozircha tor doiradagi mutaxassislarining ishi bo'lib kolmoqda. Qimmatli qog'ozlarning potensial investorlari bo'lishi mumkin bo'lgan aholining keng qatlamlari fond bozori sarhadlariga asta-sekin kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda qimmatli qog'ozlar portfeli bilan bog'liq risklar nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi.

*Quyida qimmatli qog'ozlar portfeli bilan bog'liq risklarning asosiy turlari haqida qisqacha so'z yuritiladi.*

**Kapital risk** – qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan barcha mablag'lar uchun umumiyl risk bo'lib, u zarar ko'rmasdan kapitalni qaytarib ololmaslik holati bilan belgilanadi. Fondlar bozorida yirik tanazullar ro'y bergen paytda (masalan, 1998-yilda Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya, Indoneziya, Malayziya va h.k. davlatlarda) kapital risk ruyobga chiqadi. Qonunchilikda o'zgarishlar ro'y berishi bilan bog'liq risk natijasida qimmatli qog'ozlar chiqarish qayta ro'yxatga olinishi, bekor qilinishi, uning shartlari tubdan o'zgarishi mumkin. Natijada emitent va investor qo'shimcha xarajatlar qilishi va moddiy yo'qotishlarga duchor bo'lishi mumkin.

**Vaqt bilan bog'liq risk** 2-qimmatli qog'ozni sotib olish yoki sotish uchun noqulay vaqt tanlangan holatlarda yuz beradi. Qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olishga mavsumiy (agrар, savdo firmalari qimmatli qog'ozlari) yoki qayta ishlab chiqarish sikllarining ta'siri o'ta aniq seziladi.

**Tanlash riski** – qimmatli qog'ozlarning serdaromad va ishonchli turlarini tanlay olmaslik holati bilan bog'liq bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar investitsion sifatlarini to'g'ri baholay olmagan vaziyatlarda tanlash riski ro'y beradi.

**Likvidlilik riski** – qimmatli qog'ozning investitsion sifatini baholashni o'zgarishi sharoitida uni sotishdan ko'rilgan zarar bilan o'chanadi.

**Inflatsion risk** – yuqori inflyatsiya sur'atlari investoring qimmatli qog'ozlardan oladigan daromadlari tezroq qadrsizlanish riskidir. Jahan amaliyotida inflyatsion riskni pasaytirishning juda ko'p usullari bo'lishiga qaramasdan inflyatsiyaning yuqori darajadaligi qimmatli qog'ozlar bozorini buzib yuborishi allaqachon aniqlangan.

**Valuta riski** – valuta kurslari o'zgarishi natijasida valuta qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan riskdir.

**Regional risk** – bir yoki ikki turdag'i mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududlar faravonligining shu mahsulotlar narxining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan risk. Mamlakatda hokimiyat krizisi vujudga kelgan paytda regional risklar alohida regionlarning siyosiy va iqtisodiy separatizmiga bog'liq holda vujudga kelishi mumkin.

**Tarmoqlar riski** – iqtisodiyotda tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq bo'lgan risk. Shunga ko'ra barcha tarmoqlarni guruuhlarga ajratish mumkin:

a) sikllik tebranishlarga ta'sirchan tarmoqlar;

b) sikllik tebranishlarga kamroq ta'sirchan tarmoqlar; Bundan tashqari tarmoqlarni «o'lib borayotgan»; «barqaror ishlayotgan»; «tezda o'sib borayotgan» yosh tarmoqlarga ham bo'lish mumkin.

**Kredit riski** – qimmatli qog'ozlarni chiqargan emitent chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar yoki asosiy qarzning qaytaraolmasligi bilan bog'liq bo'lgan risk.

**Foiz riski** – bozordagi stavkalarning o'zgarishi natijasida investorlarning zarar ko'rishi bilan bog'liq bo'lgan risk. Ma'lumki, bozor foiz darajasining pasayishiga olib keladi.

**Bozor riski** – bozor umumiy faoliyatining pasayishi sababli qimmatli qog’ozlar narxining pasayishi natijasida investorlarning zarar ko’rishi.

**Mamlakat riski** – tarmoqlar riskiga o’xshash. Shu bilan birgalikda bu riskning o’zgarishiga korxonaning faoliyati ham ta’sir qiladi. Bunga mos ravishda korxonalar konservativ, agressiv va ularning har ikkakasini birgalikda ko’radigan «oqilona» korxonalarga bo’lish mumkin.

**Qaytarib olish riski** – qaytarib olish huquqiga ega bo’lgan obligatsiyalar bo’yicha to’lanadigan foizlar darajasidan oshganligi sababli emitentning shu obligatsiyani qaytarib olishi natijasida investorlarning zarar ko’rish riski.

Qimmatli qog’ozlar portfelini boshqarish bir-biri bilan bog’liq bo’lgan ko’plab operatsiyalardan iborat bo’lib, ularning qay biri qachon va qaysi shartlar bilan ishlashi, portfeli kim boshqarishi bilan belgilanadi. Qimmatli qog’ozlar portfeli uning egasi yoki egasining topshirig’iga ko’ra alohida shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin.

Biz quyida portfeli uning egasi tomonidan boshqarilish jarayonida sodir bo’ladigan operatsiyalarining asosiyлari bilan tanishtirib o’tamiz. Portfeli uning egasi topshirig’i bo’yicha boshqa shaxs boshqarganda ham shu operatsiyalarning aksariyati bajariladi. Boshqarishning ikkala usuli mazmuran bir-biridan keskin farq qilmaydi. Ularning farqi operatsiyalarni amalga oshirish shaklida bo’ladi. Ya’ni portfel egasi hamma vaqt o’z nomidan ish ko’radi, ikkinchi usulda esa alohida shaxs uning topshirig’i bo’yicha boshqaruv operatsiyalarini bajaradi. Bu operatsiya fond bozori konyunkturasini o’rganish va prognoz qilish, qonunchilik haqida ma’lumot yig’ish, qimmatli qog’ozlar bilan o’tkaziladigan operatsiyalar bo’yicha uslubiy va me’yoriy hujjatlar tayyorlash, kasbiy tayyorlash, portfel umumiy strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, portfeli boshqarishni nazorat qilish, qimmatli qog’ozlarni baholash, dividend siyosatini yaratish va amalga oshirish kabi o’ta muhim chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi. Ko’rinib turibdiki, qimmatli qog’ozlar portfelinib boshqarishni tashkil etish jarayonida bu operatsiya o’ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qimmatli qog’ozlar bozorini tahlil qilish yuqorida gilar bilan chegaralanib qolmaydi. Portfel holatini u o’z oldiga qo’yan maqsadga erishish, risklar va likvidlik darajasini baholash, *xususiylashtirish jarayonini tayyorlash va amalga oshirish kabi hatti-harakatlar ham portfeli boshqarish operatsiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi*.

1. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish asosida investitsiya qilish. Bu operatsiyani amalga oshirish uchun oldindan maxsus fondlar yoki alohida schotlarda pul mablag'lari asta-sekin jamg'arilib boriladi.
  2. Qimmatli qog'ozlarni tayyorlash, muomalaga chiqarish va birlamchi tarqatishni tashkil etish.
  3. Qimmatli qog'ozlarni bevosita sotish bilan bog'liq hatti-harakatlar.
  4. Qimmatli qog'ozlar egasi almashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ayrim hodisalar (masalan, almashuv, sovg'a qilish, merosga berish va h.k.),
  5. Qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish.
  6. Qimmatli qog'ozlarni zarur hollarda garov sifatida ishlatish.
  7. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.
  8. Qimmatli qog'ozlarni qarzga berish yoki qarzga olish.
  9. Qimmatli qog'ozlarni sug'urta qilish.
  10. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha ehtimol tutilgan zararlarni qoplash maqsadida zaxira tashkil qilish va ishlatish.
  11. Buzilgan, yo'qolgan qimmatli qog'ozlarni almashтирish.
  12. Qimmatli qog'ozlarning operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish.
  13. Qimmatli qog'ozlarning bir turini boshqa bir turiga almashтирish.
  14. Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bilan bog'liq mahkamaviy ishlarni bajarish.
- Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish uning egasi tomonidan amalga oshirilganda korxonada bu ish bilan shug'ullanadigan maxsus fond (yoki investitsiya) bo'limi (boshqarmasi) yoki qimmatli qog'ozlarni boshqarish bo'limi (boshqarmasi) tashkil etiladi. Qimmatli qog'ozlar portfelingning egasi mazkur jarayonni boshqarishni o'zi xohlamasda, bu ishni fond bozorida maxsus tashkil etilgan ixtisoslashgan tashkilotlarga shartnoma bilan topshirishi mumkin.
- Korxonalar sotib olgan qimmatli qog'ozlarni va ulardan foydalanishni tahlil qilishda quyidagi jihatlarni ham ko'rib o'tadilar. Qimmatli qog'ozlar uzoq va qisqa muddatga qo'yilganligi, reja bo'yicha yoki rejada belgilanmaganligi, reja bo'yicha qaytimi hamda haqiqatdagi qaytimi, bozor bahosini o'sishi yoki kamayishi, ulardan foydalanishning muqobil yo'naliishlari ularning har birining alohida turi bo'yicha solishtirib chiqiladi. Bu bilan moliyaviy qo'yilmalardan qay darajada foydalanish holatini yillar bo'yicha ham o'rganish mumkin. U holda qimmatli qog'ozlarning har bir yildagi qiymati (narxi oshishi yoki pasayishi ko'rsatilgan holda) keltirilgan foizlari hamda ularning farqlari

o'rganib chiqilib muqobil variantlar bilan taqqoslanadi. Albatta, moliyaviy qo'yilmalardan keladigan foizlarni hisoblashda u bo'yicha ishlab chiqilgan davlat soliq siyosatini ham ko'rib chiqish zarur. Chunki, soliqlar olinadigan foyda summasini kamaytiradi. Fikrimizcha, uzoq muddati moliyaviy qo'yilmalarga mablag'larni bo'sh turgan pul mablag'lari yoki yetarli imkoniyatda foydalanimayotgan asosiy va oborot fondlarini qo'yilsa, korxona uchun samaraliroq bo'lar edi.

#### **Kalit so'zlar va iboralar:**

Investitsiya faoliyati, investitsiya turlari, ishlab chiqarish investitsiyasi, moliyaviy investitsiya, kapital qo'yilma va investitsiya, investitsion muhit, investitsion loyihalar, investitsiya riski.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyati deganda nima tushuniladi?
2. Investitsiya faoliyatining qanday turlari mavjud?
3. Ishlab chiqarish investitsiyasi qanday tahlil etiladi?
4. Moliyaviy investitsiya nima va u qanday tahlil etiladi?
5. Investitsiya bilan kapital qo'yilmalar o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlanishlar mavjud?
6. Xo'jalik subyektlarining investitsion faoliyatini jadallashtirish uchun nima qilish kerak?
7. Investitsion loyihalarning riski qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?

#### **Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:**

##### ***1-topshiriq.***

Quyidagi ma'lumotlar asosida korxonaga taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ichidan eng samarali, maqbul variantini tanlang, tahlil eting va xulosa yozing.

##### ***2-topshiriq.***

Jadval ma'lumotlari asosida korxona uchun vaqt omilini hisobga olgan holda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlang va eng maqbul investitsiya loyihasini tanlang.

## **IX BOB. KORXONALARINI RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH**

- 9.1. Pul oqimlar mohiyati va boshqarishdagi o'rni
- 9.2. Umumiy pul oqimlari tahlili
- 9.3. Xo'jalik subyektlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlari tahlili
- 9.4. Investitsiya, moliyaviy va soliq to'lashlardagi pul oqimlari tahlili
- 9.5. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati tahlili

### **9.1.Pul oqimlar mohiyati va boshqarishdagi o'rni**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish muhim masala hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va global lashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydonidagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'z o'rnda ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va global lashuvning ijobjiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarning yana bir xususiyatlari jihat – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror iqtisodiyotni amalga oshirish borasidagi keng ko'lamli islohotlar bugungi kunda, ayniqsa, hozirda hukm surayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida, o'zining natijalari bilan naqadar samarali va to'g'ri ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda. Xususan, qisqa muddat ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, aholi daromadlarining o'sishi ta'minlandi. samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlari kuchaydi, qishloq xo'jaligi isloq qilindi, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlantirilmoqda, moliyabank tizimi mustahkamlandi va hokazo. Bularning barchasi O'zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi turishining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlaringin ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtayi nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o'tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq globallashuv jarayonini mutlaqlashtirish va unga bir tomonlama qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki mazkur jarayon o'zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ziddiyatli tomonlariga ham ega. Jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi ana shulardan biri hisoblanib, bugungi kunda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining oqibati hisoblanadi. Shunga ko'ra, Birinchi Prezident o'z asarlarini bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat ekanligidan boshlab, jahon moliyaviy inqirozining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablariga batafsil to'xtalib o'tdilar.

Shu o'rinda, jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtaсидаги mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtaсида muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi va

globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan, AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq jahon amaliyotida 1976-yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o'tgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan AQSH dollari yetakchi valutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallahushi ta'sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valutaga bo'lgan talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligini ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablardan hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatları bilan ustav mablag'lari o'rtaqidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;
- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi va hokazo.

Jahoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'لامи kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga

qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

Moliyaviy inqiroz dunyoni bir muddat vahimaga solib qo'ygani rost. Ushbu bo'hronning o'tgan galgilaridan farqi – uning ko'lami global miqyosda o'tgan davrlardagidan ko'ra yanada kengroq sarhadlarni qamrab oldi. Bu albatta, globallashuv jarayonining «ehsoni». O'zbekiston ham dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi hisoblanar ekan, jahonda yuz berayotgan moliyaviy inqiroz mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Respublikamiz o'zining mustaqilligiga erishganidan so'ng birinchi Prezidentimiz boshchiligidagi respublikaning o'ziga xos bo'lgan siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu rivojlanish modeli asosida respublikamizda yangi iqtisodiy tizim – bozor iqtisodiyotiga o'tilmoqda. Turli-tuman mulk shakllarining paydo bo'lishi, davlat mulkinining xususiy lashtirilishi, hissadorlik jamiyatlari, hamkorlikdagi qo'shma korxonalar, kichik korxonalarning vujudga kelishi o'tish jarayoniga xos xususiyatlardandir. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida haqiqiy raqobat hukm surishiga, korxonalar mustaqil ravishda chet el korxonalari bilan aloqa o'rnatishga, mahsulot sotishning yangi zamonaviy usullarini rivojlantirishga, tijorat banklari, xususiy banklar, birjalar, kimoshdi savdolari faoliyatini rivojlantirishga imkoniyatlar paydo bo'la boshladi. Hozirda mulkiy birlik va munosabatlarning shunday tizimini shakllantirish lozimki, bu harakat avvalo faoliyat yakunida yuqori unum va natijaviylikni, butlik va manfaat uyg'unligini, eng muhimi bozor to'kin-sochinligi va jamiyatimiz farovonligini ta'minlasin. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ushbu jihatga bosh masala sifatida qarash lozim.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy, mehnat va pul resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlardan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga bosqichma-bosqich tayyor bo'lib bordi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborot ga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishslash, to'g'ri

xulosalar chiqarish va ularidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'лади.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag'laring harakati to'g'risidagi axborotlar ham kiradi. Xo'jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi axborotlar muhim rol o'yinaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar barcha darajadagi biznesmenlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda, u korxonalar ma'muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Korxona menejerlari mazkur ma'lumotlardan foydalanib korxona likvidliligin o'rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta'minoti va budget bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin.

Iqtisodchi olimlar T.P. Karlin va A.R. Makminlarning fikriga ko'ra, «Pul mablag'lari hisob-kitobi – moliyaviy tahsilning eng muhim qurolidir. Yillik moliyaviy bashorat shaklida ko'rsatilishicha bunday bashorat kompaniya uchun oyma-oy kutilayotgan pul mablag'lari kirimini va oyma-oy asosida majburiyatlar qoplanishing to'lovini amalga oshirilishini ko'rsatib beradi. Pul mablag'lari hisob-kitobi kreditorlarga firmaning kreditga bo'lgan tig'iz talabini baholash uchun va operatsion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun yetarli darajadagi pul mablag'larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari pul mablag'lari hisob-kitobi kreditorlarga kompaniyaning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashga yordam beradi. Korxonaning pul mablag'lari harakati hisob-kitobi, ayniqsa, qarzdorlarning mavsumiy tijorat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlash uchun qulaydir».

Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul mablag'lari o'ta muhim iqtisodiy vosita bo'ladi. Pul mablag'lari ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi, iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turishi iqtisodiy jarayon yuz bergenini bildiradi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom ettirishi uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lari bo'lishini taqozo etadi. Yuqoridaq iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalariga qo'shilgan hamda ularning barchasining fikrlarini umumlashtirgan holda pul mablag'lari atamasiga quyidagicha umumiyligi ta'rif berishni tavsiya etamiz: «**Pul mablag'lari** – majburiyatlarni zudlik bilan to'lash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan turdag'i mablag'larni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lariiga

moliyaviy muassasalardagi joriy hisobvaraqlardagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, korxona kassasidagi konkret o'tkazib beriladigan pul hujjatlaridir.1 Bu o'tkaziladigan pul hujjatlariga oddiy cheklar, kassa orderlari, mijozlar cheklari, pul o'tkazmalari va boshqa hisob-kitob vositalari kiradi». Balansning «Pul mablag'lar» moddasidagi qoldiq pul hisobvaraqlariga kiradigan barcha turdag'i mablag'larni aks ettiradi.

**Pul ekvivalentlari** - bu pul mablag'lariga o'xshaydigan, lekin boshqacha tasniflanadigan aktivlardir. Ular xazina veksellari, tijorat qog'ozlari va depozit sertifikatlardan iborat. Kechikishlar va jarima sanksiyalari pul ekvivalentlarini pul mablag'lariga almashtirilishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, ekvivalentlar kassa hisobvarag'idan olinadi. Ko'pincha, pul ekvivalentlarini hisob-kitob vositasiga aylantirish ehtiyoji yo'q. Ekvivalentlar, odatda, qisqa muddatli investitsiya hisobvarag'iga olib boriladi.

Pul mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko'p jihatdan korxonalarda pul mablag'larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etish va ular ustidan nazoratni yaxshilashga bog'liq. Pul mablag'lar ni nazoratini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri esa korxonaning hisob-kitob schotidir, ya'ni hisob-kitob schotidan samarali foydalanishni maksimal darajada ta'minlash, barcha kirib kelayotgan pul mablag'larini albatta bank orqali hisobga olish, barcha turdag'i to'lovlarni banklar chiqargan cheklar yoki shunga o'xshash yozma topshiriqnomalar va ularning maxsus pul mablag'larini fondi orqali amalgalash lozim. Agarda ko'rsatilgan tartib qat'iy amal qiladigan bo'lsa, u holda pul mablag'larining hisobi ikki tomonlama bo'ladi: birinchisi – korxonaning o'zida, ikkinchisi – bankda. Moliyaviy axborot bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil qilishda xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniadi.

Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, «Pul oqimi to'g'risidagi hisobot» shaklini erkin o'qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak. Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalaniib, korxona to'g'risida katta hajmda ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvolini xizmat va bozor faolligini tahlil qilish mumkin.

**«Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da korxona moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar pul mablag'lari nuqtayi-nazaridan aks ettiriladi:**

- xo'jalik faoliyatida olingan pullar harakati;
- olingan hamda to'langan foizlar va dividendlar;
- to'langan soliqlar;
- olingan va qo'yilgan investitsiyalar;
- aksiyalar va zayomlar, shuningdek, ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlari.

Kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'laridagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettiriladiki, u pul mablag'lari qoldig'i bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtaasida, ya'ni qisqa muddatli yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtaasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

4-son shaklga «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnomasi» ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlar, valuta mablag'lari tushumi va xarajati to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi «Korxona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida»gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

**Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot** – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi. Pul mablag'lari oqimiga so'm va valutadagi pul mablag'lari kiritiladi. Shu tufayli 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyahisobotida maxsus «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotnomasi» bo'lib, unda ularning davr boshi va oxiridagi qoldig'i va ularning kelib tushish va sarflanish summasi ko'rsatiladi.

Pul mablag'lari oqimini o'rganishda ishlataladigan asosiy atamalar quyidagilardan iborat:

**Pul oqimlari** – pul va pul mablag’larining hamda so’m va o’zga ekvivalentlarining kirimi (kelib tushishi) va chiqimi (sarflanishi).

**Pul ekvivalentlari** – bu pul mablag’lariga erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o’zgarishi xatariga kamroq moyil bo’lgan investitsiyalar.

**Pul mablag’lari** – bu kassadagi naqd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag’lar.

**Operatsiya faoliyati** – bu investitsiya va moliyaviy faoliyatni istisno qilganda, korxonaning daromad keltiradigan asosiy va boshqa faoliyati.

**Investitsiya faoliyati** – pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish.

**Moliyaviy faoliyat** – xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo’lib, u natijada o’z sarmoyasi va qarz olingan mablag’lar hajmi va tarkibining o’zgarishiga olib keladi.

Pul mablag’larining oqimini quyidagi asosiy ko’rsatkichlar ta’riflaydi:

1. Pul mablag’larining kelib tushishi va sarflanishi summasi.
2. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag’larining tuzilmasi.
3. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag’larining o’zaro saldosи.
4. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag’lari nisbatining koeffitsiyenti (pul mablag’lari oqimi koeffitsiyenti).

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag’lari summasi moliyaviy hisobot shakli bo’lmish 4-shakl «Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot» bo'yicha to’rt guruhga guruhlashtirilgan. Bundan tashqari, pul mablag’lari oqimini chizma ko’rinishida tasvirlash mumkin.

**Pul mablag’larining kelib tushishi (kirimi).** Xaridorlardan olingan pullar (kirim), hisobot davrida korxonaning bank schotlariga yoki veksel ko’rinishida yuklab jo’natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag’- lar summasini ko’rsatadi. Ushbu summani 4-shakl «Pul mablag’lari to’g’risidagi hisobot» moliyaviy hisobotidan (quyida 4-Sh) va 1-sh shakli statistika hisobotidan olish mumkin. Boshqa pul tushumlari va roylatidan, turli ko’rinishdagi mukofotlar, komission yig’imlardan olingan pul mablag’lari va ularning ekvivalentlari summasini ko’rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari to’g’risidagi hisobot Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruva rahbariyati va tashqi foydalanuvchi investorlar, kreditorlar, korxona menenjerlari uchun

zarurdir. Boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning likvidligi, dividendlar miqdorini aniqlash, boshqa yo'nalishlarga qo'shimcha investitsiyalarni joylashtirish uchun manba hisoblanadi. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot zarur bo'lgan hollarda korxonaga yuqori daromad keltiradigan loyihalarni rejalashtirish uchun zarur manbadir.

Korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik qarzlarini uzishga mavjud mablag'ni yetarli yoki yetishmasliligi, hissadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish hamda korxonani investitsiya va moliya masalalari bo'yicha siyosat kabi masalalarni hal etish zarur.

Pul oqimlari to'g'risidagi manbalar asosida investorlar kompaniya faoliyatini o'rganadi va ularning faoliyatiga baho beradi. Jumladan, korxona rahbariyati pul mablag'lari harakatini boshqara olish, korxona schotidan kreditor qarzlarni uzish hamda hissadorlarga dividend to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsadlari uchun yetarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag'lari harakati o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonani investitsiya va moliyaviy faoliyat natijalarini o'zida aks ettiradi.

#### *Korxonaning pul oqimini tahlil qilishda moliyaviy tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:*

- pul mablag'larining harakatiga to'g'ri, aniq va xolisona baho berish;
- operatsion faoliyatdagi pul mablag'larining harakatiga baho berish;
- korxonaning joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyatlari bo'yicha pul mablag'larining sof kirimi va chiqimini aniqlash hamda baho berish;
- pul mablag'lari kirimi bo'yicha manbalarini, chiqimi bo'yicha harakatlarining tarkibini chuqur o'rganish;
- pul mablag'lari miqdorining optimal variantini aniqlash;
- korxonaning valuta mablag'lari harakatini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonani sof pul oqimlarida ijobiy saldoni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash va hokazolar.

#### **9.2. Umumiyl pul oqimlari tahlili**

Pul mablag'larini harakatini tahlil qilish moliyaviy ahvol va moliyaviy natijalarini tahlil qilish o'rtaisdagi tahliliy ish hisoblanadi. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotdagi umumlashtirish obyekti korxonaning bank schotlari va kassadagi pul mablag'lari hisoblanadi. Ushbu hisobotni

tuzishda pul mablag'larining ekvivalentlari ham pul mablag'lariga tenglashtiriladi. Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining muomalaga kirib kelishi va chiqib ketishi korxonaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdagagi pul mablag'lari harakatito'g'risidagi hisobotda ochib beriladigan pul oqimlarini tashkil qiladi.

*Korxonalarda pul mablag'larining harakati bir necha jarayonlar bo'yicha sodir bo'ladi. Bugungi kunda korxonalarda pul oqimi asosan to'rtta jarayon bo'yicha sodir bo'ladi. Bularga:*

- operatsion faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi (+), chiqimi (-);
- investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi;
- moliyaviy faoliyatdagagi pul mablag'larining sof kirim yoki chiqimi;
- soliqqa tortish (to'langan soliqlar).

Pul oqimlarini faoliyat turiga ko'ra ajratish foydalanuvchilarining hisobot ma'lumotlariga nisbatan turli talablar bilan bog'liq. Operatsion faoliyatda kompaniyaning xo'jalik jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlab turish imkoniyatini baholash va ishlab chiqarish quvvatla rining kengayishi natijasida oborotning oshishi tendensiyalarini aniqlash muhim. Investitsiyalarga yo'naltirilgan mablag'lar bo'lajak ishlab chiqarish quvvatlarining shakllangan xo'jalik faoliyati darajasini va belgilangan rentabellik hamda likvidlik darajalarini qanchalik saqlay olish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy tusdag'i ma'lumotlar kompaniya mulkdorlari va kreditorlarining kompaniyada shakllantirilayotgan pul oqimlariga nisbatan kelgusidagi da'volari nuqtayi nazaridan qiziqish uyg'otadi.

Quyida real sektorda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning misolida yuqorida jarayonlar bo'yicha pul mablag'larining harakatini ko'rib chiqamiz.

### **9.3. Xo'jalik subyektlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlari tahlili**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlarini tahlil qilish natijasida pul mablag'larining taqchillik sabablari to'g'risidagi dastlabki xulosalarni qilish mumkin bo'ladi.

Bunday sabablarga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- ♦ xo'jalik subyektlarining mol-mulk va mahsulot sotish rentabelli pastligi;
- ♦ soliqlar va turli to'lovlarning yuqori ekanligi;
- ♦ korxonalarda qoplash manbalaridan yuqori bo'lgan kapital xarajatlarining amalga oshirilishi;

- ◆ me'yordan ortiqcha bo'lgan zaxira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablag'larining yo'naltirilganligi;
- ◆ korxonalarda aylanma mablag'lar aylanishining pastligi, ya'ni aylanma mablag'larning aylanishi sekinligi hisobiga korxona oborotiga pul mablag'larining qaytishi sekinligi natijasida oborotga qo'shimcha pul mablag'larini jalg' etilganligi;
- ◆ balans passividha qarz majburiyatlari ulushining ortishi hisobiga qarz va kreditlarni qoplashga hamda foiz to'lovlariga yuqori miqdorda to'lanmalar qilinganligi.

Bugungi kunda xo'jalik subyektlarining umumiy pul oqimiga, asosan, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum dinamikasi, mol-mulkning iqtisodiy rentabelligi va qarz mablag'lari bo'yicha to'langan foizlar summalarini ta'sir etmoqda. Ma'lumki, pul oqimlarining dinamikasiga baho berishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyalari va ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab baho beriladi. Hozirda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda pul oqimlarining dinamikasini o'rganish va ularga baho berishga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida ham keyingi yillarda stabil o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, pul oqimlari dinamikasida ham ijobjiy o'zgarishlar mavjud.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shuni ta'kidlamoqchimizki, respublikamizning xo'jalik yurituvchi subyektlarida pul oqimlari dinamikasiga baho berish uchun quyidagi koeffitsiyentlar (ko'rsatkichlar) o'rganilishi va ularning natijalariga asoslanib baho berish lozim bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari oqimini tahlil etishda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan uslublardan kengroq foydalilaniganda korxona menejeri uchun to'g'ri va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishga kerak bo'ladigan tahliliy ma'lumotlar olish imkonи tug'iladi. Bu esa bugungi iqtisodiy munosabatlar sharoitida korxonaning raqobatchilarini bo'lgan xo'jalik subyektlarini yengib chiqishga hamda bozorda o'z mavqeyini mustahkamlashga olib keladi.

Respublikamizda pul oqimlarini yuqoridagi baholash uslublari orqali baholashpul mablag'larini o'rganishni xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtiradi. Bu esa respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga ham xorijiy investorlar qiziqishining ortishiiga sabab bo'ladi, deb hisoblaymiz. Xususan, chet ellik iqtisodchi olimlar L.Dj.Gitman, M.D.Djonk<sup>10</sup> pul oqimlari harakati bo'yicha

<sup>10</sup> Гитман Л.Дж. Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. – М. «Дело», 1997. С. 10-11.

tadqiqotlar olib borib, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalarda ikkita moliyaviy ko'rsatkichni investitsiyalar uchun mezon qilib olishni taklif etdilar:

1. Diskontlangan pul mablag'larining oqimini hisoblash.
2. Investitsiyalarning taxminiy daromadliligini hisoblash.

Bu ikkala usul ham sof operatsion (muomala) foydasini hisoblashga xizmat qiladi. Pul mablag'lari diskontlangan oqimini hisoblash ham investitsiyalarning daromadlilik ko'rsatkichi bo'lib, investitsiyalar tahlilida pul oqimlari summasidan soliqlarni ayirib tashlab, sof muomala foydasi qiymatini hisoblashni talab qiladi. Sof qiymat pul oqimlarining joriy qiymati bilan kapitalning investitsiyaga qo'yilgan dastlabki qiymati o'rtaqidagi farq hisoblanadi.

Investitsiyalarning taxminiy daromadliligini hisoblash investitsiya qilinadigan obyektning yaroqlilagini baholash amali bo'lib, u investitsiyaning to'liq daromadliligi normasini bir necha yillar davomida tushgan barcha daromadlar hisobidan qayta investitsiyalash imkoniyatini ko'rsatadi.

Professor T.Malikovning<sup>11</sup> fikricha, «Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo'lgan har qanday summa hozirgi paytda kichikroq (ozroq, kamroq) bo'lgan subyektiv foydalilikka (bahoga) ega degan aqidaga asoslangan. Diskontlashtirish investitsiyalarning kelgusi qiymatini baholashda, qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlashda, bank, valuta, sug'urta amaliyotida va boshqa hollarda keng qo'llanilishi lozim».

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da joriy (operatsion), investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatları bo'yicha pul mablag'lari kirimi va chiqimi ifodalangan.

*Joriy (operatsion) faoliyat – xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi. Bu bo'limga quyidagilar kirdi:*

- jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag'lari;
- mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan pul mablag'lari;
- xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari;
- operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari.

Korxonalarda pul mablag'lari harakati asosan korxona xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladi. Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'lari harakatini

<sup>11</sup> T.S. Malikov. Moliyaviy qaror qabul qilish asosları – T. «Sharq», 1996. 46-47 betlar.

tahlil qilib chiqishimiz uchun quyidagi jadval ma'lumotlarini o'rganishimiz lozim bo'ladi.

#### **9.4. Investitsiya, moliyaviy va soliq to'lashlardagi pul oqimlari tahlili**

*Investitsiya faoliyati* – korxona investitsiya faoliyatida nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar, ya'ni ko'chmas mulk bo'lmiss bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi. Kirim ustunida esa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan tushum hisoblanadi. Korxonalar xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar moddasini chiqim ustunida vositalarga komission to'lovlar va boshqa birjada to'langan foizlarni hisobga olmagan holda qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan pul mablag'larini ko'rsatadilar. Kirim ustunida o'zlik bo'lмаган qimmatli qog'ozlarni, shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda va qarzlarini sotishdan kelgan tushum ko'rsatiladi. Odatda, korxonalar o'z faoliyati davomida asosiy faoliyat bilan bir qatorda investitsiya faoliyati bilan hamda moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanadilar

Bugungi kunda bizning respublikamizdagi pul mablag'lari harakatidagi o'ziga xos jihatlari shundaki, bizning respublikamizda pul mablag'larining asosiy qismi, ya'ni odatda 90-95 foizi xo'jalik (operatsion) jarayonlariga to'g'ri keladi.

#### **9.5. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati tahlili**

**Moliyaviy faoliyat** – bo'limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi va chiqimlar aks etadi. Bularidan tashqari korxona pul ishtirokisiz investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin.

Masalan, asosiy vositalarni uzoq muddatli kredit hisobiga sotib olish, kreditor qarzlarni aksiyani chiqarish va kreditlarga qo'shimcha aksiyani berish orqali bo'lishi mumkin. Korxona moliyaviy holatining sog'lomligi sharti, pul mablag'lari kirimi korxonaning majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining yetishmasligi moliyaviy holat tangligiga, ortiqcha mablag'larga ega bo'lish inflyatsiya natijasida pulning qadrsizlanishiga, hamda ortiqcha mablag'larni samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmaslikka sabab bo'ladi. Shu bois pul mablag'larini ratsional

boshqarishni doimo nazorat va tahlil qilish lozim. Bunday tahlil etishning amalda bir qancha usullari mavjud. Moliyaviy holat tangligi sabablaridan biri bu korxona joriy aktividagi pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbatan keskin kamayib borishidir. Shu bois har oyda pul mablag'lari bilan muddati kelgan majburiyatlarni bir-biri bilan taqqoslab, tahlil qilish lozim.

Pul mablag'larini yetarli yoki yetishmasligini aniqlashning ikkinchi usuli – bu pul mablag'larining aylanish davrini aniqlashdan iborat.

Korxonada pul mablag'lari aylanmasi davomiyligi o'rtacha 2,04 dan 2,72 kungacha tashkil etgan. Pulni korxona schotiga kelib tushishidan to chiqib ketishiga qadar 2 kundan ortiqroq kun ketgan. Tahlil davomida pul mablag'lari kirimi va chiqimi tarkibi atroflicha o'rganilmog'i lozim.

*Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini tahlil etishning 2 uslubi mavjud.*

1. To'g'ri uslub.
2. Egri uslub.

**To'g'ri uslub orqali** pul mablag'larining harakatini tahlil etish uchun joriy faoliyat, soliqlanish, investitsiya, moliyaviy faoliyatlar bo'yicha mablag'larni kirim qismi, chiqimi bilan taqqoslanib, sof kirimi (yoki chiqimi) aniqlanadi.

**Egri uslub orqali** esa amalda olingan moliyaviy natijalar (foyda) bilan pul mablag'lari hajmining mutlaq o'zgarishi o'rtasidagi o'zaroblig'i aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Egri uslub orqali pul oqimlarini hisoblash sof foyda ko'rsatkichi bilan uning ko'rsatkichlari korrektirovkasiga mosligidan, real pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lмагan mos hisoblar (qatorlar) bo'yicha olib boriladi. Jumladan, pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubi faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari harakatining tahliliga asosan tashkil etilgan bo'lib, ya'ni korxona foydasi aniq qayerda vujudga kelayotgani yoki «tirik pullar» qayerga sarflanayotganligini ko'rsatadi. U «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni quyidan (sof foydadan) yuqorida qarab o'rganishga moslashtirilgan. Shu sababli ham bu uslubni aksariyat iqtisodchi olimlar «quyi» usul deb ham nomlaydilar. Pul oqimlarini operativ boshqarishda egri uslubning ahamiyati quyidagilardan iborat bo'ladi, ya'ni u moliyaviy natijalar va o'z aylanma mablag'lari o'rtasidagi o'zaroblikni o'rnatish imkoniyatini ko'rsatib beradi. Egri uslub yordamida korxona faoliyatidagi eng muammoli jihatlarini ko'rsatib berish hamda ushbu kritik holatdan chiqish yo'llini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

**Mazkur uslubning ham ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ma'lum kamchiliklarini ham amaliyotda kuzatish mumkin:**

1. Tashqi foydalanuvchilar uchun analitik hisobotlar tuzishdagi yuqori mehnat sig'imi talab etilishi.
2. Ichki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari (bosh daftarlari)da kamchiliklarning bo'lishi.

Xo'jalik subyektlarining faoliyatini tahlil qilish jarayonida ikkala uslub (to'g'ri va egri)ning qo'llanilishi bir-birini to'ldirib boradi hamda hisobot davrida korxonani pul mablag'lari oqimining harakati haqidagi real holatini ko'rsatib beradi.

Xo'jalik subyektlarining pul mablag'lari oqimini egri uslub orqali o'rganish uchun alohida analitik hisobot tayyorlash lozim bo'ladi.

**Analitik hisobot tuzish uchun quyidagi axborot manbalaridan foydalilanadi:**

- «Buxgalteriya balansi» (1-shakl);
- «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl);
- «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» (3-shakl);
- Bosh daftari;
- Jurnal-orderlar;
- Buxgalteriya hisobi ma'lumotnomalari va boshqalar.

### **Kalit so'zlar va iboralar**

Pul oqimlari, investitsion, moliyaviy, opertsion faoliyat, to'g'ri va egri uslublar, pul mablag'lar va ekvivalentlari, bosh daftari, jurnal-order

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Qanday hajmda qaysi manbalardan pul mablag'lari kirim qilindi hamda qanday asosiy yo'nalishlarga pul mablag'lari sarflandi?
2. Korxona joriy faoliyati natijasida to'lov mablag'lari (pul qiymatlari zaxirasini) kelishini ko'paytirishni ta'minlay oladimi?
3. Korxona debitorlik qarzlarini undirish hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash holatiga egami?
4. Investitsiya faoliyatiga yo'naltirish uchun o'zlik mablag'lari (sof foyda va amortizatsiya ajratmalar) yetarlimi?
5. Korxonaning olgan sof foydasi uning pul mablag'lariiga bo'lgan joriy talabini qoplash uchun yetarlimi?

## **X BOB. KORXONA XARAJATLARI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BOSHQARISH**

- 10.1. Korxonalarini rivojlantirish tizimida xarajatlarni boshqarishning roli va o'rni
- 10.2. Xarajatlarni boshqarish tizimining xarakterli funktsiyasi. Umumiy xarajatlarni boshqarish tizimi
- 10.3. Mahsulot sotishdan olingan moliyaviy natijalar tahlili
- 10.4. Korxona moliyaviy faoliyatidan olingan natijalar tahlili
- 10.5. Korxona soliq to'langunga qadar gi sof foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilish
- 10.6. Korxona rentabilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili

### **10.1. Korxonalarini rivojlantirish tizimida xarajatlarni boshqarishning roli va o'rni**

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy bo'g'in bu korxona hisoblanadi. Bu bozor uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqaradigan va bozor munosabatlarini tartibga solishda va bozor segmentlarini to'ldirishda asosiy rol o'ynaydigan turli xil xizmatlarni taqdim etadigan korxona.

Barkamol va barkamol rahbar mayjud raqobatning og'ir sharoitlarida zamonaviy bozor talablariga javob beradigan va talabga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni eng to'g'ri tashkil etadigan rahbar bo'lismeni biladi. Zamonaviy bozor munosabatlari - bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mehnat unumдорligini oshirish istagi.

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitida to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan korxonani boshqarish xarajatlarni boshqarish, dinamik qarorlar qabul qilish va g'oyalarning harakatchanligini ta'minlashda ulkan mas'uliyat, vakolat va strategik harakatlarni talab qiladigan murakkab, mehnat talab qiladigan jarayondir. Iqtisodiy mustaqillik korxonaning tashkiliy shaklini, uning faoliyat turini va biznes sheriklarini tanlashni mustaqil ravishda ta'minlaydi.

Moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan korxona o'zining moliyaviy strategiyasini ishlab chiqadi, narx siyosatini ishlab chiqadi, ya'ni o'zini o'zi moliyalashtirish uchun barcha zarur tadbirlarni amalga oshiradi.

Mulkchilik shaklidagi har qanday korxonalar uchun ma'lum vaqt ichida xarajatlar va daromadlar dinamikasini aks ettiruvchisi moliyaviy

natijalar hisobini yuritish kerak. Biroq, ishlab chiqarish resurslaridan loydalanish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilmasdan va ishlab chiqarish strategiyasini baholamasdan, korxonaning joriy moliyaviy holatini va uning rivojlanish istiqbollarini aniqlash mumkin bo’lmaydi.

Zamonaviy tashkilotlarda ushbu muammolarning echimi menejment tahlili tizimida amalga oshirilishi mumkin – bu tashkilot tarkibiy bo’linmalarining o’tgan va kelajakdagi biznes natijalarini qiyosiy tahlil qilish asosida tuzilgan.

Boshqaruv tahlilini amalga oshirish uchun turli usul va ilmiy ishlamalardan foydalanish mumkin. Axborot texnologiyalari joriy etilishi bilan korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish, uning moliyaviy holatini baholash va potentsial zaxiralarni aniqlash mumkin bo’lgan tizimlardan keng foydalanilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda har qanday mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida har qanday korxona ma’lum turlarga bo’lingan bir qator xarajatlarni o’z zimmasiga oladi.

Kompaniya ishlab chiqarish jarayonida quyidagi xarajatlar bilan bog’liq juda murakkab xarajatlarni amalga oshiradi:

- 1) asosiy vositalardan foydalanish;
- 2) xom ashyo sotib olish bilan;
- 3) yarim tayyor mahsulotni sotib olish bilan;
- 4) xodimlarga haq to’lash bilan;
- 5) yoqilg’i, energiya va boshqa xarajatlar bilan.

Har bir korxona o’z faoliyatini normal rivojlanishi uchun va yuqorida barcha xarajatlarni amalga oshirish imkoniyati uchun xarajatlarni boshqarish va ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak.

Xarajatlarni boshqarish sohasidagi tahliliy ishlar samarali va moliyaviy-iqtisodiy qarorlar sifatli bo’lishi uchun quyidagi guruhlar uchun xarajatlarni hisobga olishni to’g’ri tashkil etish kerak:

- 1) belgilangan xarajatlar;
- 2) o’zgaruvchan xarajatlar.

Xarajatlarni sobit va o’zgaruvchanlarga bo’lish moliya menejeriga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) xarajatlarni qoplash muddatini belgilaydi;
- 2) korxonaning moliyaviy ishonchliligini aniqlash;
- 3) korxona foydasining maqbul miqdorini hisoblash.

Asossiz va nazoratsiz narxlarning oshishi Rossiyaning aksariyat korxonalarining eng dolzarb muammolaridan biridir. Bugungi kunda

korxonalarining menejmenti oldida turgan eng muhim vazifa ishlab chiqarish xarajatlarni samarali boshqarishdir. Hozirgi vaqtida xarajatlarni hisobga olish bo'yicha tarmoq qoidalari, rejalahtirish va xarajatlarni tahlil qilish bo'yicha darsliklar mavjud. Shu bilan birga, ushbu sohada to'plangan potentsialdan foydalishning asosiy to'siq mahsulot tannarxini hisoblashning jiddiy murakkabligi va natijada kerakli ma'lumotlarni olish samaradorligining pastligi hisobga olinishi kerak. Bu o'zgaruvchan bozor sharoitida yuqori narxlar dinamikasi sharoitida tez va maqbul qarorlarni qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Bozor menejmenti tamoyillariga o'tish davrida Rossiya iqtisodiyoti mahsulot raqobatbardoshligi muammosining asosiy mezonlarini belgilaydi. Mahsulot raqobatdosh bo'lishi uchun u yuqori sifatga javob berishi kerak va shu bilan birga uning narxi past darajada bo'lishi kerak. Bu raqobatbardoshlikning muhim shartidir. Narx siyosatiga asoslangan narx siyosati asosida ishlaydigan korxonalar bozor sharoitlari dinamikasiga bardosh berolmaydilar.

Korxonalarining xorijiy tajribasi, biznes amaliyoti xarajatlarni doimiy tahlil qilish, harajatlar bilan kunlik ishslash asosida, ularni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi, bu esa bozor pozitsiyalarining barqarorligiga hissa qo'shadi degan xulosaga olib keladi. Shiddatli raqobat sharoitida xarajatlarni boshqarish mexanizmini yaratish kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun ilmiy faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni shakllantirish jarayoniga maqsadli ta'sirni turli usullarini izlash zarur. Biroq, tartibga solinadigan vaziyatni baholash va boshqarish va xarajatlarni optimallashtirishga tuzatuvchi ta'sirni tanlash sohasida, ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni hisobga olish tizimini yaratishda aniq fikrlar va qarorlar mavjud emas.

Ishlab chiqarish jarayonida tannarxni shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan eng samarali usullardan biri moliyaviy javobgarlik markazlarini tashkil etish asosida korxonaning xarajatlari va foydalarini boshqarishdir.

**Moliyaviy javobgarlik markazi (CFD)** – bu tarkibiy bo'linma yoki bo'linmalar guruhi bo'lib, u foydani optimallashtirish, rentabellikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish usullarini qidirish, belgilangan chegaralar ichida xarajatlar darajasini nazorat qilish, shuningdek xarajatlarni kamaytirish usullarini izlashning asosiy vazifalarini belgilaydi.

**CFD boshqaruvi tizimining maqsadikorxonaning turli qismlarini** eng samarali boshqarishdir. Ushbu boshqaruvi har bir javobgarlik markazi uchun faoliyat natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar

asosida amalga oshiriladi. Har bir javobgarlik markazida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida kelib chiqadigan barcha og'ishlar ma'lum bir rahbarga tegishli bo'ladi.

Moliyaviy javobgarlik markazi faqat uning rahbarlari ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xarajatlardan uchun javobgardir. Shunday qilib, korxonani boshqarish paytida keyingi natijalar ijobjiy baho berish uchun Markaziy Federal okrugni to'g'ri aniqlash kerak. Tanlangan har bir CFD uchun faqat rahbar tomonidan ajratilgan vakolatga bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari va xarajatlari to'g'risidagi hisobotni yuritish kerak. Buxgalteriya tizimi har bir CFD, har bir biznes bitimi faoliyatini aks ettirishi shart.

Barcha CFDlarning kombinatsiyasi korxonaning moliyaviy tuzilishidir. Boshqaruvin hisobi ob'ehti sifatida faoliyat ko'rsatadigan korxonaning tarkibiy bo'linmalari orasida daromadlar va xarajatlardan, muayyan moliyaviy natijalar uchun javobgar bo'lgan CFD taqsimlanadi va hokazo. To'g'ri tuzilgan moliyaviy tuzilma foyda olishning asosiy jihatlarini hisobga olish va hisobga olishga imkon beradi. xarajatlardan va daromadlarni hisobga olish.

Markaziy Federal okrugni boshqarish tizimini to'g'ri va izchil shakllantirish va oxir-oqibat korxonada ushbu sxemaning samarali ishlashiga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak.

1) Korxonaning iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishini, uning tashkiliy tuzilmasi turini aniqlaydi;

2) Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish va ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi uchun mas'ul bo'lgan markazlarni aniqlash;

3) Korxonaning xarajatlari, daromadlari va foydalarini tahlil qilish;

4) Markaziy Federal okrugni ajratib ko'rsatish, ularning holati va o'zaro ishlash qoidalarini belgilash;

5) har bir CFD uchun hisobotlarning ro'yxatini va Markaziy Federal okrugning samaradorligini baholash uchun ko'rsatmalar belgilash;

6) Markaziy Federal okrugning huquq va majburiyatlarini, ularning ichki holatini belgilaydi.

O'z vazifalari va funktsiyalariga qarab CFD asosiy va yordamchi bo'linadi. Asosiy CFDlar mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishda bevosita ishtirok etadilar, ularning xarajatlari ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladi. CFD-larni qo'llab-quvvatlash asosiy javobgarlik markazlariga xizmat qiladi, ularning xarajatlari asosiy markazlarga taqsimlanadi va shundan

keyingina asosiy markazlarning umumiy qiymati ishlab chiqarish, ish, xizmatlar tannarxiga kiritiladi.

Xarajatlarning paydo bo'lishi joyiga to'g'ri kelish darajasiga ko'ra javobgarlik markazlari mos keladigan va mos kelmaydiganlarga bo'linadi. Agar harajatlar yuzaga keladigan har bir joyda o'ziga xos javobgarlik maydoni bo'lsa, bu vaziyatni maqbul deb hisoblash mumkin. Ammo bu har doim ham sodir bo'lmaydi. Masalan, agar ishlab chiqarish ustaxonasida ortiqcha xarajatlar xom ashyoning rejalashtirilgan parametrlarga mos kelmasligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlik do'kon menejeriga emas, balki ta'minot menejeriga tushadi. Ma'muriyat xarajatlarni qanday tasniflash, qaerda sodir bo'lganligi haqida batafsil ma'lumot va ularni Markaziy Federal okrugiga qanday bog'lash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Mas'uliyat markazlari uchun xarajatlarni rejalashtirishni amalga oshirish tavsya etiladi. Xarajatlarni boshqarishga bunday yondashuv xarajatlarni alohida javobgarlik markazlari o'rtaida qanday taqsimlanganligini, xarajatlar va daromadlarning ma'lum mablag'larni sarflashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyati bilan qanday bog'liqligini aniq aniqlash imkonini beradi.

Xarajatlarni boshqarish tegishli xarajatlar elementlari uchun haqiqiy xarajatlarni to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirishning asosiy vazifasini qo'yadi. Shuningdek, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni monitoring qilish, tayyor normalar, standartlar va smetalar bilan taqqoslash, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish uchun zaxiralarni topish, samarasiz xarajatlar va yo'qotishlarning yuzaga kelishining oldini olish, korxonaning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ichki ishlab chiqarish hisobi natijalarini aniqlash uchun tezkor ma'lumotlarni toplash zarur.

Markaziy Federal okrugdagi xarajatlarni boshqarishdagi asosiy e'tibor ularning tasnifiga berilgan. Nazorat va tartibga solish jarayonida xarajatlar nazorat qilinadigan va boshqarilmaydigan, o'zgaruvchan va doimiy – qaror qabul qilish va rejalashtirish uchun, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita – ishlab chiqarilgan mahsulotni hisoblash va baholash uchun bo'linadi. Nazorat qilinadigan xarajatlar ushbu javobgarlik markazi rahbarlari tomonidan nazorat qilinadi va ular ta'sir qilishi mumkin. Nazorat qilinmaydigan xarajatlar ushbu javobgarlik markazi rahbarlarining faoliyatiga bog'liq emas. O'zgaruvchan xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri sotuvga bog'liq, belgilangan xarajatlar hajmi sotuvga bog'liq emas. To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri mahsulot tannarxiga kiritiladi. ular har qanday mahsulotni ishlab chiqarish,

xizmatlar yoki ishlarni bajarish bilan bevosita bog'liqdir. Bilvosita xarajatlar bir necha turdag'i mahsulotlar, xizmatlar, ishlarni ishlab chiqarish uchun keng tarqalgan. Ular o'z narxiga bilvosita kiritiladi.

Markaziy Federal okrugi uchun xarajatlarni boshqarish metodologiyasi har bir markaz uchun xarajatlarni taqsimlash va cheklangan daromadlarni aniqlashning qat'iy ketma-ketligiga amal qiladi. Xarajatlar, sotish va natijalar moliyaviy javobgarlik markazlarida qayd etiladi. Agar xarajatlarni bevosita moliyaviy javobgarlik markaziga bog'lash mumkin bo'lsa, unda ular bilvosita taqsimlash usullaridan foydalanmasdan taqsimlanadi. Barcha o'zgaruvchilar va to'g'ridan-to'g'ri sobit xarajatlarni hisobga olishda bir necha marjinal daromadlar aniqlanadi.

Moliyaviy javobgarlik markazlari xarajatlarini boshqarish metodologiyasining afzalligi shundaki, u har bir javobgarlik markazining xarajatlari to'g'risida keng ma'lumot olishga imkon beradi. Ushbu tahlil davomida sapmalar tez-tez uchraydigan zaif joylar aniqlanadi. Ruxsat etilgan va o'zgaruvchan xarajatlar tarkibini tahlil qilish o'zgaruvchan yoki sobit bo'lgan xarajatlarning qiymatlariga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash va faoliyatini boshqarish va zamonaviy korxonalarining ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish uchun yanada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Xarajatlarni boshqarish – resurslarni tejash va ulardan maksimal foyda olish qobiliyati. Keling, "xarajatlar", "xarajatlar", "to'lovlar" kabi atamalarni ko'rib chiqaylik. Ularning farqi nimada? Xarajatlarga korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati jarayonida ishtirok etadigan barcha resurslar kiradi. Ma'lum davr uchun foyda va zarar to'g'risida hisobot barcha xarajatlarni aks ettirmaydi. Xarajatlarga ma'lum davr uchun foydani shakllantirishda qatnashadigan xarajatlar kiradi. Xarajatlarning qolgan qismi tugallanmagan kapital qurilish loyihalari, tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, xarajatlarga majburiyatlarning ko'payishi yoki aktivlarning kamayishi kiradi, bu esa o'z navbatida aksiyadorlar o'rtaSIDA foydani taqsimlash bilan bog'liq bo'limgan kapitalning pasayishiga olib keladi. To'lovlar – bu etkazib berilgan materiallar va boshqa zarur xom ashyo uchun to'langan pul oqimlari. To'lovlar va xarajatlar bir-biridan ma'lum vaqt ichida zaxiralar va kreditorlik qarzlarining o'zgarishi bilan farqlanadi.

Xarajatlarni boshqarish yondashuvida xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ushbu tushunchalarni ajratib ko'rsatish kerak. Masalan, daromadlar to'g'risida ma'lumotlardan ma'lumotlarni olishga asoslangan xarajatlarni boshqarish xarajatlarni boshqarish emas. Agar sotish hajmi pasaygan va shu bilan birga tayyor mahsulotlar zaxiralari ko'payib borayotgan bo'lsa, foyda va zarar to'g'risida hisobot ma'lumotlariga ko'ra, biz xarajatlar kamayganligi va xarajatlar kattalashgani to'g'risida ma'lumot olamiz. Biroq, menejerlar kompaniya uchun ushbu noqulay vaziyatga kechikkan munosabatda bo'lishlari mumkin, bu esa istalmagan oqibatlarga olib keladi.

"Xarajatlar" va "to'lovlari" atamalarining aralashmasi kompaniya rahbariyati kreditorlarga to'lovlarni cheklash orqali xarajatlarni boshqarishga intilayotganiga olib keladi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar narxini oshirishga yordam beradi, chunki resurslarni to'lashdan tashqari, tijorat kreditini to'lash zarurati to'liq hajmda.

Xarajatlarni boshqarish – bu xarajatlarni kamaytirish va nazorat qilishga olib keladigan turli tadbirlarning butun majmui. Korxonada xarajatlarni boshqarish tizimini yaratish jarayoni quyidagi bosqichlarni ifodalashi mumkin:

1) xarajatlarni boshqarish tizimlari va byudjet menejmenti o'rtafigi munosabatlarni o'rnatish;

2) xarajatlarni kamaytirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash;

3) xarajatlarni kamaytirish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish.

Xarajatlarni boshqarish ijobji samara berishi uchun u byudjet tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Byudjetni ishlab chiqishda kompaniya rejalashtirilgan xarajatlarni ma'lum bir doirada joriy qiladi, ularning hajmini cheklab qo'yadi va xarajatlarni boshqarish uchun shu tarzda harakat qiladi. Kompaniya byudjetini standartlashtirish, xarajatlar me'yorlaridan foydalangan holda tayyorlash mumkin, shuningdek, ma'lum chekllovlarini belgilash orqali.

Ikkala usulning ham kombinatsiyasi eng maqbul deb hisoblanadi: cheklash normalari belgilanmagan qiymat moddalariga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, faqat ratsiondan yoki faqat cheklardan foydalangan holda korxonalarining muvaffaqiyatli ishlashi mumkin.

Xarajatlarni boshqarishning eng samarali vositalaridan biri bu korxona xarajatlarini rejalashtirishdir. Korxonani jadal rivojlantirish rejali haqiqiy bo'lishi kerak, ammoye shu bilan birga qat'iydir. Odatda,

xarajatlarni boshqarishning birinchi bosqichi bo'limlar tomonidan ularga yuklangan vazifalarni hal qilish uchun ma'lum miqdorda mablag 'ajratish uchun arizalarни topshirishdan boshlanadi. Keyingi tijorat ekspertizasi. Bu bozorda ahvolga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatiga muvofiqligi nuqtai nazaridan murojaatning haqiqiyligi tahlili.

Xarajatlarni boshqarish byudjet tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi uchun yagona boshqaruв organi – byudjet qo'mitasi bo'lishi kerak. Budjet qo'mitasi va funktsional markaz rahbarlari tomonidan xarajatlar bit vaqtning o'zida to'liq nazoratdan o'tganda, byudjet qo'mitasining matritsali tuzilishini shakllantirish eng maqbuldir. Byudjet qo'mitasining raisi kompaniyaning bosh direktori hisoblanadi. Funktsional markaz – bu funktsional atributni bog'laydigan byudjet moddalari bo'limi. Funktsional markazning ishlashi uchun mas'ul tashkilotchi – bu menejer (funktsional markaz rahbari), u butun korxona bo'ylab boshqaruvning ma'lum bir sohasi uchun javob beradigan kompaniya menejeri. Byudjet markazlarining rahbarlari bo'lim boshliqlari.

Kompaniya byudjetining birinchi versiyasini tayyorlash bilan, xarajatlarni boshqarish boshlanadi. Agar tuzilgan byudjet kompaniya rahbariyatini qoniqtirmasa, unda ushbu byudjet moddalari, shu jumladan xarajatlar ham to'g'rilanadi.

Agar xarajatlarni kamaytirish zarur bo'lsa, ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) qat'iy majburiyatlar tufayli o'zgarishi mumkin bo'lmagan xarajatlar;

2) qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan majburiyatlar bilan bog'liq xarajatlar;

3) korxonaga jiddiy zarar etkazmasdan rad etilishi yoki boshqa davrlarga qoldirilishi mumkin bo'lgan xarajatlar.

## **10.2. Xarajatlarni boshqarish tizimining xarakterli funksiyasi. Umumiy xarajatlarni boshqarish tizimi**

Iqtisodiy adabiyotda va amaliyotda "xarajatlar" atamasi bilan bir qatorda "xarajatlar", "xarajatlar" kabi iboralar qo'llaniladi. Bundan tashqari, ko'plab mualliflar ularni sinonim sifatida talqin qilishadi va bu uchta tushunchani farq qilmaydi. Shu bilan birga, farqlar mavjud.

**Xarajatlar – bu korxonaning moliyaviy resurslarining real yoki taxmin qilingan xarajatlari.** Ushbu harflar so'zma-so'z ma'noda moliyaviy resurslarning yalpi harakatini anglatadi va kelajakda daromad olish imkoniyatiga ega bo'lsa, aktivlarga yoki majburiyatlar bilan bog'liq bo'lib, agar bu sodir bo'lmasa va hisobot davrida kompaniyaning taqsimlanmagan foydasi kamaysa.

**Xarajatlar – bu ma'lum bir davrda daromad olishning moliyaviy xarajatlari.** Xarajatlar kontseptsiyasi allaqachon xarajatlar kontseptsiyasidir: u ma'lum bir davrda faqat aniq to'lovlarni nazarda tutadi. Xarajatlar mahsulot tannarxi va korxona foydasidan to'lanadigan xarajatlar bilan belgilanadi. Masalan, sayohat xarajatlari, mehmono'stlik xarajatlari RF Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yordan ortiqcha xarajatlar tarkibiga kiradi - foyda hisobiga to'lanadi.

Xarajatlar pul ko'rinishida ma'lum maqsadlar uchun ishlataladigan resurslar miqdorini tavsiflaydi va ishlab chiqarish tannarxiga aylanadi.

Muayyan davr xarajatlari va ular bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni farqlash uchun biz quyidagilarni ta'kidlaymiz:

- joriy yilning harajatlari, shuningdek, korxonaning bu yilgi xarajatlari;
- joriy yilgacha qilingan xarajatlar shu yilning xarajatlariga aylanadi va yil boshida aktivlar ko'rinishida bo'ladi;
- joriy yilning harajatlari kelgusi yillar xarajatlari bo'lishi mumkin va joriy yil oxirida aktivlar sifatida aks ettirilishi mumkin.

Korxona xarajatlari tushunchasi uchta muhim jihatga asoslanadi.

Xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish va sotishda qancha va qanday mablag 'sarf qilinishini aks ettiruvchi resurslardan foydalanish bilan belgilanadi.

Ishlatilgan resurslar hajmi jismoniy va pul birliklarida ifodalanishi mumkin. Ammo iqtisodiy hisob-kitoblarda xarajatlarning pul ifodasi qo'llaniladi.

Xarajatlarni aniqlash har doim aniq maqsadlar, vazifalar bilan bog'liqdir, ya'ni. Pul shaklida ishlataladigan manbalar miqdori korxonaning ma'lum bir funktsiyasi yoki ishlab chiqarish birligi uchun hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 1992 yil 5 avgustdag'i 552-sonli qarori bilan korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirishda xarajatlarga kiritilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi aniqlandi.

O'rganilayotgan intizomda menejmentning ob'ekti har xil xilmalilikdagi korxonaning xarajatlari hisoblanadi.

### **Xarajat xususiyatlari**

**1) Dinamiklik.** Xarajatlar doimiy harakatda, o'zgarishda. Shunday qilib, bozor biznes sharoitida sotib olingen xom ashyo va materiallar, butlovchi qismlar, energiya tariflari va xizmatlari narxlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Mahsulotlar yangilanmoqda, moddiy va mehnat xarajatlari normalari qayta ko'rib chiqilmoqda, bu ishlab chiqarish tannarxiga va xarajatlar darajasiga ta'sir qiladi. Shu sababli, statistikada xarajatlarni ko'rib chiqish juda o'zboshimchalik bilan va ularning haqiqiy hayotdagi darajasini aks etfirmaydi.

**2) Xarajatlarning xilma-xilligi,** ularni boshqarishda keng ko'lamli texnik va usullardan foydalanishni talab qiladi. Turli xil xarajatlar ularning tasnifi bilan aniqlanadi, bu, birinchidan, individual xarajatlarning korxonaning iqtisodiy natijalariga ta'sir darajasini aniqlash, ikkinchidan, ma'lum turdag'i xarajatlar darajasiga ta'sir qilish imkoniyatini baholash va nihoyat, mahsulotga faqat shu xarajatlar bilan bog'liq bo'lismi, uni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'ligan narsalar. Shunga o'xshash muhim va qiyin vazifa xarajatlarni ishlab chiqarish bo'linmalariga va korxonaning ayrim faoliyat turlariga to'g'ri taqsimlashdir.

**Uchinchisi** xarajat xususiyati **ularni o'lchashda qiyinchilik,** buxgalteriya hisobi va baholash. O'lhash va buxgalteriya hisobi mutlaqo aniq usullari va xarajatlar yo'q.

**To'rtinchi xususiyat - bu iqtisodiy natijaga xarajatlar ta'sirining murakkabligi va nomuvofiqligi.** Masalan, ishlab chiqarishning joriy tannarxini kamaytirish orqali korxona foydasini ko'paytirishingiz mumkin, amino bu ITI, muhandislik va texnologiyalarga kapital xarajatlarni ko'paytirish orqali ta'minlanadi. Mahsulotlarni ishlab chiqarishdan olinadigan yuqori foyda ko'pincha ularni yo'q qilish xarajatlari va boshqalar tufayli sezilarli darajada kamayadi.

**Korxonada xarajatlarni boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan:**

- Iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish omili sifatida xarajatlarni boshqarishning rolini aniqlash;
- asosiy boshqaruva funktsiyalari uchun xarajatlarni aniqlash;
- korxonaning ishlab chiqarish birliklari uchun xarajatlarni hisoblash;

- mahsulot birligi uchun zarur xarajatlarni hisoblash;
- biznes qarorlarini tanlash va qabul qilishda xarajatlarni baholashga imkon beradigan ma'lumot bazasini tayyorlash;
- xarajatlarni o'lchanish va nazorat qilishning texnik usullari va vositalarini aniqlash;
- ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida va korxonaning barcha ishlab chiqarish bo'linmalarida xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralarni qidirish;
- xarajatlarni me'yorlash usullarini tanlash;
- korxona sharoitlariga mos keladigan xarajatlarni boshqarish tizimini tanlash.

Xarajatlarni boshqarish vazifalari har tomonlama ko'rib chiqilishi kerak. Faqatgina ushbu yondashuv o'z samarasini berib, korxonaning iqtisodiy samaradorligini keskin oshirishga yordam beradi.

### **Xarajatlarni boshqarish xususiyatlari**

Korxonada xarajatlarni boshqarish har qanday ob'ektni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha funksiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi, ya'ni, echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ularning bajarilishini nazorat qilish. Xarajatlarni boshqarish funksiyalari boshqaruvin tsiklining elementlari orqali amalga oshiriladi: prognozlash va rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va tartibga solish, amalga oshirishni faollashtirish va rag'batlantirish, buxgalteriya hisobi va tahlil.

Boshqarish funksiyalarining barcha elementlar uchun to'liq bajarilishi boshqariladigan quyi tizimning (boshqarish ob'ekti) boshqariladigan quyi tizimga (boshqaruvin ob'ekti) ta'siri tsiklini tashkil etadi.

**Boshqaruvin predmetlari** xarajatlar - bu korxona rahbarlari va mutaxassislari va ishlab chiqarish bo'linmalari (ishlab chiqarish, ustaxonalar, bo'limlar va boshqalar). Alovida funksiyalar va xarajatlarni boshqarish elementlari korxona xodimlari tomonidan bevosita yoki ularning faol ishtirokida amalga oshiriladi. Masalan, dispatcher ishlab chiqarish jarayonini muvofiqlashtirish va tartibga solishga ta'sir qiladi, shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlari; buxgalter xarajatlarni hisobga olishni amalga oshiradi va hokazo.

**Boshqarish ob'ektlari** mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish, sotish, ishlatish va yo'q qilish xarajatlari.

Korxonada xarajatlarni boshqarish funktsiyalarining o'zaro ta'sirining umumiyyatini sxemasi sek.

Xarajatlarni boshqarish o'z-o'zidan maqsad emas, lekin korxona muayyan iqtisodiy natijaga erishishi, ish samaradorligini oshirish uchun mutlaqo zarurdir.

Xarajatlarni boshqarish funktsiyalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq, ya'ni, ma'lum bir ishlab chiqarish, iqtisodiy, texnik yoki boshqa natijaga erishish uchun avval xarajatlarni qoplashingiz kerak. Shuning uchun xarajatlarni boshqarishning maqsadi korxonaning ko'zlangan natijalariga erishishdir **eng iqtisodiy usulda**.

**Prognozlash va xarajatlarni rejalashtirishu** istiqbolli (uzoq muddatli rejalashtirish bosqichida) va joriy (qisqa muddatli rejalashtirish bosqichida) ga bo'linadi.

Uzoq muddatli rejalashtirishning maqsadi yangi bozorlarni rivojlantirish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilish, korxona quvvatini oshirishni kutayotgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot tayyorlashdan iborat. Bu marketing tadqiqotlari va ITI, kapital qo'yilmalar xarajatlari bo'lishi mumkin.

Joriy rejalar korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirishni belgilaydi.

Agar uzoq muddatli xarajatlarni rejalashtirishning to'g'riliqi kichkina bo'lsa va inflyatsiya jarayoni, raqobatchilarining harakati, korxonani iqtisodiy boshqarish sohasidagi davlat siyosati va ba'zan engib bo'lmas kuch ta'sir qilsa, yaqin kelajakdagi ehtiyojlarni aks ettiradigan qisqa muddatli xarajatlarni rejalashtirish yanada aniqroqdir, chunki u yillik, choraklik hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

**Tashkilot** – samarali xarajatlarni boshqarishning muhim elementi. Bu korxona xarajatlarni qanday boshqarishini aniqlaydi, ya'ni, buni kim, qaysi vaqtida, qanday ma'lumot va hujjatlardan, qanday usullarda foydalangan holda amalga oshiradi. Xarajat markazlari, ularni bajarish uchun javobgarlik markazlari belgilanadi. Xarajatlarni boshqarish bilan shug'ullanadigan menejerlar va mutaxassislar o'ttasidagi chiziqli va funktional munosabatlarning ierarxik tizimi ishlab chiqilmoqda, ular korxonaning tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilishiga mos kelishi kerak.

**Muvofiqlashtirish va xarajatlarni boshqarishhaqiqiy xarajatlarni rejalashtirilgan xarajatlar bilan taqqoslashni, og'ishlarni aniqlashni va ularni bartaraf etish uchun tezkor choralarini ko'rishni o'z ichiga oladi.** Agar rejani amalga oshirish shartlari o'zgargan bo'lsa, unda uni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan xarajatlar tartibga solinadi. O'z vaqtida

muvofiqlashtirish va xarajatlarni boshqarish kompaniyaga o'z faoliyatining rejalashtirilgan iqtisodiy natijalarini amalga oshirishda jiddiy buzilishlarning oldini olishga imkon beradi.

**Qayta tiklash va rag'batlantirish** ular ishlab chiqarish ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatadigan va rejada belgilangan xarajatlarni bajarishga undash va ularni kamaytirish yo'llarini izlashni anglatadi. Bunday harakat yo'naliшини ham moddiy, ham axloqiy omillar undashi mumkin. Muvofiqlik uchun rag'batlantirishni va xarajatlarni tejashni ortiqcha sarf qilganlik uchun jazo bilan almashtirish mumkin emas. Bunday holda, xodimlar rejalashtirilgan xarajatlar darajasiga e'tiroz bildirish, uni haddan tashqari ko'tarish uchun asosiy kuchni sarflashadi. Shunda korxonaning asosiy maqsadiga erishish - xarajatlarni kamaytirish orqali maksimal foyda olish qiyin vazifa bo'ladi.

**Buxgalteriya hisobi.** To'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun ma'lumot tayyorlash uchun xarajatlarni boshqarish elementi sifatida. Masalan, moddiy zaxiralar qiymatini baholaganda, xarajatlar ishlab chiqarish buxgalteriya hisobi bilan belgilanadi va korxonaning haqiqiy natijalari va uning ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar kompaniya tomonidan ta'minlanadi. buxgalteriya hisobi. Ishlab chiqarish hisobi boshqaruvin hisobi tizimiga kiritilgan, bu sizga xarajatlarni boshqarish va ularning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi.

**Xarajatlar tahlili,** boshqarish funktsiyasining ajralmas elementi bo'lib, korxonaning barcha resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun zaxiralarni aniqlashga, rejalarini tayyorlash va xarajatlar sohasida oqilona boshqaruvin qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumot to'plashga yordam beradi.

**Boshqarish funktsiyaları** xarajatlarni boshqarish tizimida rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlarni taqqoslab, fikr-mulohazalar taqdim etiladi. Nazoratning samaradorligi ishlab chiqarish sharoitida ob'ektiv o'zgarish tutayli haqiqiy xarajatlarni rejalashtirilganga muvofiqlashtirish yoki rejalarini aniqlashtirishga yo'naltirilgan boshqaruvni tuzatish ishlari bilan belgilanadi.

Demak, xarajatlarni boshqarish bu dinamik jarayon bo'lib, uning maqsadi korxonaning yuqori iqtisodiy natijalariga erishishdir.

1. Mahsulot sotishdan olingan moliyaviy natijalar tahlili.

2. Korxona moliyaviy faoliyatidan olingan natijalar tahlili.

3. Korxona soliq to'langunga qadar gi sof foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
4. Korxona rentabilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili.

### **10.3. Mahsulot sotishdan olingan moliyaviy natijalar tahlili**

Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlari o'rganiladi. Ammo ushbu ko'rsatkichlar bozor munosabatlari sharoitida bir qancha omillar ta'sirida, ko'pgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shu tufayli, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ko'lami ancha kengaygan.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilish, eng avvalo, sotilgan mahsulotni o'rganishdan boshlanadi. Barcha xarajatlarni qoplab daromad olishni ta'minlaydigan ko'rsatkich bu sotilgan mahsulot uchun tushgan pul tushumidir. Undan qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlarni to'lab sof tushumni aniqlash mumkin.

Demak, moliyaviy natijalarning asosiy manbasi, bu sotishdan tushgan tushumdir. Shu tufayli ushbu ko'rsatkich moliyaviy natijalar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Navbatdagi bajariladigan amal sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijani aniqlashdan iboratdir. Bu uchun sotishdan olingan sof tushumdan uning ishlab chiqarish tannarxini ayirish kifoya. Demak, moliyaviy natijalar tarkibida mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish xarajatlari ham ifodalanadi. Lekin ushbu ko'rsatkich tahlilda moliyaviy natjalarga ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaraladi.

Korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibida sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olinadigan daromadlari va qilinadigan xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlari ham mavjud. Ushbu xarajatlari (daromadlar) sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijadan chegirilib asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasini keltirib chiqarish mumkin.

Sotishdan olingen sof tushumni korxonaning yalpi foydasi deb ham atash mumkin. Bu odatda sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan uning tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo shu ikki ko'rsatkich zamirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebranishlar mujassam etilgan. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olish maqsadga muvoifiqdir. Buni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (10.1-jadval).

#### **10.1. - Jadval.**

##### **Yalpi foya o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Asos yili-da	Hisobot yilidagi mahsulot shu davr bahosi va asos yili-dagi tannarx bilan	Hisobot yili-dagi mahsulot asos yilidagi baho va hisobot yilidagi tannarx bilan	Hisobot yili-da
1. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning to'la tannarxi	3951,2	3951,2	4841,7	4841,7
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati	4583,3	5694,5	4745,4 **	5694,5
3. Yalpi foya* (2q-1q)	632,1	1743,3	-96,3	852,8

\*Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingen yalpi foya

\*\*Viloyat statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasining hisobotiga asosan buho indeksi 1,2 ga teng.

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, yalpi foya shu davr mobaynida 220,7 ming (852,8-632,1) so'mga oshgan. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi

$$F_{sm} = (Sm_1 - Tn_0) - (Sm_0 - Tn_0) = 1743,3 - 632,1 = +1111,2$$

2. Tannarxning oshganligi

$$F_{tk} = [(Sm_1/i_r) - Tn_1] - (Sm_1 - Tn_0) = -96,3 - 1743,3 = -1839,6$$

3. Bahoning oshganligi

$$F_b = (Sm_1 - Tn_1) - [(Sm_1/i_r) - Tn_1] = 852,8 + 96,3 = + 949,1$$

Barcha omillar tasiri

$$F = 1111,2 - 1839,6 + 949,1 = +220,7$$

Korxonada yalpi foyda ma'lum ahamiyatga ega, chunki u barcha moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar negizini tashkil qiladi. Ammo xo'jalik faoliyatining pirovard natijasi sof foydaga erishish bilan belgilanadi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda sof foydani o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

#### **10.4. Korxona moliyaviy faoliyatidan olingan natijalar tahlili**

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi daromadlar va foyda bilan bog'liq ko'rsatkichlarga hisobot bo'yicha 8 ta ko'rsatkich kiradi. Korxona moliyaviy natijalarini tahlil qilganda, eng avvalo, ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishini aniqlash lozim. Bu uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilish mumkin (10.2. - jadval).

## 10.2 - Jadval.

### **Korxonaning hisobot yilida olgan daromadlarini asosiy turlari bo'yicha tahlil qilish**

ming so'm

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilda	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum (Yat)	5728,6	6883,6	+115,5	120,2
2. Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (St)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
3. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (Yamn)	632,1	852,8	+220,7	134,9
4. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) (Afmn)	511,0	711,7	+200,7	140,6
5. Umumxo'jalik faoliyatning moliyaviy natijasi (Mfn)	582,2	792,1	+209,9	136,1
6. Favqulotdagi (tasod-difiy) foyda va zarar (Tf)	11,4	8,3	-3,1	72,8
7. Soliq to'langanga qadargi umumiyl foyda (5q+6q) (Yaf)	593,6	800,4	+206,8	134,8
8. Sof foyda (Sf)	368,0	496,2	+128,2	134,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum, ya'ni moliyaviy natijalarni shaklantiruvchi asosiy ko'rsatkich shu tahlil qilinayotgan yilda 120,2 % oshgan. Biroq, sotishdan olingan sof tushumning o'sish sur'ati undan ham ko'proq, ya'ni 124,3 % ni tashkil qiladi. Bu holat ko'rsatadiki, korxonalar to'laydigan soliqlarning o'sish sur'ati mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan tushgan tushumga nisbatan ancha kam bo'lgan. Shu davrda uning miqdori 103,8 % ni [(831,3 + 357,8) : 100 : (799,1 + 346,2)] tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki hisobot davrida mahsulotning (ish, xizmatning) tannarxi o'tgan yilga nisbatan oshgan, lekin, o'sish sur'ati sotishdan olingan sof tushumning o'zgarish sur'atiga nisbatan ancha kam bo'lgan. Bu mazkur davrda 122,3 % ni (4841,7 : 3951,2 : 100) tashkil qilgan. Natijada sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijaning o'sish sur'ati 134,9 % ni tashkil qilgan. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bir-biriga nisbatan oshib borishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi ham shu hisobot davrida 140,6 % o'sgan. Bu ko'rsatkichning miqdori ham oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori. Demak, ushbu ko'rsatkichchni shakllantirishda ishtirok etadigan sotish va ma'muriy xarajatlar ham ancha tejalganligidan dalolat beradi. Haqiqatda ushbu xarajatlarning o'sish sur'ati mazkur tahlil davrda 116,8 % ni [(98,3 + 80,0) : 100 : 85,4 + 67,0] tashkil qiladi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi biroz oldingisiga nisbatan kamaygan. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi 140,6 % o'sgan bir paytda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 136,1 % ni tashkil qiladi. Bu o'zgarish mazkur ko'rsatkichchni shakllantiruvchi omillar evaziga amalga oshgan. Xususan, korxona oladigan dividendlar, berilgan qarzlar uchun olinadigan foizlari, valyuta kursidan olinadigan farq, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar (xarajatlar) o'sishiga qaramasdan ularning o'zgarish sur'ati biroz past bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati hammasini jamlaganda 88,6 % ni [(3,5 + 4,2 - 21,6 + 5,8 + 79,3) : 100 : (4,7 + 2,9 - 27,5 + 7,1 + 93,2)] tashkil qiladi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 11,4 % ga kam bo'lgan.

Hisobot davrida korxonada olingen tasoddifiy foyda o'tgan yilga nisbatan 27,2 % kam bo'lgan (100,0-72,8). Natijada soliq to'langanga qadargi umumiy foydaning ham o'sish sur'ati (134,8 %) o'zidan oldingi ko'rsatkichga nisbatan (136,1 %) past bo'lgan. Shu hisobot yilda foydadan (daromaddan) to'lanadigan soliq stavkasining o'zgarmay qolganligi sof foyda o'zgarish sur'atiga ta'sir qilmagan. Natijada ushbu ko'rsatkichning ham o'sish sur'ati 134,8 % ni tashkil qilgan.

Ko'rinish turibdiki, moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan. Bu bog'liqlik korxona rentabelligini aniqlash jarayonida ham yaqqol nomoyon bo'ladi.

### **10.5. Korxona soliq to'langunga qadargi sof foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilish**

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy natijasi bevosita uning moliyaviy faoliyatiga ham bog'liq qolmoqda. Shu tufayli bir qancha ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlardir. Bular jumlasiga, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingen dvidendlar, boshqa olingen dvidendlar, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingen va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar, boshqa to'langan va olingen foizlar, valyuta kursi farqi, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad va xarajatlar kiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalariga qo'shib korxona umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning to'rtinchisi bo'lib hisoblanadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga favqulotda olinadigan foyda va to'lanadigan zararning ham bo'lishi mumkin ekan. Agar oldingi ko'rsatkichga ushbu omil ta'siri inobatga olinsa korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi navbatdagi ko'rsatkich – soliq to'langanga qadargi umumiy moliyaviy natija kelib chiqadi.

Korxonada sof foydaning shakllanishi jarayoni butun moliyaxo'jalik faoliyatini qamrab oladi. Bu yerda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, sotish va ma'muriy xarajatlarni tejash, moliyaviy faoliyat natijasida ijobjiy saldoga erishish, tasoddifiy foydaga tuyassar bo'lish, soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq ob'ektini ko'paytirish evaziga

soliq so'mmasini kamaytirish kabi birqancha bosqichlar mujassam. Ularning ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin.

Hozirgi paytda amaldagi me'yoriy hujjatlar moliyaviy natijalarni ifodalovchilarning shakllanishini aynan shu tarzda ifodalashni taqozo qiladi. Ushbu holat moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun ham uslubiy jihatdan yondoshishga asosdir.

Ushbu ketma-ketlikka asoslanib korxona sof foydasining shakllanishi va ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rib chiqish mumkin. Bu tadbirni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4-jadval).

#### **10.4 - Jadval**

##### **Korxonada sof foydaning shakllanish hosob-kitobi**

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	O'sish sur'-ati, %
1. Mahsulotni sotish-dan kelgan sof tushum (qiymatga qo'shilgan soliq va aksizlarsiz)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2. Sotilgan mahsulot tannarxi (ish, xizmat)	3951,2	4841,7	+890,5	122,5
3. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) dan olingan moliyaviy natija (1q-2q)	632,1	852,8	+220,7	134,9
4. Davr xarajatlari (maxsulotini sotish, boshqaruv va boshqa ma'muriy xarajatlar)	152,4	178,3	+25,9	117,0

5. Boshqa operatsion daromadlar	31,3	37,2	+5,9	118,8
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar natijasi (foyda+, zarar-) (3q-4q+5q)	+511,0	+711,7	+200,7	140,6
7. Moliyaviy faoliyat natijasi (+,-)	+71,2	+80,4	+9,2	112,9
8. Tasoddifiy (fav-qulotda) faoliyat nati-jasi (foyda+, zarar -)	+11,4	+8,3	-3,1	72,8
9. Soliq to'langanga qadargi foyda (6q±7q±8q)	593,6	800,4	+206,8	134,8
10. Soliqlar va ajratmalar so'mmasi	225,6	304,2	+78,6	134,8
11. Sof foyda (9q-10q)	368,0	496,2	+128,2	134,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, korxonaning sof foydasi hisobot yilida 128,2 ming so'mga yoki 134,8 % ga o'sgan. Bu o'zgarish jada ko'p omillar evaziga sodir bo'lган. Ushbu omillar ta'sirini shu jadval ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin. Bu omillar guruhiga quyidagilar kiradi:

- \* mahsulot hajmining o'zgarishi;
- \* tannarxning o'zgarishi;
- \* bahoning o'zgarishi;
- \* davr xarajatlarining o'zgarishi;
- \* turli operatsion daromadlarning (xarajatlarning) o'zgarishi;
- \* asosiy faoliyat moliyaviy natijasi;
- \* moliyaviy faoliyat natijasi;

- \* tasoddify (favqulotdagi) foyda va zararlarning mavjudligi;
- \* soliq stavkasi;
- \* soliq so'mmasi.

Ushbu omillarning ta'sirini jadval ma'lumotlari va yuqoridagi (13.4. bobdag'i) hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqish mumkin.

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi	+ 1111,2
2. Tannarxning oshganligi	- 1839,6
3. Bahoning oshganligi	+ 949,1
4. Davr xarajatlarining ko'payganligi (178,3 - 152,4)	-25,9
5. Boshqa operatsion daromadlarning oshganligi (37,2-31,3)	+5,9
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadning oshganligi (711,7-511,0)	+200,7
7. Moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning ko'payishi (80,4 - 71,2)	+9,2
8. Tasoddify foydaning kamayganligi (8,3 - 11,4)	-3,1
9. Soliq summasining oshganligi (304,2 - 295,6)	-78,6

Barcha omillar ta'sirida sof foydaning o'zgarishi (496,2 - 368,0)	+128,2
---	--------

Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning umumiy miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$1111,2-1839,6+949,1-25,9+5,9+9,2-3,1-78,6=+128,2 \text{ ming so'm}$$

### **10.6. Korxona rentabilligini ifodalovchi**

#### **ko'rsatkichlar va ularning tahlili**

Mavzuning maqsadi – bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarining yangi tizimini, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini ko'rsatish hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rGANISH evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Eng avvalo, korxona rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarining bozor munosabalariga mos yangi tizimini ishlab chiqish lozim. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- \* korxona ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi;
- \* sotilgan mahsulot rentabelligi;
- \* iqtisodiy salohiyat rentabelligi;
- \* asosiy vositalar rentabelligi;
- \* aylanma mablag'lar rentabelligi;
- \* nomoddiy faollar rentabelligi;
- \* mehnat salohiyati rentabelligi;
- \* moliyaviy salohiyat rentabelligi;
- \* o'z mablag'lari rentabelligi;
- \* chetdan jalb qilingan rentabelligi;
- \* ishlab chiqarish fondlari rentabelligi;
- \* aktivlar rentabelligi.

Bundan tashqari qaysi sohada nimani tahlil qilishiga qarab rentabellik ko'rsatkichlarining boshqa turlarini ham aniqlash mumkin bo'ladi.

Barcha ko'rsatkichlar rentabelligini ketma-ket tarzda aniqlash usuli quyidagicha bo'ladi.

**Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati rentabelligini** (Rich) ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sof foydani (Sf) mahsulotning (ish, xizmatning) tannarxiga (Tn) bo'lish lozim:

**Sf**

**Rich = ----- x 1000**

**Tn**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm ishlab chiqarish xarajatiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu qilingan xarajatning qanday samaradorlikka ega bo'lganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich erkin iqtisodiyot sharoitida korxonaning egasi, rahbari, jamoasi va investorlari uchun o'ta muhim ko'rsatkichdir.

**Sotilgan mahsulot rentabelligini** (Rsm) aniqlash uchun sof foydani (Sf) sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning (Sm) miqdoriga bo'lish kifoya:

**Sf**

**Rsm = ----- . 100**

**Sm**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm sotilgan mahsulot korxonaga qancha sof foyda keltirayotganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich korxonaning tadbirkorligi, bozordagi faolligi bilan ham bevosita bog'liq. Mazkur ko'rsatkich rejali iqtisodiyot sharoitida umumiy rentabelliini ifodalab ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan olinar edi. Endilikda ishlab chiqarilgan mahsulot o'zining baholovchi ko'rsatkich sifatidagi mohiyatini yo'qotadi. Endi mahsulot sotilmasa, o'z xaridorini bozordan topmasa hisob emas. Shu tufayli bozor munosabatlari sharoitida ushbu ko'rsatkichning mohiyati oshdi.

**Korxonaning iqtisodiy salohiyati rentabelligi** (Ris)ni aniqlash uchun korxonaning Sf.ni uning iqtisodiy salohiyati o'rtacha qiymatiga (Is) bo'linadi:

**Sf**

$$\mathbf{Ris} = \text{----- . } 100$$

**Is**

Mazkur ko'rsatkich korxonaning 100 so'm iqtisodiy salohiyatiga necha so'm sof foyda keltirilayotganligini ko'rsatadi. Agar korxonaning iqtisodiy salohiyati tarkibini keltiradigan bo'lsak, u quyidagi holatga ega bo'ladi:

**Sf**

$$\mathbf{Ris} = \text{----- . } 100$$

$$\mathbf{Av = Am + Nf + Ms}$$

Bunda *Av* - Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;

*Am* - aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati;

*Nf* - nomoddiy faollarning o'rtacha yillik qiymati;

*Ms* - mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymati.

**Korxona asosiy vositalari rentabelligi (Rav)**ni aniqlash uchun Sf.ni asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga (Av) bo'lish kifoya:

**Sf**

$$\mathbf{Rav} = \text{----- . } 100$$

**Av**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm asosiy vositalariga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi.

**Korxona aylanma mablag'lari rentabelligi (Ram)**ni aniqlash uchun sof foydani (Sf) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (Am) bo'linadi.

**Sf**

$$\mathbf{Ram} = \text{----- . } 100$$

## **Am**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm aylanma mablag'larining o'rtacha yilik qiymatiga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich korxonada aylanma mablag'larni tashkil qilish paytida, uning rentabelligini baholashda qo'llaniladi.

**Korxona nomoddiy faollari rentabelligi (Rnf)** ham bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tarkibiga kiritildi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun Sf.ni nomoddiy faollarning o'rtacha yillik qiymatiga (Nf) bo'linadi:

## **Sf**

$$Rnf = \dots \cdot 100$$

## **Nf**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik nomoddiy faoliga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni korxona miqyosidagi qator yillarga aniqlab nomoddiy faollar va foyda so'mmalarining o'zgarish sur'atlarini, ularning bir-biriga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llash mumkin.

**Korxonaning mehnat salohiyati rentabelligini (Rms)** aniqlash uchun Sf.ni mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymatiga (Ms) yoki xodimlar soniga (Xs) bo'lish lozim.

## **Sf**

$$Rms = \dots \cdot 100,$$

## **Ms**

## **Sf**

$$Rms = \dots \cdot 100$$

## **Xs**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm mehnat salohiyati qiymatiga yoki bitta xodimga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich ham korxonada mehnat samaradorligini tahlil qilganda keng qo'llaniladi.

**Korxona moliyaviy salohiyati rentabelligi (Rsos)** 100 so'm moliyaviy salohiyatning o'rtacha yillik qiymatiga to'g'ri keladigan sof

foyda miqdorini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun Sf.ni korxona moliyaviy salohiyati o'rtacha yillik qiymatiga (Mos) bo'linadi:

**Sf**

$$R_{mos} = \dots \cdot 100$$

**Mos**

Ushbu ko'rsatkich ham bozor munosabatlari sharoitida muhim ahamiyatga ega, chunki korxonaning moliyaviy manbalari uchun endi bevosita korxona egasi, investori mus'ul. Undan qancha samarali foydalansa ular uchun o'shancha yaxshi.

**Korxona o'z mablag'lari rentabelligi (Ro'm)** moliyaviy salohiyat rentabbeligi singari sof foydani o'z mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga (O'm) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

**Sf**

$$R_{o'm} = \dots \cdot 100$$

**O'm**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm o'z mablag'iga qancha sof foya to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu o'z kapitalining samaradorlik darajasini belgilaydi.

**Korxonaning chetdan jalb qilgan mablag'lari retabelligi (Rchjm)**ni aniqlash uchun Sf.ni chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (Chjm) bo'linadi:

**Sf**

$$R_{chjm} = \dots \cdot 100$$

**Chjm**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning olgan uzoq va qisqa muddatli kreditlari hamda boshqa chetdan jalb qilingan mablag'larining samaradorligini ifodalaydi. Uning miqdori 100 so'm Chjm.ga to'g'ri keladigan Sf. miqdorini ko'rsatadi.

**Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi (Rif)** bu asosiy va aylanma mablag'lar, ya'ni moddiy resurslar samaradorligini

ifodalaydi. Uni aniqlash uchun Sf.ni asosiy vositalar (Av) va aylanma mablag'lar (Am) o'rtacha qiymati yig'indisiga bo'linadi.:

**Sf**

$$\text{Rif} = \frac{\text{Sf}}{\text{Av} + \text{Am}} \cdot 100$$

**Av + Am**

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik moddiy resurslariga to'g'ri keladigan sof foydaning miqdorini ifodalaydi. Uning miqdori qancha oshib borsa korxona uchun o'shancha yaxshi.

**Korxonaning aktivlari rentabelligi (Ra)** bevosita barcha aktivlar samaradorligini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun Sf.ni barcha aktivlarning (A) o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi:

**Sf**

$$\text{Ra} = \frac{\text{Sf}}{\text{A}} \cdot 100$$

**A**

Agar aktivlarni alohida qismi bo'yicha oladigan bo'lsak, ushbu formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

**Sf**

$$\text{Ra} = \frac{\text{Sf}}{\text{Av} + \text{Am} + \text{Nf}} \cdot 100$$

**Av+Am+Nf**

Ushbu ko'rsatkich 100 so'm aktivlar qiymatiga to'g'ri keladigan Sf. miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini baholashda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlil jarayonida ma'lum iqtisodiy kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash o'ta muhim. Lekin ularning o'zgarishini, ayniqsa shu o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash tahlilning eng muhim vositasidir. Shu tufayli rentabellikni ifodalovchi har bir ko'rsatkichni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur ishda metodologik asos sifatida ularning ayrimlarigagina to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki ushbu ko'rsatkichlar tahlilining usullari boshqa ko'rsatkichlarni ham shunday tahlil qilish uchun metodologik asos bo'ladi.

### **Kalit so'zlar va iboralar**

Korxonaning moliyaviy natijalarini, yalpi tushum; sof tushum; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; ishlab chiqarish tannarxi; davr xarajatlari; dividend daromadlari; foizlar daromadi; qimmatli qog'ozlar; foizlar buyicha xarajatlar; tasodify foyda (zarar).

### **Topshiriqlar**

#### **1-masala**

Bir monopol firma uchun bozor tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, uning bir birlik maxsuloti 100 ming so'mdan oshiq narxda sotilishi mumkin emas, 75 ming so'mdan sotilganda esa sotish hajmi 10 donani tashkil qiladi. Topshiriq:

- c) eng yuqori aylanish uchun sotuvdagи narx funksiyasini tuzing.
- d) Maksimal aylanish uchun erishilgan talabning elastikligini aniqlang.

#### **2-masala**

Sizga firmanın ishlab chiqaradigan tovarları marketingini tahlil qilish topshirilgan.

Anketaga shunday savollar tuzingki, firma boshqaruvchilari tomonidan berilgan javoblar sizga tashhis qilish imkoniyatini bersin.

#### **3-masala. Test**

33. Korxona ishlab chiqargan oziq – ovqat mahsulotlarining bozordagi ulushi necha foiz bo'lsa, u monopolist sifatida davlat reestriga kiritiladi?

- A) 17%
- B) 15%
- S) 20%\*
- D) 19%

34. Korxona ishlab chiqargan nooziq – ovqat mahsulotlarining bozordagi ulushi necha foiz bo'lsa, u monopolist sifatida davlat reestriga kiritiladi?

- A) 18%
- B) 22%

S) 25%  
D) 35%\*

35. Davlat o'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarga qanday chora ko'radi?
- A) hech qanday chora ko'rmaydi
  - B) bo'lib tashlaydi yoki maydalashtiradi \*
  - C) soliqlardan ozod etadi
  - D) preferensiyalar beradi.

## **XI BOB. BIZNES-REJANING ISHLAB CHIQISH VA REAL INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH.**

- 11.1. Biznes-rejalashtirishning mohiyati va vazifalari
- 11.2. Biznes-rejaning umumiy ma'lumotlari va rezyumesi

### **11.1. Biznes-rejalashtirishning mohiyati va vazifalari.**

#### **Biznes-rejaning funksiyasi va tarkibiy tuzilishi**

Siz biznesga birinchi qadam qo'yayotgan paytingizda yoki yangi bir loyihani amalga oshirish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelasiz:

- birinchidan, moliyaviy mablag'larning yetishmasligi;
- ikkinchidan, oldindan belgilanmagan, kutilmagan holatlar ko'pligi.

Bular sizning korxonangizni tanlangan y o'ldan borishga imkon bermasligi mumkin. Bunday noxush holatdan chiqishning y o'li oldindan o'z maqsadini qog'ozga belgilash, baholash va prognozlash, bu o'z navbatida o'sha biznes-reja tuzishdir. Biznes-reja keng, xar tomonlama aniq tizimga tushirilgan va chuqur o'ylab tayyorlangan xujjat bo'lib, u firmani qay maqsadga xarakat qilayotganligi, ko'zlangan maqsadga qaysi yo'llar bilan erishish va ko'zlangan maqsadga erishgandan so'ng natija qanday bo'ladi degan savollarga javob topiladi. Bu qulay, umumiy olingan, hisoblanib loyihani imkoniyatlari bo'yicha to'la ma'lumot beradi. Biznes-reja korxona (firma)ning strategik istiqbolini belgilab beradigan asosiy xujjat hisoblanadi va uni 3-5 yilga tuzishni tavsiya etiladi. Biznes-rejaning birinchi va ikkinchi yillariga ko'rsatkichlarni (topshiriqlarni) kvartallarga taqsimlangan xolda berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi va faqat uchinchi yildan boshlab yillik ko'rsatkich (topshiriqlar) bilan chegaralanish mumkin. Biznes-reja quyidagi asosiy masalalarni xal etadi, ya'ni:

- tadbirkorlarga korxona (firma)lar strategiyasini ishlab chiqish uchun asosi bo'libgina qolmay, uni muvaffaqiyatli amalga oshishiga kafolat ham beradi;
- bozor iqdisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solish va bajaralishini nazorat qilishning asosiy quroli bo'lib xizmat qiladi;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida to'satdan yuzaga kelgan salbiy holatlar yuzasidan tadbirkorlarni ogoxlantiriladi va ularni o'z vaqtida 80 bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi;

- tadbirkorlik faoliyati yuzasidan banklar, investorlar va qarz beruvchilarga tegishli ma'lumotlar olishga imkon beradi. Bundan tashqari, biznes-reja tuzib chiqishning ikkita asosiy sababi mavjud:

- tashqaridagi sarmoyadorlarni sizning biznesingizni maqsadga muvofiqligi xaqida yoki ssuda berishga ishonch xosil qildirish, – ko'zlangan maqsadni saqlab qolishga yordam berish, to'satdan yuzaga kelgan holatlarda tanlangan maqsaddan voz kechmaslikni ta'minlash. Bu yana rejada belgilangan barcha vazifalarning to'la bajarilishini ham anglatadi:

- Biznes-reja boshqaruvchiga tanglik holatlarini to'g'ri baholash imkonini beradi va undan olib chiqib ketish yo'llarini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida boshqaruv samaradorligining ortishini xarakterlaydi;

- qo'shimcha ma'lumot kelib tushishi va ma'lum tajribaga ega bo'lish bilan maqsad va vazifa moslanib olinadi. Biznes-rejaning bosh maqsadi – firmaning ko'zlagan maqsadiga erishishi, reja-iqtisod bo'limi xodimlariga va sarmoyadorlarga tanlangan yo'lning maqsadga muvofiqligini ko'rsatib berishdir. Bundan tashqari biznes-reja tadbirkorlarning quyidagi savollariga javob ham beradi:

- biznesning joriy holati (biz qayerda turibmiz);

- ko'zlangan maqsad (qaysi tomonga xarakat qilmoqdamiz);

- eng qulay yo'l (maqsadga qanday erishamiz). Bunda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biznes-rejada xozirgi holatda ko'zlagan maqsadga erishishning samarali yo'llari ko'rsatilishi, joriy maqsadlarga erishishi va o'rta va uzoq davrlardagi vazifalari xal etilishi aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biznes-reja tadbirkorlarning ish quroli bo'lib, rivojlanayotgan kichik-o'rta biznes, xususiy va yakka tadbirkor, firmalar faoliyatida katta ahamiyatga ega. Biznes-reja xaqida gap yuritishdan oldin biznesni baholash bosh rolni o'ynaydi. Bu yerda biz biznesni tahlil etishimiz lozim.

Biznes-reja – bu biznesni amalga oshirish rejasি hisoblanadi. Unda firma to'g'risida, ishlab chiqariladigan tovar to'g'risida, ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risida, mahsulotni sotish bozori to'g'risida va umuman ishlab chiqarishni tashkil etish va uning samaradorligini asoslash bilan bog'liq ma'lumotlar aks ettirilishi kerak.

Biznes-rejani ishlab chiqishdan maqsad firmaning xo'jalik faoliyatini qisqa yoki ma'lum bir muddatga bozor talablari va kerakli resurslarni jalb qilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda rejalashtirish hisoblanadi. Biznes-reja tuzilishi ish yurituvchi, mulkdor va sarmoyador uchun manfaatlidir. Ular quyidagi savollarga to'la javob beradi: Firma loyiha imkoniyatlarini baholashda, loyiha kelgusida tijorat va moliyaviy yutuq keltiradimi?

Firma va byudjet to'la faoliyati yuzasidan maqsadni belgilashda. Bundan firmaning qanday umumiyligi vazifasi mavjud va uni kelgusida rivojlanishi qanday? Byudjet uning tuzilishi, daromadi va xarajati xaqida to'la tushuncha mavjudmi?

Zarur bo'lgan sarmoya maqsadini aniqlash? Rejalarni bajarish uchun qanday miqdorda mablag' kerak bo'ladi?

G'oyaga aniqlik kiritishning oxirgi yakuniy xujjati bu biznes-reja hisoblanadi. U o'zida tahlil natijalari, g'oya va to'satdan yuzaga kelgan fikrlarni umumlashtiradi. Faoliyat yuzasida to'la ma'lumot beradi.

Amaliyotda tanishtirish (prezentatsiya) va tahlil o'tkazishda, pul olishga yordam beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan biznes-reja to'la kafolat bermasada pul olishga yordam beradi. Sarmoyador biznes-rejadan axborot manbai sifatida foydalanadi. Shu asosda faoliyatni baholaydi.

Loyiha tavakkalchilik va likvidlik darajasini aniqlaydi. Boshqaruv sifati ko'p holatlarda kredit uchun kafolat omili bo'lib xizmat qiladi. Ayrim holatlarda pul berish yuzasidan qaror qabul qilinishicha asosiy bo'lim biznes-rejaning mazmuni emas, uning taqdim etilishi va rasmiylashtirilishi ham ahamiyat kasb etadi.

Demak, biznes-rejani ishlab chiqishdan asosiy maqsad – firma faoliyatini kelgusi davr va ayrim olingan davrdagi bozor ehtiyojlari va zaruriy manbalar olish imkoniyatlaridan kelib chiqishdir. Biznes-rejalar tadbirkor uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal etishda yordam beradi:

- firma faoliyati asosiy yo'nalishi, bozor maqsadlari va firmaning bozordagi o'rnnini aniqlash.

- firmaning uzoq muddatli va qisqa davr maqsadlari, strategiyasi, taktikasini amalga oshirishga erishishni belgilab berish.

- firmaning iste'molchilarga tavsiya etadigan tovar (xizmat)lar tarkibini tanlash va asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash.

- kadrlarga qo'yilgan talablar va ularning o'z vazifalariga mos kelishini baholash.

- bozorni o'rganish bo'yicha firma marketing tadbirlarini tarkibini, reklama, realizatsiyani rag'batlantirish, bahoni shakllantirish va realizatsiya yo'llarini aniqlash.

- mavjud material va moliyaviy mablag'lardan kelib chiqib firmaning material va moliyaviy holatini baholash.

- biznes-rejani muvaffaqiyatsizligaga ta'sir etuvchi omillar xaqida ogohlantirish.

Biznes-reja bir necha muhim vazifalarni bajaradi. Biznes-rejani tayyorlash jarayoni fikrlashni jonlantiradi, tadbirkorni puxtalik bilan o'ylashga va o'z ishini turli nuqtai nazardan tahlil qilishga, haqiqiy imkoniyat va qiyinchiliklarni baholashga majbur qiladi.

Ikkinci vazifa – nazorat. Qog'ozda bayon qilingan reja kelgusi nazoratlarda va erishilgan natijalarни baholashda har doim ishlatalishi mumkin. U korxona faoliyatini kelgusi yaxshilashga asos bo'lib hizmat qiladi.

Uchinchi asosiy vazifa – jamg'arish. U boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larni jalb qilishga imkoniyat yaratadi. Biznes-reja potensial qarz beruvchini, aksioner, sarmoyadorni hamda iste'molchini, ta'minlovchilarni ushbu korxona bilan (ishbilarmon bilan) tijorat aloqalarida foyda olishga ishontirishi kerak.

Quyidagilar biznes-rejaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- firmaning qisqa va uzoq muddatli maqsadlarini, unga erishishning taktika va strategiyasini aniqlab olish;
- firmaning aniq faoliyat yo'naliishlari va qaysi bozorlarda faoliyat ko'rsatishi va bu bozorlarda firmaning o'rni qanday bo'lishi kerakligini belgilab olish;
- firma tomonidan iste'molchilarga taklif qilinishi rejalshtirilgan tovar va xizmatlar assortimentini va uning ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarini baholash;
- mahsulot bahosini shakllantirish, mahsulot sotilishini rag'batlantirish va bozorni o'rganish bilan bog'liq marketing tadbirlari tarkibini aniqlash;
- firmaning moliyaviy holati va qo'yilgan maqsadga erishish uchun mavjud moliyaviy va material resurslarning mos kelish imkoniyatlarini baholash va boshqalar.

Jahon tajribasida biznes-rejani tuzish bosqichlari va uning tashkiliy qismlari aniq belgilanadi. Asosiy yo'naliishni saqlagan holda,

boshqa bo'limlarga axborotni ko'chirishni yoki ularni birlashtirish hisobiga bo'limlar soni kam bo'lishi mumkin.

Korxonani rahbari yoki menejeri biznes-rejani ishlab chiqarishning aniq sxemasi, uning tartibi va bayoni, xajmi, axborot ustunligini tanlashda quyidagi omillarga alohida etibor berishi kerak bo'ladi:

- korxona statusi va katta-kichikligi (kichik biznes);
- rejalashtirish faoliyatining bosqichlari (biznes boshlanishi, ya'ni, yangi ishlab turgan korxona faoliyatining davomi);
- biznes xususiyati va qiyinchiligi, xuddi shunday u yoki bu masalalarni ishlab chiqishdagi iborasi;
- kerakli ma'lumot va axborotni borligi;
- boshqa mutaxassislarining yordamiga muhtojligi va boshqalar.

Biznes-reja tuzish – korxonani oldindan belgilab olgan strategiyasi va taktikasi asosida moliyaviy iqtisodiy axvolini tahlil etish va baho berish jarayonidir

## **11.2. Biznes-rejaning umumiyligi ma'lumotlari va rezyumesi.**

Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Investitsion loyihalashtirishda biznes-rejaning xususiyatlari. Biznes-reja tuzilishi deyilganda biz unda yoritiladigan materiallar qisqacha tafsifiga e'tibor beramiz. Agar korxona o'z faoliyatiga chetdan sarmoya (kapital) jalb qilishni nazarda tutsa, banklar va investitsion kompaniyalar uchun biznes-reja vizit kartochkasi vazifasini o'taydi. Uning yana bir vazifasi imkoniyatli (potensial) investorni korxona bilan yaqindan tanishtirish va hamkorlikda ushbu loyihani joriy etishga undash hisoblanadi.

Har bir korxona o'z-o'ziga «Biznes-reja» tuzadi, ularning reja tuzishdagi tutgan yo'llari, rejaning tuzilishi biznes xarakteridan, aniq maqsadidan va qarz beruvchining alohida talablaridan kelib chiqadi. Masalan sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchilar biznes-rejasi bilan axoliga servis xizmat ko'rsatuvchilar rejasiga bir biridan tubdan farq qiladi.

Biznes-rejaga qo'yilgan talablar o'zgarib turadi: birinchidan, u investitsiya jalb etishga qaratilganmi; ikkinchidan, korxonaga rahbarlik qilishdagi ichki xujjat vazifasini o'taydimi?

Ammo, biznes-reja tuzish shaklidan qat'iy nazar, shunday asosiy savollar borki uni tuzishda ular xar tomonlama uylanishi, baholanishi va aks ettirilishi darkor.

*Birinchisi: Korxona nima faoliyat bilan shug'ullanadi?*

*Ikkinchisi:* Uning asosiy maqsadi nima?

*Uchinchidan:* Oldiga qo'yan maqsadga erishishdagi tutayotgan strategiyasi va taktikasi qanday?

*Turtinchidan:* qancha moliyaviy mablag'lar talab etiladi, qaysi muddatga va ushbu resurslardan qanday foydalilanildi?

*Beshinchidan:* qachon va qanday tartibda ssuda qaytarib beriladi? Bundan tashqari biznes-reja ishlab chiqishning umumiy talablarga rioya qilinishi ham kerak.

*Ularga:* Rejani qisqa bo'lishi, biznes haqidagi barcha asosiy ma'lumotlar qamrab olinishi va xajmi 7-10 betdan ortmasligi. Ayrim holatlarda kengroq biznes-reja tizimi talab etiladi, uning xajmi 50 betgacha borishi mumkin. Har qanday holatlarda biznes-rejaga ikkinchi darajali masalalar kiritilishi mumkin emas. Jarayon (texnologiya) va mahsulotlarni faqat texnik holatlarini yoritib berishga yo'l qo'ymaslik zarur. Umum qo'llanishda bo'lgan terminlardan foydalanish tavsiya etiladi. Biznes-reja sodda va to'la bo'lishi. Rejalar aniq tahlilga asoslanishi lozim. Tahlilda aniq raqamlardan va takliflardan foydalanish zarur. Takliflar va oldindan berilgan fikrlarga asoslangan va mustahkamlangan bo'lishi shart.

Masalan: bozorni o'rganishda to'g'ri statistik, demografik tadqiqotlar natijalari va biznes olib boruvchi shaxslar xulosalaridan foydalanish. Ko'p hollarda investorlar va qarz beruvchilar asossiz axborotlarga tayanib, mablag'larini tavakkal qilib yuboradilar. Biznes-reja investorlar va qarz beruvchilarga korxonani asosiy pozitsiyasini va holatlarini ko'rsatib beradi. Korxona rahbarlarini ko'zlangan maqsadga erishishidagi qobiliyatlarini ham bildiradi. Bu omillardan investor to'la xulosa chiqarib olishi mumkinki, mablag'ni ushbu korxonaga jalb etilishi kelgusida ijobjiy natijalar beradi. Shu bilan bir qatorda yuzaga kelgan ayrim muammolarni xal etadi. Ya'ni:

- belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi yuzaga kelgan tavakkalchilikka ham tavsifnomha berishi shart. Agar muammo va tavakkalchilik korxonaga bog'liq bo'lмаган xolda yuzaga kelsa, tashqi doirada korxonaga ishonchni qo'pol buzilishiga yoki izdan chiqishiga olib kelishi mumkin

- asossiz, tasdiqlanmagan qaror qabul qilishga yo'l qo'ymaslik darkor. Masalan, kelgusi yilga realizatsiya xajmi 2 barobar ortadi deb belgilash yoki yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi deb hisoblash va hokazo. Aniq, asosli fikrlar va iqtisodiy hisob-kitoblar darkor, ular axborot manbalari bilan asoslangan bo'lishi shart.

Biznes-rejaga korxona strategiyasi imkoniyatlari kiritilgan bo'lishi, shu jumladan to'siqlar, ularni bartaraf etishning to'la imkoniyatlari yoritilishi zarur.

Biznes-rejada moliyaviy hisob-kitoblar ichki foydalanish uchun tashqi foydaluvchilarga nisbatan kengroq yoritilishi kerak.

Biznes-reja tuzish ko'p vaqt talab qiladi. Uning sifati menejerlar tajribasi va olgan bilimlariga bog'liq bo'ladi. U yetarli darajada to'liq bo'lishi va xar qanday investorga korxona xaqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi imkonini beradi. Bundan tashqari biznes-reja menejerlarga korxona faoliyatini boshqarishda yordam ham berishi kerak. Biznes-reja tuzishga kirishgan xar qanday menejer o'zidan katta kuch va uzoq vaqt talab qilishini xis eta bilishi kerak. Ushbu jarayonni korxona faoliyatini tahlili jixatidan qayta baholashni o'z ichiga olishni bilishi lozim.

Hozirgi kunda jaxon amaliyotida biznes-rejalarning besh bo'limlardan tortib bo'limgacha tuzib chiqilgan ko'rinishlari mavjud. Biznes-rejalar tarkibi odatda biznes mazmuni, mohiyati, doirasi va darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Aniq tasavvur hosil qilish maqsadida, ayrim misollar keltiramiz. Biznes-rejalar taxminiy tuzilishi.

- 1-bo'lim. Firma imkoniyatlari (kirish).
- 2-bo'lim. Tovarlar (xizmatlar) turlari.
- 3-bo'lim. Tovarlarni (xizmatlar) sotish bozorlari.
- 4-bo'lim. Sotish bozorida raqobat holati.
- 5-bo'lim. Marketing rejasи.
- 6-bo'lim. Ishlab chiqarish rejasи.
- 7-bo'lim Tashkiliy reja.
- 8-bo'lim. Firma faoliyati huquqiy ta'minoti.
- 9-bo'lim. Tavakkalchilikni baholash va sug'urta.
- 10-bo'lim. Moliya bo'limi.
- 11-bo'lim. Moliyalashtirish strategiyasi.

Investitsiya loyihasi bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda biznes-rejani tuzish va uni texnik-iqtisodiy asoslashning quyidagi tuzilishini ko'rib chiqamiz:

### **1. Loyihaning asosiy g'oyasi va shart-sharoitlari.**

- Loyiha g'oyasini tavsiflash.  
Loyiha tashabbuskorlari va loyiha homiyları.  
Loyiha bo'yicha ma'lumotlar.

### **2. Bozor tahlili va marketing strategiyasi.**

Umumiqtisodiy tahlil.

Marketing izlanishlar.

Loyiha strategiyasi asoslari.

Marketing konsepsiyasi tuzilishi.

Marketing xarajatlari va daromadlari.

### **3. Resurslar bilan ta'minlanganligi.**

Xom-ashyo resurslari va yig'uvchi materiallarning tuzilishi.

Materiallarga bo'lgan talabning ixtisoslashuvi.

Resurslar mavjudligi va ularning ta'minlanishi.

Resurslarni yetkazib berish marketingi va ularning dasturi.

Xom-ashyo va butlovchi qismlarga xarajatlar.

### **4. Investitsiya ob'ekting joylashishi, qurilish uchastkasi va atrof-muhit.**

Ob'ekt joylashadigan joyning tahlili.

Tabbiy atrof-muhit.

Ob'ektning atrof-muhitga ta'sir doirasini baholash.

Infrastruktura tuzilishi.

Investitsiya ob'ekti joylashishi kerak bo'lgan joyni tanlash bo'yicha oxirigi qarorni qabul qilish.

Qurilish uchastkasini tanlash.

Qurilish uchastkasini o'zlashtirish bilan bog'liq investitsiya xarajatlarini baholash.

### **5. Loyihalashtirish va texnologiya.**

Ishlab chiqarish dasturi va loyiha quvvati.

Texnologiyani tanlash.

Texnologiyani sotib olish va ularni olib kelish.

Ob'ektni rejalashtirish va asosiy loyiha hujjatlarini tayyorlash.

Mashina va jihozlarni tanlash.

Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar.

Umumiy investitsiya xarajatlarini baholash.

### **6. Korxonani tashkil etish va ustama xarajatlar.**

Korxonaning tashkiliy tuzilishi va uni boshqarish.

Tashkiliy loyihalashtirish. Ustama xarajatlar.

### **7. Mehnat resurslari.**

Ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

Mehnat resurslariga talab (ularning bajaridigan ish funksiyalari va kategoriyalarini hisobga olgan holda).

Ishchi va xodimlarni ishga olish tartibi. Ishchi-xodimlar shtat ro'yxati. Ishchi-xodimlarni o'qitish rejasi. Ishchi-xodimlarga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni baholash.

**8. Investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonini  
rejalashtirish.**

Loyihani amalga oshirish bosqichlari.

Loyihani amalga oshirish grafigini tuzish.

Loyihani amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish.

**9. Investitsiyani baholash va moliyaviy tahlil.**

Xarajatlarni baholash.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish.

### **Kalit so'zlar va iboralar**

Biznes-reja, tadbirkorlik, loyiha, jamg'arish, xarajatlar, moliyaviy holat, rejalashtirish, moliyaviy hisob-kitob, marketing reja, ishlab chiqrish reja, tashkiliy reja

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Biznes-rejalashtirishning mohiyati va vazifalarini aytib bering.
2. Biznes-rejani funktsiyasi va tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?
3. Biznes-rejaning umumiy ma'lumotlari va rezyumesiga izoh bering.
4. Biznes-rejaning asosiy bo'limlarini tushuntirib bering.
5. Investitsion loyihalashtirishda biznes-rejaning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Biznes-rejaning taqdimoti qanday amalga oshiriladi?

## **XII BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI ANIQLASHDA RISKLARNI BOSHQARISH**

- 12.1.Risk tushunchasi mohiyati va uni tahlil qilish
- 12.2.Korxonada xatarni tahlil qilish
- 12.3. Korxonaning risklarni baholash

### **12.1.Risk tushunchasi mohiyati va uni tahlil qilish**

Qadimgi zamonlardan risk foydani shakllantirish omili hisoblanadi. J.B. Sey va Kursel Seneylar fikricha risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi. 19 asrlarda odamlarning risk qilishga tayyorligi ular foydasining shakllanishi va o'zlashtirilishiga olib kelishi bilan izohlanardi. Hozirgi kunda shakllanayotgan **foydaning** asosiy qismi **riskni samarali boshqarishdan** vujudga keladi.

“Risk” atamasi Yevropaning ko’p tillarida mavjud. Misol uchun greklarda “ridsikon” so’zi mavjud bo’lib, u qoya, cho’qqi ma’nosini bildiradi. Italiyaliklar tilida “risiko” so’zi xatar, tahdid ma’nosini, “risicare” so’zi qoyadan mohirona o’tish ma’nosini bildiradi. Fransuzlardagi “risdoe” so’zi tahdid, qoyani aylanib o’tmoq ma’nosini beradi. **Iqtisodiy lug’atlarda risk** – xavf-xatar, zarar va yo’qotish ehtimoli, xavf ehtimoli yoki muvaffaqiyat umidida xavf tomon borish ma’nosida kelishi ko’rsatilgan.

“Risk” so’zi ispancha-portugalcha so’zdan olingen bo’lib, “suv ostidagi qoya” degan ma’noni bildiradi. Taniqli lug’atshunos S.I.Ojegovning rus tili izohli lug’atida “risk” – bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisaga umid” degan ma’no anglatadi deyilsa, mashhur Webster lug’atida riskka “xavf, zarar va talafot ehtimoli” deb qaralgan. Rus olimi A.Olshanskiy “risk” – bu zarar ko’rish yoki manfaatni qo’ldan chiqarish bilan bog’liq ehtimollar o’lchamidir”, degan ta’rifni keltiradi.

Risk nazariyasini o’rganishda klassik maktab namoyondalari muhim hissa qo’shishgan. A.Smit risk va foya o’tasidagi o’zaro proporsionallik tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilgan. Uning ta’kidlashicha, “riskli holatlar yuqori bo’lgan maydonda qonun bo’yicha daromad kichik bo’ladi, bu esa o’z navbatida kutilayotgan daromad darajasini ko’paytirish uchun usullar salmog’i yanada ortib boradi”. Taniqli lug’atshunos S.Ojegovning rus tili lug’atida “risk – bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid” ma’nolarini anglatadi

deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida “risk – bu xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli”, deb ifodalangan

Risk korxonalar faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'ladi, biroq u ko'proq kichik biznesning ilk bosqichi uchun xos bo'lib, malaka yetishmasligi oqibatidagi tadbirkorlik operatsiyalarini yuritishdagi kamchiliklardan kelib chiqadi. Demak, kishilarning xohish-irodasidan qat'iy nazar, tadbirkorlik sirlarini o'rganish natijasida mavhumlik bilan yuzma-yuz kelishga to'g'ri keladiki, uni oldindan belgilab bo'lmaydi. **Shuning uchun korxona rahbarining, tadbirkorning asosiy vazifasi riskdan qocha bilish emas, balki riskni sezsa olish, uning darajasini baholay olish va uning belgilangan chegaralaridan chiqib ketmaslik hisoblanadi.**

Risk mohiyati tavsifida “mavhumlik”, “risk” va yo'qotish tushunchalarini farqlash lozim. **“Mavhumlik”** – doimo amal qiladi va qaror qabul qilishning ayrim asosiy shartlari tasodifiy yoki no'malum bo'lgandagina yuzaga keladi. **“Risk”** – ro'y berishi mumkin bo'lgan kutilajak yo'qotish, biroq uning yuzaga kelishi majburiy emas. Mavhumlikdagidan farqli tarzda riskning omillari oldindan ma'lum va ushbu holat ularni baholay olish va boshqarish imkonini beradi.

**Mavhumlik va risklarning sanoat va kichik biznes korxonalarida shakllanayotgan foydaning yo'qotishlarga bog'liqligi** Korxona rahbari foydani, havfsizlikni shakllantirish jarayonida mavhumlikka duch kelganda, u quyidagi ikki yo'ldan birini tanlashi mumkin.

**Birinchisi**, qo'shimcha ma'lumot olishga harakat qilib, muammoni yana bir bor tahlil qilish orqali uni kamaytirishga harakat qilish. Rahbar bu qo'shimcha ma'lumotlarni o'z tajribasi, bilimi va mushohada yuritish qobiliyati orqali uyg'unlashtirib, ayrim natijalarga sub'ektivlik yoki tahliliy ehtimollik xarakterini beradi. Shu bilan birga, bu jarayonda ekspertlarni jalb qilib ham bu masalaga yondashishi mumkin.

**Ikkinchisi**, o'tgan tajribalari asosida voqelikning ehtimoli to'g'risida raqamlarda ifodalangan xulosa chiqarish va shunga mos ravishda harakat qilish.

Xatarlar va texnologik xavfsizlik muammolarini ishlab chiqishda, xavf-xatarlarni tahlil qilish deb ataladigan xavf ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi turli omillarni hisobga olish va o'rganishga tizimli yondashishga eng katta e'tibor beriladi. Xatarlarni tahlil qilish yoki xavflarni tahlil qilish

– shaxslar, odamlar guruhlari, atrof-muhit va boshqa e'tiborga sazovor ob'ektlar uchun xavflarni aniqlash va xatarlarni bilish jarayonidir.

Sanoat faoliyatining turlarining xilma-xilligi, sanoat ob'ektlarining o'ziga xosligi, ularning turli sanoat tarmoqlariga tegishliligi, xatarlarni tahlil qilish masalasining ko'p o'lchovliligini aks ettiradi. Texnologik tavakkalchilikni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni ko'rib chiqish jarayonida texnik tizimlarning ishlamay qolishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar, xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan texnologik jarayonlarda uzilishlar yoki xatolar hisobga olinadi. Tabiiyki, muammosiz ishlab chiqarishda (zararli yoki zararli moddalar chiqindilar, oqava qilinmagan kanalizatsiya va h.k.) odamlar va atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## 12.2.Korxonada xatarni tahlil qilish

Xatarlarni tahlil qilish uch asosiy savolga javob berishi kerak:

1. Nima yomon bo'lishi mumkin? (Xavflarni aniqlash).
2. Bu qanchalik tez-tez sodir bo'lishi mumkin? (Chastotani tahlil qilish).
3. Qanday oqibatlarga olib keladi? (Effektlarni tahlil qilish).

Xatarlarni tahlil qilishning asosiy elementi – bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarni identifikatsiyalash (mumkin bo'lgan buzilishlarni aniqlash).

Xatarlarni tahlil qilish natijalari zararli moddalar va materiallarni tashish va saqlash vaqtida ishlab chiqarish ob'ektlarining joylashishi va dizaynnini aniqlashda sog'lom va oqilona qaror qabul qilish uchun zarurdir. Xatarlarni tahlil qilish jarayonida, xususan favqulodda holatlarda, o'z faoliyati davomida rahbar xodimlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish keng qo'llaniladi.

Ko'p hollarda boshqaruven qarorlar qabul qilinishi kerak bo'lgan noaniqlik, risklarni tahlil qilishning metodologiyasi, kursi va yakuniy natijalari to'g'risida xulosa chiqaradi. Tahlil jarayonida qo'llaniladigan usullar, birinchi navbatda, voqeа sodir bo'lgan taqdirda ehtimoliy yo'qotishlarni identifikatsiya qilish va baholash, xavfsizlikni ta'minlash xarajatlari va loyihani amalga oshirishdan olingan imtiyozlarga qaratilishi kerak.

**Xatarlarni tahlil qilish muayyan tahlil usulidan va hal qilinadigan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'iy nazar bir qator umumiy qoidalarga ega.**

**Birinchidan**, umumiy vazifa – xatarlarning maqbul darajasini, xodimlarning xavfsizlik standartlarini, jamoatchilikni va atrof-muhitni muhofaza qilishni aniqlash.

**Ikkinchidan**, ruxsat etiladigan xavf darajasini belgilash, qoida tariqasida, yetarli yoki tasdiqlanmagan axborot sharoitida, ayniqsa, yangi texnologik jarayonlarga yoki yangi texnologiyalarga bog'liq bo'lsa.

**Uchinchidan**, tahlil davomida muammolar yetarli darajada yechilishi kerak, natijada olinganlardan sezilarli farqlar paydo bo'lishi mumkin.

**To'rtinchidan**, xatarlarni tahlil qilish muayyan natijalarga qiziqqan tomonlar o'ttasida murosaga kelishi mumkin bo'lgan ko'p mezonli vazifalarni hal qilish jarayoni sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Xatarlarni tahlil qilish murakkab vazifani hal etish jarayoni sifatida belgilanishi mumkin, bu keng ko'lamli masalalarni va texnik, iqtisodiy, boshqaruv, ijtimoiy va ayrim hollarda siyosiy omillarni har tomonlama tadqiq qilish va baholash xatti-harakatlarini ko'rib chiqishni talab qiladi.

**Eng umumiy shaklda ifodalangan risklarni tahlil qilish jarayoni ketma-ketlikdagi ketma-ket voqealar qatorida ifodalanishi mumkin:**

1. Ishni rejalashtirish va tashkil etish.
2. Xavflarni aniqlash.
- 2.1. Xavflarni aniqlash.
- 2.2. Dastlabki xavf tavsiflarini baholash.
3. Xatarni baholash.
- 3.1. Chastotani tahlil qilish.
- 3.2. Ta'sirni tahlil qilish.
- 3.3. Noaniqlik tahili.
4. Xatarlarni boshqarish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Xatarlarni tahlil qilishni boshlaydigan birinchi narsa – ishni rejalashtirish va tashkil etish. Xatarlarni tahlil qilish risklarni boshqarish jarayoniga kirishni ta'minlash uchun normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi, ammo risklarni tahlil qilishning vazifalari, vositalari va usullarini aniqroq tanlash odatda tartibga solinmaydi. Hujjatlar xavf-xatarni tahlil qilish jarayonida ko'rib chiqilayotgan jarayonlarning murakkabligi, kerakli ma'lumotlarning mavjudligi va tahlilni o'tkazadigan mutaxassislarining malakasi bilan

mutanosib bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, oddiy va tushunarli tahlil usullari to'liq va metodologik jihatdan xavfsiz bo'limgan murakkab usullarga ustun bo'lishi kerak.

**Shuning uchun, bиринчи босқичда quyidagilar зарур:**

- risklarni tahlil qilishni talab qiladigan sabablar va muammolar;
- tahlil qilinayotgan tizimni aniqlab beradi va uning tavsifini beradi;
- tahlil qilish uchun tegishli guruhni tanlanadi; xavfsizlik tizimi to'g'risidagi axborot manbalarini yaratish;
- xatarlarni tahlil qilish chegaralarini belgilaydigan manba ma'lumotlarini va cheklashlarni ko'rsatishi;
- Xatarlarni tahlil qilish va qabul qilinishi mumkin bo'lgan xavf mezonlari aniq belgilanadi. Barcha nizomlar ushbu xavfni tahlil qilish bosqichini hujjatlashtirish talabini o'z ichiga oladi.

Xatarlarni tahlil qilishning navbatdagi bosqichi – bu xavflarni aniqlash. Asosiy vazifa (obekt haqida ma'lumot, tekshirish natijalari va bunday tizimlarning tajribasi) va tizimga xos bo'lgan barcha xavf-xatarlarni aniq belgilash. Bu tahlilning hal qiluvchi bosqichidir, chunki ushbu bosqichda aniqlanmagan xavflar boshqa ko'rib chiqilmaydi va ko'zdan yo'qoladi. Quyida muhokama qilinadigan xavflarni aniqlash uchun bir qator rasmiy usullar mavjud. Kelajakdag'i faoliyatni tanlash uchun oldindan xavf-xatarni baholash:

- xavflarning ahamiyatsizligi sababli qo'shimcha tahlilni to'xtatish;
  - batafsil tahlil qilish;
  - xavflarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- Dastlabki vaboshlang'ich tahdidlarni baholash natijalari ham yaxshi hujjatlashtirilgan. Asos bo'lib, xavflarni tahlil qilish jarayoni xavflarni aniqlash bosqichida yakunlanishi mumkin.

Agar kerak bo'lsa, xavflarni identifikatsiyalashganidan so'ng, xavfni baholash bosqichiga o'tiladi. Nihoyat, texnologik tizimning xatarlarni tahlil qilishning so'nggi bosqichi xavf darajasini maqbul darajadan yuqori bo'lgan holda xavf darajasini (xatarlarni boshqarish) kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Shu tarzda amalga oshirilgan ishlarga muvofiq, barcha normativ hujjatlarda hisobot tayyorlanishi belgilab qo'yilgan, uning mazmuniga nisbatan talablar qat'iy ifodalangan va yuqorida sanab o'tilgan masalalarga tegishli. Tahlil natijalarining ko'pligi va kelishuv yechimlari ehtimoli xavflarni tahlil qilish ob'ektiv, ilmiy uslublar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan qat'iy

ilmiy jarayon emasligini ko'rsatadi. Boshqa bir jarayon xatarlarni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liq – xavflarni baholash.

### **12.3. Korxonaning risklarni baholash**

Xatarlarni baholash inson salomatligiga, mol-mulkka, atrof-muhitga va boshqalarga yetadigan xavfni tahlil qilish uchun xatarni aniqlaydigan jarayondir. Xatarlarni tahlili – tahlilning majburiy qismidir. Xavfni baholash chastota tahlilini, ta'sir tahlilini va ularning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi adabiyotlarda ko'pincha turli xil ma'nolarga ega bo'lgan "xavflarni baholash", "xavfni baholash", "xavflarni baholash" so'zлari ishlataladi, lekin ular risklarni baholash sifatida tarjima qilinadi.

Xatarni baholash xavflarning qabul qilinadigan darajada xavf darajasini belgilash uchun identifikatsiya qilingan xavflarni maqbul xavf mezonlari asosida baholash kerak bo'lgan bosqichdir va ushbu qadam tavsiyalarni ishlab chiqish va kamaytirish choralarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqbul xavf uchun mezonlar va risklarni baholash natijalari ham sifat jihatidan, ham miqdoriy jihatdan ifodalanishi mumkin.

Ta'rifga ko'ra, riskni baholash chastota tahlilini va ta'sir tahlilini o'z ichiga oladi. Biroq, oqibatlar kam bo'lsa va chastota juda kichik bo'lsa, bitta parametrni baholash kifoya qiladi.

Xavfni baholashga to'rt xil yondashuv mavjud:

**Birinchisi muhandislik.** Oqibatlar va baxtsiz hodisalar statistikasi, ehtimoliy xavfsizlik tahlili bo'yicha: hodisalar daraxtlari va qobiliyatsiz daraxtlarni hisoblash va hisoblash yo'naltirilgan grafiklarga asoslangan jarayondir. Dastlabki yordamlari bilan, ular ma'lum bir asbob-uskunaning noto'g'ri ishlashiga qanday baho berishi mumkinligini taxmin qiladilar va muvaffaqiyatsizlik daraxtlari, aksincha, ba'zi kiruvchi hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan barcha sabablarni kuzatish uchun yordam beradi. Daraxtlar qurilganda, har bir senariyni amalga oshirish ehtimoli (har bir tarmoq) hisobga olinadi, keyin esa zavodda sodir bo'lgan falokatning umumiy ehtimoli.

**Ikkinci yondashuv,** model inson va atrof muhitga zararli omillar ta'siri modellarini qurishdir. Ushbu modellar korxonalarining normal ishlashi oqibatlari hamda ular yuz bergan baxtsiz hodisalar oqibatida yuzaga kelgan zararni tasvirlab berishi mumkin. Birinchi ikki yondashuv

hisob-kitoblarga asoslanadi, ammo bunday hisob-kitoblar uchun har doim yetarlicha ishonchli dastlabki ma'lumotlar yo'q. Bu holatda.

**Uchinchi yondashuv**, mutaxassis, qabul qilinadi: har xil hodisalarning ehtimoli, ular o'rtaqidagi aloqalar va baxtsiz hodisalar natijalari hisob-kitoblar bilan aniqlanmaydi, balki tajribali mutaxassislarni so'roq qilish yo'li bilan aniqlanadi.

**To'rtinchchi yondashuv** doirasida – ijtimoiy jihatdan aholi turli xil xatarlarga munosabati, masalan, sotsiologik tadqiqotlar yordamida tekshiriladi

Xavfni aniqlash uchun bunday xilma-xil usullarning to'rtta usulini qo'llashi ajablanmasligi kerak. Turli xil vazifalarni bajarishda xavfni qandaydir hodisa yuzaga kelishi ehtimolligi, undan keyin unga zarar keltiradigan shkala miqdori yoki hatto bu ikki qiyomatning kombinatsiyasi sifatida tushunish kerak. Xatarni tavsiflaganda, jamiyatning davom etishi uchun olgan foydasini hisobga olish kerak (foydasiz xavfni qabul qilish mumkin emas, hatto kam bo'lsa ham). Boshqacha qilib aytganda, xavfning kattaligi bitta raqam emas, balki bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topgan vektor

Shuning uchun biz qarorni qabul qilish nazariysi bilan tavsiflangan ko'p mezonlarga asoslangan tanlov bilan muomala qilmoqdamiz. Xavfni baholash bilan bog'liq ko'plab noaniqliklar mavjud. Noaniqlik tahlili xavfni baholashning muhim qismidir. Qoida tariqasida noaniqliknинг asosiy manbalari uskunalarning ishonchliligi va inson xatosi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, amaliy favqulodda jarayon modellarining taxminlari

Xavfning kattaligini to'g'ri talqin qilish uchun noaniqliklar va ularning sabablarini tushunish kerak. Noaniqlik tahlili – risklarni baholashda ishlataladigan dastlabki parametr va noaniqlik natijalarining noaniqlik natijalariga tarjimasi. Agar mumkin bo'limgan joylarda noaniqlik manbalari aniqlanishi kerak. Tahlil natijalariga sezgir bo'lgan asosiy parametrlar natijada taqdim etilishi kerak

Murakkab va qimmatli hisob-kitoblar ko'pincha xavf-xatarni ta'minlayotganligini ta'kidlash muhim, uning aniqligi juda past. Murakkab texnik tizimlar uchun, agar zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar mavjud bo'lsa ham, alohida xavf hisob-kitoblarining aniqligi bir martalik buyurtmaga ega emas. Bunday holatda, to'liq miqdoriy xavfni baholash ob'ektini xavfsizlik darajasini belgilashdan ko'ra turli xil variantlarni (masalan, jihozzlarni joylashtirish) taqqoslash uchun ko'proq foydalidir.

Chet tajriba shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik bo'yicha tavsiyalarning eng katta miqdori kam ma'lumot va mehnat sarf-xarajatlaridan foydalangan holda risklarni tahlil qilishning asosiy maqsadlariga erishish imkonini beradigan sifatli (bir qator muhandislik) risklarni tahlil qilish usullaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, riskni baholashning miqdoriy usullari har doim juda foydalidir va ayrim hollarda ular, xususan, turli xil xatarlarni solishtirish yoki xavfli, murakkab va qimmat bo'lgan texnik tizimlarni o'rganish uchun yagona maqbul hisoblanadi.

### **Kalit so'zlar va iboralar**

Risklarni boshqarish, risklarni tahlil qilish, mavhumlik, texnologik tavakkalchilik, xavflarni identifikasiyalash, noaniqlik, xavflarni ahamiyatsizligi, xatarni baholash.

### **Topshiriqlar**

#### **1-masala**

Korxonangizning faoliyatida foydalanish uchun quyida sanab o'tilgan shart-sharoitlar qay darajada yetarli ekanligini tahlil qiling:

- a) bozor, ya'ni taklifning talabdan o'sishi;
- b) bozorda raqobat, xaridor uchun kurash; oligopoliya (bir nechta raqobatchi, ko'p sonli ta'minotchilar);
- v) ma'muriy-buyruqbozlik sarqitlaridan xoli bo'lgan erkin bozor munosabatlari;
- g) korxona ma'muriyatining to'liq mustaqilligi (oylik maosh miqdorini belgilash);
- d) ishchi kuchining erkin ko'chib yurishi (migratsiyasi);
- ye) bir korxonadan boshqa korxonaga, bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa kapitalni o'tkazishda cheklavlarning yo'qligi. Foyda dividend keltiradigan holda joylashtiriladi.

#### **2-masala**

1. Bitta gapda berilgan savollarga javobni shakllantiring.  
Ehtiyoj, did-istik, talab, xohish bozor va ishlab chiqarish tushunchalarini bog'liqligini tushuntirib bering.

### **3-masala**

Mebel ishlab chiqaruvchi firma nufuzli, biroq ayni paytda moliyaviy qiyinchiliklar sezayotgan, maishiy texnika (sovutgich, kir yuvish mashinasi va hokazo) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonani sotib olishga qaror qildi.

#### **Savollar:**

- a) Sizningcha, bunday qarorning sababi nimada?
- b) Maishiy texnika ishlab chiqaruvchi asosiy yirik firmalar bilan raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishi uchun firma talabni rag'batlantirishning qaysi shakl va usullaridan foydalanishi lozim?
- c) Firma taqdim etishi mumkin bo'lgan xizmat turlarini sanab bering va ularning iste'molchi uchun ahamiyatini baholang.

## **XIII BOB. KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY MATEMATIK MODELLARNI QO'LLASH USULLARI**

- 13.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik usullar va ularga qo'yiladigan talablar
- 13.2. Matematik modellashtirish va hisoblash tajribalari
- 13.3. Matematik modellashtirishning raqobatbardoshlikni baholashda ahamiyati

### **13.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik usullar va ularga qo'yiladigan talablar**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari, firmalar va ularning bo'linmalarini faoliyatini chuqur iqtisodiy tahlil qilishda qo'llaniladigan eng takomillashgan yo'naliш bo'lib, matematik usullardan keng foydalanish hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda matematik usullardan foydalanish tahlil qilish muddatini qisqartirish, tijorat faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni to'la qamrab olish, taxminiy va sodda hisob-kitoblarni aniq hisoblashlar bilan almashtirish, tahlilning yangi, ko'p o'lchamli masalalarini qo'yish va echishda qo'l mehnati va an'anaviy usullar bilan amaliyotda bajarib bo'lmaydigan masalalarni echish imkonini beradi. Shuning bilan menejerda o'z g'oyalari va istaklarini matematik modellar yordamida tekshirib ko'rish va ishlab

chiqilayotgan biznes-rejaning bir necha variantlarini ishlab chiqib tekshirib ko'rish, ularning orasidan eng yaxshisini tanlash imkoniyatini yaratadi.

Korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda matematik usullarni qo'llash quyidagierni talab qiladi:

- korxona iqtisodiyotini o'rganishga tizimli yondashish, uning turli faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'zaro aloqalarini barchasini hisobga olish. Bunday sharoitlarda tahlilning o'zi kibernetik ma'noda tizimli xususiyatlarni o'zida jamlaydi, namoyon etadi;

- iqtisodiy tahlil yordamida echiladigan iqtisodiy jarayon va masalalarni miqdoriy xarakteristikalarini ifodalovchi iqtisodiy-matematik modeldar kompleksini tuzish;

- korxona faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy axborotlar tizimini takomillashtirish;

- iqtisodiy tahlil qilish maqsadida iqtisodiy axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi hisoblash texnikasi vositalarining mavjud bo'lishi;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodchi, matematik modellasshtirish, matematik hisobchilar, dasturchi-operatorlardan tashkil topgan maxsus analitiklar jamoasini tashkil etish.

Turmushimizda uchraydigan ko'pgina iqtisodiy masalalarni hal qilishda belgilangan maqsadga erishish uchun eng yaxshi variantni topishga harakat qilamiz. Bunday masalalar optimizatsiya masalalari hisoblanadi va ularni hal qilishda matematik usullardan foydalanamiz.

Ko'pgina optimizatsiya masalalari maqsad funksiyasi yoki sifat kriteriysi (mezoni) deb ataluvchi qandaydir funksianing eng katta yoki eng kichik qiymatini topish masalasiga keltiriladi. Masalani qo'yilishi va uni yechish usullari maqsad funksiyasi va u haqidagi oldindan berilgan ma'lumotlarga bog'liq. Matematik nuqtai nazardan, agar maqsad funksiyasi aniq formula ko'rinishida berilgan differentsiallanuvchi funksiya bo'lsa, masalaning yechilishi juda soddalanadi. Bunday funksianing eng katta yoki eng kichik qiymatlarini hosila yordamida topish mumkin. Hozirgi vaqtida, fan-texnikaning jadal o'sishi bilan optimizatsiya masalalari doirasi kengayib ketdi. Bunday masalalarning ko'pidi maqsad funksiyasining ko'rinishi murakkab yoki tajriba natijalariga ko'ra olingan bo'ladi. Bunday masalalarni yechish kompyuterlar yordamida murakkab murakkab matematik usullarni qo'llab bajariladi. Masalalarning murakkabligi funksiya argumentlarining

soniga ham bog'liq. Shunga ko'ra bir o'lchovli optimizatsiya masalalari yechiladi.

Shunday masalalardan biri eng yaxshi konserva bankasi haqidagi masaladir.

Masalaning 'oyilishi quyidagicha:

Silindr shakldagi, V hajmga ega bo'lgan konserva bankasining eng yaxshi varianti ko'rsatilsin. Bunda o'z-o'zidan savol tug'iladi: "qanday banka eng yaxshi hisoblanadi, bankalarning qaysi alomatiga ko'ra solishtirish kerak?" boshqacha qilib aytganda, optimizatsiya maqsadini ko'rsatish kerak.

Masalaning ikki hil variantini ko'raylik:

Eng yaxshi bankaning sirti S minimal bo'lsin. Uni yasash uchun eng kam tunika sarflanadi.

Eng yaxshi bankaning choklari uzunligi l minimal bo'lsin. Choklarni kavsharlash uchun kam ish bajarilsin.

Masalani yechish uchun bankaning hajmi, to'la sirti va choklarining uzunligini hisoblash uchun formulalarini yozib olamiz:

$$V = \pi r^2 h, \quad S = 2\pi r^2 + 2\pi r h, \quad l = 4\pi r + h \quad (1.2.1)$$

Bankaning hajmi ma'lumligidan uning radiusi va balandligi orasidagi munosabatni yozib olamiz

$$h = \frac{V}{\pi r^2} \quad (1.2.2)$$

Endi hosil qilingan ifodani S va l ni topish formulalariga olib borib qo'yamiz. Natihada quyidagilar hosil bo'ladi

$$S(r) = 2\pi r^2 + 2\frac{V}{r}, \quad 0 < r < \infty \quad (1.2.3)$$

$$l(r) = 4\pi r + \frac{V}{\pi r}, \quad 0 < r < \infty \quad (1.2.4)$$

Shunday qilib, masala S(r) va l(r) funksiyalar minimumga erishuvchi r ning qiymatini topishga keltirildi.

Endi S(r) funksiyaning birinchi tartibli hosilasini hisoblab, uning ishorasini tekshiramiz:

$$S'(r) = 4\pi - \frac{2V}{r^2} = \frac{4\pi r^2 - V}{r^2} \quad (1.2.5)$$

$$0 < L < L' = \sqrt{\frac{V}{2\pi}}$$

oraliqda hosila manfiy va  $S(r)$  funksiya kamyadi, oraliqda hosila musbat va  $S(r)$  funksiya o'sadi. Demak,  $S(r)$  funksiya o'zining eng kichik qiymatiga  $r=r_1$  nuqtada erishadi, bu nuqtada uning hosilasi 0ga aylanadi.

To'la sirti minimal bo'lgan bankanening radiusi va balandligi quyidagi munosabatlarda aniqlanadi:

$$r_1 = \sqrt{\frac{V}{2\pi}}, \quad h_1 = 2r_1$$

(1.2.6)

$$\text{bunda } S(r_1) = 3\sqrt{2\pi V} \leq S(r). \quad (1.2.7)$$

Endi masalani ikkinchi tomondan, ya'ni choklar uzunligi minimal bo'ladigan holini ko'raylik.

$l(r)$  funksiyasining hosilasini olamiz:

$$l(r) = 4\pi - \frac{2V}{\pi r} = \frac{2}{\pi r} (2\pi r^2 - V) \quad (1.2.8)$$

bu holda ham  $r=r_1 = \sqrt{\frac{V}{2\pi}}$  oraliqda  $l(r)$  funksiyasining hosilasi manfiy va funksiya kamayadi, oraliqda hosilasi musbat va funksiya o'sadi. Demak, o'zining eng kichik qiymatiga  $l(r)$  funksiya  $r=r_2$  nuqtada erishadi va bu nuqtada funksiya hosilasi 0ga aylanadi. Shunday qilib, choklar uzunligini minimal qiladigan bankanening radiusi va balandligi quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$r_2 = \sqrt{\frac{V}{2\pi}}, \quad h_2 = 2\pi r_2$$

(1.2.9)

$$\text{bunda } l(r_2) = 3\sqrt{4\pi V} \leq l(r). \quad (1.2.10)$$

Ko'rinib turibdiki, optimizatsiyaning turli kriteriyalari uchun turlicha javoblar olindi. Birinchi holda (1.2.6) "eng yaxshi" bankanening balandligi diametriga teng bo'lsa, ikkinchi holda (1.2.10) balandlik diametr dan marta ko'p.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy tahlilning masalalarini ishlab chiqilgan turli matematik usullar bilan echish mumkin.

Iqtisodiy-matematik modellarning tasnifiy belgilari bir munkha shartlidir. Masalan, zaxiralarni boshqarish masalalari matematik dasturlash usullari yordamida va ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasini qo'llash orqali ham echilishi mumkin. To'rli modellar yordamida echiladigan rejalashtirish va boshqarish masalalari boshqa matematik usullar bilan ham echilishi mumkin. Operastiyalarni tadqiq qilish usullari ba'zida shunchalik keng talqin qilinadi, natijada ular barcha iqtisodiy-matematik usullarni qamrab oladi.

Elementar matematika usullari odatdagi an'anaviy iqtisodiy hisob-kitoblar bo'lib, ishlab chiqarish ehtiyojlariga asoslangan holda turli resurslarga bo'lgan talablarni asoslash, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar va daromadlarni hisoblash, turli maqsadlarga erishish rejalarini tuzishda, balans hisob-kitoblarini qiyoslashda va boshqa ko'p hollarda foydalaniladi. Bunday usullar yordamida iqtisodiy tahlillar har bir korxonada, uning har bir bo'limlarida, doimiy hisob-kitoblarda o'z ifodasini topadi.

Oliy matematikaning klassik usullarini ajratib ko'rsatish shuni bildiradiki, ular faqat boshqa usullar doirasidagina qo'llanibgina qolmay, baiki o'zлari alohida ham qo'llaniladi. Ko'pgina iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini omilli tahlili differenstiallash va integrallash yordamida ham amalga oshirilishi mumkin.

Matematik statistika usullaridan iqtisodiy tahlilda foydalanish keng tarqagan. Bu usullar tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarning o'zgarishi tasodifiy jarayon sifatida deb tasavvur qilinadigan holatlarda qo'llaniladi.

Statistik usullar ommaviy, takrorlanadigan hodisalarni o'rganishda asosiy vosita bo'lib, natijada aniqlangan tendenstiyalarga tayanib, iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishini bashoratlashda muhim o'rн egallaydi. Agar tahlil qilinayotgan xarakteristikalar o'rtasidagi bog'lanish determinallashmagan, balki stoxastik bo'lsa, bunda statistika va ehtimollar modellari amalda yagona tahlil vositasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda eng ko'p qo'llaniladigan matematik statistika usullaridan juft korrelyastiya tahlili va ko'p omilli korrelyastiya tahlilidir. Bu usullar ham nazariy, ham amaliy jihatdan to'liq o'rganilib chiqilgan va iqtisodiy adabiyotlarda har tomonlama to'liq yoritilgan.

Bir o'lchamli statistik to'plamlarni o'rganish uchun variastion qatorlar, taqsimot qonunlari, tanlash usullaridan foydalaniladi. Ko'p o'lchamli statistik to'plamlarni o'rganish uchun nazariy statistika kursida o'rganiladigan korrelyastiya, regressiya, dispersiya, kovariastiya, spektral, komponent, omilli tahlillar turlari qo'llaniladi.

Ekonometrika usullari uchta bilim sohalari: iqtisodiyot, matematika va statistika fanlarining sintezi asosida quriladi. Ekonometrikaning asosi bo'lib iqtisodiy-matematik modellar hisoblanadi va bu ma'noda iqtisodiy hodisa yoki jarayonning ilmiy abstrakstiya yordamida ifodalangan sxematik ko'rinishi tushuniladi. Modelda iqtisodiy hodisa yoki jarayonning xarakterli tomonlari o'z ifodasini topadi. Zamonaviy iqtisodiyotda eng keng tarqalgan usul – «xarajat-ishlab chiqarish» usulidir. Bu matristali model (balans) bo'lib, shaxmat sxemasi kabi tuziladi va ishlab chiqarish xarajatlari hamda natijalarini bir muncha qulay ko'rinishda ifodalash imkonini beradi. Hisob-kitoblarning qulayligi va iqtisodiy talqinlarning aniqligi – matristali modellarning asosiy xususiyatlaridir.

Iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish uchun ifodalashning eng qulay ko'rinishi – ularni jadval shaklida ifodalashdir. Matristali modellarni afzallik tomonlari shundan iboratki, ular yordamida tahlil qilinayotgan iqtisodiy jarayon yoki ob'ekt haqidagi to'liq ma'lumotlar tadqiqotchining ko'z oldida to'la ifodasini topadi. Bu esa murakkab bozor iqtisodiyoti sharoitida aniq, samarali qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Matematik dasturlash usuli zamonaviy amaliy matematikani iqtisodiyotning talablariga mos ravishda tezda rivojlanib borayotgan bo'limi hisoblanadi. Matematik dasturlash usullari ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatlarini optimallash masalalarini echishda asosiy vositadir. O'z mazmuniga ko'ra, bu usullar optimal rejalshtirishni hisoblash qurolidir. Ularni korxona biznes-rejasini tuzishda va bajarilishini iqtisodiy tahlil qilishda qimmatligi shundan iboratki, rejalshtirilgan vazifalarning jiddiyligini asoslash va baholash imkoniyatini beradi, ishlab chiqarishni chegaralab turuvchi – limitlashtiruvchi uskunalar guruhi, xomashyo, materiallar turlari, ishlab chiqarish omillarining tanqisligini baholab beradi. Shu bilan birga tuzilgan barcha variantlar ichidan maqsadga mos keluvchi – eng optimalini tanlash imkoniyatini beradi.

Operastiyalarni tadqiq qilish usullari deganda, tanlangan maqsadga yo'naltirilgan harakatlar (jarayonlar) ketma-ketligini ishlab chiqish, olingan natijalarни miqdoriy baholash va ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish tushuniladi. Operastiyalarni tadqiq qilishning predmeti bo'lib iqtisodiy tizimlar, shuningdek, korxonalarning biznes-rejalaridagi ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyati hisoblanadi. Maqsad etib, iqtisodiy tizim tarkibidagi o'zaro bog'langan elementlarning shunday nisbatini tashkil etish hisoblanadiki, bunda u. iqtisodiy ko'rsatkichni imkonli borlari

orasidan eng yaxshisini tanlash masalasiga yuqori darajada mos kelishini ta'minlaydi.

O'yinlar nazariyasi – operastiyalarni tadqiq qilish usulining bir bo'limi sifatida turli manfaatlarga ega bo'lgan bir necha tomonlarning noaniqlik yoki ziddiyati sharoitlarda optimal qaror qabul qilishning matematik modellari nazariyasidir. Bozor ishtirokchilarining xattiharakatlari ko'p jihatdan o'yinlar nazariyasi jarayonlariga mos keladi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi ehtimollar nazariyasi asosida ommaviy xizmat ko'rsatish jarayonlarini miqdoriy baholashning matematik usullarini o'rghanadi. Masalan, sanoat korxonasining har qanday tarkibiy bo'limini xizmat ko'rsatish tizimi ob'ekti sifatida tasavvur qilish mumkin.

Ommaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning umumiy xususiyatlari bo'lib, o'rghanilayotgan hodisaning tasodifiy xarakterga ega ekanligi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatishga bo'lgan talab miqdori va ularning kelib tushishi o'rtasidagi intervallari vaqtin tasodifiy xarakterga ega, ularni tushishini bir xil aniqlikda oldindan aytib bo'lmaydi. Ammo o'zining to'plamida bunday talablarning ko'plari aniq bir statistik qonuniyatlarga bo'ysunadi, ularni miqdoriy o'rghanish va amalda qo'llash ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasinining predmeti hisoblanadi.

Iqtisodiy kibernetika usullari iqtisodiy hodisa va jarayonlarni boshqarish qonunlari va mexanizmlarini ularda axborotlarni harakati nuqtai-nazaridan juda murakkab tizim sifatida tahlil qiladi va o'rghanadi. Iqtisodiy tahlilda kibernetik modellashtirish usullari va tizimli tahlilning eng ko'p qo'llanilishi kengayib bormoqda. Bunga asosiy sabab, boshqa usullar yordamida murakkablashib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni uyg'unlashtirish yo'llarini chuqur iqtisodiy tahlil o'tkazish imkoniyatlarining mavjud emasligidadir.

So'nggi yillarda iqtisodiy bilimlarda inson tafakkuri, tajribasi – intuiстиyadan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarda optimal sharoitni borishini empirik izlash usullarini ifodalashga qiziqish ortib bormoqda. Evristik usullar (echimlar) – iqtisodiy masalalarni echishni noformallahgan usullari bo'lib, shakllangan xo'jalik vaziyatlaridan kelib chiqqan holda intuiстиya, avvalgi tajriba, mutaxassislarning ekspert baholashlari va boshqalar bilan bog'liqidir.

Ishlab chiqarish, tijorat va biznes faoliyatini tahlil qilish uchun yuqoridaq taxminiy sxemada keltirilgan ko'pgina usullarning amaliyotda qo'llanish sohalari topilmadi va faqat iqtisodiy tahlil nazariyasida

foydalanish ishlab chiqildi. Shu bilan birga ko'pgina iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy tahlil amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda.

Yuqorida keltirilgan u yoki bu iqtisodiy-matematik usulning iqtisodiy tahlilda qo'llanilishi xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellashtirish uslubiyati va tahlil usullari hamda masalalarining ilmiy asoslangan tavsiflanishiga tayanadi.

Optimallikni tavsiflash belgisi bo'yicha barcha iqtisodiy-matematik modeldar (masalalar) ikki guruhga bo'linadi: optimallashtiriluvchi va optimallashtirilmaydigan. Agar usul yoki masala berilgan optimallik mezoni bo'yicha echimni izlash imkonini bersa, unda bu usulni optimallashtiruvchi usullar guruhiga kiritiladi. Agar echimni izlash usuli optimallik mezonisiz olib borilsa, bunday holatlarda foydalaniladigan usul optimallashtirilmaydigan usullar guruhiga kiritiladi.

Aniq echimni olish belgisi bo'yicha barcha iqtisodiy-matematik usullar aniq va taqribiylarga bo'linadi. Agar usul algoritmi berilgan optimallik mezoni bo'yicha yoki u usulsiz faqat yagona echimni topish imkonini bersa, bu usul aniq usullar guruhiga kiritiladi. Agar echimni topishda stoxastik ma'lumotlardan foydalanilsa va masalaning echimini har qanday anqlik darajasi bilan topish mumkin bo'lsa, foydalanayotgan usul taqribiylarga guruhiga kiritiladi. Taqribiylarga guruhiga belgilangan optimallik mezoni bo'yicha yagona echim olish kafolatlanmagan sharoitdagi usullar ham kiritiladi.

Shunday qilib, tavsiflashning faqat ikkita belgisidan foydalanib, barcha iqtisodiy-matematik usullarni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- optimallashtiruvchi aniq usullar;
- optimallashtiruvchi taxminiy usullar;
- optimallashtirilmaydigan aniq usullar;
- optimallashtirilmaydigan taxminiy usullar.

Optimallashtiruvchi aniq usullarga optimal jarayonlar nazariyasini usullari, matematik dasturlashning ba'zi bir usullarini va operastiyalarini tadqiq qilish usullarini kiritish mumkin.

Optimallashtiruvchi taxminiy usullarga matematik dasturlashning alohida usullarini, operastiyalarini tadqiq qilish usullari, iqtisodiy kibernetika usullari, ekstremal eksperimentlarni rejalashtirish nazariyasining matematik usullarini, evristik usullarni kiritish mumkin.

Optimallashtirilmaydigan aniq usullarga elementar matematika usullari va matematik tahlilning klassik usullari, ekonometrika usullari kiritiladi.

Optimallashtirilmaydigan taxminiy usullarga statistik sinovlar usuli va matematik statistikaning boshqa usullari kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan sxemada iqtisodiy-matematik usullarning umumlashtirilgan guruhlari ifodalangan bo'lib, bu guruhlardagi ba'zi bir usullardan turli iqtisodiy masalalarni echishda foydalilanadi.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullarni balansli va omilli guruhlarga ajratish katta ahamiyatga ega. Balans usullari – bu tarkib, proporstiya, nisbatlarni tahlil qilish usulidir.

Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan hodisalar asosan matematika va boshqa matematik vositalar yordamidagi modellardan foydalilanadi.

### **13.2. Matematik modellashtirish va hisoblash tajribalari**

Hozirgi paytda ilmiy – tadqiqotlarning yangi uslubiyati – matematik modellashtirish va hisoblash tajribasiga asos solinmoqda. Bu uslubiyatning mazmuni shundan iboratki, unda joriy ob'ekt o'zining matematik modeliga almashtiriladi, hamda matematik modellar zamonaviy hisoblash vositalari yordamida o'rganiladi. Matematik modellashtirish uslubiyati tez sur'atlar bilan rivojlanib, katta texnik tizimlarni ishlab chiqish va ularni boshqarishdan boshlab, murakkab iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiluvchi sohalarni ham qamrab olmoqda.

Matematik usullardan keng foydalanish nazariy tadqiqotlarning umumiyy darajasini oshirishga va ularni tajribaviy tadqiqotlar bilan chambarchas aloqada olib borishga imkon beradi. Matematik modellashtirishga nazariya hamda tajribaning ko'plab yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan anglash, qurish, loyihalashtirishning yangi usuli sifatida qarash mumkin. Ob'ektning o'zi bilan emas, uning modeli bilan ishslash uning mavjud holatlardagi hatti-xarakatini tez va sarf - harajatlarsiz o'rganishga imkon beradi. Ayni paytda ob'ektlarning modellari ustida o'tkazilgan hisoblash (kompyuter, imitasiyaviy) tajribalari zamonaviy hisoblash usullarining quvvati va informatikaning texnik vositalariga tayanib, ob'ektlarni nazariy yondashuvga qaraganda to'laroq va chuquroq o'rganiladi.

Texnik, ekologik, iqtisodiy jihatdan hamda zamonaviy fan tomonidan o'rganiladigan boshqa tizimlar oddiy nazariy usullar orqali (zaruriy to'liqlik hamda aniqqlikda) o'rganila olmaydi. Ular ustida olib boriladigan to'g'ridan-to'g'ri tadqiqot uzoq muddatli, qimmat, ko'pincha xavfli bo'ladi. Hisoblash tajribasi tadqiqotni tezroq va arzonroq o'tkazishga imkon beradi. Matematik modellashtirish ilmiy-texnik

taraqqiyotning muhim asoslaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda bu uslubiyatdan foydalanmasdan birorta yirik mashtabli texnologik, ekologik yoki iqtisodiy loyihani ishlab chiqib bo’lmaydi.

Matematik modellashtirish uslubiyatining paydo bo’lishi va takomillashuvi XX asrning 40-yillari oxiri hamda 50-yillarning boshiga to’g’ri kelib, bunga ikkita omil sabab bo’lgan. Kompyuterlarning paydo bo’lishi birinchi, lekin asosiy bo’lмаган omil bo’lib hizmat qildi. Chunki ularning paydo bo’lishi tadqiqotchilarini hajman katta bo’lgan hisoblash ishidan ozod etdi. Ikkinchi, muhimroq omil Sobiq Ittifoq va AQSh ning raketa-yadroviy qobiqni yaratish bo’yicha milliy dasturlarni bajarish bo’yicha ijtimoiy buyurtmasi bo’ldi. Bunday murakkab ilmiy-texnik muammolarni hisoblash vositalardan foydalanmasdan turib, an’anaviy usullarda hal etib bo’lmasdi. Yadroviy portlashlar, raketa va sun’iy yo’ldoshlarning uchirilishi, avvalo, kompyuterlarda loyihalashtirildi, so’ngra esa amaliyotga tadbiq etildi.

Matematik modellashtirishning asosini «*model-algoritmdastur*» uchligi tashkil etadi. O’rganiladigan jarayonlarning matematik modellari murakkab bo’lib o’z ichiga chiziqli bo’lмаган funkstional-diferenstial tenglamalar tizimini qamrab oladi. Matematik model yadosini xususiy hosilali tenglamalar tashkil etadi.

Hisoblash tajribasining birinchi bosqichida ob’ektning muhim xususiyatlari – uning tarkibiy xususiyatlariiga hos bo’lgan qonunlar matematik ko’rinishda aks etadi. Matematik model (uning asosiy qismlari) ob’ekt to’g’risida joriy ma’lumotlarni bilish uchun amaliy matematikaning an’anaviy analitik vositalari yordamida o’rganiladi.

Ikkinchi bosqich modelni kompyuterda ishlab chiqish uchun hisoblash algoritmini tanlash (yoki ishlab chiqish) bilan bog’liq. Qidirilayotgan kattaliklarni mavjud hisoblash texnikasida berilgan aniqlikda olish lozim. Hisoblash algoritmlari modelning, bevosita ob’ektning asosiy xususiyatlarini cheklamasligi, echilayotgan masalalarning va hisoblash vositalarining xususiyatlari moslashishi kerak. Matematik modellar asosi matematik fizikaning xususiy hosilali tenglamalarining chegaraviy masalalarini echishning sonli usullaridan tashkil topgan hisoblash matematikasi yordamida o’rganiladi.

Uchinchi bosqichda model va algoritmi kompyuterda ishlatalish uchun dasturiy vosita yaratiladi. Dasturiy mahsulot matematik modellashtirishning matematik modellar qatoridan foydalanish, hisoblashning ko’p variantliligi bilan bog’liq muhim xususiyatini nazarda tutishi kerak. Buning natijasida ob’ektga mo’ljallangan dasturlash asosida

ishlab chiqariladigan amaliy dasturlarning majmui va paketlaridan keng foydalaniladi.

Matematik modellashtirishning omilini hisoblash tajribasining hamma asosiy qatlamlarini chuqur tahlil etishni ta'minlab beradi. «Model-algoritm-dastur» uchligiga tayanib, tadqiqotchi qo'liga mukammal moslashuvchan va arzon vositani oladi va u avvaliga nazoratdan o'tkaziladi. Bundan keyin o'rganilayotgan ob'ektning zaruriy sifatli hamda sonli xususiyatlari, tavsiflarini olish uchun matematik modellar keng qamrovda tahlil etiladi.

Hisoblash tajribasi o'z tabiatiga ko'ra sohalararo xarakterga ega. Zamonaviy ilmiy-texnik ishlab chiqarishda matematik modellashtirishning sintez ahamiyatini haddan tashqari ortiqcha baholab bo'lmaydi. Umumiy tadqiqotlarda amaliy sohada, amaliy va hisoblash matematikasi, amaliy va tizimli dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassislar ishtirok etadi. Hisoblash tajribasi - chiziqli bo'limgan matematik modellarni sifatli tahlil etishdan boshlab, to zamonaviy dasturlash tillarigacha bo'lgan turli hil usul va yondashuvlarga tayanib o'tkaziladi. Modellasshtirish u yoki bu ko'rinishda ijodiy faoliyatlarining deyarli barchasida ishtirok etadi. Matematik modellashtirish aniq bilimlar doirasini hamda rastional usullarning ilovalar maydonini kengaytiradi. U asosiy tushunchalar va farazlarni aniq shakllantirish, qo'llanilayotgan modellarning adekvatligini aposterial tahlil etishga, hisoblash algoritmlarining aniqligini nazorat qilishga, hisob ma'lumotlarini sifatli qayta ishslash va tahlil qilishga asoslanadi.

Zamonaviy bosqichda hayotiy ta'minganlik muammosini hal etish matematik modellashtirish va hisoblash tajribasidan keng foydalanishga asoslanadi. Hisoblash vositalari (kompyuterlar va sonli usullar) odatda tabiiy fandagi tadqiqotlarda, avvalo fizika hamda mexanikada yaxshi tasvirlangan. Kimyo va biologiyani, tuproq haqidagi fanlarni, ijtimoiy fanlarni faol matematiklashtirish jarayoni olib boriladi. Muhandislik va texnologiyada matematik modellashtirishni qo'llashning sezilarli yutuqlariga erishildi. Matematik modellarning kompyuter vositasida o'rganilishi uchiriladigan apparatlarning aerodinamik trubalardagi sinovini, poligonlardagi yadroviy hamda termoyadroviy qurilmalarni portlatish o'rnnini sezilarli darajada bosdi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tibbiyotda ham qo'llaniladi. Analiz ma'lumotlarini yig'ish va tahlil etish kasalliklarga o'z vaktida tashhis qo'yish imkonyatini beradi. Masalan, kompyuterli tomograf katta

massivdagi ma'lumotlarni qayta ishslashning matematik usullaridan foydalanish bo'yicha sifatli tibbiyot vositasini olishga asos bo'ladi.

Bu yerda aniq bir xususiyatga bog'liq bo'lмаган, turli xil fan sohalari uchun umumiyligi bo'lgan matematik modellarni qurish va tahlil qilishga qaratilgan asosiy yondashuvlar bayon etilgan. Insonlarni o'rabi turgan olam yagona. Xususan, bu matematik modellarning mukammalligida, turli xil hodisa va ob'ektlarni ta'riflash uchun qo'llaniladigan matematik qurilmalarning bir xilligida namoyon bo'ladi. Ilmiy-tadqiqotlardagi nazariy va amaliy usulli hisoblash tajribasining umumiyligi hususiyatlar ko'rsatib o'tilgan. Quyida hisoblash tajribasining har xil turlariga qisqacha ta'rif keltirilgan. Hisoblash tajribasi matematik modellarni o'rganish uchun kompyuterlar va sonli usullardan foydalanish natijasida paydo bo'lgan. Unga matematik modellashtirishning eng yuqori pog'onasi sifatida qaraladi.

Fan rivojlanishining empirik bosqichida kuzatilayotgan hodisalar ta'riflanadi, tajribalar o'tkaziladi, tajriba ma'lumotlari yig'iladi va guruholashtiriladi. Nazariy bosqich uchun uning yadrosini tashkil etuvchi asosiy qonunlarni, yangi abstrakstiyalar va ideallashtirish tushunchalarni kiritish xos xususiyat. Bunda o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida umumiyligi tasavvur hosil qilinadi, tajriba ma'lumotlarining umumiyligi majmuiga ta'rif beriladi.

Nazariyaning evristik ahamiyati ob'ekt, hodisa yoki jarayon to'g'risidagi yangi, oldin ma'lum bo'lмаган tavsiflarni aytib bera olishida namoyon bo'ladi. Fanning rivojlanish tarixi neptun, pozitronning kashf etilishiga doir yorqin misollarga ega. Matematik g'oyalari va usullar nafaqat matematik bezaklar vazifasini, balki sonli hamda sifatli tahlilning muhim vositalari bo'lib xizmat qiladi.

Turli fanlar har xil matematiklashtirish darajasiga ega. Sifatli matematik modellar ustivor ahamiyatga ega bo'lgan fanlar uchun yuqori bo'lмаган matematiklashtirish darajasi xarakterli. Qanday matematik modellar ishlatalishiga ko'ra matematiklashtirish darajasini tavsiflash mumkin. Masalan, mexanikada matematikani qo'llash xususiy xosilali differential tenglamalar tizimidan foydalanishga asoslanadi. Jumladan, bunday matematik modellar alohida bitta holatda emas, mexanikaning qayishqoqlik nazariyasi, gidroaerodinamika kabi hamma bo'limlarda qo'llaniladi. Matematiklashtirish darajasi fizikada ham yuqori, lekin uning turli xil bo'limlarida hozircha har xil darajada ishlataladi.

### **13.3. Matematik modellashtirishning raqobatbardoshlikni baholashda ahamiyati**

Hozirgi paytda kimyoda ham matematikalaştirish darajasi ortib bormoqda. Masalan, kimyoviy kinetika sodda differenstial tenglamalarga, kimyoviy gidrodinamika xususiy xosilali tenglamalarga asoslanadi. Biologiyada ham matematikalaştirish darajasi ortmokda Buning isboti tariqasida XX asr boshlarida bajarilgan «*yirtqich-o'lja*» tizimini matematik modellashtirish bo'yicha Volterrning klassik ishiga e'tiborni qaratish etarli.

Biz iqtisod, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarga ham matematik g'oyalarning tez suratlari bilan kirib kelishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Mexanika va fizikani matematikalaştirishda to'plangan tajriba hamda matematikaning rivojlanish darajasi tufayli qolgan fanlarni matematikalaştirish jarayoni juda tez sodir bo'lmoqda. Kimyo va biologiyada matematikani qo'llash ko'proq ilgari ishlab chiqilgan matematik apparatga asoslanadi. Shuning uchun ushu fanlarning matematikalaştirish jadalligi kimyo, biologiya fanlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Tajribaviy va nazariy tadqiqotlarni rivojlantirmasdan turib matematik usullarning o'zigagina tayanib bo'lmaydi. Matematik usullarni samarali qo'llash uchun, avvalo, o'r ganilayotgan jarayon yoki hodisani chuqur anglash, amaliy sohadagi mutaxassis va matematik bo'lish talab etiladi.

Tabiatning umumiyligi turli xil fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni ta'riflash uchun bir xil matematik modellarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Matematik modellar sonining cheklilik hususiyati ularning abstraktligini ko'rsatadi. Bitta matematik ifoda (tushuncha) har xil jarayon, tavsiqlarni ta'riflashi mumkin. Masalan Laplas tenglamasi gidrodinamikadagi siqilmaydigan suyuqlik harakatini, zaryadlanmagan jismlar tashqarisidagi elektrostatik maydonni, stasionar issiqlik maydonini, qayishqoklik nazariyasida membrananing egilishini ta'riflaydi. A.Puankrening qayd etishicha, «Matematika – har xil narsalarga bir xil nom qo'yish sa'natidir». Xususan, bu aniq bir hodisa yoki jarayonni o'r ganishda boshqa bir hodisa yoki jarayonni o'r ganish paytida olingan natijalarini qo'llashga imkon beradi. Matematik modellarning bunday umumiyligida matematika usullarining birlashgan ahamiyati namoyon bo'ladi.

Ilmiy bilimlarni matematikalaştirishda hodisaning aniq tabiatidan chetlashish, ideallashtirish va uning matematik shaklini ajratib ko'rsatish

bosqichi mavjud, (matematik model quriladi). Aynan matematik modelning abstraktligi uning aniq hodisa yoki jarayonga nisbatan qo'llanilishida ma'lum bir qiyinchiliklar tug'diradi. Hozirda, to'plangan tajriba tufayli turli fanlardagi ideallashtirish, chetlashish jarayoni nisbatan tinchroq va tezroq o'tadi.

Matematikalahtirishning ikkinchi bosqichi matematik modellarni abstrakt ob'ektlar sifatida o'rganishdir. Ushbu maqsadda matematikaning yaratilgan va maxsus qurilgan vositalari qo'llniladi. Hozirgi paytda matematik modellarni o'rganish uchun hisoblash vositalari – kompyuterlar va sonli usullar katta imkon yaratib beradi.

Matematikani amaliy tadqiqotlarda qo'llashda uchinchi bosqich interpretastiya-matematik chetlashishlarga aniq bir amaliy mazmun kiritish bilan tavsiflanadi. Amaliy matematik modellashtirish bo'yicha mutaxassis amaliy sohadagi mutaxassislar bilan yuzma-yuz ishslash paytida matematik chetlashishlar ortida har doim aniq bir amaliy mazmuni ko'radi.

Matematik modellar sof matematik an'analari buyicha o'rganilishi mumkin. Bunday holatda matematik modeller amaliy mazmun bilan hech qanday aloqasiz, matematikada qabul qilingan qat'iylik darajasi buyicha o'rganiladi. Bu esa ularga mukammallik va zaruriy umumiylilikni ta'minlaydi. Bu yerda yirik matematiklar D.Gilbert, A.M.Lyapunov va boshqalarning fikriga yondoshish o'rini. Mazkur nuqtai nazar quyidagiga olib keladi.

Amaliy muammoni matematik jihatdan sharhlab bo'lgach sof matematika darajasida ko'rib chiqish kerak. Matematik modellarni bevosita o'rganish matematikaning rivojlanishiga eng katta turtki hisoblanadi.

Matematik modellashtirishning evristik ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, unda naturali tajriba o'rniga matematik tajriba o'tkaziladi. O'rganilayotgan ob'ektga u yoki bu ta'sirni o'rganish o'rniga matematik model parametrik jihatdan o'rganiladi. Echimning u yoki bu parametrga bog'liqligi aniqlanadi. Bunday tajriba naturaviylikni to'ldirib, hodisa yoki jarayonni chuqurrok o'rganishga imkoniyat beradi.

Elektron hisoblash mashinalarining paydo bo'lishi, hisoblash matematikasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, hisoblash texnikasining turmushimizda keng qo'llanilishi matematik modellashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Kompyuterlar va hisoblash vositalari ilgarilari o'rganish imkoniyati bo'lmanan masalalarni ma'lum bir aniqlikda va deyarli kam vaqt ichida echishga, yirik ilmiy-texnik loyihalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Kosmik kemalarni uchirishda va boshqarishda, foydali qazilmalarni seysmik tekshirish natijasida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlashda kompyuterlardan foydalanish, samolyotning haqiqiy konfigurasiyasi aerodinamikasini sonli modellashtirishni bunga misol bo'la oladi. Sof matematikada isbotlovchi hisoblashlarni kompyuterda bajarish, to'rtta bo'yoqqa doir mashhur muammoda ham kompyuterlar o'zining o'rnni topdi.

Amaliy muammolarni nazariy o'rgangan holda hisoblash vositalaridan keng foydalanishga asoslangan yangi ilmiy sohalar, yo'nalishlar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu borada, avvalo, hisoblash fizikasini, hisoblash gidrodinamikasini, hisoblash geometriyasini, hisoblash algebrasini, hisoblash issiqlik fizikasini qayd etib o'tamiz.

Matematik modellarni o'rganish deganda, avvalo, matematik modellarni sifatlari o'rganish hamda aniq yoki taqrifiy echimni olish nazarda tutiladi. Kompyuter nafaqat taqrifiy echimlarni sonli usullarda olishga, balki matematik modellarni sifatlari o'rganishga imkon beradi.

Sifatlari tadqiqot masalani o'lchamli tahlil etishdan boshlanadi. Masalani o'lchovsiz ko'rinishga keltirish uning aniqlovchi o'zgaruvchilari sonini qisqartirishga imkon beradi. Kichik yoki katta o'lchovsiz parametrlarni ajratish bir qator holatlarda joriy matematik modellarni sezilarli darajada soddalashtirishga, uni echishning sonli usullarini ishlab chikarishda masalaning xususiyatlarini hisobga olishga imkonini yaratadi.

Matematik modelning o'zi ancha murakkab, chiziqli bo'lmasligi mumkin. Buning natijasida uni amaliy matematikaning an'anaviy usullari yordamida sifatlari o'rganib bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ko'p hollarda anchagina sodda, lekin joriy matematik modelga nisbatan mazmunliroq masalada sifatlari tadqiqot o'tkaziladi. Bunday hollarda asosiy modelning soddalashtirilgan masalalari (model uchun model) to'g'risida so'z yuritish lozim.

Matematik modellarni sifatlari o'rganishda korrektlik muammolariga katta e'tibor qaratiladi. Avvalo, echimning mavjudlilik masalasi ko'riliadi. Unga mos bo'lgan qat'iy natijalar (mavjudlilik teoremasi) matematik modelning korrektligiga kafolat beradi. Bundan tashqari mavjudlilik

teoremalarining konstruktivlik isbotlari qo'yilgan masalani taqribiy echish usullariga asos qilib olinishi mumkin.

Amaliy matematik modelllashtirishda kiruvchi ma'lumotlarning nisbatan kichik chetlanishlarida echimning turg'unlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tug'unmaslik (kichik chetlanishlarda echimning cheksiz ortib ketishi) teskari masalalar uchun xarakterli bo'lib, taqribiy echimni olishda hisobga olinishi kerak.

Echimning ko'pligi, yagona emasligi chiziqli bo'lмаган математик моделлар учун xos bo'lishi mumkin. Matematik modellarni sifatli o'rganishda tarmoqlanish nuqtalari, echimlarning bifurkastiyasi, zaruriy echimning ajratib ko'rsatilish masalalari o'rganiladi.

Matematik modellarning har xil turlari uchun sifatli o'rganish usullari bir xil to'liqlikda ishlab chiqilmagan. Sifatli usullar eng katta natijalarni keltirgan modellar ichida sodda differenstial tenglamalarni qayd etib o'tamiz Xususiy hosilali tenglamalar nazariyasida sifatli usullar qo'llaniladi, lekin unchalik katta darajada emas. Misol sifatida xususiy hosilali tenglamalarga asoslangan matematik modellarni sifatli o'rganishga imkon beruvchi ikkinchi tartibli parabolik hamda elleptik tenglamalarning maksimum tamoyilini qayd etib o'tish mumkin.

Aniq yoki taqribiy echim analitik hamda sonli usullar bilan topiladi. Bunga aloqador ravishda analitik usullarning klassik misollari orasida o'zgaruvchilarni bo'lish, matematik fizikaning chiziqli masalalarini integral almashtirish usullarini ajratib ko'rsatamiz.

Chiziqli bo'lмаган математик моделлар учун chiziqlashtirish usullari, chetlanish usullarining har xil variantlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chetlashishlar nazariyasi ajratilgan kichik parametr bo'yicha asimptotik yoyishlarga asoslanadi. Bu usullarga, ularning cheklanganligiga qaramay, singulyar chetlashish masalalarini ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Chiziqli bo'lмаган echimning sifatli hatti - harakati ma'lum bir hususiy echimlar bilan almashtirilishi mumkin. Chiziqli bo'lмаган masalalarning xususiy echimlarini qidirish avtomodelli o'zgaruvchilardan foydalanishga, matematik model zamirida yotgan tenglamalarni guruqli tahsil etish natijalariga asoslanadi.

Murakkab, ko'p parametrli modellar kompyuterda sonli usullar bilan o'rganilishi mumkin. Analitik echimdan farqli o'laroq (u echimning masalaning u yoki bu shartiga parametrli bog'liqligini ko'rsatadi), sonli usulda u yoki bu parametr o'zgargan paytda masalani ko'p marta echishga

to'g'ri keladi. Lekin sonli echim analitik echimi bo'limgan masalalar uchun ham olinishi mumkin.

Endilikda matematik modellash-tirishda kompyuterlarni qo'llashning asosiy tafsilotiga o'tamiz. Biz masalaning taqribili echimini olishda hisoblash vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratamiz. Matematik modellarni sifatli o'rganish bosqichida, modelli masalalarning analitik echimini topishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyatlarini ham qayd etib o'tish mumkin. Avtomodelli o'zgaruvchini ajratishda hususiy xosilali tenglamalarga oid joriy masala, misol uchun sodda differenstial tenglamaga keltiriladi, o'lcham pasaytiriladi. Tenglamaning umumiyligi echimi zamonaliviy matematik paketlarda tasvirlangan kompyuterdag'i analitik hisoblash tizimlaridan foydalanish asosida topiladi.

Matematik modellashtirishda kompyuterlarni qo'llash bo'yicha kamida ikkita bosqich, ikkita darajani ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, nisbatan sodda matematik modellarni o'rganish bilan tavsiflanadi. Kompyuterlarni qo'llashning ushbu bosqichida hisoblash vositalari amaliy matematikaning boshqa usulari bilan bir qatorda ishlataladi.

Matematik modellashtirishda kompyuterlarni qo'llashning ajratib ko'rsatilgan bosqichi «*buyurtmachi (nazariyotchi) - bajaruvchi(amaliy matematika)*» shartli zanjiri bilan izohlanadi. Buyurtmachi masalani qo'yadi, natijalarni tahlil qiladi, bajaruvchi esa kompyuterlarni qo'llagan holda masalaning echimini ta'minlaydi. Bu holatda ma'lum bir sondagi kiruvchi ma'lumotli aniq bir masalani anchagina tor) echish to'g'risida so'z yuritiladi.

Amaliy matematik modellashtirishda kompyuterlarni qo'llashning ushbu bosqichi uchun R.Xemmingning «Hisoblash maqsadi son emas, anglashdir» shiori xarakterlidir. U ko'proq sifatli tahlilni qadrlaydigan buyurtmachi-nazariyotchingan ishslash an'analarini aks ettiradi. Ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarishning zamonaliviy bosqichi uchun anglashning o'zi kamlik qiladi. Tajriba haqiqiy tarkibga chiqishi uchun aniq sonli bog'liqliklar va tavsiflar talab etiladi.

Kompyuterlarni qo'llashning ikkinchi bosqichi murakkab chiziqli bo'limgan modellarni o'rganish bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda hisoblash vositalari assosiy, mutloq ustivor bo'lib qoladi. Amaliy matematik modellashtirishning an'anaviy usullari yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi rolni bajaradi (juda ham soddalashgan ko'rinishdagi

model masalalar, hisoblash algoritmlarini sinovdan o'tkazish kabi masalani sifatli o'rganish).

Murakkab matematik masalalarni sonli usullar hamda kompyuter yordamida o'rganish imkoniyati ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini yangi nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi. Tezkor kompyuterlar yuqori samarali hisoblash algoritmlari, zamonaviy dasturiy ta'minot hozirgi vaqtida nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan hisoblash tajribasining umumiy texnologiyasi doirasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish imkonini beradi.

Amaliyotchi o'zining tadqiqoti bo'yicha umumiy sxemasida o'rganilayotgan ob'ektga ta'sir o'tkazadi, ushbu ta'sir natijalari to'g'risida ma'lumot oladi va uni qayta ishlaydi. Bu ma'lumotlar o'lchovning tasodify xatoliklari bilan cheklangan. Shu bois tajribaviy ma'lumotlarni birinchi marta qayta ishlashda asosiy matematik apparat ehtimollar nazariyasi hamda matematik statistikaga asoslanadi. Tajribaviy tadqiqotlar tajriba paytida olingen ma'lumotlarni saqlashga va qayta ishlashga imkon beruvchi o'lchov-hisoblash komplekslari yordamida o'tkaziladi.

Har bir amaliy tadqiqotda sinov ma'lumotlari statistik jihatdan qayta ishlanadi. Alovida omillarning ta'sirini sonli baholash tajribaviy ma'lumotlarni u yoki bu aniqlikda interpolyastiyalaydigan emperik bog'liliklarni qurishda bilinadi. Bunday holda mazmunli matematik modellar umuman bo'lмаган approksimasiyalı matematik modellardan foydalanish to'g'risida gapirish mumkin. U yoki bu masalani echish uchun o'tkaziladigan tajribalar soni va sharti tajribani rejalashtirish bosqichida tanlanadi. Bu yerda muqobil tajriba matematik nazariyasi, tajribani rejalashtirish nazariyasining natijalari jalb qilinadi

Tajribaviy tadqiqotlarning zamonaviy rivojlanish bosqichi mukammal uskunalarning keng qamrovda qo'llanilishi bilan izohlanadi. Uskunalarning o'zi o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonga chetlanishlar kiritadi. Bunday xatoliklardan qutilish uchun uskunaning matematik modeli quriladi.

Tajribalarni o'tkazish paytida ikkita mutlaqo turli holatni nazarda tutish kerak. Ulardan birinchisi o'rganilayotgan hodisa yoki ob'ekt uchun nazariy ta'rif, matematik model yo'q bo'lib, keyinchalik matematik ta'rif berish maqsadida tajribaviy materialni to'plash masalasining qo'yilishi bilan bog'liq. Bu holda matematik usullar ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, xususan emperik bog'liliklarni o'rnatish uchun qo'llaniladi.

Approksimastiyali matematik modellarni qurishda emperik formulalarning parametrlarini aniqlash, formulaning o'zini moslashtirish holati tabiiydir. Tajribaviy ma'lumotlar to'plamidan approksimastiyali modellarning parametrlarini shunday tanlash kerakki, natijada tajribaviy ma'lumotlar katta aniqlikda ta'riflanishi mumkin bo'lsin. Bunda biz minimallashtirish masalalarini taqribi echish zaruriyatiga duch kelamiz.

Tajribalarning ikkinchi sinfi o'rganilayotgan ob'ektning nazariy ta'rifi berilgan sharoitda o'tkaziladi. Matematik model tarkibining aniq va modelning parametrlarini aniqlash masalasi qo'yiladi. Naturali tajribaning o'zi ob'ektning u yoki bu hususiyatini aniqlashga, ob'ektning matematik modeliga aniqlik kiritishga qaratilgan.

Bunday tadqiqotlarning tajribaviy ma'lumotlarini qayta ishlashda ko'pincha teskari masalalar bilan ish tutishga to'g'ri keladi. Bunday masalalar klassik nuqtai nazardan to'liq bo'lmasligi, shuning uchun sonli tadqiqotni o'tkazish uchun qiyin bo'lishi mumkin. Tajribaviy tadqiqotlarning ma'lumotlarini qayta ishlash va interpostiyalash bosqichida matematik modellarning turli xil sinflarini o'zida mujassamlashtirgan hisoblash vositalari keng qamrovda qo'llanilmoqda.

Hisoblash tajribasida nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning avtonomik darajasi yuqori. Fundamental modellar aniq, tekshirilgan sharoitda nazariy hamda tajribaviy tadqiqotlarning mustahkam koordinastiyalashuvi va aloqasiga oid masalasi qo'yilishi mumkin

### **Kalitli so'zlar va iboralar**

Matematik modellashtirish texnologiyasi, ekonometrika usullari, o'yinlar nazariysi, optimallikni, aniq usullar, taxminiy usullar, model-algoritm-dastur, matematikallashtirish, evristik ahamiyati

### **Topshiriqlar Masala**

Firma yangi mahsulot ustida ish olib borayotgan bo'lib, uni kelasi yildan boshlab ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Bozorni, firmaning ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, mahsulot birligining tannarxi 78 dollardan yuqori bo'ladigan bo'lsa, bu holda mahsulotni ishlab chiqarish uchun firmaning o'z ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas; mahsulot tannarzi 72-78 dollar atrofida bo'lsa, mahsulotni tajriba sifatida ishlab chiqarish muljallangan; mahsulot tannarxi 68 dollardan past bo'ladigan bo'lsa, uni to'liq ishlab chiqarishga kiritish mumkin. Kelgisidagi ishlab

chiqarish xarajatlarini eng to'liq aniqlash maqsadida 6ta mustaqil ekspert tadqiqot o'tkazdi hamda ishlab chiqarish rejalarshirilayotgan mahsulot birligi tannarxini quyidagicha baholadi: 74, 72, 89, 66, 71, 78 doll. Topshiriq:

- a) bashorat qilinayotgan ekspert baholar ketma-ketligini ko'rib chiqishnining taqsimot qonuniyatlariga bo'y sunishini asoslab bering;
- b) qabul qilinishi mumkin bo'lган qarorlarning har bir variantida erishish mumkin bo'lган muvaffaqiyatni hisoblab chiqing;

**Savollar:**

1. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun aynan «Dzintrans» marketing salohiyatidan kompleksli va jiddiy foydalanishda birinchi qadamlar qo'ya boshladi?
2. «Dzintrans» tajribasida zamnoaviy korxonalar uchun nima dolzarb bo'lib qolmoqda?
3. Siz korxona va firmalarda marketing shakllanishi qanday tajribalari bilan tanishsiz, ular «Dzintrans» birlashmasi tajribasiga nimasi bilan o'xshaydi va farq qiladi?

## GLOSSARIY

<b>Atamalarning o'zbek tilida nomlanishi</b>	<b>Atama-larning ingliz tilida nomlanishi</b>	<b>Atamalar-ning rus tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning ma'nosi</b>
Avans	Prepaid expense	Аванс	Biror ish evaziga keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, mahsulot, ozik-ovqat va h.k.
Agentlik operatsiyalari	agency operations	Агентские операции	Bir tomonning topshirig'i bilan kelishilgan hududda ikkinchi (agent) tomon amalgaoshiradigan oldi-sotdi bilan bog'liq bo'lgan amaliy va huquqiy harakatlar.
Antimonopol qonunchilik	Antitrust	Антимонопольные законы	Iqtisodiyotda yakka hukmronlik mavqeiga ega bo'lgan biror bir faoliyat turiga qarshi davlatning kurash siyosatidan iborat.
Asosiy kapital	Main capital	Основной капитал	Ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil davomida ishtirok etuvchi va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga qisman o'tkazib boruvchi mehnat vositalaridir
Aylanma kapital	Working capital	Оборотный капитал	Xom-ashyo materiallar, energetika resurslarida moddiylashgan va bir ishlab chiqarish sikkida sarflanuvchi, o'z qiymatini tayyorlangan mahsulotga to'liq ko'chiruvchi kapital.

Auksion	Аисйоп	Аукцион	«Kim oshdi» savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo davomida mahsulotni eng yuqori narx bo'yicha ko'targan xaridor sotib oladi.
Birja kotirovkasi	Stock quote	Биржевые котировки	Birjalar orqali sotiladigan mahsulotlar bahosi. Har bir birja ularni ma'lum tizimga soladi va chop etadi. odatda, bk ertalabki va kechki savdo (birja sessiyasi) boshlanishiga va tugashiga mo'ljallab chop etiladi.
Bozor segmenti	Market segmentation	Сегментация рынка	Bozorda savdo-sotiqlarning shart-sharoitiga qarab ko'pgina bo'g'inlarga ajratishidir
Bozor konyukturasi	market conditions	Конъюнктура рынка	Ayrim bozorlarda muayyan holatlarning mavjudligi. Bozor kon'yukturasi muayyan davrdagi bozor holati.
Devalvatsiya	Devaluation	Девальвация	Mamlakat savdo to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valyuta bozorida milliy valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy ravishda pasaytirilishi.
Dividend	Dividend	Дивиденд	Aksioner aksiya egasining daromadi: aksionerlik jamiyatni foydasining bir qismi.

Dotatsiya	subsidy	Дотация	Tashkilot, korxonalarga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo'shimcha to'lov. asosan zararni qoplash va boshqa maqsadlar uchun ishlataladi.
Integratsiya	Integration	Интеграция	Mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqा va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shib yaxlit xujalik tizimini tashkil etishi.
Innovatsiya	Innovation	Инновация	Yangilikni joriy qilish, fan- texnika yutuqlarini boshqarish va tashkil qilish sohasidagi yangiliklar majmui.
Iste'mol savati	Consumer basket	Потребительская корзина	Muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan miqdori.
Ish kuchuning xalqaro migratsiyasi	International labor migration	Международная миграция рабочий силы	Mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanishi maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib utishini bildiradi.
Ipoteka	Mortgage	Ипотека	Qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulknii (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish.
Iqtisodiy resurslar	economic resources	Экономические ресурсы	Tabiiy, insoniy, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan iborat.
Kalkulyatsiya	Calculation	Калькуляция	Mahsulotning o'lchov birligini yoki bajarilgan ishning tannarxini hisoblash.

Kliring	Clearing.	Клиринг	tozalash, ravshanlashtirish)-o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olib, amalgatoshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi. Mamlakat ichidagi k. banklar o'rtaсидаги то'ловларни, naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi.
Konsorsium	Consor-tium	Консорциум	Korxonalarining vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari, ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etiladi. Unda davlat, banklar, moliyaviy muassasalar, yirik firmalar ishtirok etadi.
Konsern	Concern	Концерн	Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya. Ular asta-sekin sanoat monopoliyasining yetakchi shakliga aylanadi.
Monopoliya	Monopoly	Монополия	Yakkahokimlik; 2) ishlab chiqarishni markazlashtirish oqibatida yuzaga keladigan katta birlashma (kartel, sindikat, trest, konsern, konsorsium konglometrat va shu kabilar). ushbu birlashma o'z ichiga ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatishni, mahsulot sofitning ko'p qismini mujassamlashtiradi, shu sohada o'zini hukmron mavqeini o'rnatadi.

Monopoliya-dan chiqarish	marketing Management	Управление маркетингом	Davlat tomonidan tarmoq bozorida munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi tartib-qoidalalarini joriy etilishi.
Baho	cost of	Стоимость	Baho – tovar qiyamatining pulda aks etishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy dastak- dir faqat tannarxga emas, balki talab va taklif asosida shakllanadi.
Pul tizimi	Structure of money	Структура денег	Tovar muomilasining rivojlanishining natijasi bo'lib, davlatlar tomonidan konunchilik asosida mamlakatda pul muomalasini tashkil etish.
Proteksionizm	Protectionism	Протекционизм	Milliy iqtisodiyotni boshqa davlatlar bilan bo'ladigan raqobatdan bojxona to'siqlarini joriy kilish, mamlakatga chet el tovarlari, xizmat turlari va kapitallarini kirib kelishini cheklash yo'li bilan himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan.
Raqobat	Competition	Конкуренция	Yuqori foyda olish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash.

Reklama	Adverti-sing	Реклама	Tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, ularni ko'proq sotish maqsadida xaridolarga ularning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish. r. maxsus firmalar orqali amalga oshiriladi va yuqori daromad manbai hisoblanadi.
Savdo agenti	Trading agent	Торговый агент	Bir yoki bir kancha korxonalar tovarlarini shartnoma asosida sotadigan vakil.
Tarif stavkasi	Tariff rate	Тарифная ставка	Tegishli ish toifasiga ega bulgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.
Tovar belgisi	Trade-mark	Товарный знак	Muayyan firma tovarlariga qo'yiladigan belgi. tb (savdo markasi) faqat ma'lum firmaga tegishli bo'ladi va uni boshqa firmalar o'z tovarlariga qo'yolmaydilar.
Francheyzing	franchisee	Франчайза	foydanish uchun tayyor korxona, firma yoki mashhur firma mahsulotining savdo markasidan foydalanilgan holda amalga oshiriluvchi biznes yuritish usuli.
Fyuchers operatsiyalari	Futures Transactions	Фьючерсные операции	Birjalarda amalga oshiriladigan savdo-sotiq operatsiyalari. Bu operatsiyalar shartnoma tuzilganidan so'ng ishlab chiqariladigan yoki yetishtirib beriladigan mahsulotlar bo'yicha amalga oshiriladigan kelishuvlar

Embargo	Embargo	Эмбарго	Chet el tovarlarini kiritish yoki chiqarish, olib chiqib ketishni davlat tomonidan ta'qilash yoki chet davlatga qarashli mulkni vaqtincha to'xtatish, ta'qilash.
Emissiya	Emission	Эмиссия	Muomalaga bank biletlari, pul va qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish, davlatning emissiya banklari tomonidan amalga oshiriladi. Asosan davlat budjetidagi kamomadni to'ldirish, izdan chiqqan pul muomalasini tiklash maqsadida o'tkaziladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 1.09.2017 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 23 dekabr, 2017 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi buyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
6. Sh.M. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
7. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. -104 b.
8. Sh.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. -48 b.
9. Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. -488 b.
10. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. - T.: Fan va texnologiya, 2014. - 476 s.
11. Микроэкономика: учеб. / Под.ред. Грязновой А.Г. и Юданова А.Ю. М.: КНОРУС, 2010. - 704 с.
12. Алимов Р.О., Расулов А.Ф., Қодиров А.М. "Ўзбекистон иқтисодиётининг ракобатбардошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт". Монография. Т.:Consauditinform - Nashr. 2006. - 438 б.

13. Горбунов А. Национальная конкурентоспособность. – М.: «Анкил», 2010. - 256с.
14. Мазилкина Е.И, Паничкина Т.Г. Управление конкурентоспособностью. Учеб. пособ. - «Омега-Л», 2009. - 325 с.
15. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore.2005
16. Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслік. 2-нашр. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. – 588 бет
17. Пардаев М.Қ., Холиқулов А.Н., Жумаева Г.Ж. Инвестицион лойиҳалар таҳлили. Ўқув кўлланма. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. – 252 бет. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. – 252 бет.
18. Пардаев М.Қ., Калонов М.Б., Шадиева Г.М., Ибодов К.М. Соҳа маркетинги. Ўқув кўлланма. Т: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 380 бет.
19. Пардаев М.Қ., Аминов З.Ю. Хизмат кўрсатиш корхоналар иқтисодий хавфсизлиги: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 2020. – 220 бет.
20. Пардаев М.Қ., Бабаназарова С.А., Кузиев З.Б., Очилова Ҳ.Н. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи” нашриёти, 2020. – 260 бет.
21. Пардаев М.Қ., Абдурахманов Ҳ.Ҳ., М.А.Махкамова, О.М.Пардаев, С.А.Бабаназарова. Рақамли иқтисодиётнинг назарий ва амалий масалалари. Рақамли иқтисодиётнинг назарий ва амалий масалалари. Монография. Т: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 172 бет.
22. Пардаев М.Қ., Пулатов М.Э., Пардаев О.М., Бердикулова И.Р. Маркетинг тадқикотларида статистик таҳлили. Ўқув кўлланма. Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2018. – 448 бет.

23. Пардаев М., Хасанов Б., Исройлов Ж., Пулатов М., Эшбоев Ў, Холиқулов А.Н. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Ўқув-қўлланма, Т.: Чўлпон, 2012, 400 бет
24. Пардаев М.Қ., Холиқулов А.Н., Раҳимов Ҳ.А. Меҳмонхона хўжаликларида самарадорликни ошириш муаммолари. Монография. Иқтисодиёт. – Тошкент. 2013, 210-бет
25. Пардаев М.Қ., Холиқулов А.Н. Иқтисодиёт субъектларида омилли таҳлилни такомиллаштириш. Монография. Наврӯз. – Тошкент. 2014, 236-бет
26. Porter, M. E. The Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. NY: Free Press, 2010.
27. Портер М. «Конкурентное преимущество» 2-е издание. Москва - 2006. -1200 с.
28. Портер М. «Конкурентная стратегия» 2-е издание. Москва - 2012.- 936с.
29. Рубин Ю.Б. Конкуренция: Упорядоченное взаимодействие в профессиональном бизнесе. - М.: Маркет DC, 2010. - 464 с.
30. Тарануха Ю.В. «Конкуренция и конкурентная стратегия». Учебное пособие. М6 2008. - 270 с.
31. Философова Т.Г., Быков В.А. Конкуренция инновации. Учеб. пособ. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 295 с.
32. Чепурин М.Н., Киселева Е.А. «Курс экономической теории». Учебник. -М: «ACA», 2009. - 758 с.
33. Xodiyev B.Y., Shodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Т.: «Barkamol Fayz media», 2017, 159-b.
34. Холиқулов А.Н., Бердикулов В., Ибодов К.М. Таққослама менежмент. Ўқув-қўлланма, Т.: Иқтисод-мolia нашриёти, 2021 йил – 162 бет
35. Холиқулов А.Н., Махмудова Д.Р. Иқтисодиётни стратегик ривожлантириш шароитида кичик бизнесни бошқаришни такомиллаштириш. Монография. Самарқанд. СамДЧТИ нашрматбаа маркази, 2020 йил – 126 бет
36. Худайбердиев У.Х. Статистика. Ўқув қўлланма Самарқанд. СамДЧТИ нашриёти, 2019 й. – 262 бет.

37. Худайбердиев У.Х., Холиқулов А.Н. Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланиши ва муаммолари. Монография. Самарқанд, САИСИ, 2020 124 бет.
38. Shodmonov Sh.Sh., Gofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Т.: Iqtisod-Moliya, 2010. - 728 b.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. "KORXONALARНИ RAQOBATBARDOSHЛИGINI BAHOLASH" FANINING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari.....	5
1.2. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va shakllanishining asosiy tamoyillari .....	7
1.3. Raqobat nazariyaları .....	9
1.4. Raqobatning asosiy vazifalari, turlari va usullari .....	10
1.5. Raqobat strategiyasi va raqobat bosqichlari .....	12
<b>II BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHЛИGINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARI</b>	
2.1. Korxona ochiq ishlab chiqarish tizimi sifatida va raqobatning sababları.....	16
2.2. Korxonalarning raqobatdoshligini talqin qilishning mavjud yondashuvlar tahlili .....	20
2.3. Korxona raqobatdoshligining iqtisodiy mohiyati .....	25
<b>III BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHЛИGI MODELLARI</b>	
3.1. M.Porterning raqobatning besh kuchi nazariyasi .....	37
3.2. Raqobat 5 kuchi nazariyاسining oltin qoidası.....	38
3.3. Korxona (firmada)SWOT analizini qo'llash sxemasi .....	39
3.4. SWOT analizi bosqichlari .....	39
3.5. "McKinsey 7S" tahlil modeli .....	41
3.6. Firmaning strategik holatini baxolash ko'rsatkichlari .....	43
<b>IV BOB. RAQOBATBARDOSHЛИKИ BAHOLASHNING NISBIY YONDASHUVLAR</b>	
4.1. Raqobatbardoshlik darajalari.....	46
4.2. Tovar raqobatbardoshligini baholash bosqichlari .....	48
4.3. Raqobatbardoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning M Porter modeli (milliy romb).....	48
4.4. Makroiqtisodiy, mezoijtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi raqobatbardoshlikni baholash.....	50
<b>V BOB. MOLIYAVIY TAHLIL VA KORXONANI BOSHQARISHDA UNING USULLARI</b>	
5.1. Moliyaviy holatini tahlil mohiyati va boshqaruvdagি ahamiyati.....	54
5.2. Moliyaviy tahlil xususiyatlari.....	58
5.3. Moliyaviy ahvol maqsad va vazifalari .....	60
<b>VI BOB. KORXONALARНИ RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISH</b>	
6.1. Korxonalarни raqobatbardoshligini oshirishda aktivlarning ahamiyati.....	65
6.2. Aktivlar tahlilining maqsad va vazifalari.....	71
6.3. Mulkijy holat tahlili.....	72
<b>VII BOB. KORXONA KAPITALINI BOSHQARISH</b>	
7.1. Korxona kapitalning mohiyati .....	77
7.2. Xususiy kapital tahlilining vazifalari .....	81
7.3. Korxona kapitalini boshqarish .....	86
<b>VIII BOB. KORXONA INVESTITSIYALARINI BOSHQARISH</b>	
8.1. Iqtisodiyoti modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo'nalishlari .....	93
8.2. Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish.....	101
8.3. Investitsiyani baholash usullari .....	103
8.4. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili.....	107

8.5. Moliyaviy investitsiyalar tahlili.	108
<b>IX BOB. KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH</b>	
9.1. Pul oqimlar mohiyati va boshqarishdagi o'rni.....	115
9.2. Umumiy pul oqimlari tahlili.....	123
9.3. Xo'jalik subyektlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlari tahlili .....	124
9.4. Investitsiya, moliyaviy va soliq to'lashlardagi pul oqimlari tahlili.....	127
9.5. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati tahlili.....	127
<b>X BOB. KORXONA XARAJATLARI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BOSHQARISH</b>	
10.1. Korxonalarni rivojlantirish tizimida xarajatlarni boshqarishning roli va o'rni.....	130
10.2. Xarajatlarni boshqarish tizimining xarakterli funksiyasi. Umumiy xarajatlarni boshqarish tizimi.....	137
10.3. Mahsulot sotishdan olingan moliyaviy natijalar tahlili.....	143
10.4. Korxona moliyaviy faoliyatidan olingan natijalar tahlili.....	145
10.5. Korxona soliq to'langunga qadargi soyda ko'rsatkichlarini tahlil qilish.....	148
10.6. Korxona rentabilitligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili.....	152
<b>XI BOB. BIZNES-REJANING ISHLAB CHIQISH VA REAL INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH</b>	
11.1. Biznes-rejalahtirishning mohiyati va vazifaları.....	160
11.2. Biznes-rejaning umumiy ma'lumotlari va rezyumesi.....	164
<b>XII BOB. KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI ANIQLASHDA RISKLARNI BOSHQARISH</b>	
12.1. Risk tushunchasi mohiyati va uni tahlil qilish .....	169
12.2. Korxonada xatarni tahlil qilish.....	171
12.3. Korxonaning risklarni baholash.....	174
<b>XIII BOB. KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY MATEMATIK MODELLARNI QO'LLASH USULLARI</b>	
13.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik usullar va ularga qo'yiladigan talablar....	177
13.2. Matematik modellashtirish va hisoblash tajribalari.....	185
13.3. Matematik modellashtirishning raqobatbardoshlikni baholashda ahamiyati.....	189
<b>GLOSSARIY</b> .....	197
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI</b> .....	204

*O'quv qo'llanma*

**A.N.XOLIQULOV, D.Q.USMANOVA, X.A.RAXIMOV  
KORXONALARНИ RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH**

**Muharrir:**

Asadullo SHUKUROV

**Musahhih:**

Alisher SABRIY

**Texnik muharrir:**

Mehriniso ROZIQOVA

“TURON NASHR” nashriyoti.

100129. Samarqand shahri,

Xo'ja Ahrori Valiy ko'chasi 37, uy.

Tasdiqnoma (22.09.2020) №4174:

Terishga 2021 yil 05 sentyabrda berildi.

Bosishga 2021 yil 12 oktyabrdan ruxsat etildi.

Bichimi 84x1081/16 “Times New Roman”

garniturasida offset bosma usulida

offset qog'ozida bosildi.

13 shart b.t. 12,5 hisob tobog'i

Adadi 50 nusxa 19/10-son byurtma.

“TURON TA'LIM MARKAZI”

bosmaxonasida chop etildi.



Xoliqulov Anvar Nematovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiy tahlil va statistika kafedrasi mudiri. 1981 yilda Jizzax viloyati Baxmal tumanida tug'ilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 250 ga yaqin ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari chop etilgan. Shu jumladan, 4 ta o'quv-qo'llanma, 4 ta monografiya, 12 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va nufuzli xalqaro va respublika jurnallarida 40 ga yaqin ilmiy maqolalari nashr qilingan. Bevosita ilmiy rahbarligida uch nafar mustaqil izlanuvchilar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.



Usmanova Dilafro'z Qarshievna – iqtisodiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti. 1976 yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 150 ga yaqin ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari chop etilgan. Shu jumladan, 8 ta o'quv-qo'llanma va darslik, 6 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va nufuzli xalqaro va respublika jurnallarida 80 ga yaqin ilmiy maqolalari nashr qilingan. Bevosita ilmiy rahbarligida ikki nafar mustaqil izlanuvchilar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda



Raximov Hasan Abdusaitovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiy tahlil va statistika kafedrasi dotsenti v.b. 1984 yilda Jizzax viloyati Gallaorol tumanida tug'ilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 70 ga yaqin ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari chop etilgan. Shu jumladan, 3 ta monografiya, 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va nufuzli xalqaro va respublika jurnallarida 30 ga yaqin ilmiy maqolalari nashr qilingan. Bevosita ilmiy rahbarligida uch nafar magistrantlarlar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

ISBN: 978-9943-7610-1-8

9 789943 761018

